

B.E. RADJABOV

# SOLIQ HUQUQI



DARSLIK



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**B.E.RADJABOV**

# **SOLIQ HUQUQI**

*Bakalavriatning 5230200- Menejment(kimyo va oziq –ovqat sanoati)  
yo`nalishi talabalari uchun darslik*

*Xalq davlat idoralariiga emas,  
davlat idoralari xalqa xizmat qilish kerak*

*Sh.M.Mirziyoyev.*

**Toshkent-2021**

**УДК: 73898**

B.E. Radjabov. Soliq huquqi : o'quv qo'llanma.

Toshkent-“LESSON PRESS”, 2023.-236 b.

**ISBN 978-9943-7989-1-5**

Ushbu darslikda O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi, soliqlarning huquqiy mohiyati, soliqlarning turlari, ularni ob'ekti va sub'ekti, hisoblash va budjetga o'tkazish tartibi, soliq turlari bo'yicha belgilangan imtiyozlar, soliqlarni to'lash muddatlari, shuningdek soliq tizimining makroiqtisodiy barqorolikka ta'siri va boshqa masalalar o'z aksini topgan.

Mazkur “Soliq huquqi” darslik oliv o'quv yurtlarining talabalari aspirantlari va izlanuvchilariga mo'ljallangan. Darslik “Sanoat iqtisodiyoti menejmenti” kafedrasi tomonidan 2019/20 yilda ishlab chiqilgan namunaviy o'quv dasturlari asosida tayyorlandi.

**Taqribchilar:** X.L. Pulatov. texnika fanlari (PgD) f.f.doktori,  
Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Ekologiya kafedra”si professori.

J.H.Razzaqov iqtisod (PgD) f.f.doktori  
O'zbekiston Respublikasi Toshkent Moliya instituti  
“Moliya-kredit” kafedrasi v.b. dotsent.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti O'quv-uslubiy Kengashi tomonidan 2021 yil 30 - avgustdag'i majlisida ( 1- sonli bayonnomasi) muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

© Radjabov B. E.,  
© «Soliq huquqi» darslik - T. TTKI, 2021 yil.

## MUNDARIJA

<b>I. BO`LIM. SOLIQ HUQUQINING UMUMIY TASNIFI</b>	
1. "Soliq" fanining predmeti, maksadi va ahamiyati.....	4
2. Respublikada amalda bo`lgan soliqlar va soliqsiz to`lovlarning umumiy tavsifi.....	8
<b>II. BO`LIM. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQLAR</b>	
3. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimining tamoyillari.....	16
4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig`i.....	22
5. Soddalashtirilgan soliq tizimi (yagona soliq).....	46
6. Savdo va umumiyligi ovqatlanish tizimini soliqqa tortish .....	54
7. Qo`shilgan qiymat solig`i.....	67
8. Aksiz solig`i.....	89
9. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig`i .....	98
10. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig`i.....	112
11. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig`i.....	120
12. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig`i.....	163
13. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq.....	168
14. Obodanlashtirish va ijtimoiy infratuzilmanni rivojlantirish solig`i.....	189
15. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.....	194
16. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va bonuslar.....	201
17. Boshqa soliqlar va soliqsiz to`lovlar.....	207
18. «Soliq huquqi» fani uchun test savollari.....	212
19. Glosariy.....	221
20. Foydalaniylgan adabiyotlar.....	225

## I-BO'LIM. SOLIQ HUQUQINING UMUMIY TASNIFI

### 1-Mavzu: "Soliq huquqi" fanining predmeti, mazmuni va o'rganish usullari

#### Reja.

Soliq huquqi fanini o'qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Soliq huquqi fanining predmeti va funksiyalari.

Soliq huquqi fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli.

#### 1. Soliq huquqi fanini o'qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

Soliq huquqi fanining boshqa fanlar singari o'ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o'qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti muno-sabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o'sib borayotganligidan kelib chiqadi.

*Soliq huquqi fani soliq xarakatlarni chuqur o'rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiq etish yo'llarini o'rgatadi.*

Soliq huquqi fani soliq amaliyotidagi eng to'g'ri, eng mukammal va eng progressiv xarakatlarni o'rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya xarakatlarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to'g'ri, ma'qul va ilg'or tajribalar olinib amaliyotga yo'l ko'rsatish uchun o'rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo'l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo'ldan adashgan yo'lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o'zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo'ldan adashmaydi.

*Soliq huquqi fanini o'qitishning zarurligi amaliyotda yo'ldan adash-maslik, keraksiz soliqlar bo'yicha o'zgartishlarga yo'l qo'ymaslik, ama-liyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir. Soliq huquqi fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liqidir, uning maxsus bo'limi, ya'ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo'limidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlari umumiqli-sodiy nazariya qonuniyat-laridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.*

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo'lgan-ligi bois, soliq huquqi fani ham moliya nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liq. Soliq huquqi fanining o'ziga xos xususiyatlari soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtaсидаги majburiy xarakterga ega bo'lgan pul munosabatlarini o'rgatadi. Soliq soliq huquqi fani davlat budjeti fani bilan ham o'zaro bog'liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatda budjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo'lmasa budjet munosabatlarining o'zi bo'lmaydi. Bu fan chet mamlakatlar soliq tizimi, buxgalteriya hisobi, soliq qonunchiligi asoslari, soliqlarni proqnoz qilish fanlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.

## **2. Soliq huquqi fanining predmeti va funksiyalari**

*Har qanday fan o'zining predmetiga, ya'ni izlanish obyektiga ega bo'ladi. Masalan, texno-logiya fanining predmeti bo'ladi kimyoiy modda-larning tarkibini o'rGANISH hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmini xarakteristikasi bo'ladi, soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti soliq munosabatlarini (harakatini), soliqlar mexanizmini har tomonlama o'rGANISHdan iboratdir.*

Fanning predmeti soliq xarakatlarini pul munosabatlarini o'rGANISHdan iborat bo'ladi. Bu pul munosabatlari soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o'rta Sidney munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o'rta Sidney munosabatni chu-qur o'rGANISH, ularni to'g'ri tashkil qilishni ta'minlashdir. To'g'ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyi-liga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, budjetga soliqlarni olishda soliq to'lovchilar bo'yning ortiqcha og'irlik osmaslik, ularni o'z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so'ndirib qo'ymaslik, ularning dasturlari va rejalarni tez-tez o'zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e'tibor berish ko'z-da tutiladi. Bu yerda tomonlarning do'stona munosabatda bo'lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi. Fanning predmetini chuqur o'rGANISH shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomon-lama zo'ravonlik munosabati bo'luguay bo'ladi, ikkinchi tomon unga javo-ban o'z daromadlari, boshqa soliq obyektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi yetmay qolishi mumkin.

Daromadlarni, soliq obyektlarini yashirish holati ham munosa-batlarni buzadi. Demak, soliq huquqi fanini chuqur o'rganish orqali ama-liyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Fanning funksiyalari soliq mutaxassisini va boshqa soliq idoralari xodim-larini nazariy jihatdan qurollatirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo'l - yo'riqlar ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o'zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tadbiq etishdan iboratdir. Demak, fanning asosiy funksiyasi yuqori malakali soliq mutaxassislari tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlashdir.

### **3. Soliq huquqi fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli**

Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun hamda hozirgi O'zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uni tashkilotchisi ekanligidan soliq huquqi fani davlatning o'ta zarur bo'lgan xilma - xil vazifalari bilan chambarchas bog'liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun-qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsim-lashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshiril-ganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o'rganish - soliqlar va soliqqa tortish fanining diqqat - markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti - erkin iqtisodiyot, zulli muno-sabatlari iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlарини foda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari - soliq huquqi fanining asosini tashkil etadi. U qonun-larni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o'rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o'z zim-masiga oladi. Shunday ekan, davlat to'g'risidagi ta'lilot - davlat iqtisodiyot-ni boshqarishda bosh rol o'yynashi soliqlar va soliqqa tortish fanining asosi bo'ladi xizmat qiladi.

Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda yetakchilik, boshqaruvchilik rolini o`ynaydi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o`rganib chiqib, uni amaliyotga tadbiq qilishni o`z zimmasiga oladi. Soliq huquqi fanining soliq xizmati xodimlarini tayyorlashdagi roli. Soliq xizmati xodimlari o`zlariga qonuniy hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliqlarning mohiyati, belgilari, ularning obyektiv zarurligiga, davlatning soliq siyosati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun esa soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o`rganish kerak. Shuni nazarda tutish zarurki, Leonardo Da Vinchi aytganidek: «Nazariya qo`mon-don, amaliyot askarlardir». Nazariya amaliyotni to`g`ri yo`lga boshlovchi kompasdir, har qanday vazifalarni kadrlar hal qiladi. Shuning uchun, ular chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo`lishlari zarur

Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis soliq huquqi jarayonini o`rganishda va ularni hayotga to`g`ri va to`liq tadbiq etish-da adashmaydi. Shunday ekan bu fan soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, ilmiy xodimlar uchun o`zlarining ilmiy salohiyatlarini oshirishda katta rol o`ynaydi.

### **O`z-o`zini nazorat qilish uchun savollar.**

Soliq huquqi fanini o`qitish nima uchun kerak?

Soliq huquqi fani nimani o`rgatadi uning qanday funksiyalari bor?

Soliq huquqi fanining mazmunida nimalarni o`rgatish maqsadi yotadi?

Fanni mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi roli qanday?

## **2-Mavzu: Respublikada amalda bo`lgan soliqlar va soliqsiz to`lovlariga tavsifnoma**

### **Reja.**

O`zbekiston Respublikasi soliq huquqi tizimida amalda bo`lgan soliqli va soliqsiz to`lovlar hamda ularni amal qilish doirasi.

Jismoniy shaxslarning soliqli va soliqsiz to`lovlariga tavsifi.

Yuridik shaxslarning soliqli va soliqsiz to`lovlarini tavsifi.

### **1. O`zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimida amalda bo`lgan soliqli va soliqsiz to`lovlar hamda ularni amal qilish doirasi**

Soliqlar majburiy to`lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to`lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o`z mulkiga aylantiruvchi davlat o`rtasida bo`ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko`satganida, ishlar bajarganida yoki bozorlarda oldi-sotdi qilganda ham pul to`lovlarini mavjud. Lekin ular soliq bo`la olmaydi. Soliq munosabati bo`lish uchun davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot (to`g`rirog'i, yalpi milliy mahsulot) qiymatini taqsimlash yo`li bilan majburan davlat budgetiga mablag` to`plash jarayonini amalga oshiradi.

Soliqlarning o`ziga xos belgilari mavjud bo`ladi, ularga: majburiylik, xazinaga tushishlik, qat'iylik va doimiylik, aniq soliq to`lovchi uchun ekvivalentlsizlik belgilari mavjuddir.

**Birinchi belgi-majburiylik.** Soliq va yig`imlar majburiy bo`ladi, bunda davlat soliq to`lovchining bir qism daromadlarini majburiy badal sifatida budgetga olib qo'yadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergan Soliq Kodeksiинг tamoyili asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy tomondan davlat uchun kafolatlangan.

**Ikkinci belgi soliqlarning davlat mulkiga aylanishidir.** Soliqlar albatta xazinaga-davlat budgetiga va boshqa davlat pul fondlariga tushadi. Bordi-yu, to`lov boshqa ixtiyoriy fondlar - «Iste'dod», «Ekosan», «Kamolob», «Nuroniy» jamg` armalariga tushsa, unda soliq munosabati bo`lmaydi. Chunki majburiylik tamoyili yo`q, u to`lov davlat mulkiga tushmaydi.

**Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo`ladi.** Tarixda 50 va 100 yillab o`zgarmasdan harakatda bo`lgan soliqlar mavjud. Ilmiy asosi qancha chuqur bo`ladi, soliqlar shuncha qat'iy va uzoq yillar o`zgarmasdan harakat qiladi yoki juda kam o`zgaradi.

*To`langan soliqlar mamlakat miqyosida hammaga bir xil miqdorda qaytib keladi.* Lekin, davlatga to`langan soliq so`mmasi to`lovchining shaxsan o`ziga to`liq qaytib kelmaydi, ya`ni u ekvivalent siz pul to`lovidir. Masalan, soliq to`lovchi bu yili davlatning sog`liqni saqlash va maorif xizmatlaridan hech foydalanmagan bo`lishi mumkin. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma soliq to`lovchilar ning to`lagan soliq va yig`imlari davlat-ning ularga ko`rsatgan xilma-xil xizmatlari (mudofaa, havfsizlikni ta'minlash, tartib-intizomni o`rnatish va boshqa ijtimoiy-zaruriy xizmatlar) orqali o`zlariga qaytib keladi. Demak, soliq to`lovchilar nuqtai nazaridan olganda hamma soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ko`rsatgan ijtimoiy xizmat-lari uchun to`lanadigan (to`lov) haqidir. *Soliqlar budgetga va davlat pul fond-lariga kelib tushadigan, majburiy xarakterga ega bo`lgan pul to`lovi munosabatlari*dir. Shuningdek, soliqlar iqtisodiy kategoriya bo`lganligi uchun bo`zor iqtisodiyoti munosabatlari, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar bilan chambarchas bog`liqdir. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir, ya`ni har bir huquqiy shaxs, tadbirkor o`z tovariga erkin baho belgilashi, mahsulot yet-kazib beruvchini topishi va o`zi iste'molchini topib unga mahsulotni sotish huquqiga ega. Shuning uchun davlat ularning bir qism daromadlarini taqsimlab, budgetga oddiy ajratma sifatida ololmaydi. Soliq qilib olish uchun Oliy majlisning qarori zarur, ya`ni qonun bilan olingen to`lov budgetga o`tadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida soliqlar ham erkin, aniq, aniq bo`ladi, demok-ratik to`lovga aylanadi.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya bo`lganligidan to`lovchilar va budget o`r-tasida daromadlar taqsimlanayotganda tomonlarning iqtisodiy manfaatini, albatta, e'tiborga olish zarur. Soliq to`lovchilar daromadini davlat istaganicha ololmaydi, soliqlarni budgetga olishning ma'lum chegarasi mavjud. Bu haqida ko`plab yirik iqtisodchilar va davlat arboblari o`z asarlarida ko`rsatib o`tgan. Uni davlat, shu bilan birga soliq to`lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini hisobga olib soliq belgilanadi. Ikkinci tomon-dan, soliqlardan makroiqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va boshqa umum davlat maqsadalari uchun yetarli molyaviy resurslar to`plash uchun foydalaniladi. Soliqlar mohiyati soliq to`lovchilar bilan davlat o`rtasidagi doimiy, uzoq muddatli munosabatlarda o`z ifodasini topadi. Aniqroq aytsak bu yerda iqtisodiy munosabat, ya`ni pul munosabati mavjuddir.

Bir xil mohiyatga ega va o`zaro munosabatda bog`liq bo`ladi

markaz-lashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig`imlar turlarining yig`indisiga *soliqlar tizimi* deb ataladi. Bu ta'rif-da soliq va yig`imlar yagona mohiyat, ya'ni «majburiy xarakterga ega bo`lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog`liqligi va nihoyat budgetga tushish-ligini ko`rsatadi. Bu O`zbekiston Respublikasi soliq Kodeksi maz-muniga mos keladi. Shu yerda bahsli masala ham mavjud, ya'ni davlatning budgetdan tashqari fondlariga (pensiya, ijtimoiy sug`urta, bandlik, yo`l fondlari va bosh-qalar) to`lovlarni ham majburiylik nuqtai nazardan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud. O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 5-8 modda-lariga binoan soliqlar tizimi quyidagi tarkibga ega bo`ladi, unga keyingi o`zgartirishlar ham kiritilgan.

## 2. Jismoniy shaxslarning soliqli va soliqsiz to`lovlariga tavsifi

Hozirgi kunda soliqlar kodeksda 8 ta umum davlat (respublika) soliqlari va 5 ta mahalliy soliqlar ko`rsatilgan. O`zgartirishlar bilan ularning soni yig`imlari ham qo`shib ko`rsatilgan. Soliq va yig`imlar bir-biri bilan bog`liq bo`ladi, oqibat natijasida ular huquqiy va jismoniy shaxslarning pul daromad-laridan olinadi. Demak, soliq va yig`imlarning jami yig`indisi so`mmasi soliq og`irligi tushunchasini keltirib chiqaradi.

*Soliqlarni obyekti va iqtisodiy mohiyati bo`yicha guruhlash.* Soliqlarni guruhlash iqtisodiyotga ijobjiy va salbiy ta'sirlarni o`rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab to`rt guruhga bo`linadi:

Oborotdan olinadigan soliqlar

Daromaddan olinadigan soliqlar

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar

Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo`shilgan qiymat solig`i, aksiz solig`i, bojxona va yer qa'rilar foydalanganligi uchun qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligidimiz bo`yicha ilgaridek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o`lchanadi (QQSda). Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga huquqiy shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan

soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlari kiradi. Bu guruh soliqlarga obodenlashtirish va ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i, avtomo-bil mashinalarini qayta sotish solig'i va boshqalar kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlari kiradi. Harajatlardan olinadigan soliqlarga kiradi. Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosta bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarining o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalarga ortish holati bu yerda bo'lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan to'lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi.

To'g'ri soliqlardan to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak bu guruh soliqlarning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiyoti bilan chambargas bog'langandir.

Egri soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilardir (xizmat ko'rsatuvchilardir). Lekin soliq og'irligini haqiqat-dan ham budgetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni haqiqiy soliq to'lovchilar bu yerda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi.

Bu soliqlarning ijobiy tomoni Respublikada ishlab chiqarilgan tovar-larni chetga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlar ko'p bo'lishiga yordam beradi. Egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning taqchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravi-shda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan to'g'-ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi tahlil qilinmasdan oshirib yuborilsa korxonalar sotish qiyinchiligidagi uchrab foyda olishni ham budgetga to'lovlarini ham kamaytirishi mumkin.

Bu soliqlarning yana bir tomoni muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inqirozni jilovlab boradi. Biroq bu soliqlar mehnat bilan band bo`lgan aholining real daromadini pasaytiradi. Korxonalarda to`g`ri soliqlar stavkasini hisobiga berilgan imkoniyat ko`proq mahsulot ishlab chiqarishni ko`paytirib, tovarlar assortimentining oshishini ta'minlashi kerak.

Jahon soliq amaliyotida to`g`ri va egri soliqlar nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi yoki iqtisodiy qiyinchiliklarni borligini tahlil qilib berish mumkin. Masalan, AQShda to`g`ri soliqlar salmog`ning budget daromadida 90% foizga yaqin bo`lishi bu yerda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mavjudligidan darak beradi.

Egri soliqlar tarkibiga QQS, aksiz solig`i, bojxona boji, yer qa'ridan foydalanish uchun soliqlar va bonuslar kiradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, to`g`ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib bir-biri bilan o`zaro bog`langan. Umumiy soliq so`mmasi o`zgarmagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisini stavkasini oshirishni talab etadi.

Soliqlarning umudavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo`linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo`-linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o`zlarining bajara-digan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o`z budgetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo`lishi kerak. Respublika hukumati umum davlat miqyosida katta vazifalarni mudofaa, xavfsizlikni saqlash, tartib intizom infrastrukturasi yaratish, mehnatkashlarga ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator yirik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning budgeti ham soliqlari ham salmoqli bo`lishi shart. QQS, aksiz solig`i, yuridik shaxslarning foydasi-dan, fuqarolar daromadidan olingan soliqlar respublika budgetiga tushadi. Umum davlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika budgetiga tushadigan soliqlardan mahalliy budgetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushushi mumkin. Bordi-yu, ajratma yetmasa subvensiya yoki subsidiya beriladi. Agar kelgusi yil mahalliy budgetlarning o`z manbalari (soliqlari) ko`payib qolsa, respublika soliqlardan ajratma berishning hojati qolmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar yagona mohiyatiga ega bo`ladi, budgetga to`lanishi lozim bo`lgan to`lovlardir.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to`liq biriktirib beriladi. Mahalliy

hukumatlar asosan meh-natkashlarga yaqin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni maqtab, sog'-liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va yig'implar ularning budget harajat-larining 30-40 foizini qoplaydi, xolos. Keyingi vaqtarda mahalliy budgetlar daromadlari salmog'ini 50-60 foizga yetkazish kabi hukumat qarorlari mavjud. Mahalliy budgetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masala-lardan biridir. Faqat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan mahalliy hukumatlar o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshirishlari mumkin. Aks holda, har xil moliyaviy kamchiliklarga yo'l qo'yish ehtimoli bor. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki ular faqat shu hududning budgetiga tushadi. Boshqa budgetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy budgetlarning soliq va yig'implari kam bo'lganligidan bu budgetlarning daromadlar va harajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani yechishda ilgari ko'rsatganimizdek hudud-dan tushadigan soliqlardan ajratmalar beriladi. (masalan, QQS, daromad solig'i va boshqalar). Amaliyotda shu soliqlardan mahalliy budgetlarga ular budgetini barqarorlashtirish uchun 100 foizgacha ajratma bermasdan turib subvensiya (maqsadli yordam) berish hollari uchraydi. Vaholanki, mahalliy hukumatlarni o'z hududlaridan tushadigan soliqlarni undirishga qiziqtirish uchun 100 foizgacha ajratmalar berish maqsadga muvofiqdir.

Subvensiya yoki subsidiya uslublari esa mahalliy hukumatlarning res-publika hukumatiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularni o'z hudud-laridagi soliqlar to'liq undirilishini qiziqtirmaydi, ulardagи boqи beg'amlik fazilatini kuchaytiradi. Mahalliy hukumatlar o'z xohishlaricha soliq va yig'implar kiritish huquqiga ega emas. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kode-ksida ko'rsatilgan soliqlarning o'z hududlarida qo'llash yoki qo'llamaslik huquqi bor. Undan tashqari mahalliy soliqlar (mol-mulk va yer solig'idan tashqari) va yig'implardan budgetga tushgan so'mma atrofida soliq to'lovchi-larga imtiyozlar berish huquqiga ega. Mahalliy soliqlar va yig'implarning budgetga to'liq tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

### **Yuridik shaxslarning soliqli va soliqsiz to'lovlarini tavsiyi**

O'zbekiston Respublikasining davlat budgetiga to'lanadigan soliq va yig'implarning hal qiluvchi qismini yuridik shaxs soliqlari va boshqa

to'lovlari tashkil etadi. Yuridik shaxslar Respublika (umum davlat) budjetiga quyidagi soliqlar va yig'implarni to'laydilar:

Yuridik shaxslarning foyda solig'i;

Qo'shilgan qiymat solig'i;

Aksiz solig'i;

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va bonuslar;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan

soliq;

Bojxona boji;

Davlat boji;

Qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;

Jarimalar;

Boshqa to'lovlari;

Yuridik shaxslar mahalliy budjetlarga quyidagi soliqlar va yig'implarni to'laydilar:

Kichik biznesning yagona solig'i;

Mol-mulk solig'i;

(Reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq - 2003 yildan boshlab bekor qilindi).

Obodanlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

Savdo huquqini olish yig'imi;

Alohiba tovarlarni sotish uchun litsenziya yig'imi;

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;

Dehqon bozorida bir yo'la yig'imi;

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i;

Noqishloq xo'jalik tashkilotlari uchun yer solig'i;

Boshqa to'lovlari.

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun yuridik shaxs naqominib olgandan tashqari, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo'lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo'lishlari hamda statistika idoralarida, hokimiyatlardan ro'yxatdan o'tgan (kodga ega) bo'lishlari shart har bir yuridik shaxsga idenifikatsion raqam beriladi. Yuridik shaxs bo'ladi mulkka ega bo'lishlik, bordiyu soliqdan yoki boshqa subyektlardan qarzdor bo'ladi qolsa, boshqa choralar ko'rildigan yeterli bo'lmasa, ana shu mulkularini sotib (sud qaroriga asosan) soliqdan qutilish imkoniyati yaratiladi.

Yuridik shaxslar soliqlarini budjet daromadlarini shakllantirish va pul muomalasini mustahkamlashdagi ahamiyati.

Ilgari aytganimizdek, yuridik shaxslarning budjetlarga to'laydigan soliqlari *to'g'ri* va *egri* soliqlarga bo'linadi.

To'g'ri soliqlar daromad (foyda) soliqlari va resurslar soliqlaridan tash-kil topadi. Egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir. Yuridik shaxslarning bu soliqlari budjet daromadlarini asosiy qismini tashkil etishi quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rindi. Yuqorida jadval ma'lumotlar ko'rsatadiki, yuridik shaxslar soliqlari ichida egri soliqlar salmog'i ortib borishi tendensiyasiga ega, to'g'ri soliqlar salmo-g'i esa pasayib borish yo'nalishidadir. Bunday holat mahsulot ishlab chiqaruvchilarining hissasiga tushadigan soliq yukini kamaytirib, ularning ishlab chiqarish faoliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga to'g'ri va egri soliqlar budjetning mustahkam manbasiga aylanib uning o'ta ijtimoiy zarur bo'lgan harajatlarini o'z vaqtida va uzlusiz moliyalashtirish imkonini yaratadi. Bularning ahamiyati beqiyos kattadir. Bu soliqlar siz budjetlarni rejali moliyalashtirish iloji yo'q.

Yuridik shaxslar soliqlari pul muomalasini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. To'g'ri soliqlar yuridik shaxslarning harajatlarga mo'ljalangan mablag'larini qisqartirib muomalaga oz pullarni chiqarishga olib keladi. Egri soliqlar esa tovarlar (ishlar, xizmatlar) tarkibida bo'ladi, baho hisobiga muomaladagi ortiqcha pullarni muomaladan oladi. Shunday qilib soliqlar pul muomalasini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliqlarning oshishi tovar (xizmat, ish) taklifini oshiradi, talabni kamaytiradi. Bu esa pul emissiyasini kamaytiradi. Ammo taklifda real qiymati past bo'lganligidan inflatsiyani paydo qilishi mumkin.

### O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

Soliq tizimi tushunchasi nimani ifoda etadi?

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini tavsiflang?

Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab qanday guruhlanadi?

Soliqlarning umum davlat va mahalliy soliqlarga ajratishning sababi nimada va ular qanday farqlanadi?

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning farqi nimadan iborat?

Budjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar va ularning soliqlarga qanday aloqasi bor?

### **3-Mavzu: Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tiziminining tamoyillari**

#### **Reja.**

Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxs tushunchasi. Soliq to`lovchilarni aniqlash asoslari.

Hisoblangan soliqlar va yig`imlar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi va ma'suliyati.

Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxs tushunchasi. Soliqqa tortish tizimida yuridik va jismoniy shaxslarga qo'llanadigan tamoyillar.

Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi tamoyillarning o`xshash hamda farqli jihatlari.

#### **1. Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxs tushunchasi.**

##### **Soliq to`lovchilarni aniqlash asoslari**

O`zbekiston Respublikasi soliqlar tizimida soliq to`lovchilarni ikki guruhga bo`linadi: yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar; iqtisodiy mohiyati-ga qarab: to`g`ri soliqlar va egri soliqlarga. Budget bo`g`inlariga tushishiga qarab: umum davlat soliqlari va mahalliy soliqlar va yig`imlarga bo`linadi. O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida (13-modda) xilma-xil mulk shaklidagi birlashmalar, korxonalar va tashkilotlar qisqacha yuridik shaxslar deb ataladi.

O`zbekiston Respublikasining asta sekin ijtimoiy himoyalangan erkin bozor iqtisodiyotiga o`ta borishi Respublikada o`rtalik kichik biznes faoliyatiga qulay sharoitlar yaratilayotganligi xilma-xil mulk shaklidagi: xususiy, kooperativ, shirkat, aksioner va qo'shma korxonalar orqali tadbir-korlikni rivojlantirishga keng sharoit yaratilmoqda. Buning hammasi soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxslar sonini ko`payishiga olib kelmoqda. 2019 yilda kichik va o`rtalik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi o'sib 45,5 foizni tashkil etdi. Jami 500 mingdan ortiq yuridik shaxslar mavjud, shu jumladan 1000 mingdan ortig'i kichik korxonalar va firmalardir.

Yuridik shaxs deb o`zining ixtiyorida, karamog`ida, foydalanishida mulkka ega bo`lgan, o`zining majburiyatlarini shu mulk bilan qaytara oladi-gan, buxgalteriya balansi hamda bankda hisob varaqasiga ega bo`lgan shaxs-larga aytildi. Yuridik shaxslarning statistika organlarida o`z faoliyat kodlari ko`rsatilgan bo`ladi.

## **2. Hisoblangan soliqlar va yig'implar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi va ma'suliyati**

Yuridik shaxslar o'zlariga yuklatilgan soliqlarni hisoblash va budjetga o'z vaqtida, to'liq to'lash javobgarligini olganlar. Ularning to'laydigan soliqlari asosan naqd pulsiz, ya'ni korxona, tashkilot, birlashmaning bankdagi hisob schotlaridan mablag'ni uchirib, respublika yoki mahalliy budjet schotlariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. Qoida bo'yicha har qanday yuridik shaxs o'z soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan vaqtida budjetga to'liq o'tkazishga majburdirlar. Buning uchun ular soliq va boshqa to'lovlarning muddati kelgan kungacha pullarni o'tkazish hujjatlari bo'l mish to'lov topshirig'i, cheklarni yozib banklarga topshirgan bo'lishlari kerak.

Agar to'lov topshiriqlari o'z muddatida yozilib banklarga topshirilma-gan bo'ladi soliq idoralari o'zlarining inkasso-to'lov talabnomalari orqali undirib oladilar. Har bir o'z vaqtida budjetga o'tkazilmagan kun uchun o'tka-zilishi kerak bo'lgan soliq so'mmasi hisobidan 1,0% foiz penya hisoblanib soliqqa qo'shimcha ravishda budjetga majburiy undiriladi. Albatta penya so'mmasining ko'payishi korxonananing moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Penya korxona uchun qo'shimcha soliqdir.

Shuning uchun har qanday xo'jalik subyektlari hisobchilari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularda belgilangan to'lov muddatigacha o'z vaqtida to'lab borishlari shart. Bunda ayniqsa bunak (avans) to'lovlarga ko'p-roq e'tibor qaratilishi lozim, chunki QQS, daromadga (foyda) soliq va boshqalarda bunak to'lovlar soni ko'p bo'lganligidan boqimandaning ko'-payishiga olib keladi. Hozirgi kunda bu boqimanda bilan kurash iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim davlat tadbirlariga aylanmoqda.

Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to'lanadi. Biroq, ayrim yig'implar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo'lishi mumkin. Yuridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to'lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o'tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy harajatlar tejaladi.

## **3. Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxs tushunchasi. Soliqqa tortish tizimida yuridik va jismoniy shaxslarga qo'llanadigan tamoyillar**

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bun-day shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi

bo`limganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi. O`zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan soliqqa tortish maqsadida soliq to`lovchilar yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarga bo`lingan. Darslikning ikkinchi bo`limida qayd qilinganidek, davlat budjeti daromadlarining 75% foizidan ortig`ini yuri-dik shaxslar to`laydigan soliqlar tashkil etadi. Jismoniy shaxslar to`laydigan soliq va yig`imlar esa qarayib budget daromadining 25% foizini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar to`laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to`g`ridan-to`g`ri o`z daromadidan olinadi. Soliqlar va yig`imlar asosan budgetga naqd pul to`lash yo`li bilan o`tkaziladi, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatidan qat`iy stavkali soliq oldindan to`lab qo`yiladi.

Shunday ekan bu yerda soliq to`lovchi jismoniy shaxs bilan soliq undiruvchi o`rtasida to`g`ridan-to`g`ri pul munosabatlari mavjud.

Shuning uchun jismoniy shaxslar soliqlarini undiruvchi inspektorlar o`ta madaniyatli, shirin so`z bo`lishi bilan birga jismoniy shaxslar soliqlarini hisoblash undirish tartib-qoidalarini, soliq qonunchiligini chuqur bilishi kerak. Shu shartlar bajarilgan taqdirda budgetga jismoniy shaxslardan me`yo-ridagi soliq va yig`imlar to`liq tushishligi ta'minlanadi. Ularni soliq qonun-chiliginu to`liq tushintira olmasligi, nopoligi budgetga mo`ljallangan soliq-larni to`liq kelib tushmasligiga olib kelishi mumkin.

Ma'lumotlar ko`rsatadiki, jismoniy shaxslarning soliqlari tarkibi ortib bormokda. Ularning soliqli to`lovleri ichida jismoniy shaxslarning daromadi-ga soliq salmog`i jihatidan birinchi o`rinni, tadbirkorlarning daromadiga soliq-ikkinchi, tovar kiritilganligi uchun yagona bojxona to`lovi uchinchi o`rinni egallagan. Boshqa soliq turlarining aniq ma'lumotlari ajratilmagan. Suv resurslaridan, tabiiy boyliklardan oydalanganlik uchun soliq, import tovarlarga aksiz solig`ini jismoniy shaxslar tadbirkorlar ham to`laydi. Ular to`g`risida ham aniq ma'lumotga emasiz. Yuqoridagilardan tashqari jismoniy shaxslar ikki yarim o`zish ish haqidan satsial sug`urta to`lovleri to`laydilar. 2019 yil 1 iyundan boshlab jismoniy shaxslar tadbirkorlik maq-sadida chetdan tovar olib kirsalar ilgarigi import tovarlariga qo`shilgan qiymat solig`i, bojxona boji, jismoniy shaxslar tovar keltirganligi uchun yig`im o`rniga yagona bojxona to`lovi bekor qilindi.

Yagona bojxona to`lovi stavkalari 2019 yildan boshlab quyidagicha belgilandi (foizlarda): - oziq-ovqat mahsulotlariga (undan tashqari) – 0,5; - no-oziq-ovqat mahsulotlariga – 0,5; - un mahsulotlariga

nolli stavka qo'llan-adi-gan bo'ldi. Yagona bojxona to'lovini hisoblash uchun bojxona qiymatiga to'lov stavkalari ko'paytiriladi. Yuridik shaxs bo'lmasdan yakka tartibda tadbirkorlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar: hokimiyatdan yakka tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi, Eksport-import operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lishi, Chetdan tovar olib kirganligi to'g'risi-da bojxona idoralardan hujjat bo'lishi, Kassa mashinalariga ega bo'lishi shart. Jismoniy shaxslar soliqlarini hisoblab chiqarish asosan ikki yo'l bilan olib boriladi. Jismoniy shaxslarga daromadlar to'lovchi yuridik shaxslar o'zlarida mavjud bo'lgan hujjatlar asosida ularning soliqlarini hisoblaydilar.

Yuridik va jismoniy shaxslar taqdim qilingan ma'lumotnomalar va xabarnomalar asosida soliq xizmati idoralari tomonidan hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga xo'jalik mehnat shartnomasi, fuqarolik-huquqiy shartnomalari bo'yicha ish haqi mukofot va boshqa qator daromadlar to'lovchi korxona, tashkilot, muassasa soliqlarini to'liq to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida budjetga o'tkazib berish javobgarligini o'z zimmalariga oladilar. Fuqarolarning olgan daromadlari to'g'risida soliq idoralariga hamda fuqaroga bildirish va ma'lumotnomalar yozib berish vazifasini ham yuridik shaxslarga yuklatilgan. Jismoniy shaxslar asosiy ish joydan tashqarida qo'shimcha daromad olganda, chetdan O'zbekiston hududiga tovarlar olib kirganda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganda olingan daromadlar va harajatlar qilinganda soliq deklaratasiyalarini soliq hisoblash uchun soliq idoralariga taqdim etadilar. Yuqorida hujjatlar va o'zlaridagi yig'ilgan ma'lumotlar, tekshiruv dalolatnomalari asosida soliq idoralari jismoniy shaxslar uchun soliq hisobini tuzib, ularga soliq so'mmasi va to'lov muddatlarini ko'rsatilgan xabarnoma-larni yuboradilar. Bulardan tashqari, yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlikning ayrim turlari bilan shug'ullanuvchilar qat'iy stavkasida daromad solig'i ni to'laydilar.

Yer solig'i, mol-mulk soliqlarini ham soliq idoralari qayta har yili hisoblab chiqib, jismoniy shaxslarga xabarnoma orqali yetkazadilar. Xabar-noma olgan jismoniy shaxslar ko'rsatilgan muddatda barcha soliq va yig'im-lar so'mmasini o'z vaqtida to'lashga majburdirlar. Shu yerda fuqarolardan olinishi lozim bo'lgan biror bir soliq to'lanmay qolsa soliq idoralari javob beradi. Shunday holatda yer solig'i, mol-mulk solig'i uch yil to'lanmagan bo'ladi uni peniya hisoblanmasdan undiriladi. Soliqlar va yig'imlar o'z vaqtida to'lanmaganda «boqimanda» deb ataladi. Uning mazmuni muddatida to'lanmagan to'lovlardir. Ana shu boqimanda so'mmasiga har bir to'lanma-gan kun uchun 1,0% foiz peniya soliq

so'mmasiga qo'shimcha hisoblanib undirib olinadi. Avvalo soliq so'mmasi so'ng penya, so'ng jarimalar undirila-di. Boqimanda uzoq muddatga to'lanmasa fuqaroning mulki ro'yxat qilinib xalq sudiga beriladi. Chet elda esa soliqlar to'lab borishini og'zaki va yozma ogohlantirishlari, qarzlarni komissiyada ko'rib chiqish tajribalari mavjud.

#### **4. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi tamoyillarning o'xshash hamda farqli jihatlari**

O'zbekiston soliqlar tizimi manbaiga qarab soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga hamma egri soliqlar, korxona daromadiga soliq, yer qa'ridan foy-dalanganlik uchun, suv resurslaridan foydalanganlik uchun, savdo tashki-lotlарini yalpi daromad solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i, kichik biznes uchun yagona soliq va boshqalar kiradi. Ba'zi soliqlarni (QQS, aksiz) yuridik shaxslar ham jismoniy shaxslar ham to'laydilar. Jismoniy shaxslar to'laydi-gan soliqlarga daromadga soliq, yer, mol-mulk, avtomobil vositalarini olib sotish soliqlari kiradi. Huquqiy shaxslardan olinadigan davlat budget daromadlarining hal qiluvchi qismini (70-80% foizi) tashkil etadi. Bu soliqlarning muhim xususiyati naqd pulsiz korxonalar hisob (joriy) schotlaridan budget schotlariga ko'chirib qo'yiladi. Uni undirish oson va arzonga tushadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan ba'zi soliqlar naqd pulga undirilganligi uchun uni to'lash qiyin kechadi. Bunday soliqlarga yer, mol-mulk soliqlari, va qator yig'imlar kiradi. Soliq yig'ish harajati ko'payityub ketadi. Chunki bu ish bilan maxsus tajribaga ega bo'lgan nspektorlar shug'ullanadi, hujjatlar (deklaratсиya, xabarnomalar, chaqiriqlar va boshqalar) ko'p yoziladi.

##### **◆ z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

Qanday shaxslar yuridik shaxs deb ataladi?

Qaysi soliqlar va yig'imlar yuridik shaxslar to'laydigan Respublika soliqlari tarkibiga kiradi?

Qaysi soliqlar va yig'imlar yuridik shaxslar to'laydigan mahalliy soliqlari tarkibiga kiradi?

Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarning qanday ahamiyatlari bor?

Jismoniy shaxslar tushunchasi va ular to'laydigan Respublika soliqlarini tarkibi?

**Qaysi soliqlar va yig`imlar jismoniy shaxslar to`laydigan mahalliy soliqlar tarkibiga kiradi?**

**Jismoniy shaxslar to`laydigan soliqlarning qanday ahamiyatlari bor?**

#### **4 - Mavzu: Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i**

##### **Reja.**

Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va budjet daromadlarida to'tgan o'rni.

Soliq to'lovchilari tarkibi, soliq obyekti.

Soliq stavkalari va soliqqa tortish bazasini shakllantirish.

Soliqni hisoblash va to'lash muddatları.

Soliqdan beriladigan imtiyozlar va ularni bekor qilish tartibi.

Soliqni buxgalteriya hisobida rasmiylashtirish va mavjud muammolar.

##### **1. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va budjet daromadlarida to'tgan o'rni**

Yuridik shaxslarning to'laydigan soliqlari ichida ularning foydasiga soliq budjet daromadlari tarkibida katta o'rin egallaydi. Bu soliq to'g'ri soliq bo'lganligi uchun xo'jalik subyektlarining to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy ahvoli bilan bog'liq, unga ta'sir etadi. Shuning uchun bu soliq salmog'ini davlat yildan-yilga kamaytirish siyosatini olib bormokda. Masalan, 1996-1998 yillarda 21-25 foizlarni tashkil etgan bo'ladi, 2017 yildan boshlab 21 foizni 2019 yilda esa 12 foiz bo'ldi.

*Yuridik shaxslarning foydasiga soliq - bu korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar daromadi (foydasini)ning bir qismini budjetga majburiy to'lov munosabatini bildiradi.*

Soliq kodeksi bo'yicha foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslargina bu soliqni to'lovchilari bo'ladi. Ammo, jami daromad, ulardan chegirib tash-lanadigan chiqimlar soliq kodeksiga kiritilgan bo'ladi ham, ularni aniqlashni Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-kamasi o'zining 1999 yil 5 fevral 54-sun qarori bilan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari erta kibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish hisoboti» to'g'risidagi Nizomni qabul qilgan. Jami daromad va soliqqa tortiladigan daromad ham shu nizom bilan belgilanadi.

Daromad (foyda)ga soliq to'lovchilari bo'ladi, moliya yilida soliqqa tortiladigan daromad (foyda)ga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Moliya yili bizning respublikamizda kalender yiliga mos tushadi. Ammo hamma yuridik shaxslar ham bu soliqni to'layvermaydi. Kichik korxonalar, savdo tashkilotlari, gramplastinkalar ishlab chiqib

sotuvchi tashkilotlar, yagona soliq to`lovchi chakana savdo korxonalari (kichik va mikrofirmalar), yagona yer solig`i to`lovchi qishloq xo`jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to`lamaydilar. Ular o`zлari uchun ixchamlashtirilgan soliqni to`laydilar. Bulardan tashqari tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat`iy stavkada soliq to`lovchilar ham bu soliqni to`lamaydilar.

Soliqqa tortish maqsadida daromad (foydaga) soliq to`lovchilarni rezidentlar va norezidentlarga ajratiladi.

O`zbekiston Respublikasining *rezidenti* deb O`zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro`yxatdan o`tgan hamda bosh korxonasi O`zbekistonda joylashib, O`zbekiston Respublikasidan tashqarida ro`yxatdan o`tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ro`yxatdan o`tgan yuridik shaxslarga identifikatsion raqam beriladi. Uning mazmuni tartib raqamiga mos keladi.

O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan yuridik shaxslar O`zbekis-tonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan daromad (foyda) solig`iga tortiladilar. O`zbekiston Respublikasining *norezidentlari* esa faqat O`zbekiston Respublikasida faoliyat ko`rsatishdan olgan daromad-lari bo`yicha soliqqa tortiladilar.

Rezidentlar doimiy faoliyat ko`rsatuvchilar bo`ladi, norezidentlar faoliyati Respublikada o`tkinchi yoki vaqtinchalik xarakterga ega.

Daromadga (foyda)ga soliq to`lovchilarni to`liq tushunish uchun ularni iqtisodiyot sohalari bo`yicha ham soliq to`lovchilar bo`lishligini inobatga olish zarur. Masalan, sanoat, qurilish, transport, kommunal xo`jaligi va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo`ldik, yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq to`lovchilari bo`lishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad (foyda) olishi;  
o`zining mulkiga ega bo`lishi;  
mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo`lishi;  
bankda hisob raqamiga ega bo`lishi;  
identifikatsion raqamga ega bo`lishi.  
hokimiyatdan ro`yxatdan o`tgan bo`lishi shart.

Umumiy tartib bo`yicha yuridik shaxslar shu shartlarga javob bersagina daromadga (foydaga) soliq to`lovchilar bo`ladi hisoblanadilar.

## **2. Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq obyekti**

Yuridik shaxslarning foydaga solig'i bo'yicha soliqni to'liq, to'g'ri aniqlash (hisoblash) uchun ularning jami daromadlariga nimalar kirishini mukammal o'rganish zarur bo'ladi. Yuridik shaxslarning jami daromadi tar-kibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajaril-gan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pul va bepul (pulsiz) qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi.

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum. Unga ortilgan mahsulot qiymatini to'lash uchun hisoblashish hujjatlarida ko'rsatilgan so'mma; buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, bajarilgan ishlar dalolatnorma-larida ko'rsatilan so'mmalar; ko'rsatilgan xizmatni bajarilganligini tasdiqlov-chi so'mmalar kiradi. Vositachilik faoliyatidan (komission taqdirlash) daromad oluvchi tashkilotlar uchun tushum hamma bitimlar bo'yicha komission taqdirlash (protsentlar) so'mmalari hisoblanadi.

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari, materiallar va boshqa aktivlar sotishdan daromadlar kiradi.

Soliqqa tortish maqsadida asosiy fondlar va boshqa mulklarni sotishdan daromadni aniqlashda shu fondlar mulklarni sotish bahosi va qoldiq so'm-masi o'rtaqidagi farq (oshishi) hisobga olinadi. Bu yerda qoldiq qiymat ham-ma asosiy fondlar, moddiy aktivlar, kam qiymatli va tez buziladigan pred-metlarga ham qo'llaniladi. Asosiy fondlar bepul berilganda berayotgan shaxsnинг aktivlar qiymati o'sha vaqtidagi tashkil topgan harajatlar bilan, mulklarni oluvchining daromadi esa kirim qilingan qoldiq qiymat bilan, lekin bergen shaxsnинг tannarx qiymatidan kam bo'limgan holda qabul qilinadi.

Foizlar va dividendlar turida olingan daromadlar;

Bepul olingan mulklar. Lekin bepul olish bir tizim ichiga kiruvchi korxonalar tomonidan bo'ladi daromad bo'lmaydi. Tizim deyilganda vazir-liklar, konsermlar, trestlar va b. ichidagi harakatlar tushuniladi;

Mulklarni ijara berishdan daromadlar. Ammo amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalar lizing shartnomasi bo'yicha ijara berilsa, soliqqa tortish maqsadida mulknı sotib olgan hisoblanadi;

Royalti-intelektual mulklarning huquqidan daromadlar, mualliflari haqlari, patentlari, chizmalar tovar belgilari, yangi modellarda daromadlar;

Bepul moliyaviy yordam (budget mablag`laridan tashqari);

Kreditorlik va deponentlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan daromadlar, agar surov muddati tugagan bo`ladi. Umumiy surov muddat yuridik shaxslar uchun 3 yil qilib belgilangan;

Ilgari chegirma qilingan qarzlar, zararlar va umidsiz qarzlarni tushishidan olingan so`mmalar;

Valuta scheti bo`yicha ijobiy kurs farqlari;

Favqulodda daromadlar;

Har xil daromadlar;

Tovar moddiy boyliklarni qayta baholashdan qo`shimcha so`mmalar soliq tortiladigan daromadga shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotishi bilan qo`shib beriladi.

Korxonalar (tashkilotlar) mahsulotlarini haqiqiy tannarx bahosidan past sotgandagi zararlar soliqqa tortiladigan daromadni kamaytirmaydi. Ichki bozordan past bahoda o`z mahsulot (ish, xizmat)larni erkin almashtiriladigan valutada sotuvchi korxonalar uchun soliqqa tortiladigan baza eksport mahsu-lotini sotishning haqiqiy bahosidan kelib chiqib hisobga olinadi. Umumiy vazifalarni hal qilish uchun Ustav fondiga badallar, paylar va boshqa maqsa-dli quyilmalar yuridik shaxsning daromadiga kirmaydi va soliqqa tortilmay-di. Korxonalarning chet el valutasida olgan daromadlari ham umumiy daro-madlarga qo`shilib soliqqa triladi. Bunda chet el valutasida olingan daro-mad o`sha kundagi Markaziy bank belgilagan kurs bilan daromadga olinadi.

Yuqorida aytilgan daromadlar tarkibi “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to`g`risida”gi Nizom bilan aniqlanadi va quyidagi ko`rsatkichlar bilan ifodalanadi:

*-mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.*

bunda STF-soliq to`laguncha olingan foyda; FP-favqulodda vaziyatdan olingan foyda; F3-favqulodda vaziyatdan ko`rilgan zarar.

-Yilning sof foydasi, u korxona daromadga soliq to`langandan so`ng qoladi. U o`zida sof daromaddan ijtimoiy infrato`zilma solig`ini to`lagandan so`ng korxonanig o`zida qoladi.

Demak, soliqqa tortiladigan daromad STF ga Nizom bo`yicha uning 1 va 2 ilovalardagi harajatlarni qayta qo`shish bilan aniqlanadi.

Jami daromaddan chegirmalarga quyidagilar kiradi va soliqqa tortiladi-gan daromaddan chegiriladi:

qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va bonuslar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bojxona bojlari so'mmalari;

banklarning va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining qisqa muddatli kreditlari bo'yicha foiz to'lovleri so'mmalari, to'lov muddati o'tgan va to'lov muddati o'zaytirilgan ssudalar bo'yicha foizlar bundan mustasno;

xodimlarga ish haqi to'lash bo'yicha harajatlari (banklar, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar va boshqa omaviy tomosha tashkilotlari bundan mustasno).

Belgilangan tartibda kiritilgan renta to'lovleri so'mmasi;

Ijara haqi (lizing to'lovi);

Asosiy vositalarni ta'mirlash harajatlari;

Chet el yuridik va jismoni shaxslarning moddiy harajatlari va ko'rsatgan xizmatlari qiymati;

Majburiy sug'urta to'lovleri bo'yicha o'tkaziladigan qonun hujjalariغا muvofiq ish haqiga hisoblangan so'mmalari;

Mahsulotlar (xizmatlar)ni sertifikatsiyalash ishlariga haq to'lash so'mmalari;

Normalar bo'yicha xizmat safari, vakillik maqsadlari, kadrlar tayyor-lash va ularni qayta tayyorlash harajatlari so'mmalari;

Mahalliy hokimiyat tasdiqlagan normada soliq to'lovchi balansidagi sog'lioni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, bolalarning dam olish lagerlari, madaniyat va sport obyektlari, xalq ta'lim muassasalari, uy-joy fondini saqlashga harajatlar so'mmalari, yuqoridagi maqsadlarga ulush qo'shib qilingan harajatlar kamaytiriladi;

qonun bo'yicha boshqa majburiy to'lovlar chegirib tashlanadi.

Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarini aniqlash uchun yuqorida ko'rsatilgan Nizom bo'yicha ularning jami daromadlaridan jami harajatlarini (chegirmalarini) chiqarib tashlab shu Nizomda belgilangan daromadga qayta qo'shiladigan harajatlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Banklar va sug'urta tashkilotlarida Nizomdagi chegirmalardan tashqari jami daromaddan quyidagilar chegiriladi:

1. Banklar bo'yicha:

kredit resurslari uchun to'lovlar;

operatsion harajatlar;  
pul mablag'ları va boyliklarni tashish va saqlash harajatlari;  
mijozlarning hisob varaqlari bo'yicha hisoblangan va to'langan foizlar, shu jumladan jismoniy shaxslarga;  
xavf-xatar operatsiyalari zahirasi hisobotidan chiqarilgan umidsiz ssudalar.

## 2. Sug'urta tashkilotlari bo'yicha:

qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha berilgan to'lovlar so'mmasi;

hisobot davrining oxiriga harakati to'xtatilmagan sug'urtalash va qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'lovlar;

sug'urtalash va qayta sug'urtalash majburiyatları bo'yicha hisoblangan va to'langan so'mmalar;

surov muddati atrofida sug'urta holat bo'yicha tugallanmagan to'lovlar so'mmasi;

zarar miqdori ko'rsatilmagan, sug'urta holat kirim to'g'risida xabar berilgan shartnomasi bo'yicha to'lovlar so'mmasi;

sug'urta holat oldini olish tadbirlariga yo'naltirilgan mablag'lar;

sug'urta tashkilotining zahira fondiga 20 foizgacha bo'lgan miqdorda ajratma, lekin shu fondlar miqdori ularning ustav fondining 25 foiziga yetkuncha ajratmalar.

Soliq to'lovchilar (banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari) surov muddati tamom bo'lishi bilan umidsiz qarzlarni chegirish huquqiga ega, agar ular tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish bilan bog'liq bo'ladi ilgari jami daromadga olingan bo'ladi. Moliyaviy jazo choralar va hisoblangan penya so'mmasi jami daromaddan chegirilmaydi. Tadbirkorlik faoliyatida uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalar realizatsiya qilinganda vujudga kelgan zararlar jami daromaddan chegiriladi.

Qimmatli qog'ozlar realizatsiya qilinganda vujudga kelgan zararlar jami daromaddan chegirilmaydi. Ish hayvonlari va ko'p yillik daraxtlardan foyda-langanda vujudga kelgan zararlar faqat ana shu aktivlardan foydalanishdan olingan daromaddan chegirib tashlanadi. Asosiy vositalarning soliq solinadi-gan davr mobaynida Soliq kodeksida belgilangan normalar doirasida hisob-langan amortizatsiya ajratmalari so'mmalari jami daromaddan chegirib tashlanadi. Nomoddiy aktivlarga qilingan harajatlar jami daromaddan eskir-ish tarzida har oyda ulamig boshlang'ich qiymati asosida hisoblangan normalar bo'yicha chegiriladi. Geologik tadqiqotlar va shunga o'xshash harajatlar

amortizatsiya normasi bo'yicha 1,5 foiz miqdorida chegiriladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'limgan hamda ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar jami daromaddan chegirilmaydi.

Moliya yiliда soliq solinadigan daromad (foyda)ga ega bo'lgan yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilar hisoblanadi. Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va budgetga to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomada mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida bo'limalar tushuniladi.

Yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga O'zbekiston Respublikasida hamda undan tashqarida ularning faoliyat manbalaridan olingen daromadlar (foyda) bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatga olingen, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatga olingen, bosh korxonasi O'zbekistonda joylashgan yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadi. Budget bilan daromad (foyda) solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni yuridik shaxslar mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim tarmoqlar yuridik shaxslarning birlashmalari budget bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markaz-lashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin.

### **3. Soliq stavkalari va soliqqa tortish bazasini shakllantirish**

Yuridik shaxslarning foydaga solig'i stavkalari har yili Oliy Majlis tomonidan Vazirlar Mahkamasining yangi yilga budget parametrlarini ko'rib chiqqanda tasdiqlanadi.

Yuqori chegara stavkasi 1998 yilda 36 foizdan 2001 yilda 26 foizga tushgan. 2002 yilga esa 24 foiz, 2016 yilda 23 foiz 2019 yildan boshlab 12 % qilib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 noyabr 390-soni qarori bilan:

iste'mol tovarlarni ishlab chiqaruvchilar uchun shu tovarlarni ishlab chiqarishdan oлган daromaddan foydaga soliq stavkasini 12 foiz kamaytirib to'laydi,

bolalar assortimenti tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shu tovarlarni ishlab chiqarishdan olgan daromadlaridan 3,5 foiz stavkada soliq to'laydilar.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning fizik hajmini oshirishdan olgan daromadlar soliq to'lashdan ozod etiladi. O'z faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan soliq to'lovchi-norezident O'zbekistonda olgan daromadlaridan soliq to'lovchi bo'ladi hisoblanadi. Ularning soliq to'lash tartibi umumiy qoidaga tushadi.

Norezident soliq to'lovchining daromadini chet elga o'tkazilayotganda 8 foiz miqdorida daromadga (foydaga) soliq undiriladi.

Doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borgan norezidentning daromadi hech qanday chegirmasiz daromad manbaida quydagi stavkalarda soliqqa tortiladi:

Yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendar va foizlar to'lov manbaida 12 foizli stavka bilan soliqqa tortiladi. Soliqqa tortish maqsadida dividend deb aksiyalardan va boshqa xo'jaliklar-subyektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlar tushuniladi.

Foizlarga esa depozit omonatlar, qarzdor majburityalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan olgan daromadlar kiradi. Manbaida soliqqa tortilgan va dividend, foiz olgan norezident jami daromadidan tegishli tartibda hujjat-lar taqdim etsa chegirma olish huquqiga ega. Davlat obligatsiyalari va davlat-ning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendar va foizlar soliq solish-dan ozod etilgan. Rezidentlar bo'l mish banklar va boshqa moliya kredit tashkilotlariga to'lanadigan foizlardan to'lov manbaida soliqqa tortilmaydi, balki banklar va moliya tashkilotlarida soliqqa tortiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 5 iyun farmoniga binoan 2000 yil 1 iyuldan boshlab har xil mulk shaklidagi eksporterlarning eksportdan olgan daromadi o'zi ishlab chiqargan mahsulotlar (ishlar, xizmat-lar) erkin almashtiriladigan valutaga sotilsa daromad (foyda) solig'idan ozod etilgan.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldag'i "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi va moliyaviy natija-larni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq jami daromad bilan chegirmalar o'rtaсидаги farq sifatida

hisoblab chiqariigan, yuqorida ko'ssatil-gan Nizomning ilovalarida belgilangan harajatlar so'mmasiga tuzatishlar kiritilgan daromad (foyda) solig'i soliq obyekti hisoblanadi.

Banklar va sug'urta tashkilotlari bo'yicha belgilangan chegirmalardan tashqari quyidagilar ham jami daromaddan chegirilishi kerak;

a) banklar bo'yicha:

kredit resurslari uchun to'lovlar;

operatsion harajatlar;

pul mablag'lari va boyliklarini tashish va saqlash harajatları;

mijozlar hisob varaqlari, shu jumladan - jismoniy shaxslarning omonat-lari bo'yicha hisoblab yozilgan va to'langan foizlar;

tavakkallik operatsiyalari bo'yicha zahira hisobiga hisobdan chiqarilgan umidsiz ssudalar so'mmalari.

b) sug'urta tashkilotlari bo'yicha:

qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha topshirilgan to'lovlar so'mmalari;

amat qilishi hisobot yilining oxirida tugamagan sug'urtalash va qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha to'lovlar so'mmalari;

sug'urtalash va qayta sug'urtalash majburiyatları bo'yicha amalga oshirilgan va hisoblab yozilgan to'lovlar so'mmalari;

o'tgan yillarning sug'urta hodisalari bo'yicha tugallanmagan to'lovlar so'mmalari, shu jumladan da've muddati doirasidagi majburiyatlar;

sug'urta hodisasi boshlangani ma'lum qilingan, lekin zarar hajmi taqdim etilmagan shartnomalar bo'yicha sug'urta so'mmalari;

sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urta hodisalari bosblanishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashga yo'naltiriladigan mablag'lari so'mmalari (preventiv chora-tadbirlar);

sug'urta tashkilotlarining zahira fondlariga ushbu fondlar miqdorlari sug'urta tashkilotlari ustav fondining yigirma besh foiziga yetguniga qadar ushbu tashkilotlar daromadlarining yigirma foiziga qadar miqdorda ajratmalar.

Soliq to'lovchilar (bundan banklar va sug'urta tashkilotlari mustasno) da've muddati tugagach daromadlari ilgari jami daromadga kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bog'liq umidsiz qarzlar bo'yicha chegirma qilish huquqiga egadirlar. Yuridik shaxslarning foydalari va ular bo'yicha tegishli chegirmalar soliqlarni hisoblab chiqarish uchun ular taalluqli bo'lgan hisobot davrida, to'lash

vaqt va pulning kelib tushish sanasidan qat'iy nazar, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariiga muvofiq aks ettiriladi.

Agar qilingan harajat harajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo'ladi, u jami daromaddan faqat bir marotaba chegirilishi mumkin.

Uzoq muddatli kontraktlarga taalluqli daromad va chegirmalar moliya yili davomida ularni haqiqatda bosqichma-bosqich bajarish qismida hisobga olinadi. Uzoq muddatli shartnomani haqiqatda bajarish moliya yili oxirigacha qilingan harajatlarni mazkur kontrakt bo'yicha jami daromadlar bilan taqqoslash vositasida belgilanadi.

Jami daromad tarkibiga yuklab jo`natilgan tovar, bajarilgan ishlar, ko`rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun yuridik shaxs olishi lozim bo`lgan (olgan) yoki tekinga olgan pud yoxud boshqa mablag'lar kiradi.

Bunday daromadlarga quyidagilar kiritiladi:

a) mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan keladigan tushum.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan keladigan tushum deganda:

yuklab jo`natilgan mahsulot uchun taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlari-da ko`rsatilgan so`mmalar;

buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan bajarilgan ishlar dalolatnoma-larida ko`rsatilgan so`mmalar;

xizmatlar ko`rsatilishi faktini tasdiqlaydigan hujjatlarda ko`rsatilgan so`mmalar tushuniladi.

Vositachilik faoliyatidan daromad oladigan (komission haqlar, foizlar sifatida) korxonalar uchun tushum deganda soliq solinadigan davrda amalga oshirilgan barcha bitimlar bo'yicha olingan komission haqlar (foizlar) so`mmasi tushuniladi.

b) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari, materiallar va boshqa aktivlarni sotishdan keladigan daromad.

Korxonaning asosiy fondlari va boshqa mol-mulkini sotishdan keladi-gan daromadni belgilash chog'ida soliq solish maqsadi uchun ushbu fondlar va mol-mulkning sotilish va qoldiq qiymatlari o'rtasidagi farq (oshib ketish) hisobga olinadi. Bunda mol-mulkning qoldiq qiymati asosiy fondlar, moddiy aktivlar, arzon va tez eskiruvchan buyumlarga nisbatan qo'llaniladi.

Agar aktivlarning faqat bir qismi sotilsa, sotish sanasidagi aktivlar qiymati qolgan va sotilgan qismlar o'rtasida tasdiqlanadi.

Aktivlar bepul asosda yoki pasaytirilgan qiymat bo'yicha topshirilganda topshiruvchi shaxs aktivlarining qiymati shakllangan harajatlardan kelib chiqib, olayotgan shaxs daromadlari esa - kirim qilingan baholash qiymati bo'yicha, lekin topshirilayotgan aktivlar tannarxidan past bo`lmagan tarzda, belgilanadi.

- v) foizlar ko`rinishidagi daromadlar;
- g) dividendlar;
- d) bepul olingan mol-mulk.

Agar mablag`larni bepul topshirish tizim ichida korxonalar o`rtasida yuz bersa, bunda tizim deganda vazirlik, konsern, trest va hokazolar tushuniladi va bu mablag`lar taqsimlash balansi bo'yicha, yuqori tashkilot buyrug`iga ko`ra olingan bo'ladi, ular soliq solish obyekti hisoblanadi.

- ye) mol-mulkni ijara (lizing)ga berishdan olingan daromad;

Bunda shuni nazarda tutish lozimki, agar ijaraga beruvchi amortizat-siyalanadigan asosiy vositalarni lizing shartnomasi bo'yicha ijaraga topshir-sa, operatsiya soliq solish maqsadida ijarachi tomonidan mol-mulk harid qilinishi sifatida qaralishi kerak.

Agar u quyidagi shartlardan biriga javob bersa, amortizatsiyalanadigan asosiy vositalarning ijarasi lizing hisoblanadi:

ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatining sakson foizidan oshib ketsa;

ijarachi asosiy vositalarni qat'iy narxda yoki ijara tugaganidan keyin belgilanadigan narxda sotib olish huquqiga ega bo'ladi;

ijaraga olinadigan asosiy vositalarning qoldiq qiymati ijara tugaganidan keyin ijara boshidagi ular qiymatining yigirma foizidan kamni tashkil etsa;

To`lovlarning joriy so`mmasi butun ijara davri uchun ijara olinadigan vositalar qiymatining to`qson foizidan oshsa.

Mazkur kichik band ikkinchi qismining qoidalari lizing shartnomasini uzaytirish huquqi amalga oshirilishi mumkin bo`lgan davrga tatbiq etiladi.

- j) roylati;
- z) tekin moliyaviy yordam (davlat budgetidan subsidiyalar bundan mustasno);
- i) da`vo muddati o'tib ketgan kreditorlik va deponentlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar.

Da'vo muddati - shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo taqdim etish yo'li bilan himoya qila olishi mumkin bo'lgan muddat. Da'veoning umumiy muddati - uch yil.

k) ilgari chegirilgan harajatlar, zararlar yoki gumanli qarzlarni qoplash ko'rinishida olingen daromadlar;

l) valuta hisob varaqlari bo'yicha kursdagi musbat farq.

m) favqulodda daromadlar.

n) boshqa daromadlar.

Tovar-moddiy zahiralarni qo'shimcha baholash so'mmasi tovarlar (ish-lar, xizmatlar) sotilishi borishiga qarab soliq solinadigan daromad tarkibiga kiritiladi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishni haqiqatdagi tannarxdan past narxlar bo'yicha amalga oshiradigan tashkilotlar (korxonalar) bo'yicha, soliq solish chog'ida, zararlar so'mmasi soliq solinadigan bazani kamaytiradi, yozi ishlab chiqargan, erkin almashtiriladigan valutaga sotiladigan eksport mahsu-loti (ishlar, xizmatlar) bundan mustasno.

O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni erkin almashtiri-ladi-gan valutaga, ichki bozor narxlaridan past narxlar bo'yicha eksport qiladigan (Yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va budgetga to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga l-ilovada sanalgan xom ashyo tovarlari eksporti bundan mustasno) korxonalar uchun (savdo-vosita-chilik korxonalaridan tashqari), soliq solinadigan baza eksport mahsulotini sotishning haqiqatdagi narxidan kelib chiqib hisob-kitob qilinadi.

Vazifalarni hal etish va birlashtiriladigan faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan badallar, paylar va ustav fondiga (sarmoyasiga) boshqa maqsadli moliyaviy quyilmalar ushbu mushtarak vazifalarni hal etish uchun maxsus tashkil etilgan yuridik shaxsning daromadi hisoblanmaydi va soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Ushbu maqsad uchun yuridik shaxsni tashkil etmasdan birlashtiriladigan faoliyat (oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha) uning ishtiroychilari shart-nomalari asosida amalga oshiriladi. Birlashtiriladigan faoliyat shartnomasi bo'yicha sheriklar (ishtiroychilar) deb nomlanadigan ikki va undan ortiq shaxs yoz ulushlarini birlashtirish hamda umumxo'jalik va qonun hujjatlariiga zid kelmaydigan boshqa maqsadlarga erishish uchun birlashtirilgan yuridik shaxslar mol-mulki har bir ishtiroychining balansida hisobga olinishi kerak, zimmasi-ga

shartmmoа ishtirokchilarining umumiy ishlarini yuritish yuklangan ishtirokchi tomoni-dan umumiy ishlar va hisob yuritiladi, agar shartnomada boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'ladi.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan bir necha korxonaning bиргалидаги faoliyati natijasida oлинган foyda ular о'rtasida tuzilgan shartnmoalar asosida soliq solinishiga qadar bиргалидаги faoliyat ishtirokchilar о'rtasida taqsim-lanadi. Yuridik shaxs hisoblangan bиргалидаги faoliyatning har bir ishtirok-chisi tomonidan oлинган foyda taqsimlanganidan keyin jami daromadga kiritiladi va umumbelgilangan tartibda soliq solinadi. Korxonalarning xorijiy valutada oлинган foydasiga O'zbekiston Respublikasi milliy valutasida olin-gan tushum bilan jamlikda to'liq hajmda soliq solinishi kerak. Bunda xorijiy valutada oлинган foyda yuklab jo'natilgan mahsulot uchun hisob-kitob hujjat-lari taqdim etilgan kunda amal qilgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy valutasida qayta-dan hisob-kitob qilinadi.

#### **4. Soliqni hisoblash va to'lash muddatlari**

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar ortib boruv-chi yakun bilan chiqarilgan daromad (foyda) solig'i bo'yicha soliq hisobini, soliq ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq inspeksiyalariga yil choraklariga oid va yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarida topshiradilar.

Yuridik shaxs tugatilgan taqdirda soliq organi soliq to'lovchidan kamroq bo'lgan davr uchun hisobotlar, soliq hisobini taqdim etishni yozma xabarnoma topshirish yo'li bilan talab qilib olishi mumkin. Xabarnomada buning sababi va hisobotlar, soliq hisobi qachon va qaysi davr uchun taqdim etilishi lozimligi ko'rsatiladi. Yuridik shaxsni tugatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda tugatish komissiyasi (tugatuvchi) 5 kunlik muddatda bu haqda soliq organini yozma ravishda xabardor qiladi.

Yuridik shaxsni tugatish haqida qaror qabul qilingandan so'ng soliq to'lovchi 15 kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq hisobini taqdim etishi shart. Foyda solig'i bo'yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjatlarida belgilangan shakl va tartibda taqdim etiladi. Yuridik shaxslar foyda solig'ini foyda solig'i bo'yicha hisoblarni topshirish uchun belgilangan kundan boshlab 5 kun ichida to'laydilar. Masalan, 1 chorak uchun hisobotlar 12 aprenga-cha topshirish kerak, demak soliq

hisobi ham 12 aprelgacha topshiriladi. Soliqni to'lash shu kungacha amalga oshiriladi. Qo'shma korxonalar cho-rakdan keyingi oyning 25 sanasiga qadar hisoblangan soliqni to'lashlari shart. Yilning hisobot choragida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish-dan eng kam ish haqining 200 barobaridan ko'proq miqdorda daromad (foyda) olgan yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarini har oyning 15-kunlarida yilning choragi bo'yicha daromad (foyda) solig'i so'mmasining uchdan bir qismi miqdorida to'laydi. Masalan, aprel oyiga 2003 yil eng kam ish haqi 4535 so'm. Bir chorakda 970 m. so'm ko'p daromad olgan bo'lishi kerak. Shunday korxonalar avans to'lovlarini har oyda bir marta, chorakda uch marta to'laydi.

Yil mobaynida to'langan daromad (foyda) solig'i joriy (bunak) so'm-malari tegishli hisobot yili uchun soliq to'lovchiga hisoblab chiqarilgan soliq hisobiga o'tkaziladi. Joriy to'lovlar belgilangan muddatlargacha to'lanmasa ularga nisbatan har bir kechiktirilgan kun uchun 1,0% foiz miqdorida penya moliyaviy jazo qo'llaniladi.

Soliq to'lovchilar ma'lumotnomada budjetga to'lovlar so'mmasini ilgarigi yil yoki choraklarga nisbatan kamaytirganlarida soliq xizmati idora-lari tomonidan aniqliklar kiritiladi. Hisobot davrida mahsulot (ish, xizmat) realizatsiyasidan olgan daromadi 200 karrali minimal ish haqidan kam bo'l-gan korxonalar chorakda bir marta to'lov to'laydilar. Avvalgi choraklarda to'langan soliqlari hisobga olib boriladi.

Soliq to'lovchilar birinchi chorak, yarim yil va yil utishi bilan yil boshidan hisoblangan yakun bilan soliqni haqiqiy olingen daromaddan kelib chiqib daromadga soliqni mustaqil o'zları hisoblab chiqadilar. Yil mobayni-da to'langan soliqlari hisobot yildagi hisoblangan soliq so'mmasidan hisobga olinadi. Oshiqcha to'langan soliq so'mmasi kelgusi to'lov larga yotkiziladi yoki soliq to'lovchiga boshqa soliqlar va yig'imlardan qarzi bo'lmasa undan yozma ariza olgan kundan boshlab bir oy ichida korxonaga qaytariladi.

Budjetga soliqlarni o'z vaqtida tushirish maqsadida korxonalar soliqni to'lov muddati kelgunga qadar tegishli bank muassasalariga to'lov topshiri-g'ini topshirib qo'yishlari lozim. Ko'rsatilgan to'lov topshiriqlari bank muas-sasalari tomonidan ijara to'lovchining schotida mablag' bor yoki yo'qligi-dan qat'iy nazar qabul qilinadi.

Daromadga (foydag'a) soliqni o'z manbaida ushlab qolish hollari mavjud. Quyidagi daromadlarni to'lovchi yuridik shaxslar soliqlarni manbai-da ushlaydilar:

- yuridik shaxslarga dividend va protsent to'lovchilar;

- doimiy muassasasi bo'lmagan yuridik shaxs norezidentlarga to'lovlar to'lovchilar;

daromad (foyda)ga soliqni ushlash va budgetga o'tkazish javobgarligi daromadlardan soliq to'lashni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar zimmasiga tushadi. Daromaddan soliq to'lovchi yuridik shaxs soliq so'mmasini ush-lamagan taqdirda byutjetga ushlanmagan soliq so'mmasi va u bilan bog'liq bo'lgan jarima va penyani ham to'laydi.

Daromadlarni manbaida to'lovchi yuridik shaxslar moliya yili tugashi bilan 30 kun ichida davlat soliq xizmati idoralariga hamda daromad olgan yuridik shaxslarga ularning talablari bo'yicha dalolatnoma topshiradilar. Unda shu shaxslarning ro'yxati nomerlari, nomlari, umumiy olingan daromad va jami to'langan soliq so'mmasi hisobot yili uchun ko'rsatilgan bo'ladi.

Soliq hisoblanganda 68 schot kreditlanadi subschot «daromad (foyda)ga soliq» 81 schot bilan munosabatda bo'ladi (debetlanadi) «hisoblangan va to'langan daromad (foyda)ga soliq». Soliq o'tkazilganda 68 schot debetlanadi 51 schot «hisob schoti» kreditlanadi. Korxonaning tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganda soliq idorasasi yozma bildirish yozib hisobot va soliq hisobini tezroq va qachon topshirish to'g'risida talab qilishi mumkin.

Tugatish hay'atining korxona tugatilishi to'g'risida 15 kun ichida soliq idorasiga yozma xabar beradi. Tugatish to'g'risida qaror qabul qilingandan 15 kun o'tishi bilan soliq to'lovchi soliq idoralariga hisobot va soliq hisobini topshirishlari shart. Ular qonunda belgilangan shaklda beriladi.

## **5. Soliqdan beriladigan imtiyozlар va ularни bekор qilish tartibi**

Foydaga soliqdan beriladigan imtiyozlarni 3 guruhga bo'ladi ko'rsatish mumkin:

To'liq ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning foydalari;

Vaqtincha ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning foydlalari;

Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan foydalarining kamaytirilishi. Soliq hisobida imtiyoz deb ko'rsatiladi.

Foydaga soliqdan quyidagi yuridik shaxslarni to'liq ozod etish mumkin:

1) protez-ortopediya mahsulotlari, inventarlar hamda nogironlar uchun xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar - asosiy faoliyat turi bo'yicha;

2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va O'zbekiston Chernobilchilar asosotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillar urush va mehnat faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar (savdo, vositachilik, ta'minot - sotish va tayyorlov bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslardan tashqari);

3) davolash muassasalari qoshidagi davolash - ishlab chiqarish ustaxonalar;

4) jazoni ijro etuvchi muassasalar;

5) notijorat yuridik shaxslar, ularning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlaridan tashqari. Keyingi daromadlar umumiy asosda soliqqa tortiladi.

Notijorat tashkilotlariga quyidagilar kiradi:

faqatgina budjet mablag'i hisobidan moliyalashtiriladigan, harajatlarni qoplash uchun budjetdan dotatsiya oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

xayriya birlashmalari, uyushmalari va fondlari, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar;

tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishni ko'zlamaydigan, ta'sis hujjat-larida belgilab quylgan ijtimoiy-xayriya va boshqa maqsadlarda tuzilgan tashkilot va birlashmalar;

moliyaviy va boshqa mablag'larni xodimlarning shaxsiy manfaatlari, ta'sischilar va shu tashkilot a'zolari manfaatiga tegishli bo'lmagan maqsadlar-ga taqsimlovchi va mablag' yo'naltiruvchi yuridik shaxslar kiradi (mehnatga haq to'lash bundan mustasno).

6)shahar yo'lovchi transporti (taksi, mashrutli taksidan tashqari) yo'lov-chilarni tashish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar bo'yicha;

7) Yuridik shaxslar tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingen foydalari bo'yicha;

8) yuridik shaxslar umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash va qurish ishlarini amalga oshirishdan olingen foydalari bo'yicha;

foydaga soliqdan vaqtinchalik ozod etiladigan yuridik shaxslar va ularning daromadlari.

Vaqtinchalik foydaga soliqdan quyidagi yuridik shaxslarni ozod qilish ko'zda tutilgan:

yangi tashkil etilgan dexkon (fermer) xo'jaliklari va xususiy korxonalar qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashdan, xalq iste'moli tovarlari, binokorlik materiallari ishlab

chiqarishdan olgan daromad (foyda)si bo'yicha ro'yxatdan o'tgan vaqt dan e'tiboran 2 yil muddatga;

Chet el investorlari ishtirokidagi yangi tashkil etilib, eksportga yo'nal-tirilgan va importning o'mini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar:

- agar ishlab chiqarish hajmining 25 foizdan ortig'i bolalar bop mahsu-lotlardan iborat bo'ladi, ishlab chiqarish boshlangan paytdan e'tiboran 5 yil muddatga. Keyingi yillarda soliq amaldagiga nisbatan ikki baravar kamay-tirilgan stavka bo'yicha undiriladi;

- agar chet el sarmoyasining ulushi korxona ustav fondining 50 foizi va undan ko'pni tashkil etsa. Ishlab chiqarish boshlangan paytdan e'tiboran 3 yil muddatga ozod etiladi;

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilgan loyiha-larga kapital mablag'lar sarflaydigan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari, ro'yxatdan o'tgan vaqt dan e'tiboran dastlabki 7 yilga ozod etiladi;

Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash (uzum va mevalardan vinolar, o'tkir ichimliklar tayyorlashdan tashqari) xalq iste'moli tovarlari va binokorlik materiallari, tibbiyot asbob- uskunalar, qishloq xo'jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun mashinalar va asbob-uskunalar ishlab chiqarishga, ikkilamchi xomashyo va maishiy chiqindilarni tayyorlash hamda qayta ishlashga ixtisoslashagan, ustav fondidagi chet el kapitali 30 foizdan ortiq bo'lgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona-lar - ro'yxatdan o'tgan davrdan e'tiboran ikki yil davomida;

Qo'rg'onlar, qishloqlar va ovullar hududlarida yangi tuzilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari va xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha yangi tashkil etilayotgan korxonalar mahsulotni ishlab chiqarishni boshlangan paytdan e'tiboran 3 yilga ozod etiladi. Keyingi yillarda soliq stavkasi ikki marta kamaytiriladi. Ishlab chiqarish texnika ahamiyatiga ega bo'lgan va qurilish materiallari, maishiy kommunal xizmatlari ishlab chiqarsa imtiyoz kichik va o'rta biznesga ham tegishlidir.

Yangi tuzilgan yuridik shaxslar (savdo, vositachilik, ta'minlov va tay-yorlov tashkilotlaridan tashqari) ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran birinchi yili 25%, ikkinchi yili 50% belgilangan stavkadan kamaytirilgan soliq to'laydilar. Keyingi yillar belgilangan stavkada to'liq to'laydilar;

Ichki ishlar organlari huzuridagi soqchilik bo'linmalari;

Qishloq joylarida yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtiro-kidagi ishlab chiqarish korxonalari ishga tushgan boshlab 3 yil muddatga. Bu muddat o'tgandan so'ng keyingi ikki yil mobaynida mazkur qo'shma kor-xonalar uchun soliq stavkasi amaldagi stavkaning 50 foizi miqdorida belgilanadi;

Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bor yuridik shaxslar;

Dividend tariqasida olingen daromad, dividend to'lagan korxonaning ustav kapitaliga yo'naltirilsa soliqdan ozod etiladi;

yangi tashkil etilgan korxonalarga berilgan imtiyozlar (qo'shma korxonalardan tashqari) avvaldan ishlab turgan korxonalar, ularning filiallari negizida tashkil qilinsa, korxonalardan olgan asbob-uskunalarini ishlatalayotgan bo'ladi berilmaydi.

Yangi tashkil etilayotgan korxonalarga berilgan imtiyozlardan ular bir yil ichida tugatilsa, soliq so'mmasi ularning butun faoliyat davri uchun to'liq miqdorda undiriladi. Soliqqa tortish maqsadida dividend deb aksiyalardan va subyektlarning ustav kapitaliga hissali qatnashishdan olgan daromad tushuni-ladi. Protsent (foiz) deb depozit omonatlardan, qarzli majburiyatlardan va boshqa qimmatli qog'ozlardan olingen daromad tushuniladi.

Davlat obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividend va protsentlar soliqdan ozod etiladi.

Quyidagi yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:

a) xodimlari umumiy sonining kamida 75 foizini o'rta maktablar va hunar-texnika bilim yurtlari o'quvchilari tashkil etadigan;

b) protez-ortopediya buyumlari, inventari ishlab chiqarishga, shuning-dek nogironlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashganlari - asosiy faoliyat turi bo'yicha;

v) ishlovchilar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan, nogironlar jamoat birlashmalari, "Nuroniy" jamg'armasi va O'zbekiston chernobilchilari uyushmasi mulki bo'lganlari, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslar mustasno.

Ko'rsatilgan imtiyozni olish huquqini belgilash chog'ida xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan korxona xodimlari, shu jumladan o'rindo-shlik bo'yicha ishlovchilar, shuningdek korxona shtatida turmagan shaxslar (pudrat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tusdagi boshqa shartnomalar bo'yicha ish bajaratdigan) kiritiladi.

g) davolash muassasalari qoshidagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;

d) jazoni ijro etish muassasalari;

ye) notijorat tashkilotlari.\*

Bunda tadbirdorlik faoliyatidan foyda olgan notijorat tashkilotlari ushbu faoliyatdan soliqni umumbelgilangan tartibda to'laydi.

j) shahar yo'lovchilar transporti (taksidan, shu jumladan jo'naliqlik taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bilan bog'liq xizmatlari bo'yicha;

z) tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingen daromadlar (foydalar) bo'yicha;

i) umumi yoldalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash va ko'rish ishlarini amalga oshirishdan olingen daromadlar (foydalar) bo'yicha;

k) O'zuyjoyjamg' armabank bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha yoz xodimlari uchun uy-joy harid qilishga ishlataladigan daromadlar (foydalar) bo'yicha;

l) davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va foizlar bo'yicha;

m) yangi tashkil qilingan dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiy korxonalar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashdan, xalq iste'moli mollari, binokorlik materiallari ishlab chiqarishdan olgan foydalari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan vaqtidan e'tiboran ikki yil muddatga;

n) Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan, turizm faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar tuzilgan paytdan boshlab birinchi daromad orttirgunga qadar, lekin uzog'i bilan ro'yxatdan o'tgan vaqtidan e'tiboran uch yilgacha.

Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar foyda olgan birinchi yili 20 foiz, ikkinchi yili 30 foiz, uchinchi yildan boshlab 50 foiz miqdorida soliq to'laydi.

o) xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi tashkil etilib, eksportga o'naltirilgan va importning o'mini bosadigan mahsulotlar chiqaradigan ishlab chiqarish korxonalarini:

agar ishlab chiqarish hajmining 25 foizdan ortig'i bolalar bop mahsu-lotlardan iborat bo'ladi, ishlab chiqarish boshlangan paytdan e'tiboran 5 yil muddatga. Keyingi yillarda soliq amaldagiga nisbatan 2 baravar kamaytiril-gan stavka bo'yicha undiriladi;

agar xorijiy sarmoya ulushi korxona ustav fondining 50 foizi va undan ko`pini tashkil etsa, ishlab chiqarish boshlangan paytdan e'tiboran 3 yil muddatga.

p) O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga kapital mablag`lar sarflaydigan, xorijiy investitsiya ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalar - ro`yxatdan o'tgan vaqtidan e'tiboran dastlabki yetti yil davomida;

r) Qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlashga (uzum va mevalardan vinolar, o`tkir ichimliklar tayyorlashdan tashqari), xalq iste'moli mollari va binokorlik materiallari, tibbiyot asbob-uskunalar, qishloq xo`jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun mashinalar va asbob-uskunalar ishlab chiqarishga, ikkilamchi xom ashyo va maishiy chiqindilarni tayyorlash hamda qayta ishlashga ixtisoslashgan, ustav fondidagi xorijiy sarmoya ulushi o`ttiz foizdan ortiq bo`lgan, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar - ro`yxatdan o'tgan vaqtidan e'tiboran ikki yil davomida;

s) Qo`rg'onlar, qishloqlar va ovullar hududlarida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha yangi tashkil etilayotgan korxonalar - mahsulot ishlab chiqarishni boshlagan paytdan e'tiboran uch yil muddatga. Keyingi yillarda soliq amaldagiga nisbatan ikki baravar kamaytirilgan stavka bo'yicha undiriladi. Yuqorida ko`zda tutilgan imtiyoz qo`rg'onlar, qishloqlar va ovullar hududida yangidan tashkil etiladigan, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar pa-latasining. O'zbekiston dehqon va fermer xo`jaliklari uyushmasining a'zosi hi-soblangan hamda ishlab chiqarish-teknika maqsadidagi mahsulotlar, binokorlik materiallari ishlab chiqaradigan, shuningdek, qurilish faoliyatini amalga oshi-radigan, ta'mirlash, ta'mirlash-qurilish, maishiy va kommunal xizmatlar ko'r-satadigan kichik va o'rta biznesning xususiy korxonalariga ham tabbiq etiladi.

t) Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar (savdo, vositachilik, ta'minot, sotish va tayyorlash faoliyati bilan shug'ullanuvchilaridan tashqari) tashkil etil-gan (ro`yxatdan o'tkazilgan) paytdan e'tiboran birinchi yili belgilangan stavka-ning 15 foizi va ikkinchi yili 20 foizi miqdorida soliq to'laydilar. Keyingi yillarda foyda solig'i belgilangan stavka bo'yicha to'liq miqdorda to'lanadi.

u) Tashkil etilgan paytidan boshlab ikki yilga xususiy tijorat banklari, bo'shatib olinadigan mablag`lar ularning texnik bazasini mustahkamlashga va infratuzilmani rivojlantirishga yo`naltiriladi.

f) Ichki ishlar organlari huzuridagi qo`riqlash bo`linmalari;

x) Bo'shatib olinadigan mablag'lar ular tomonidan moddiy-texnik bazani mustahkamlashga, uskunalar, inventar, didaktik materiallar, bolalar o'yinchoq-lari va kitoblarini harid qilishga sarflanishi sharti bilan nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari ro'yxatga olingen paytidan boshlab uch yilga.

s) Xorijiy investitsiyalar ishtirokida qishloq joyida yangidan barpo etiladigan ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish boshlangan paytdan boshlab uch yilga. Ko'rsatilgan muddat tugaganidan keyin keyingi ikki yil davomida mazkur qo'shma korxonalar uchun soliq stavkasi amaldagi stavkaning ellik foizi miqdorida belgilanadi;

e) Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun litsenziya olganlari;

y) Yuridik shaxslar tomonidan dividendlar ko'rinishida olingen va ular olingen yuridik shaxsning ustav sarmoyasi (fondi)ga yo'naltiriladigan foydalar.

Yangi barpo etilgan korxonalar uchun mazkur bandda ko'rsatilgan imtiyozlar ilgari faoliyat ko'rsatgan yuridik shaxslar negizida barpo etilgan. Yuridik shaxslarga (xorijiy investitsiyalar ishtirokida korxonalardan tash-qari), ularning filiallari va tarkibiy bo'limmalariga, shuningdek korxonalar huzurida barpo etilgan yuridik shaxslarga, ular korxonalardan ijara olingen uskunalarda ishlashi sharti bilan, tatbiq etilmaydi.

Mazkur bandning m, n, o, r, s, t, u kichik bandlarida nazarda tutilgan yuridik shaxslar imtiyozli davr belgilanganidan keyin bir yil o'tmasidan tugatilgan taqdirda soliq so'mmasi ularning butun faoliyati uchun to'liq hajmda undiriladi.

Soliq solinadigan daromad (foyda) quyidagi so'mmaga kamaytiriladi:

a) salomatlik va hayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, zo'g'liq-ni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga badallar so'mmasiga, biroq soliq inadigan foydaning bir foizidan ko'p bo'limgan miqdorda;

b) investitsiyalarga (asosiy ishlab chiqarishni rivojlantirish, kengaytirish va rekonstruksiya qilishga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning qaroriga ko'ra kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha muassasalar qurilishiga), shuningdek, investitsiyalar uchun olingen kredit-larni o'zishga yo'naltiriladigan harajatlar so'mmasiga, hisoblangan eskirish-dan to'liq foydalanish sharti

bilan, biroq soliq solinadigan foydaning o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

Investitsiyalar deganda:

Yangi qurilish shaklidagi kapital qurilishga, shuningdek, ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiya qilish, kengaytirish va texnik qayta qurollan-tirishga;

ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun binolar, inshootlar, uskunalar, trans-port vositalari va boshqa alohida obyektlarni (yoki ularning qismlarini) harid qilishga yo'naltirilgan o'z harajatlari tushuniladi.

Ko'rsatilgan imtiyoz quyidagilar hisobiga investitsiyalar amalga oshirilganida taqdim etiladi:

o'z vositalari hisobiga - investitsiyalarga haqiqatda qilingan harajatlar doirasida

bank kreditlari hisobidan - bank kreditlarini haqiqatda so'ndirish so'm-masi doirasida, bank xizmatlariga xizmat ko'rsatish harajatlaridan tashqari.

v)diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiylar va harakatlardan tashqari), hayriya jamg'armalarining mulkida bo'lgan korxonalar daromadidan shu birlashmalar va jamg'armalarning ustavda belgilan-gan faoliyatni amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari so'mmasiga;

g) tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazishga ketgan harajat-larning o'ttiz foizi so'mmasiga.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazishga doir buyurtmalarni bajarishdan foya oladigan korxonalarga yuqorida aytilgan imtiyoz tatbiq etilmaydi.

d) futbolni rivojlantirishga ko'maklashish, futbol klublari va mакtab-larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga sarflanadigan mablag`lar so'mmasiga, biroq soliq solinadigan daromad ning besh foizigacha miqdorda;

ye) "Umid" va boshqa jamg'armasi dasturlarini moliyalashga yo'nal-tiriladigan mablag`lar so'mmasiga.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning daromadlari bo'yicha soliq solinadigan baza zahira fondi ustav fondining 10 foiziga yetguniga qadar daromadning 15 foizigacha miqdorda zahira fondiga o'tkaziladigan ajratmalar so'mmasiga kamaytiriladi.

Vakolatli banklar uchun soliq solinadigan daromad jalg etiladigan erkin valuta mablag`lari konsolidatsiyalangan barqarorlashtirish

jamg`armasiga yo`naltirish chog`ida olinadigan marja so`mmasiga kamaytiriladi.

Ishlovchilari umumiy sonining 3 foizidan ko`prog`ini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar uchun foya solig`i so`mmasi quyidagi tarzda: belgi-langan me'yordan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga daromad solig`i 1 foiz kamaytiriladi. Ishlovchilarining umumiy sonini belgi-lash Yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va budgetga to`lash tartibi to`g`risidagi yo`riqnomalar 21-bandining "v" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to`lovchilarga Soliq kodeksi amalga kiritishiga qadar qabul qilin-gan O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

#### **6. Soliqni buxgalteriya hisobida rasmiylashtirish va mavjud muam-molar**

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar ortib boruv-chi yakun bilan chiqarilgan foya solig`i bo`yicha soliq hisobini, soliq ro`yxatdan o`tgan joydagi soliq inspeksiyalariga yil choraklariga oid va yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarida topshiradilar.

Yuridik shaxs tugatilgan taqdirda soliq organi soliq to`lovchidan kamroq bo`lgan davr uchun hisobotlar, soliq hisobini taqdim etishni yozma xabarnoma topshirish yo`li bilan talab qilib olishi mumkin. Xabarnomada buning sababi va hisobotlar, soliq hisobi qachon va qaysi davr uchun taqdim etilishi lozimligi ko`rsatiladi. Yuridik shaxsni tugatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda tugatish komissiyasi (tugatuvchi) 5 kunlik muddatda bu haqda soliq organini yozma ravishda xabardor qiladi.

Yuridik shaxsni tugatish haqida qaror qabul qilingandan so`ng soliq to`lovchi 15 kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq hisobini taqdim etishi shart. Foya solig`i bo`yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjatlarida belgilangan shakl va tartibda taqdim etiladi.

Yuridik shaxslar foya solig`ini foya solig`i bo`yicha hisoblarni topshirish uchun belgilangan kundan boshlab 5 kun ichida to`laydilar.

#### **O`z-o`zini nazorat qilish uchun savollar Yuridik shaxslar foydasiga soliq nima?**

foydaǵa soliqni to`lovchilar kimlar?

Rezident va norezident nima?

Soliq obyekti va soliqqa tortiladigan daromadlarga nimalar kiradi?  
foydaǵa soliq stavkalari qanday bo`ladi?

Qanday yuridik shaxslar daromadga soliqdan to`liq ozod etiladi?

Qanday yuridik shaxslar daromadga soliqdan vaqtinchalik ozod etiladi?

Yuridik shaxslarning qanday harajatlari soliqqa tortiladigan daromaddan kamaytiriladi?

Soliq hisobini tuzish va soliqni to`lash tartibi qanday?

Ikki yoklama soliq to`lash qanday tugatiladi?

## **6 - Mavzu: Soddalashtirilgan soliq tizimi (yagona soliq) Reja.**

Soddalashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyati.

Yagona soliqning soliq tizimiga tatbiq etilishi va amal qilish jarayoni.

Yagona soliq to'lovchilarining tarkibi va uning obyekti.

Yagona soliqning stavkalari, soliqni hisoblash muddatlari. Soliqni joriy etish afzalliklari.

### **1. Soddalashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasi oldida turgan qator iqtisodiy - ijtimoiy masalalarni yechishda, shu jumladan bozorlarni tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashda, aholini ish bilan bandligini tashkil etishda bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lmiss kichik biznesning ahamiyati beqiyosdir. Hozirga kelib, kichik korxonalar yalpi ichki mahsulotning to'rtidan bir qismini bermoqdalar.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarni ishga solish mumkin. Ularga davlat yordamini berish, kafolatlardan tashqari ixchamlashgan soliq tizimiga o'tishga ruxsat berishlik ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ixchamlashgan soliq tizimining ahamiyati kattadir. Bular *birinchidan*, bozorni tezda tovarlar va xizmatlar bilan boyitish imkonini beradi, *ikkin-chidan*, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rinnari ochishga yordam beradi, *uchinchidan*, ular faoliyatini tashkil qilishni ixchamlashtradi, *to'rtinchidan*, soliq hisoblari va hisobotlari sonini kamaytiradi, soliq hisoblash xodimlari ishini osonlashtiradi, chunki ilgari ko'p soliq hisoblari va dalolatnomalari o'rniiga yagona soliq (aksiz osti tovarlari bo'ladi aksiz) soliq to'laydi. Ko'p martali bunak to'lovlar umuman bo'lmasligi lozim.

Agar kichik korxonalar aksiz osti tovarlari ishlab chiqarsalar, unda aksiz soliqini ham to'laydilar.

Soliq hisobi oddiy bo'ladi, atigi 6 ko'rsatkichdan iborat.

Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lashga o'tishlik ixtiyoriydir. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxona-lar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash» to'g'-risidagi qaroridan ketib chiqiladi. (1998 yil 15 aprel 159-son).

Ixchamlashtirillgan soliq to'lashga o'tgan kichik korxonalar uchun quyidagi to'lovlarni to'lash tartibi saqalanib qolgan:

Aksiz soliq'i;

Bojxona to'lovları;

Davlat boji;

Budgetdan tashqari fondlarga to'lovlar: pensiya fondi, bandlik, yo'l fondlari va b.

Birja bitimlari yig'imi;

Maxsus tovarlarni sotish huquqni olish litsenziya yig'imi;

Savdo qilish huquqini olish yig'imi;

Kichik biznes korxonalari qatoriga o'tishning yagona mezoni bor. U ham bo'ladi ulardagi ishlovchilar sonidir. 2002 yildan boshlab, filial va bo'linmalarda ishlovchilar ham ishlovchilar soniga qo'shiladigan bo'ldi.

Kichik biznes maqomini olishning quyidagi me'yorlari belgilangan:

#### ***Mikrofirmalarda:***

Ishlab chiqarish sohalari uchun – 10 kishigacha;

harid qilish, ta'minlash sotish korxonalari, xizmat ko'rsatish va noishlab chiqarish sohalari uchun – 5 kishigacha;

#### ***Kichik korxonalarda:***

Sanoatda – 40 kishigacha;

Qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida – 20 kishigacha;

fan, ilmiy xizmat qilish, chakana savdo va boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 10 kishigacha ishlovchisi bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagি Far-moniga asosan 2004 yilning 1 yanvaridan kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari toifasiga quyidagilar kirishi belgilandi:

yakka tartibdagи tadbirkorlar;

ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'limgan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji,

chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;

Quyidagi tarmoqlarning o`rtacha yillik xodimlar soni:

yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati - 100 kishidan;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqiligi - energetika va kimyo sanoati, qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari - 50 kishidan;

fan, ilmiy xizmat ko`rsatish, transport, aloqa, xizmat ko`rsatish sohasi (sug`urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo`lmagan sohalar - 25 kishidan.

Soddalashtirilgan soliq, O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar (keyingi o`rinlarda - mikrofirmalar va korxonalar deyiladi) uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo`llash tartibini belgilaydi.

Soddalashtirilgan soliqning amal qilishi dasturiy vositalar ishlab chi-qarishga, kompyuter texnikasi va dasturiy vositalarga servis xizmati ko`r-satishga, kompyuter texnikasida va axborot texnologiyalari bilan ishlashga o`qitishga ixtisoslashayotgan tashkilotlarga (xodimlar sonidan qat`iy nazar) ham tatbiq etiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan amaldagi soliqqa tortish tizimi bilan bir qatorda qo`llaniladi.

Soliqqa tortish tizimini tanlash huquqi ixtiyoriy ravishda mikrofirmalar va kichik korxonalarga mazkur tartibga muvofiq taqdim etiladi, soliq solishning alohida tartibi belgilangan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari-ni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi umum davlat soliqlari yig`indisi, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari joriy etadigan, quyida ko`rsatilgan yig`imlardan tashqari, mahalliy soliqlar va yig`imlar o`rniga yagona soliqning to`lanishini nazarda tutadi:

savdo-sotiq qilish huquqini bergenlik uchun yig`im, shu jumladan, tovarlarning alohida turlari bilan savdo-sotiq qilish huquqini bergenlik uchun litsenziya yig`imlari;

yuridik shaxslarni ro`yxatdan o`tkazganlik uchun yig`im;  
avtotransportni qo`yanlik uchun yig`im.

Yagona soliqni to`lovchi bo`lgan korxonalar sotib olingan tovar  
qiymatida to`langan qo`shilgan qiymat soligi so`mmasini ishlab  
chiqarish harajatlari (muomala chiqimlari)ga hisobdan chiqaradi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo`llaydigan  
mikrofirma-lar va kichik korxonalar uchun bojxona bojlari, qo`shilgan  
qiymat solig'i va import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun  
aksiz solig'i, davlat poshlinalari, litsenziya yig`imlari, budgetdan tashqari  
fondlarga ajratmalarni to`lashning amaldagi tartibi saqlab qolinadi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o`tgan korxona  
umumiyl belgilangan tartibda yoki soddalashtirilgan shakl bo`yicha hisob  
yuritish huquqiga ega. Buxgalteriya hisobotlarining boshlang`ich  
hujjatlari va daro-madlar hamda harajatlarni hisobga olish daftari  
yuritilishining soddalash-tirilgan shakli O`zbekiston Respublikasi  
Moliya Vazirligi tomonidan belgi-lanadi va O`zbekiston  
Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi.

## **2. Yagona soliqning soliq tizimiga tatbiq etilishi va amal qilish jarayoni**

Korxonalar soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o`tishi  
uchun ular ro`yxatdan o`tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga  
yil choragi boshlanguniga qadar bir oy qolishidan kechiktirmasdan  
yozma ariza berishi zarur. Bunda yuqorida nazarda tutilgan shartlarga  
rioya qilinishi lozim. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga  
o`tishda korxonalarning bun-dan oldingi davr uchun o`sha davrda amal  
qilib turgan soliqqa tortish tizimi asosida soliqlarni to`lashga doir  
majburiyatlar saqlab qolinadi.

Korxonaning soliqqa tortish soddalashtirilgan tizimiga o`tishi  
haqidagi qaror yoki dalillangan raddiya davlat soliq xizmati organi  
tomonidan korxonaning ariza bergen kunidan boshlab o`n kun davomida  
chiqariladi.

Hisobni soddalashtirilgan shakl bo`yicha yuritishga o`tishga qaror  
qilgan korxona arizasi qondirilganidan so`ng davlat soliq xizmati  
organiga belgilangan shaklga ko`ra xo`jalik operatsiyalarini hisobga  
olish daftarini ro`yxatdan o`tkazish uchun taqdim etadi. Davlat soliq  
xizmati organi xo`jalik operatsiyalarini hisobga olish daftarining birinchi  
sahifasida ariza imzolangan sanani qayd qiladi. Xo`jalik operatsiyalarini

hisobga olish daftariga O'zbekis-ton Respublikasining amaldagi me'yoriy hujjatlariga binoan belgilangan hisobot bilan muomala qilish qoidalari tegishli bo'ladi. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llanishdan voz kechish va soliqqa tortishning belgilanmagan tizimiga qaytish navbatdagi taqvimi yil boshidan boshlab davlat soliq xizmati organiga tegishli arizani taqvimi yil tugallanishiga 15 kun qolishidan kechiktirmasdan berilgani holda amalga oshirilishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organining soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishni rad qilish haqidagi qarori ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin. Yagona soliqni to'lashdan soliqqa tortishning bundan oldingi tizimiga o'tish yil davomida amalga oshirilmaydi.

### **3. Yagona soliq to'lovchilarining tarkibi va uning obyekti**

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi qonunlarda belgilangan mezonlarga binoan mikrofirmalar va kichik korxonalarga kiradigan yuridik shaxslarga tegishli bo'ladi. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi uchun faoliyat turi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi belgilagan kod bo'yicha aniqlanadi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar xodimlari sonini belgilashda, shuningdek, pudrat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tusdagi boshqa shart-nomalar bo'yicha ishlovchilar ham hisobga olinadi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llovchi va nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniy" jamgarmasi va "O'zbekiston Chernobilchi-lari" uyushmasining mulki bo'lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriy-ari tashkil etgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lashdan ozod etiladi. Mazkur imtiyoz savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarga joriy etilmaydi.

Bir necha faoliyat turlarini amalga oshiradigan yagona soliqni to'lovchilar faoliyatning har bir turi bo'yicha soliqqa tortish obyektining alohida hisobini yuritishi va muayyan faoliyat turining soliq solinadigan obyekti va unga muvofiq keladigan yagona soliq stavkasi asosida yagona soliqning hisob-kitobini amalga oshirishi kerak. Aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarayotgan Mikrofirmalar va kichik korxonalar aksiz sog'lig'ini O'zbekiston Respublikasining Soliq

kodeksida belgilangan tartibda to'lagan-lari taqdirda soddalashtirilgan soliq solish tizimiga o'tishlari mumkin.

*Quyidagilar yagona soliqqa tortish obyektlari (soliq solinadigan oborot) hisoblanadi:*

savdo (harid qilish, vositachilik, ulgurji-sotish, ta'minot) korxonalar uchun - yalpi daromad;

harid qiluvchi, ta'minot-sotish korxonalar uchun yalpi tushum.

Bunda, qurilish, qurilish-montaj, tuzatish-qurilish, ishga tushirish-soz-lash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tovar (ish, xizmat)larni, mol-mulkni sotishdan olingan tushum so'mmasi;

- sotilgan mol-mulk qiymati va boshqa aktivlar

o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni erkin almashtiri-ladigan valutaga eksport qilishdan olingan tushum so'mmalari yalpi tushum tarkibiga kiritilmaydi. Mazkur qoida savdo-vositachilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoxud xom ashyo tovarlarni paxta tolasi, paxta kalavasi, lint, neft, neft mahsulotlari, rangli va qora metallarni erkin almashtiriladigan valutaga eksport qilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga joriy qilinmaydi

Yalpi daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tovarning harid qiymati bilan sotish qiymati o'rtaqidagi farq;

- moliyaviy faoliyatdan daromadlar va O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlar.

#### **4. Yagona soliqning stavkalari, soliqni hisoblash muddatlari.**

##### **Soliqni joriy etish afzallikkleri**

Yagona soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda soliq solinadigan oborot va tasdiqlangan stavkalar asosida hisoblab chiqiladi. Yagona soliq bo'yicha hisob-kitoblar davlat soliq xizmati organlariga yil choragilik va yillik hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi. Yagona soliq budjetga yilning har choragida o'sib boruvchi yakun bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan to'lanadi. Yagona soliq so'mmasi maballiy budjetga

o'tkaziladi. To'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Yagona soliq to'lovchilar bo'ladi, korxonada ishlovchilar soni cheklan-gan me'yordan oshmagan yuridik shaxslar hisoblanadi. Bunga hamma soha-larda faoliyat ko'rsatuvchi har xil mulk shaklidagi korxonalar kiradi. Demak, kichik korxona me'yori faqat ishlovchilar sonigagina qaralib, ishlab chiqaruvchi mahsulot miqdori va daromad olish darajasi e'tiborga olinmagan. Shu yerdan ko'rinish turibdiki, davlat ko'p mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar, xizmatlar bajaruvchi kichik korxonalarni har tomonlama rag`batlantirishni mo'ljallaydi. Faoliyat turi xilma-xil bo'ladi ham yagona soliq to'laydilar.

Yagona soliq to'lovchi korxonalar sotib olingan tovarlar va xomashyo-lar tarkibida to'langan QQS so'mmasini shu tovarlar va xomashyo tarkibiga kiritadi (konsignatsion tovarlar bo'yicha davr harajatiga olib boradi). Mahsu-lot yetkazuvchilarga ish va xizmat bilan birga to'langan QQS so'mmasi shu ishlar, xizmatlar qiymatiga kiritiladi.

Yagona soliq to'lovchilar, bordiyu asosiy vostilar va nomoddiy aktiv-larini ijara bersalar, unda shu aktivlar qiymatidan mol-mulk solig'ini umu-miy tartibda to'laydilar. Korxonada ishlovchilar soniga shartnoma bo'yicha ishlovchilar, fuqaro-huquqiy shartnomalar bo'yicha ishlovchilar, hamda yuridik shaxs maqomini olmagan filial va vakolatxonalarida ishlovchilar soni ham qo'shiladi. Ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab, ixchamlashtirilgan soliq-qa tortish tizimiga o'tishni qaror qilgan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan joydagи soliq inspeksiyasiga yozma ariza beradilar. Bu yerda ixchamlash-tirilgan soliqqa o'tishga ruxsat olish kerak bo'lmaydi.

Korxonada ishlovchilar sonidan 50 foizini 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari, invalitlar birlashmasi «Nuroniy» va O'zbekiston Chernobilchilar assatsiyasi mulkida bo'lgan nogironlar tashkil etsa yagona soliq to'lashdan ozod etiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi 390-son qaroriga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar tushumi:

-iste'mol tovarlari ishlab chiqarishdan olinsa soliq stavkasi yigirma besh foiz kamaytiriladi,

-iste'mol tovarlari ishlab chiqarish fizik hajmi o'sish hisobiga olinsa yagona soliqdan ozod etiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadigan faoliyatning ayrim

turlarini amalga oshirganlari taqdirda, soliqning qat'iy belgilangan so'mmasini oldindan to'lab boradilar.

1) Lizing kompaniyalari lizing beruvchining daromadiga (marjasiga) nisbatan foizda soliq to'laydilar.

Yagona soliq to'lashga o'tishni istagan korxonalar chorak boshlanishi-dan bir oy oldin ro'yxatdan o'tgan soliq idoralariga yozma ravishda ariza berishlari kerak. Korxonalarni yagona soliqqa o'tkazish to'g'risida yoki asos-langan tarzda uni rad etish to'g'risidagi qaror soliq idoralari tomonidan ariza berilgan kundan e'tiboran 15 kun ichida amalga oshiriladi. Yangi tuzilgan korxonalar uchun ruxsat olish talab etilmaydi.

Yagona soliqni hisoblash va budgetga to'lash tartibi. Kichik korxona-larning yagona solig'i yuridik shaxslar tomonidan har chorakda quyidagi oddiy shaklda tuziladi. Mikrofirmalar va kichik korxonalarning yagona solig'i har chorakda choraklik moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgi-langan muddatda to'lanadi. Bunday to'lovlar bo'lmaydi.

Soliq to'lovchilar yagona soliqni to'g'ri, to'liq hisoblash va budgetga o'tkazish javobgarligini soliq qonunchiligi bo'yicha oladilar. Yalpi daromad-ni yoki tushumni kamaytirish soliq obyektini yashirish (kamaytirish) deb qaraladi va tegishli moliyaviy jazolarga tortiladi.

### O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.

Yagona soliqqa o'tishning ahamiyatlari qanday?

Qanday korxonalar yagona soliq to'lashga o'tishlari mumkin?

Qanday korxonalar yagona soliq to'lovchilari bo'la oladi?

Soliqqa tortish obyekti nimalardan iborat?

Soliq stavkalarini kim belgilaydi, nimalarga bog'liq?

Soliq qaysi budgetga tushadi?

Yagona soliqni hisoblash uchun qanday ko'rsatkichlar kerak?

Soliq qaysi davr uchun hisoblanadi?

Yagona soliq qaysi muddatda budgetga o'tkaziladi?

## **VI BULIM: SAVDO VA UMUMIY OVQATLANISH TIZIMINI SOLIQQA TORTISH Reja.**

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig'ining nazariy asoslari.

Yalpi daromad solig'i to'lovchilari, soliq stavkalari, soliqni hisoblab chiqarish tartibi va budjetga to'lash muddatlari.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig'ini takomillashtirish yo'llari.

### **1. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig'ining nazariy asoslari**

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig'ining nazariy asoslari haqida so'z yuritishdan oldin soliqlar nazariyasi – o'zi nima degan savolga javob berish lozim. Soliqlar nazariyasi deganda soliqlarning mohiyati, tabiat, ularning jamiyati, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotdagi o'mi va ahamiyati hamda soliq voqeqliklarida takrorlanib turadigan munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish to'g'risidagi bilimlar tizimi tushuniladi. Demak, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig'ining nazariy asoslari ham xuddi ana shu bilimlar tizimidan iborat ekan. Endi gap ana shular haqida boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 30 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchay-tirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida» 1034-sonli farmoniga binoan 1995 yil 1 yanvardan boshlab mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, barcha savdo va umumiy ovqatlanish korxonalar foyda va qo'shilgan qiymat solig'ini o'miga yalpi daromad solig'ini to'lovlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 10 aprel-dagi 153-son bilan qabul qilingan «Savdo va umumiy ovqatlanish korxona-lariga soliq solish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq savdo va umumiy ovqat-lanish korxonalarining yalpi daromadga solinadigan soliq bo'yicha budjet bilan hisob-kitob qilish tartibi belgilab berildi. Ushbu, yalpi daromad solig'i bo'yicha qabul qilingan 153-son qarorga 1999 yil 14 yanvardagi 20-sun qarori bilan kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq holda «Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va budjet parametrlar

to`g`risidagi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 dekabrdagi 490-sonli qaroriga muvofiq savdo va umumiyligi ovqat-lanish korxonalarini foyda solig`i, qo`shilgan qiymat solig`i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yer solig`i, obodonlashtirish va ijtimoiy infra-tuzilmani solig`i, boshqa soliqlar va soliqlar (bundan mulk solig`i mustasno) o`miga budgetga yalpi daromad solig`ini to`laydilar.

Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini to`laydigan yalpi daromad solig`ini – davlat soliq xizmati organlarining nazorat qilishi haqida Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 10 apredagi 153-son qarorida shunday deyilgan: «Soliqlar haqidagi qonunlarning to`g`ri qo`llanilishi ustidan nazorat qilish O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, «Davlat soliq xizmati to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi qonuniga va O`zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Savdo va umumiyligi ovqatlanishda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshira-yotgan jismoniy shaxslarning soliq organi ro`yxatda o`tishdan bo`lsak tov-lashi eng kam ish haqining besh barobari miqdorida jarima solishga olib keladi. Daromad yashirilgan taqdirda soliq to`lovchilar, shu jumladan savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalaridan yashirilgan foydaniing butun summasi va ana shu summa miqdorida jarima undiriladi. Soliq solinadigan boshqa obektlar yashirilgan taqdirda soliq to`lovidan yashirilgan soliq solish obekti uchun olinadigan soliq summasi va ana shuncha miqdorda soliq undiriladi. Soliq to`lovi yuqoridagi hatti harakatlarni moliyaviy jazo chorasi qo`llanil-gandan keyin bir yil ichida takroran sodir etgan taqdirda undan tegishli summa va ana shu summaning ikki barobari miqdorida jarima undiriladi.

Deklaratsiya va hisobotlar o`z vaqtida va belgilanmagan shaklda taqdim etilsa, soliq to`lovchi, o`tkazilgan har bir kun uchun tegishli summaning 1 foiz miqdorida biroq, ilgari hisoblab chiqarilgan to`lovlar chiqarib tashlangan holda va tegishli to`lov summasining 10 foizdan ko`p bo`lmagan miqdorda.

Buxgalteriya hisobining yo`qligi yoki uni belgilangan tartibini soliqlar va yig`imlar bo`yicha hisob-kitoblarning buzilishiga olib keladigan tarzda buzgan holda yuritganlik uchun soliq to`lovchidan qo`shimcha hisoblab chiqarilgan summaning o`n foizi miqdorida jarima undiriladi:

Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz shug`ullanganlik uchun shu faoliyat-dan olingan butun foyda va ana shu miqdorda jarima undiriladi:

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar hisob-kitobda aks ettirmagan holda tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) realizatsiya qilish operatsiyalarini o'tkazganlik uchun ulardan ana shu tovarlar (ish, xizmatlar) qiymati miqdorida jarima undiriladi:

Soliqlar va yig' imlar bo'yicha to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,07 foiz miqdorida penya undiriladi, to'lov kuni ham shunga kiradi. Penya undirish soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

Tovarlar (ish xizmat) realizatsiya qilinayotganda hisob varaq – fakturalari belgilangan tartibni buzgan holda rasmiylashtirganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchidan sotilgan tovar (ish, xizmat)lar qiyamatining 10 foiz miqdorida jarima undiriladi.

Soliq organlari soliq to'lovchilarga shu jumladan umumiyl ovqatlanish korxonalariga nisbatan moliyaviy jazo qo'llash bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariiga muvofiq, ma'muriy jazo choralarini faqatgina «Ma'muriy javobgarlik kodeksi» (MJK) doirasidagina jarimalar undirish orqali qo'llaydilar. Hukumat organlarining qarorlari bilan davlat soliq organlari ixtiyoriga berilgan ishlar ma'muriy huquqbazarlik obektlari hisoblandi. Ular:

- soliq solish;
- savdo va xizmatlar ko'rsatish;
- tadbirkorlik faoliyati obektlaridir.

Demak, davlat soliq organlariga tegishli ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarning yuqoridagi 3 guruhini ajratib ko'rsatish mumkin ekan.

Soliq solish (1-guruh) borasidagi ma'muriy huquqbazarlik «MJK»ning 174-175 moddalarida keltirib o'tilgan. Soliqlar va boshqa to'lovlardan bo'yin tov lash «MJK»ning 174-moddasiga ko'ra jazolanadi.

Ya'ni agar soliq to'lovchilar soliq, olinadigan daromadni yoki boshqa obektlarni qasddan yashirish yoxud soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan bo'yin tov lash eng kam ish haqining fuqarolarga 3-5 barobariga, mansabdor shaxslarga 5-7 barobar miqdorda jarima undiriladi.

Moddaning 1-qismida ko'zda tutilgan huquqbazarlik soliq va boshqa majburiy to'lovlar ko'rinishida belgilangan summalarni budjetga o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan rasmiy hujjatlarda soliq solish obektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirmaslik yoki noto'liq aks ettirishda namoyon bo'ladi. Soliq solinadigan summaning yashirilish

holatida yashiril-gan summaning miqdori alohida ahamiyat kasb etadi, zero ushbu summa eng kam ish haqining o'nta miqdoridan oshmaganda ma'muriy javobgarlik yuzaga keladi. Huquqbuzarlik obekti – bo'lib esa, ham fuqarolar, ham kor-xona, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslari hisoblanadi.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining soliq va boshqa to'lov-lari to'lashdan bo'yin tov lash «jamiat kodeksi» 184-moddasiga muvofiq quyidagi jinoiy javobgarlikka tortiladilar:

Daromad (yalpi daromad, foyda) yoki soliq to'lanadigan boshqa obekt-lari qasddan yashirish, kamaytirib ko'rsatish, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yig'implari, boj va boshqa to'lovlarini to'lashdan qasd-dan bo'yin tov lash, bojlarni to'lanmagan summa ancha miqdorni tashkil qilsa:

a) eng kam oylik ish haqining oylik barobariga miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay 6 oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Ushbu qilmishlar agar takroran: yirik miqdorda sodir etilgan bo`lsa.

b) eng kam oylik ish haqining ellik barobaridan 75 barobarigacha jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Xuddi shunday qilmishlar alohida yirik hajmda sodir etilgan bo`lsa;

V) eng kam oylik ish haqinig 75 baobaridan 100 barobarigacha miq-dorida jarima yoki mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yuqoridagi ayrib o'tilgan huquqbuvarliklar aniqlanganda – birgalikdagi tekshiruv yakunlari bo'yicha yagona dalolatnomal tuzladi, unga bir tomonidan tekshiruvchi xodimlar va boshqa tomonidan tekshirilayotgan korxona muassasa, tashkilot rahbarlari va bosh hisobchisi yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs imzo chekadi.

Respublika soliq organlari ular vakolatga kiritgan huquqbuvarliklar bo'yicha surishtiruvchi amalga oshiradilar, so'ngra amaldagi qonun hujjat-larni buzish faktlar bo'yicha materiallarni tergov va sud organlariga tekshi-radilar, shuningdek aybdorlarni javobgarlikka tortish masalasini hal etish davlat soliq organlari vakolatlari doirasidan chiqadigan hollarda O'zbekiston Respublikasining jinoyat va jinoyat

protsessidan qonunchiligi me'yorlariga asoslanib, soliq organlari vakolatiga kiritilgan huquqbazarliklar bo'yicha zarur tadbirlari amalga oshirdilar. Demak, yalpi daromad solig'i huquqiy jihatdan ana shu tartibda ta'minlangan ekan.

Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalaridan undiriladigan yalpi daromad solig'inining nazariy asoslari haqida yakuniy fikrlar quyidagicha:

Demak yalpi daromad solig'inining mohiyati – bu shundan iboratki, sav-do va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini budgetga mol-mulk solig'idan tashqari barcha turli xil soliqlar o'mniga 1 ta va oyda birt marta yalpi daromaddan soliq to'laydilar.

Yalpi daromad solig'inining tabiatini o'z ichiga – ushbu solig'inining joriy qilinishdagi holatdan tortib, uni takomillashtirish orasida hozircha qilingan barcha chora-tadbirlar majmuini oladi. Yalpi daromad solig'ini joriy qilish-ning ahamiyati deganda, bu soliqni qo'llash iqtisodiyotga yoki ana shu soliq-ni to'lovchi korxonalar faoliyatiga qay darajada ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'r-satish tushuniladi.

Kichik biznes-jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadil-lashtirishga yordam beradigan o'rta tadbirkorlar sifining paydo bo'lishi demakdir. Bu respublika bozorini zarur iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishdir. Bu yalpi ish o'rinalidir. Shuni hamisha nazarda tutish kerak-ki, faqat kichik va xususiy tadbirkorlikni keng, hamma joyda rivojlantirish hisobtigagina g'oyat keskin muammoni – aholining (ayniqsa ortiqcha mehnat zahiralari mavjud bo'lgan qishloq joylar va mintaqalarda) ish bilan bandligini ta'minlash vazifasini hal qilishga qodir bo'lamic. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda savdoning xoh u ulgurji xoh chakana turi bo'lmasin uning iqtisodiyotdagini o'mi beqiyos, chunki faqat savdo korxonalarini orqaligina barcha iste'mol tovarlari iste'molchilarga yetib boradi. Bu yerda savdo korxonalarini xuddi ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi vositasi vazifasini bajaradi.

Mulkehilik shakliga ko'ra tovar asoslanishini ko'radigan bo'lsak 2001 yil yanvar – iyun holatiga ko'ra 3 foiz tovar almashish davlat hisobiga 97 foiz davlatga qarashli bo'lmasan sekotor ulushiga to'g'ri kelgan. Umuman olganda savdo sohasi iqtisodiyot uchun juda zarur bo'lgan soha hisoblanadi. Tasavvur qilishga hech qanday savdo korxonasi yoki umuman ovqatlanish korxonalarini yo'q deb. Bundan yomoni bo'lmasa kerak. Pul boru tovar yo'q. Bu yana o'sha inflatsiyani keltirib chiqaradi. U esa albatta iqtisodiy inqirozga olib boradi. Hech qanday tovar yoki xizmat sotilmaganidan keyin qanday qilib uni ishlab chiqaruvchining o'zini saqlab qolishi mumkin? Shu nuqtai nazardan olib

qaraganda savdo va xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning ajralmas pul bugini hisoblanadi.

## **2. Yalpi daromad solig'i to'lovchilar, soliq stavkalari, soliqni hisoblab chiqarish tartibi va budjetga to'lash muddatlari**

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, savdo tashkilotlari faoliyat turiga qarab ulgurji, chaka-na savdo va ovqatlanish korxonalariga bo'linadi. Ularning sta-tistika idoralari ro'yxatdan o'tgan bo'ladilar. Ularning har biriga o'sha ro'yxatdan kod belgilangan. Ularning kodi 71000-72100 gachadir. Mulk shakli-ga qarab: xususiy, aksiyadorlik va davlat savdo tashkilotlariga bo'linadi. Demak, savdo tashkilotlarini soliqqa tortish masalalarini yechishda korxona-larning kodi va faoliyat turiga e'tibor beriladi. Yalpi daromadga soliq to'lov-chilar hamma savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarini, chet el investitsiyasi bilan tuzilgan qo'shma va umumiy ovqatlanish korxonalaridir. Yalpi daro-madga soliq obekti bo'lib korxonaning yalpi daromadi hisoblanadi. Yalpi daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

Daromadlar:

A) sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq;

b) operatsion daromadlar;

v) moliyaviy faoliyatning daromadlari va harajatlari qiymati qoldig'i;

f) favqulodda daromadlar;

Tiklanadigan harajatlar:

a) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob stavkalari atrofida va undan ortiq to'langan ssudalar va qarzlar foizi;

b) qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq harajatlar.

To'lov manbaida soliqqa tortilgan dividendlar va foizlar yalpi daromad-dan chegirib tashlanadi.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining o'zları dividentlari va foizlari (bankka kredit foizdan tashqari, umumiy belgilangan tartib bo'yicha soliqqa tortiladi. Bank kreditining foizi to'lanayotganda soliq solinmaydi. Ularning foizi bankning daromadlariga qo'shilib soliqqa tortiladi.

Yalpi daromadga soliq differensiatsiyalashgan stavkalar bo'yicha (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq

qo'mitasining 2003 yil iyuldag'i qarori) quyidagi mezonlarga qarab belgilanadi:

Toshkent shahri va shaharlarda;

qishloq joylarda;

Borish qiyin bo'lgan tog'li tumanlarda.

Agar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari savdo faoliyatidan tash-qari yana mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullansalar, ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha alohida hisob yuritib qo'shilgan qiymat solig'i va foydaga soliq to'lovchilar ham bo'ladi.

Demak yuqoridagi jadvaldan ko'rindiki, agar korxona savdo va umumiy ovqatlanish faoliyati bilan shug'ullansa:

a) shahar joylarda 20 foiz;

b) qishloq joylarda 18 foiz;

v) uzoq va tog'li tumanlarda 12 foiz stavkada soliq to'lagan.

### **1-masala.**

Shaharda joylashgan savdo tashkilotining plastik kartochkalardan foy-dalangan holda olingan tovar aylanmasi va yalpi daromad bo'yicha ma'lumot.

Yuqoridagi misoldan ko'rini turibdiki, joriy oy mobaynida korxonaning tovar oboroti 100000 so'mni tashkil qilgan. Yalpi daromadi esa 10000 so'mni tashkil qilgan. Korxonada plastik kartochkalardan foydalanimagan.

Demak yalpi daromad solig'i quyidagicha bo'ladi:

Yalpi daromad solig'i so'mmasi.

Korxonaning joriy oy uchun to'lash kerak bo'lgan so'mmasi 2000 so'mni tashkil qildi. Lekin korxonaning to'lagan bunak to'lovidan 1500 so'mni tashkil qiladi. Shuning uchun unga 500 so'm qo'shimcha hisoblangan holda soliq so'mmasi to'lanadi.

Agar yalpi daromad solig'ini hisoblab chiqarish va budgetga to'lash tartibiga Vazirlar Mahkamasi, Moliya Vazirligi yoki DSQ tomonidan o'zgar-tirishlar kiritilsa, bu o'zgarishlar korxonaga o'zi ro'yxatdan o'tgan soliq inspeksiysi orqali yetkaziladi. Yalpi daromadga soliqdan soliq hisobi har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay soliq idoralari-ga taqdim etiladi. Hisoblangan soliq so'mmasi 68-schot kredit «Yalpi daromadga soliq» suschotida va debet 81-«Foydadan to'langan soliqlar» schotiga yoziladi.

Soliq to'langanda esa 51-«hisob schot» kredit, 68-schotning subschoti-ga debet bo'ladi. Soliq to'lovchilar soliq so'mmasining soliq hisobi topshiri-shi belgilangan kundan har oyda (15-sana) kechiktirmay

budjetga to`laydilar. Soliqni to`g`ri va ochiq hisoblash hamda to`lash javobgarligi O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo`yicha soliq to`lovchilar zimmasiga yuklatilgan.

Yuqorida ta'kidlab o`tganimizdek «Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini» yalpi daromad solig`i bilan birgalikda mol-mulk solig`ining ham to`lovchilari bo`lib hisoblanadilar. Ular ham boshqa yuridik shaxslar kabi umumiy tartibda ushbu soliqni to`laydilar. Chunki mol-mulk solig`ining to`lovchilari bo`lib o`z mulkiga ega bo`lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini balansida bo`lgan eskirish hisobi-ga olinmagan o`rtacha yillik asosiy vositalar, lizing shartnomasi bo`yicha sotib olingan vositalar, moddiy aktivlar hamda muddatda ishga tushirilmagan mulklar qiymati soliqqa tortish obekti bo`ladi. Korxona mulklarining o`rtacha qiymati yil boshi va oxiridagi qiymatlarning yarim va yil ichida har bir oyning boshida bo`lgan qiymatlarini qo`shib, 12ga bo`lish bilan aniqlanadi:

Agar koxona mulki oyning birinchi yarmida ishga tushirilsa, o`rtacha oylik qiymati belgilanayotganda to`liq oy deb qabul qilinadi, agar mulk oyning ikkinchi yarmida ishga tushirilsa, uning qiymati keyingi oyning boshida bo`lgan mulklarning qiymatiga aniqlanadi.

Soliq to`laydigan bazani aniqlash uchun buxgalteriya balansining aktividan quyidagi schotlar olinadi:

01 – Asosiy vositalar

03 – Uzoq muddatli ijara berilgan mulklar (m).

04 – Nomoddiy aktivlar.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga har yili yangi budjet tasdiqlanganda soliq stavkasiga o`zgartirishlar huquqi berilgan. «Asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlar va budjet parametrlar to`g`risidagi» Vazirlar Mahkamasining 2021 yil uchun 2019 yil 26-dekabrdagi 500-sonli qarorlariga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq stavkasi 12 foiz qilib belgi-langan edi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini yangi tashkil etilgan va ro`yxatdan o`tgan paytdan boshlab 2 yil muddatga soliqdan ya`ni mol-mulk solig`idan ozod qilinadi. Soliqqa tortiladigan baza savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini balansida bo`lgan uy-joy, kommunal va ijtimoiy-madaniy soha obektlari, tabiatni muxofaza qilish, sanitariyatozalash maqsad-lar va o`t o`chirish havfsizligi uchun foydalanaladigan obektlar ushbu mulklar qiymatiga kamaytiriladi. Soliq hisobini soliq to`lovchilar tuzadilar va soliq idoralariga hisobotlar va balanslar topshirish kunida topshiradilar. Korxonalar joriy to`lovlari so`mmasini mustaqil ravishda o`zları hisobot

davr-dagi mulklarning o`rtacha oylik qiymatlari va soliq stavkasiga qarab belgi-laydilar. Soliq so`mmasi davr harajati tarkibiga kiradi. Budjetga joriy to`lov-lar so`mmasini har oyning 20-sanasidan kechiktirmay yillik so`mmanning o`n ikkidan bir qismi sifatida to`lanadi. Hisobot chiqarilgan qo`shimcha soliq so`mmalari hisobot taqdim etilgan kundan e'tiboran 5-kun ichida to`lanadi. Ortigcha to`langan so`mmas kelgusi to`lovlarga o`tkaziladi yoki boshqa to`lovlardan qarz bo`lmasa korxonaning yozma arizasiga binoan 3 kun ichida unga qaytiriladi.

## 2-masala.

Yuqoridagi jadvalda ko`rinadiki hisobot davrida savdo korxonasining soliqqa tortiladigan mulklarning o`rtacha qiymati 20000 so`mni tashkil et-gan. Amaldagi soliq stavkasi qo`llagan holda so`mmasi kelib chiqadi. Yalpi:

$$\text{Soliq so`mmasi} = 20000 \square 5\% / 100\% = 1000 \text{ so`m.}$$

Hisobot davri uchun to`lanish lozim bo`lgan soliq so`mmasi 1000 so`m-ni tashkil etdi. Lekin korxona 850 so`m miqdorda bunak to`lovini to`lagan edi. Shundan kelib chiqib korxona qo`shimcha 150 so`m miqdorda soliq so`mmasini budjetga oyning 20-sanasida kechiktirmay to`lash lozim.

Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalar ma'lum mezonga asoslangan holda yagona soliqni to`lovchilari bo`lishi mumkin. Endi kichik biznes korxonalar o`zining katta imkoniyatlarini ishga solish mumkin. Ularga davlat yordam berishi kafolatlashdan tashqari ixchamlashgan soliqqa tortish tizimi-ga o`rniga ruxsat berishlik ularni tashkil qilish, moliya xo`jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Kichik korxonalar uchun ilgarigi umum davlat va mahalliy soliqlar, yig`imlar o`rniga yagona soliqning o`rnati-lishi soliq hisobi tuzishni osonlashtirdi, ilgarigi pul hisoblar va dalolatnomalar o`rniga yagona soliq hisobi beriladigan bo`ldi. Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalar yagona soliq to`loviga o`tishi ixtiyoridir. Faqatgina ular uchun yagona mezon mavjud, u ham bo`lsa ulardagi ishlovchilar soni, ya`ni 5 kishini tashkil etsagina yagona soliq to`lash tizimiga o`tishlari mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o`tishni qo`llash» to`g`risi-dagi qarori asos bo`lib hisoblanadi. (1998 yil 15 aprel. 159-son).

Yagona soliqli to`lashga o`tgan kichik korxonalar uchun quyidagi to`-lovlarni to`lash tarkibi saqlanib qolingen: aksiz solig`i, boj to`lovlar,

davlat boji, budjetdan tashqari foydalarga to'lovlar, birja bitimlar yig`imi, maxsus tovarlarni sotish uchun litsenziya yig`imi, transport turar joy yig`imi, otcho-parda chopish va yutuq olish yig`imlar;

Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalaridagi ishlovchilar soniga shart-noma bo'yicha ishlovchilar va fuqaro huquqiy shartnomalari bo'yicha ishlov-chilari ham kiritish tartibi mavjud. Agar savdo va umumiyligi ovqatlanish korxo-nalari yagona soliq to'lashga o'tgan bo'lalar ularning yalpi daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) tovarlarning sotib olish va sotish o'rtasidagi qiymat farqi;

moliyaviy faoliyatdan daromadlar va asosiy faoliyatning boshqa daro-madlari kiradi.

Yaona soliq stavkalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili budjet ko'rsatkichlari tasdiqlanayotganda berilib boriladi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 26 dekabrda qilingan 500-sonli qarori bilan kichik korxonalar uchun quyidagiga soliq stavkasi belgilangan. Shun-dan biz o'zimiz uchun zarurini ko'ramiz. Bu savdo (harid qilish, vositasining, ulgurji-ta'minlov, ta'minlov korxonalari, shu jumladan umumiyligi ovqatlanish. Ularning yalpi daromadlariga nisbatan 25 foiz qilib belgilangan edi. Yagona soliq to'lashga o'tishni istagan savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini chorak boshlanishidan bir oy oldin ro'yxatdan o'tgan soliq idoralariga yozma ariza berishlari kerak. Korxonalarni yagona soliqqa o'tkazish to'g'risida yoki asoslangan tarzda undan bosh tortish to'g'risidagi qaror soliq idoralari tomo-nidan ariza berilgan kundan e'tiboran 15 kun ichida amalga oshirilishi lozim.

Yagona soliq yoki yalpi daromad solig`ining afzallik va kamchilik tomonlarini aytadigan bo'lsa agar savdo va umumiyligi ovqatlanish korxona-larining balansidagi mulkning qiymati yuqori bo'lsa uning yagona soliq to'la-shga o'tganlari ma'qulroq. Chunki yagona soliqqa o'tkazilgandan keyin mol-mulk solig`ini to'laydilar. Yagona soliq tizimining ahamiyati juda kattadur. Bu faqat soliqlarning ixchamlanganligida emas, balki hisob xodimlari uchun vaqt va pul harajatini kamaytirish, soliqlar va yig`imlardan to'laydigan moliyaviy jazolarni kamaytirish imkoniyat beradi. Hisob-kitobning oddiyligi va osonligi ham yagona soliqning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Agar savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonasining yalpi darajada katta hajmda bo'ladigan bo'lsa, u yagona soliqqa o'tib ma'lum miqdordagi so'mma pullari iqtisod qilish imkoniga ega bo'ladi. Lekin ushbu korxonalar yagona soliqqa bo'lib, daromadlilik darajalari tushib ketsa ya'ni yalpi

daromadlari kamaysa yagona soliq tizimi qo'l kelmaydi. Bunday holda yalpi daromad soliqning qo'llanishi yuzaga keladi. Bundan tashqari yalpi daromad solig'ining stavka-lari differensiyatsalashning, jamlangan o'miga qarab bir biridan farqlanish ham ma'lum ma'noda qulaylik keltirib chiqaradi. Lekin savdo va umumi ovqatlanish korxonalarining asosiy vositalarining ko'pligi yoki qiymatning yuqoriligi yalpi daromad solig'i to'lovchilarning soliq to'lovleri so'mmasini ko'paytiradi. Bu esa yagona soliqqa o'tishga undiradi.

### **3. Savdo va umumi ovqatlanish korxonalaridan olinagan yalpi daomad solig'ini takomillashtirish yo'llari**

Soliq siyosatini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolni mustahkam-lashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq tizimi islohat jarayonining tarkibiy qismi, uning ichki harakatlantiruvchi omili bo'lgani holda, iqtisodiy islohat maqsadlariga eng ko'p darajada muvofiq kelishi shart..

Soliq tizimini takomillashtirishga asos qilib olingen boshamoyil – korxonalar zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirishdir.

Savdo va umumi y ovqatlanish korxonalarida soliq yukini yuqori bo'li-shi, korxonalar o'z mablag'larini o'z faoliyatini kengaytirishga, zarur texnika bilan qayta qurollantirishga, o'z aylanma mablag'larini to'ldirishga sarflash imkoniyatidan mahrum qiladi. Og'ir soliq yuki uzoq muddat zimmasida turi-shi natijasida inflatsiya yuksak darajada bo'lishini bilvosita qo'llab quvvat-lash havfi vujudga keladi. Buning sababi shuni savdo va umumi ovqatlanish faoliyat sohasi pasayib borayotgan bir paytda soliq miqdori korxona daro-madlarining inflatsiya kuchayib borishi natijasidagina oshirilishi mumkin. Bu esa moliya tizimining barbob bo'lishiga, ishlab chiqarishning orqaga ketishi, ijtimoiy muammolarni keskinlashuviga olib keladi.

Demak soliq solish ishlari shunday tashkil etilishi kerakki, uning nati-jasida davlat va mahalliy budgetlar yetarli manbagaga ega bo'lishi hamda undan mamlakat milliy iqtisodiyotning hamma sohalarda foydalanish imkoniyati yaratilishi, mahsulot ishlab chiqarish hajmning ko'paytirishga va harajatlarni kamaytirishga erishilishini ta'minlash lozim. Soliq solish yo'li bilan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solib turishning asosiy mohiyati shundaki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan korxnalardan soliq ko'proq olinib, iqtisodiy nochor korxonalarga

soliqlardan yengilliklar berilib, iqtisodiyotda umumiy o'sish ta'minlanishi kerak.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan undiriladigan turli xilda-gi soliqlar o'rniغا yalpi daromad solig'ining joriy etilishi ushbu korxonalar faoliyatini kuchaytirish imkoniyatini yaratadi. Korxona ixtiyorida mablachg miqdorining ortib borishi ularning moliyaviy ahvolini mustahkamlabgina qolmay, balki ularning investitsiya faoliyatini jonlantirishga ham olib keladi.

Repspublikamizda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish borasida qilingan chora-tadbirlardan biri bu ushbu korxonalar uchun «Yalpi daromad solig'ini» joriy etilishi bo'ldi. Shunday ekan soliq tizimini yanada takomillashtirish milliy iqtisodiyotga uni barqarorlashtirishda muhim shart bo'lib xizmat qiladi. «Savdo va umumiy ovqatlanish» korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig'ining undirilishi xususiyatlarini tahlil qilish orqali, uni yanada takomillashtirish maqsadini ko'zlab, quyidagilarni o'z takliflarim sifatida sanab o'tishim mumkin:

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig'i stavkalarini kamaytirish lozim. Chunki ushbu faoliyat bilan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmay yakka tartibda shug'ullanuvchi jismoniy shaxs-lar uchun qulay soliq muhiti yaratilgan. «Savdo va umumiy ovqatlanish» korxonalaridan olinadigan yalpi daromad solig'i stavkalarining yuqoriligi natijasida ularning rachqobatga bardosh berishi qiyinlashadi.

Ikkinci tomondan esa soliq stavkalari qanchalik orsa, soliq to'lovlar-ning soliqdan qochish mayillari shunchalik ko'payadi. Buning ikki yo'li bor:

- kam ishslash, kam jamg' arish va kam soliq to'lash;
- noqonuniy yo'llar bilan soliqdan qochish.

Bularning oqibatida esa dvalatning soliqli daromadlari kamayadi.

Yana bir asosiy muhim o'z yechimini topish shart bo'lgan masalalardan biri bu kassa apparatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida kassa apparatlari mavjud. Ushbu korxonalar o'zlarini hisob kitob raqamlarini ochgan banklaridan o'zlarida qancha miqdorda o'z ixtiyoriga zarur bo'ladigan naqd pul qolishi kerakligi to'g'risidagi buyruqni olganlar. Ushbu pul miqdori chegaralangan. Shunday bo'lsa-da aholidan olinadigan naqd pullarni kassa apparatidan o'tkazmaslik qo'pol qilib aytgan-da kassaga urmaslik

hollari tez-tez uchrab turibdi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda soliq idoralari tomonidan o'z tumanlaridagi shu kabi korxonalar kassalarini nazoratini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'lardi. Shuning uchun har bir tuman inspeksiyasidagi uchastkalarni bo'lib berish kerak. Bu bo'lib berish aynan ana shu kassa operatorlarini nazorat qilish yuzasidan bo'lishi kerak deb o'ylayman. To'g'ri soliq inspeksiyalari inspektorlar tomonidan vaqtiga bilan xronometrik o'tkazdilar. Lekin uning samarasi faqatgina o'sha davrdagina bo'ladi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar**

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadga o'tishning ahamiyatlari qanday? Qanday korxonalar yalpi daromad solig'i to'lashga o'tishlari mumkin?

Qanday korxonalar yalpi daromad solig'i to'lovchilari bo'la oladi?

Soliqqa tortish obyekti nimalardan iborat?

Soliq stavkalarini kim belgilaydi, nimalarga bog'liq?

Yalpi daromad solig'ini hisoblash uchun qanday ko'rsatkichlar kerak?

Soliq qaysi davr uchun hisoblanadi?

Yalpi daromad solig'ini qaysi muddatda budjetga o'tkaziladi?

## **II- BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQLAR**

### **7 - Mavzu: Qo'shilgan qiymat solig'i**

#### **Reja.**

Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq tizimida joriy qilinishi hamda iqtisodiy ahamiyati.

Qo'shilgan qiymat solig'ining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.

Soliq to'lovchilari tarkibi, obyekti, soliq stavkalari, to'lash muddat-lari, soliq bo'yicha imtiyozlar.

Soliqni hisoblash va budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq so'mmasini aniqlash usuli.

Schot fakturani to'ldirish tartibi va soliqning buxgaleriya hisobida rasmiylashtirish.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha mavjud muammolar.

#### **1. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq tizimiga joriy qilinishi hamda iqtisodiy ahamiyati**

Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar, ishlar va xizmatlar ustiga qo'yilgan-ligi uchun egor soliqlar qatoriga kiradi. Bunday qaraganda uning to'lovchilari mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish va xizmatlarni bajaruvchi korxona, tashkilot, birlashmadek tuyuladi. Ana shu korxonalar soliqni huquqiy to'lovchilari bo'ladi. Soliq idoralari soliqni o'z vaqtida va to'liq budjetga o'tkazishni ulardan talab qiladilar. Aslida esa mazkur korxona, tashkilot va birlashmalar qo'shilgan qiymat solig'ini mahsulot, ish, xizmatni sotib oluvchi korxona, tashkilot va birlashmalar sotib olgan mahsulot, ish, xizmat ustiga qo'yib yuboradilar. Demak, soliqni haqiqiy to'lovchilari shu mahsulot, ish va xizmatni iste'mol qiluvchi korxonalaridir. Ularning oxirgi qiymati chakana savdo orqali aholiga yetib boradi va oxirgi iste'molchilar bo'ladi.

Amaliyotda O'zbekiston Respublikasining soliqlar haqidagi qonunlari-ga binoan, hisobot davri (oyi) uchun realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisoblab chiqarilgan qo'shilgan qiymat solig'i so'mmasi bilan qiymati ishlab chiqarish va muomala harajatlari (masalan, materiallar, xom ashyo, butlovchi buyumlar, yoqilig'ini yetkazib bergen ta'minotchilarga to'langan haq)ga qo'shiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i so'mmasi o'rtaсидаги farq sifatida hisoblab chiqariladi. Bu

umumiy tartib mazkur soliqning qo'shilgan qiymat-ga solinadigan soliq sifatidagi mohiyatini olib beradi. Bu o'rinda korxona bir vaqtning o'zida ta'minotchiga soliq to'lovchi sifatida ham, tovarlarni sotib oluvchi, ishlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilardan soliq oluvchi sifatida ham maydonga chiqadi. Bunday ahvolda tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetish-movchiligi yoxud ularga talab oshgan sharoitlarda, QQS korxonaning moli-yaviy natijasi (foydasi)ga nisbatan haqiqatdan neytral soliqqa ham, mulkchi-lik shakllaridan va xo'jaliklarning tarmog'idan qat'iy nazar, barcha korxona-lar va birlashmalar tomonidan to'lanadigan universal soliqqa ham aylanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bilvosita ko'p bosqichli soliq bo'ladi, ishlab chiqarish va taqsimlash siklidan boshlanib, iste'molchiga sotilishgacha bo'lgan har bir aktdan undiriladi. Uning obyekti bo'ladi, ushbu jarayonlarda qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Ya'ni, mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlarni bajaruvchi va xizmatlarni ko'rsatuvchi tomonidan yangidan mahsulot ishlab chiqarish uchun yoki ishlar va xizmatlarni amalga oshirish uchun sotib olin-gan xom-ashyo, materiallar yoki tovarlar va mahsulotlar ustiga qo'shilgan qiymatdir. Ushbu soliq tovarlar, ishlar va xizmatlar narxining barcha elementlarini cheklaydi hamda ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga undaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotlari asosida davlat sanoat va savdo kapitalining aylanishi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi, va bu makro darajada tartibga solishni yengillashtiradi. Bundan tashqari, davlat tovarlar hali haqiqiy va oxirgi iste'molchi hisoblangan hamda soliqning haqiqiy to'lovchisi bo'lmish aholiga sotilishidan oldin daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Jahan amaliyoti qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning deyar-li bir xil tizimiga ega. Soliq to'lovchi sotilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun haridorlardan olingan soliq bilan ushbu mahsu-lotlarni ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlarni amalga oshirish uchun to'lan-gan soliq so'mmasi orasidagi farqni budgetga to'laydi. Agarda haridorlardan olingan soliq so'mmasidan chegirib tashlanadigan mahsulot, ishlar va xizmatlarni yetkazib beruvchiga to'langan soliq so'mmasi olingan soliq so'm-masidan ortiq bo'ladi, u holda manfiy qoldiq keyingi davr soliq to'lovlar hisobiga o'tkaziladi, yoki rivojlangan davlatlarda qo'llanilib kelinayotgani-dek, soliq to'lovchiga qaytarib beriladi.

Soliqlarni qismrlarga ajratib undirishga imkoniyat beradi, chunki soliqqa tortish miqyosiga firmalarning barcha sotuvlari kiradi, ammo

oraliq sotib olishlarda to`langan soliq so`mmasi kelgusida jami so`mmadan chiqarib tash-lanadi. «Soliq krediti» nomi bilan atalgan ushbu usul soliq tizimiga o`zini o`zi tartibga solish elementini kiritadi va soliqlarni undirilishi yuzasidan tartibni yaxshilaydi. Qo`shilgan qiymat solig`ining asosiy ustunligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bo`g`inida to`langan soliqning hajmini aniqlash mumkin. Bu esa, masalan, eksportga berilgan chegirmalarni aniq hisoblashga yordam beradi va eksport subsidiyalari berilgan vaqidagi qonun buzilishlarning oldini oladi.

Budgetni muvofiqlashtirish muammolar bozor iqtisodiyotga asoslangan iqtisod uchun davlat tomonidan bozor iqtisodini tartibga solishda juda muhim-dir. Ushbu muammolar orasida soliqlar yordamida qoplanib turiladigan budget-ning daromad qismini shakllantirish alohida o`ringa ega. Bunda ko`pgina mam-lakatlarda asosiy o`rin bilvosita soliqlarga qaratiladi. Xalqaro amaliyotga asosan bu soliqlarga iste'moldan soliqlar (qo`shilgan qiymat solig`i, savdo va oborot-dan olinadigan soliqlar), aksizlar va bojxona to`lovları kiradi. O`zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlar davlat budjeti daromadlarining deyarli yar-mini tashkil qiladi. Bundan tashqari, ushbu soliqlar narxning asosiy qismini tashkil qila turib, mamlakat ichidagi ishlab chiqarish va iste'molga hamda xalqaro savdoda yetarli darajada ta'sir ko`rsatadi. Shu sababli, qo`shilgan qiymat solig`ining asosiy imkoniyatlari va turli mamlakatlarda ularning ishlatalishining tahlili O`zbekiston uchun katta ahamiyatga egadir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda iqtisodiy o'sish darajasiga bog`liq holda soliqlarning bevosa va bilvosita soliqlarga bo`linishi o`rtasida aniq bog`liqlik ko`zga tashlanadi. Davlatning va undagi aholining iqtisodiy rivojlanishining pastligi asosan har bir aholi jon boshiga to`g`ri keladigan YAIM bilan o`lchanadi hamda bu hol jismoniy va yuridik shaxslar daromad-laridan olinadigan to`g`ri soliqlar hajmining pastligiga olib keladi. Shu saba-bli, ko`pgina endigina rivojlanayotgan davatlarda soliqqa tortishda bilvosita soliqlar asosiy o`rinni egallaydi. Rivojlanishning eng past ko`rsatkichlariga ega bo`lgan davatlarda bilvosita soliqlarning barcha soliqlar tushumi orasi-dagi o`mi 68-foizni, to`g`ri soliqlar esa atigi 32 foizni tashkil qiladi. Rivojlangan davatlarda esa, buning aksi, ya`ni 32 foizini to`g`ri soliqlar, 68 foizini esa egri soliqlarni tashkil qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bilvosita soliqlarning ahamiyati va kerak bo`lganda ularning rolini oshishi muqarrarligini inkor qilmagan holda, quyidagi hollarga e'tiborni qaratish lozim bo`ladi:

Bilvosita soliqlarning yangisini kiritish yoki mayjudlarining soliq stavkalarini oshirishda ularning ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sirini o'r-gangan holda amalga oshirish lozim. Ushbu hollarda bu salbiy holatlarni oldini olish uchun barcha choralarmi amalga oshirish kerak, hattoki, bilvosita soliqlar, ayniqsa, salbiy holati iste'molni juda tez qisqarishiga olib kelib, ishlab chiqaruvchilarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi QQSni qisqar-tirish choralarini ko'rish lozim.

Bunday hollarda ba'zi etaplarda bilvosita soliqlarning o'mini oshirishga majbur bo'lgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarning amaliyotini ham hisobga olish zarur. Bu amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilvosita soliq-larning rolini, soliq solish bazasini, soliq stavkasini oshirish faqatgina ushbu choralar natijasida olingan qo'shimcha mablag'larni soliq sohasidagi aniq bir o'zgarishlar uchungina ishlatilganda uzoq muddatli yaxshi natijalar berishi mumkin. Bunday choralar sifatida foyda solig'ini kamaytirishni taklif qilish mumkin. QQS ko'pgina mamlakatlarda davlat daromadining 12-30 foiziga-cha qismini ta'minlab beradi va bu YAMMning 5-10 foiziga tengdir. Ushbu soliq soliq tushumlari orasidagi ishonarli manbadir va bu ayniqsa daromadlar (foyda) cheklangan mamlakatlar uchun tegishlidir.

O'zbekistonda 1992 yildan beri qo'llanilib kelinayotgan QQS (aksiz soliqlari bilan birligida) oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar - savdo va oborotdan olinadigan soliqlarning o'mini to'liq almashtirdi. Ammo QQS o'zining o'mi bo'yicha budgetning daromad qismini shakllantirishda, respub-lik va korxonalar iqtisodiga ta'siri, narxlar proporsiyasini aniqlashda ulardan o'tib ketdi. QQS qo'llanilib boshlangan vaqtidan hozirgi kungacha bo'lgan davrda O'zbekiston davlati budgetining asosiy manbalaridan biri bo'ladi qoldi. O'tgan davrlar ichida QQS stavkasi 1992-yilda amal qilgan 30 foizdan 1997 yilga kelib 18 foizgacha tushirildi va 1998 yildan boshlab 20 foiz qilib belgilanib, ushbu stavka bugungi kungacha saqlanib qolindi.

Soliqning ushbu stavkasi deyarli barcha MDH davlatlarida amal qilib keladi va bu davlatlararo savdoda amalga oshirishda ancha samarali hisoblanadi. Bundan tashqari, soliqning ushbu stavkasida davlat budgetining daromad qismi 30 foizligicha saqlanib qoladi va bu bozor iqtisodiga mo'ljallan-gan davlatlardagi ushbu manbadan keladigan tushumlar hajmi bilan mos keladi. Soliqning bu stavkasi yiliga 1-2 foizdan kamayib borayotgan foyda solig'i stavkasining pasayishi natijasida olinmay qolinayotgan budget daromadi o'mini qoplash imkoniyatini beradi.

## **2. Qo'shilgan qiymat solig'ining shakllanish va rivojlanish bosqichlari**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan vaqtidan unchalik ko'p vaqt o'tmagan bo'ladi, bugungi kunda davlatimiz har qanday mustaqil davlatning asosiy xarakteristikasi sifatida o'zining soliq tizimiga, soliq regula-torlariga ega. Mamlakatimizning yangi Qomusi qabul qilinishida davlatimiz rahbari so'zlagan nutqida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida soliqlarning principial o'mi aniqlanib berildi va quyidagilarni aytib o'tdi: - «Endigina Respublikamizda shakllanayotgan soliq tizimi o'ziga juda katta jalbni va uni takomillashtirishni talab qiladi. Barchamizga ayonki, soliqlar - bu davlat va mahalliy budjetlarning daromad qismini to'ldirilishida asosiy manba hisob-lanadi. Shu bilan birga, soliqlar barcha xo'jalik faoliyatlarini qamrab olmoq-da, ular har bir tarmoq, korxona uchun alohida xususiyatlarni hisobga olishi lozim». Bizning fikrimizcha, shuni to'liq his qilish kerakki, rejali ravishda soliqlarning oshib borishi davlatga va jamiyatga foyda keltirmaydi. Bundan tashqari, soliqlar daromadlarning bir qismini o'z ichiga olmoqda, ular hamma sharoitda xalq xo'jaligi va aholi uchun yanada ko'p va yanada yaxshiroq mahsulotlar va tovarlar ishlab chiqarishga harakat qilayotgan korxonalar va fuqarolarni rag'batlantirishi lozim.»

Soliq to'g'risidagi qonunlar takomillashgan sari budjet tushumlarini to'ldirish vositasi sifatida umumiy iste'molga doir qo'shilgan qiymat solig'i-ning ahamiyati ortib borishiga shubba yo'q. Davlat budjetining daromad qismini qo'shilgan qiymat solig'i bilan to'ldirish g'oyasi XX asr boshlarida paydo bo'lgan edi. Ushbu soliq birinchi marta Germaniyada 1919 yilda Vil-gelm fon Simens tomonidan "Veredete Umsatzteuer" (oblogorojenniy nalog s oborota) nomi bilan kiritilgan edi. Keyinchalik ushbu soliq birincha marta 1954 yilda fransuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) sifatida taklif qilingan bo'ladi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'pgina davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. Masalan, Sharq Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Daniya, Niderlandiya, Fransiya, Shvetsariya)da 60 yillarning oxirida, (Belgiya, Velikobritaniya, Italiya, Lyuksemburg, Norve-giyada) 70-yillarning boshlarida QQS joriy etilgan va hozirgi kungacha amal qilib kelinmoqda hamda u asosiy iste'mol solig'i hisoblanib kelinmoqda. QQS Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 35 dan ortiq davlatlarda joriy etilgan va undirilib

kelinmoqda. Mustaqil Davlatlar hamdo'stligiga (MDH) kirgan barcha davlatlarda 1992 yildan boshlab QQS joriy etilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarda joriy etilgan bo'ladi, Avstra-liya va AQSH bundan mustasnodir. QQSni chiqarib tashlash usulidan foyda-laniladigan Yaponiyadan tashqari mazkur mamlakatlarning hammasi QQS kredit hisob-kitobi usulidan foydalanadi. Bu usul korxona - shaxslardan ta'minotning barcha bo'g'inxilar bo'yicha soliqqa tortiladigan xom ashyo va materiallarning barcha turlari uchun tegishli stavka bo'yicha QQS hisobini yuritishni talab qiladi. Soliq to'lovchilar xom ashyo va materiallar yetkazib beruvchilardan olinadigan QQS miqdori kreditdan chiqarib tashlanishiga haqlidir. Buning tasdig'i sifatida bunday xom ashyo va materiallarga ma'lum talablarga mos keladigan soliq hisob-kitobi yoziladi. IHTTga a'zo bo'lgan mamlakatlarning deyarli hammasida yillik aylanmaning eng yuqori miqdori (soliq busag'asi) belgilab qo'yilgan va shu tufayli ular QQS bo'yicha ro'yxatdan o'tmaslikka haqlidir.

1960-yillarning o'rtaoriga qadar deyarli biror mamlakat ham hozirgi shakldagiga o'xshash qo'shilgan qiymat solig'idan foydalangan emas. U davrda IHTTda ishlab chiqarish va taqsimot bo'g'inxilarining aniq bosqichida, keyinchalik boshqa hech qanday soliq solinmaydigan bir bosqichli soliq keng iste'mol solig'ining oddiy turi edi. Odatda ulgurji yoki chakana savdoga bunday soliq solinardi. Haridordan qat'iy nazar va iste'mol omiliga soliq kre-diti bermagan holda tovarni har qanday sotishdan soliq undirishni o'z ichiga oladigan ko'p bosqichli soliqdan ham foydalaniłgan. Ya'ni tovar narxiga qo'shilgan soliq miqdori ishlab chiqarish bilan oxirgi chakana savdo o'rtasi-dagi ko'p bosqichlar orqali ko'tarilib borishi lozim edi. 1967 yilda bosqichli soliq to'qqiz mamlakatda mavjud edi.

QQS tizimi ikki bosqichda joriy etildi; avvalo Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligidagi va Yevropa Ittifoqiga eng birinchi bo'ladi kirgan mamlakatlarda qo'llanilgan, so'ngra 1986 yilda IHTT mamlakatlarida umu-miy soliq islohotlarining amalga oshirilishi QQSning Yevropadan tashqarida ham tarqalishiga olib keldi. Natijada IHTTga a'zo bo'lgan 25 mamlakatdan 23 tasida QQS juda qisqa muddatda joriy etildiki, bu o'zaro bog'liq bo'lgan bir qancha ta'sir va sabablarning in'ikosi edi. Shunday sabablardan biri, masalan, QQS ishlab chiqarish va iste'molni kamroq darajada o'zgartirib, narx-navoga ancha holis ta'sir o'tkazishidir. Bundan tashqari, u mahsulot yetkazib

beruvchilar orqali kuzatib turish imkoniyati bo'lgani uchun aldash imkoniyatlarini kamaytiradi. Bu esa QQSning ancha yuqori stavkalarini bel-gilashga, binobarin iste'molga umumlashtirilgan soliqlarning boshqa turlariga nisbatan ko'proq daromad olishga imkon beradi. QQSning faktura usulidan foydalanib, ma'lum tovarlardan yig'ilgan QQS miqdorini aniq bilish imkonini berishi ham juda muhimdir. Bu usul bojxona orqali tartibga solishga yanada aniqroq tus beradi. Ayni shu maqsadda Yevropa Ittifoqi (YEI)ga kirish istagini bildirgan mamlakatlarda QQSni joriy etish zarurdir.

QQSga o'qish bosqichli turdag'i soliqdan va ulgurji savdo solig'idan voz kechishga asosiy sabab bo'ldi. Chakana savdo solig'iga kelganda esa, QQS bilan bir qatorda u boshqa keng iste'mol soliqlariga nisbatan bir qancha afzalliklarga egadir. Qo'shma Shtatlarda u QQSni joriy etish xususidagi tazyiqni kamaytirib yetarli ijobjiy ta'sir qiladi. Aslini olganda chakana savdo solig'i to'xtatib turuvchi tizimdir, chunki mahsulot ishlab chiqaruvchilar, ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar ro'yxatdan o'tishi va to-varlarni ro'yxatdan o'tmagan shaxslarga, ya'ni odatda iste'molchilarga sotish-dan soliq to'lash uchun hisobga olinishlari shart bo'ladi. Ammo tovar shaxsiy foydalanishi uchun harid qilinmayotgan bo'ladi, tovarlarni bir-birlariga sotishlari va sotib olishlari va bundan soliq to'lamasliklari mumkin. Bino-barin, soliq to'lash ro'yxatga olingan savdogarlar tomonidan tovar iste'molchiga sotilgunga qadar to'xtatiladi. QQSning faktura usuli esa, aksincha, soliq miqdorini qoplash tizimi bo'yicha amal qiladi, bunda sotish uchun tovar harid qiluvchilarning hammasi o'zi harid qilgan tovar uchun soliq to'lashga majbur bo'ladi. Biroq ular ro'yxatdan o'tgan bo'ladi (asosan barcha savdo-garlar belgilangan aylanmadan oshirib yuborishadi), bu holda QQSni qay-tarib berishni talab qilishlari mumkin. QQS va chakana savdo solig'i stavka-lari va soliqqa tortiladigan baza baravar bo'ladi, ularning tovarlar narxiga ta'siri ham bir xil bo'ladi. Bu ikki soliq o'rtaida muhim iqtisodiy tafovut yo'q. Lekin QQSning chakana savdo solig'iga qaraganda ma'muriy jihatdan ikki afzalligi borligi aniqlangan. Birinchidan, QQSda tovar solig'ini uni ish-lab chiqaruvchiga o'tkazish oson kechadi, ikkinchidan, faktura bazasidagi QQS chakana savdo solig'iga qaraganda, soliq to'lashdan bo'yin tov lashdan ishonchliroq himoya qilishni ta'minlaydi.

Birinchi afzalligini ko'rib chiqaylik. Pirovard iste'molchilarga ham, oraliqdagi korxonalarga ham sotiladigan tovarlar, ishlari va xizmatlar nisbatan QQSga osonroq moslashadi. Ishlab chiqaruvchi bunday

tovarlarni sotib olayotganda to`langan har qanday soliqning o`rnini qoplashga harakat qiladi, chakana savdo solig`ida esa, soliq o`rnini qoplash og`irligi, agar soliq idora-lari tijoratchi deklaratsiyasidan qoniqmasa, shu idoralar zimmasiga tushadi. Bundan tashqari, chakana savdo solig`ida tovardan so`nggi marta foydalani-shni tekshirish mahsulot yetkazib beruvchining zimmasiga tushadi, tovar yetkazib beruvchi esa haridor maqomini bilmaydi, demak pirovard foydaluvchini ham bilmaydi. QQSda esa buni biladigan haridor tekshiriladi.

QQSni to`lash chog`ida tovardan pirovardida qanday foydalанишни текширishга zarurat bo`lмаганлиги sababli mahsulot ishlab chiqaruvchining binokorlik materiallari, yonilg`i va energiya hamda shu kabi tovarlarini oldin ular to`lab kelgan soliqlardan ozod qilish oson bo`ladi. Mahsulot yetkazib beruvchi chakana savdo solig`ini to`layotganda tovardan shaxsiy yoki tijorat maqsadlarida foydalinishiga ishonch hosil qilishi kerak.

QQS tovar yoki xizmat nimaga mo`ljallanganidan qat`iy nazar to`lanaveradi, haridor esa QQSni qaytarib olish uchun soliq idoralariga bunga haqli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim. QQSning bu afzalligi ko`pincha shaxsiy foydalish uchun, biznesda yoki eksport uchun darhol foydalish maqsadida ko`rsatiladigan xizmatlarga soliq solish chog`ida, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinci afzalligi quyidagi qoidalar bilan mustahkamlanadi:

a) QQSdan bo`yin tov lash oson emas, chunki hisob-varaqlarga qarab tovar harakatini aniqlash oson, nega deganda sotuvchi o`z harajatlarini qop-lash maqsadida soliq qaytarib berilishi uchun buni tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi kerak. Chakana savdo solig`ida mumkin bo`lмаган tovar hara-katini bunday kuzatish soliq inspektorlariga muqobil tekshirish uchun QQS hujjatlardan daromad solig`ini tekshirishda foydalish imkonini beradi;

b) QQS qo`llanishi narxi soxtalashtirish maqsadida haridor bilan sotuvchi o`rtasida til biriktirish imkoniyatini yo`qqa chiqaradi, chunki agar haridor soliq xususida ko`proq chegirmaga ega bo`lish uchun hisob varaqda narx yuqori darajada ko`rsatilishidan manfaatdor bo`ladi, sotuvchi o`z soliq majburiyatini kamaytirish uchun narx mumkin qadar arzon ko`rsatilishidan, demak, kamroq soliq to`lashdan manfaatdordir;

v) Chakana savdo solig`i kam to`langanini isbotlovchi dalillarni ko`rsatish majburiyati soliq idoralari zimmasiga yuklatilgan bo`ladi, haridorning harajatlari bo`yicha QQS yuzasidan soliq chegimasiga ega

bo'lish uchun dalillarni taqdim etish majburiyati soliq to'lovchining zimmasiga tushadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining bunchalik tez va keng tarqalishi zamo-naviy texnika va yo'lga qo'yilgan hujjatlar aylanishida soliq operatsiyalarini tez va aniq amalga oshirish imkonini berishi muayyan tovarlar va xizmatlarga soliq solishning imtiyozli shartlari borasida chakana savdodagi sotuvlardan olinadigan soliqqa nisbatan samaraliroq ekanligi bilan izohlanadi.

QQS - ishlab chiqarish va taqsimlashdan tortib iste'molchiga sotishga-cha bo'lgan jarayonda har bir sotish hujjatidan olinadigan bilvosita ko'p pog'anali soliq. Uning obyekti qo'shilgan qiymat, ya'nii tovarlar ishlab chiqaruvchi yoki xizmatlar bajaruvchi tomonidan yangi buyum yoki xizmatni bajarish uchun sotib olingan xom ashyo, materiallar yoki tovarlar va mahsu-lotlar qiymatiga qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Ushbu soliq tovar narxining barcha unsurlarini cheklaydi va ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirishga undaydi.

QQS bo'yicha hisob-kitoblar jarayonida davlat sanoat va savdo sarmoyasi aylanishi sur'atlari haqida ma'lumot oladi, bu esa makroiqtisodiy tartibga solinishini yengillashtiradi. Bundan tashqari, davlat tovarning aholi - soliqning mazkur turining yagona va oxirgi to'lovchisiga sotilishiga qadar daromad olish imkoniga ega bo'ladi. Jahon amaliyoti QQSni hisoblashning deyarli bir xil tizimini nazarda tutadi. To'lovchi haridordan sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun soliq so'mmasi va yetkazib beruvchi tomonidan moddiy resurslar, yoqilig'i, ishlar uchun to'langan va ular qiymati ishlab chiqarish va aylanma harajatlarga kiritilgan soliq so'mmasi orasidagi farqni to'laydi. To'lanishi kerak bo'lgan soliq manfiy bo'ladi chiqsa, ya'nii bu soliq ko'payib ketsa, qoldiq bo'lajak to'lovlar hisobiga kiritiladi yoki rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan Buyuk Britaniyada qabul qilinganidek, budjetdan boshqa so'mmalar hisobiga qoplanadi.

QQSga asoslangan soliq to'lash tizimi soliqlarni qismrlarga ajratib olish imkonini beradi, chunki fermaning barcha sotuvlardan soliq olinadi, biroq oraliqdagi haridlar uchun to'langan soliqlar keyinchalik umumiyl so'mmadan qoplanadi. «Soliq krediti» sifatida tanish bo'lgan bu usul soliq tizimiga o'zini-o'zi tartibga solish imkonini beradi, bu esa soliqlar olish tartibini yaxshilaydi. QQSning asosiy afzalligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bosqichida to'langan soliq miqdorini

hisoblash mumkin. Bu, misol uchun, eksport uchun soliq chegirmalarini hisoblash va eksport subsidiyalari beri-lishida buzilishlarning oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari bunday ko'p bosqichli soliqlardan foydalanish yagona firma tuzilmasi yoki korxona-lar uyushmasi doirasida tovarlar ishlab chiqarishda soliq so'mmasini kamay-tiradi va shu tariqa firmalarning vertikal integratsiyasiga turki bo'ladi.

### **3. Soliq to'lovchilari tarkibi, obyekti, soliq stavkalari, to'lash muddatlari, soliq bo'yicha imtiyozlar**

Import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'ladi ushbu tovarlarni import qiladigan yuridik shaxslar, shuningdek boj to'lamasdan o'z ehtiyojlari uchun me'yordan ortiqcha tovar-lar olib kiradigan jismoniy shaxslar hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini bevosita deklarant yoki istalgan manfaatdor shaxs, agar qonun hujjalarda o'zga hol nazarda tutilmagan bo'ladi, to'lashi mumkin.

#### *Soliq solish obyekti*

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan obyekt bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga binoan belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar (shu jumladan MDH mamlakatlaridan import qilinadigan tovarlar) hisoblanadi.

Tovar deganda iste'molga mo'ljallangan va qiymatga ega hamma narsa (ishlar, xizmatlardan tashqari) (uskunalar, mahsulotlar, xom ashyo, material-lar, elektr, issiklik va energiyaning boshqa turlari, transport vositalari va tovar-moddiy boyliklar) tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun asos bo'ladi bojxona qonunlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi.

Tovarlar importi bo'yicha soliq solinadigan oborot hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji so'mmasi va aksiz solig'i so'mmasi (aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha) kiritiladi.

#### *Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha quyidagi imtiyozlar belgilangan:*

Amaldagi qonun hujjalariga muvofiq quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) xorijiy diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan vakolat-xonalar rasmiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

b) diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar diplomatik xodimlarining, shuningdek ular bilan birga yashaydigan va O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'limgan oila a'zolarining shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlar, shu jumladan eng zarur uy-ro'zg'or tovarlari;

v) xorijiy diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan vako-latxonalarning ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lmasalar yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasalar, olib kiradigan eng zarur uy-ro'zg'or tovarlari;

g) O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgi-langan tartibga muvofiq insonparvarlik yordami sifatida olib kiriladigan tovarlar;

d) jismoniy shaxslar boj to'lamasdan olib kirish me'yorlari doirasida import qiladigan tovarlar, bojxona to'g'risida qonun hujjatlarida tasdiq-langan;

ye) tabiiy ofatlar, qurolli ixtiloflar, baxtsiz hodisalar yoki avariylar yuz berganda yordam ko'rsatish uchun olib kiriladigan mol-mulk;

j) O'zbekiston Respublikasi hududiga quyidagi maqsadlarda olib kiriladigan texnologik uskunalar:

hukumat kafolati bilan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalanadigan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun;

yangidan qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan, xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashayotgan korxonalar uchun;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ustav sarmoyasiga ularning ulushi sifatida xorijiy investorlar tomonidan olib kiriladigan texno-logik uskunalar;

belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihalarga muvofiq, agar vakolatli bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'ladi, yangi ishlab chiqarishlarni barpo etishga, shuningdek ishlab turganlarini zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga olib kiriladigan texnologik uskunalar;

z) quyidagilar doirasida yetkazib beriladigan uskunalar (axborot va tashkiliy texnika asboblari, materiallari, tizim va vositalari):

xalqaro va xorijiy tashkilotlar hamda jamg'armalar grantlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida bajariladigan ilmiy-texnika va innovatsiya dasturlari hamda loyihalarini amalga oshirish;

ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha xalqaro kelishuvlar, vakolatli organning ko'rsatilgan uskuna ajratilgan grantlar (mablag'lar)ning maqsad va vazifalariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasiga asosan. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 fevraldagi "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida" PF-3029-son Farmoni chiqishiga qadar mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasining xulosasi asosida taqdim etiladi.

Xorijda harid qilingan yoki u yerdan yuborilgan uskunalar (axboriy va tashkiliy texnikaning asboblari, materiallari, tizim va vositalari) boshqalarga berilgan takdirda barcha to'lov va soliqlar belgilangan tartibda to'lanadi;

i) yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezident-lari O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha halqaro va xorijiy hukumat moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlari taq-dim etgan qarzlar va grantlar hisobiga olib keladigan uskunalar, materiallar;

k) xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi, bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarishida ish-latish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib keladigan xom ashyo, materiallar va tayyorlov buyumlar;

l) budget tashkilotlarining buyurtmalari bo'yicha budget mablag'lari hisobiga O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan uskunalar, tovarlar, bundan ular bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga ular olib kirilganda bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlari ko'zda tutilmagan iste'mol tovari mustasno;

m) import bo'yicha olib kelinadigan dori-darmonlar va tibbiy buyumlar.

n) vakolati bankning tegishli tasdiqi mavjud bo'lganida, lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik uskunalar.

Soliq to'lovchilarga Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalariга binoan taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

#### *Soliq stavkalari*

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i 20 (yigirma) foiz stavkasi bo'yicha to'lanadi.

#### *Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatları*

Qo'shilgan qiymat solig'i tanlangan bojxona rejimi shartlariga muvofiq, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqariladi va to'lanadi.

Tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinishida qo'shilgan qiymat solig'i bojxona deklaratasiysi qabul qilinishiga qadar yoki u bilan bir vaqtda to'lanadi. Agar bojxona deklaratasiysi O'zbekiston Respublikasi-ning Bojxona kodeksida belgilangan muddatda topshirilmasa, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatlari bojxona deklaratasiyisini topshirish muddati tugagan kundan boshlab hisoblab chiqariladi. Qo'shilgan qiymat solig'i milliy valuta-da to'lanadi. Jismoniy shaxslar soliqni naqd pul bilan bojxona organi yoki posti kassasiga belgilangan tartibda to'lashlari mumkin.

Bojxona organining qaroriga ko'ra to'lovchiga O'zbekiston Respubli-kasining Davlat bojxona qo'mitasi 1999 yil 16 martda 03/8-78-son bilan tasdiqlagan. Bojxona to'lovlarini to'lashni kechiktirish va uni bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha yo'rqnoma (ro'yxat raqami 697, 8 aprel 1999 yil) muvo-fiq qo'shilgan qiymat solig'i to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash huquqi taqdim etilishi mumkin.

#### **4. Soliqni hisoblash va budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq so'mmasini aniqlash usuli**

Respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'ini hisob-lash va uni budjetga o'tkazish mexanizmini amaliyotda qo'llanilishini ko'rib chiqishdan oldin, bozor munosabatlari rivojlangan xorijiy davlatlarda uni hisob-kitob qilish tartibi va usullarini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. QQS birinchi bo'ladi, 1967 yildan - Fransiya va Germaniya Federativ Respubli-kasida amal qila boshlagan ushbu soliq, 1970-80 yillarda keng miqyosda tar-qala boshladi. Hozirgi kunda jahonning 40 dan ortiq, shu jumladan Yevropa-ning 17 mamlakatlari soliq tizimining muhim tarkibiy qismalaridan biri hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash paytida soliqqa tortiladigan baza bo'ladi yangidan yaratilgan qiymat ya'ni tovar mahsuloti bilan shu tovarni ishlab chiqarish uchun ishlatilgan xom ashyolar qiymati o'rtaсидаги farq hisoblanadi. Bunday soliqqa tortiladigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda har xil metodlardan foydalanishga imkon yaratadi.

Xalqaro amaliyotga ko'ra QQS budjetga to'lanadigan so'mmasini aniqlash 3 ta har xil usul bilan aniqlanadi.

### *Hisobdan chiqarish usuli.*

Ushbu usulga ko`ra korxona budjetga to`laydigan qo`shilgan qiymat solig`i so`mmasini sotib olingen tovarlar qiymatini sotgan tovarlar qiymati-dan chiqarib tashlab farqni aniqlaydi va bu farqga soliq stavkasini ko`pay-tirish yo`li bilan aniqlaydi.

### *Hisobga olish usuli.*

Hisobga olish usuli yoki schet-faktura usuli Yevropa birligiga kiruvchi barcha davlatlarda va qo`shilgan qiymat solig`i joriy etilgan boshqa ko`pgina davlatlarda qo`llanib kelinmoqda. Ushbu usulga ko`ra korxona budjetga to`laydigan qo`shilgan qiymat solig`i so`mmasini sotib olingen tovarlar (xizmatlar) uchun to`langan soliq so`mmasini sotilgan tovarlarga (xizmat-larga) hisoblangan soliq so`mmasidan chiqarib tashlash yo`li bilan aniqlaydi.

### *Yig`ish usuli.*

Ushbu usulga ko`ra korxona budjetga to`laydigan qo`shilgan qiymat solig`i so`mmasini yangidan hosil qilingan qiymatlar komponentlari, ish haqqi, ijara haqqi, foizlar va sof foidalarni yig`ib, hosil bo`lgan so`mmanni soliq stavkasiga ko`paytirish yo`li bilan aniqlaydi.

Import qilinadigan tovarlar bo`yicha qo`shilgan qiymat solig`i quyidagi formula bo`yicha hisoblab chiqariladi: qo`shilgan qiymat solig`ining to`lan-gan so`mmalari hududiy bojxona organlarining depozit hisob varaqlariga ki-rim qilinib, keyin ular respublika budjetining daromadiga qayd etilishi kerak.

Bunda, shu jumladan qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha hisoblab yozilgan bo`lak to`lovlari so`mmalari to`lovchi tomonidan hududiy bojxona organlarining depozit hisob varaqlariga kirim qilinishi kerak. Ko`rsatilgan so`mmalar yuk kelishiga qarab tuzatiladi, so`ngra ular respublika budjetining daromadiga qayd etiladi. Bojxona organlari uch kun davomida undirilgan qo`shilgan qiymat solig`i so`mmalarini respublika budjetining daromadiga o`tkazadilar. Bojxona organlari qo`shilgan qiymat solig`ining to`g`ri hisoblab yozilishi va o`z hisob varaqlaridan respublika budjetining daromadiga o`z vaqtida o`tkazilishi uchun javobgardirlar.

*Ortiqcha to`langan yoki undirilgan QQS so`mmalarini qaytarish tartibi.* Ortiqcha to`langan yoki undirilgan qo`shilgan qiymat solig`i so`m-masi o`ttiz kun ichida qaytarilishi yoki bo`lg`usi to`lovlar hisobiga qayd etilishi kerak. To`lovchi ortiqcha to`langan yoki undirilgan qo`shilgan qiymat solig`i so`mmalarini qaytarishni talab qilib, ular

to`langan yoki undirilgan paytdan boshlab bir yil davomida murojaat qilishi mumkin.

Ortiqcha to`langan qo'shilgan qiymat solig'i so`mmalarini qaytarish bojxona organlariga quyidagi hujjatlar taqdim etilganda amalga oshiriladi:

to`lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to'lash yoki undirishning sabablari ko`rsatiladi, shuningdek pul mablag'lari qaytarilishi kerak bo`lgan to`lovchining bank rekvizitlari beriladi;

unga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan va undirilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

ijro etilishi to`g'risida vakolatli bank belgisi qo'yilgan, tegishli qo'shil-gan qiymat solig'i so`mmalarini to'lashga doir to`lov hujjati;

tovarlarning chegaradan haqiqatda olib o'tilgani to`g'risida chegara bojxonasining belgisi qo'yilgan (zarur hollarda) tovarlarga ilova qilinuvchi hujjatlar.

Ortiqcha to`langan qo'shilgan qiymat solig'i so`mmalarini qaytarish umumiy tushumlar hisobiga amalga oshiriladi. Ortiqcha to`langan qo'shilgan qiymat solig'i so`mmalarini qaytarishning boshqa qoidalari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi 2000 yil 29 iyunda 02/8-27-son bilan tasdiqlagan Ortiqcha to`langan yoki undirilgan bojxona to`lovlarini qaytarish to`g'risida yo'riqnomaga ko'ra (ro`yxat raqami 947, 14 iyul 2000 yil, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 2000 yil, 13-son) tartibga solinadi.

*Bojxona yuk deklaratsiyasida QQSni aks ettirish tartibi.*

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ni hisoblab chiqarishda bojxona yuk deklaratsiyasi (BYUD)ning 47-ustuni quyidagi tartibda to`ldiriladi:

"Turi" kichik ustunida "29" - QQS kodi ko`rsatiladi;

"Hisoblab yozish asosi" kichik ustuniga mazkur Yo'riqnomaning S-bandiga muvofiq hisoblab chiqarilgan, soliq solinadigan oborot so`mmasi-dagi miqdor qayd etiladi;

"Stavka" kichik ustunida QQS stavkasi hajmi ko`rsatiladi;

"So`mma" kichik ustunida hisoblab chiqarilgan va to`lanadigan QQS so`mmasi ko`rsatiladi;

"TU" kichik ustunida to`lov usulining ikki belgili harfiy kodi ko`rsatiladi:

budjetning "To`lovlarni kechiktirish" degan 48 va "Preferensiya" degan 36-ustunlari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi 1999 yil 24 sentabrda tasdiqlagan Bojxona yuk deklaratsiyasini to`ldirish tartibi to`g'risi-da yo'riqnomaga (ro`yxat raqami 834, 3 noyabr

1999 yil, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999 yil, 12-son) muvofiq to'ldiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining to'g'ri hisoblab chiqarilishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik deklarant (to'lovchi) zimmasiga yuklanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i belgilangan tartibga muvofiq to'lanmagan taqdirda tegishli to'lovlarning so'mmalari bojxona organlari tomonidan ularni to'lash uchun javobgar shaxslardan so'zsiz tartibda, bojxona qonunlari tomonidan belgilangan miqdorda penyani hisoblab yozish bilan undiriladi. Qo'shilgan qiymat solig'ining to'g'ri hisoblab yozilishi va budgetga to'lanishi ustidan na-zoratni bojxona organlari bojxona va soliq qonunlari hamda O'zR hududiga im-port qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida yo'riqnomaga muvofiq amalgamoshiradilar.

## 5. Schot fakturani to'ldirish tartibi va soliqning buxgaleriya hisobida rasmiylashtirish

Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan va tortilmay-digan ishlarni bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarga ega korxonalar ushbu ishlarni xizmatlarni oladigan shaxsga qonunchilikda ko'rsatilgan shaklga ko'ra bajarilgan hisob varaq – fakturani taqdim etishi shart.

Shuningdek, yagona soliqni to'lashga o'tgan kichik korxonalar va yalpi daromad solig'ini to'laydigan ulgurji savdo korxonalari ham hisob varaq – fakturalarni yozib beradi. Bunda mazkur korxonalar schot – fakturada qo'shilgan qiymat solig'i so'mmasini ko'rsatishmaydi va «qo'shilgan qiymat solig'isiz» degan belgili muhr qo'yadi (yoki yozuvni yozib qo'yadi). Schot – faktura tovarlarning ortilishi, ishlarning bajarilishi va xizmatlarning ko'rsa-tilishi sanasidan kechiktirilmasdan ikki nusxada yoziladi hamda quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

Yuklab jo'natiladigan tovarlar, bajarilgan ishlarni hujjatlari raqami va sanasi; bajarilgan ishlarning nomi; bajarilgan ishlarning shartnomasi bo'yicha QQSsiz o'lchov birligidagi narhi; qo'shilgan solig'i stavkasi (20 yoki 0 foiz), agar bajarilgan ish, xizmatlar yuzasidan QQSdan ozod qilish mavjud bo'lsa, oddiy chiziq tortib qo'yiladi; ushbu ish va xizmatlar bo'yicha tegishli stavka-larga ko'ra hisoblangan QQS so'mmasi, agar ish, xizmatlar yuzasidan QQS-dan ozod qilish mavjud bo'lsa, oddiy chiziq tortib qo'yiladi;

Yagona soliqni to`lashga o`tgan kichik korxonalar va yalpi daromad solig`ini to`laydigan ulgurji savdo korxonalari qo`shilgan qiymat solig`ini ko`rsatishmaydi va «qo`shilgan qiymat solig`isiz» degan belgili muhr qo`ya-di (yoki yozuvni yozib qo`yadi).

Schot – faktura ishlarni bajaruvchi korxona (pudratchi, ijrochi) tomoni-dan buyurtmachi nomiga kamida ikki nusxada yoziladi, ularning bir nusxasi ishlarning bajarilishi va xizmatlar ko`rsatilishi sanasidan kechiktirilmasdan ishlarni bajaruvchi tomonidan buyurtmachiga taqdim qilinadi va xaridorga qo`shilgan qiymat solig`i so`mmasini qonunchilikda belgilangan tartibda hisobga olish (qoplash) uchun huquq beradi.

Schot – fakturaning ikkinchi nusxasi ish bajaruvchida qoladi. Schot – fakturalar hisob varaqlarning kelib tushishi va taqdim etilishi ro`yxatdan o`tkaziladigan daftarda majburiy tartibda hisobga olinishi lozim.

Import qilinadigan ish va xizmatlar bo`yicha bajarilgan ishlar, ko`rsatil-gan xizmatlar dalolatnomalari va qo`shilgan qiymat solig`ining amalda to`langanligini tasdiqlovchi to`lov hujjatlari schot – faktura hisoblanadi.

Bevosita aholiga pullik xizmat, ishlarni ko`rsatadigan korxonalar uchun ish va xizmatlarni sotishda kassa cheki yoki xizmatlar ko`rsatilishi, ishlar bajarilishini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar schot – faktura hisoblanadi.

Schet - faktura tijorat hisob varaqasi bo`ladi, soliq to`lovchi sifatida ro`yxatga olingan shaxs tomonidan boshqa soliq to`lovchiga yetkazib beril-gan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar uchun to`ldiriladi.

*Agarda Buyuk Britaniyaning chakana sotuvchisi tomonidan amalga oshirilgan oborot QOS so`mmasi bilan birgalikda 100-funt sterlingdan kam bo`ladi, soddalashtirilgan schet-faktura yuritilishi mumkin.*

*Soliqqa tortishdagi asosiy qoida shundan iboratki, soliq tortish obyekti bo`ladi sotilgan tovarlar va xizmatlarning QOS so`mmasi chiqarib tashlan-gan qismi hisoblanadi. Quyidagilar belgilab quyligan bo`lishi shart:*

a) schet - fakturalarda ko`rsatilgan iste'molchilarga berilgan chegirmalar schet faktura so`mmasidan chiqarib tashlanishi shart.

b) agarda mahsulotlar pul evaziga amalga oshirilmagan bo`ladi, ya`ni bepul berilgan hollarda mahsulotlarning bozor bahosi soliqqa tortish uchun asos bo`ladi.

v) soliqqa tortish obyektini aniqlashda mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi ham belgilanishi mumkin. Ushbu holat mahsulotlarni sotmasdan, shaxsiy iste'mol uchun ishlataliganda, yoki o'zi uchun bino va uskunalar, mashinalar ko'rganda qo'llaniladi.

## 6. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha mavjud muammolar

Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq to'lovchiga ta'sirini boshqarish maqsadida quyidagilar qabul qilingan:

soliq to'lashdan ozod qilish;

nolli stavkada soliqqa tortish;

aholining kam ta'minlangan qismi istyemol qiladigan tovarlarga kamaytirilgan soliq stavkalarini qo'llash;

aholining boy qismi istyemol qiladigan shoxona buyumlariga oshiril-gan soliq stavkalarini qo'llash.

Bu tamoyil qo'shilgan qiymat solig'ining bir necha soliq stavkalarini tovar va xizmatlar turlariga differensiatsiyalashgan holda qo'llash asosida yotadi. Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari soni turli mamalakatlarda har xildir. Ko'pgina mamalakatlarning soliq tizimlarida asosan qo'shilgan qiymat solig'ining uch xil differensiyalashgan soliq stavkalari qo'llananiadi. Bular quyidagilar hisoblandi

- bazaviy soliq stavkasi,
- kamaytirilgan soliq stavkasi,
- nolli soliq stavkasi,

Tovar va xizmatlar soliqdan ozod qilinishi ham mumkin. Tovar va xizmatlarni soliqdan ozod qilinishi, shuningdek alohida tovar va xizmatlarni soliqqa tortishda nolli soliq stavkasida soliqqa tortish uchun uchta dalil ilgari surilgan.

Bular quyidagilar hisoblanadi:

ma'muriy murakkabliklar, ya'ni soliq va yig'implarni yig'ishdagи murak-kabliklar, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarilishini qo'llab quvvatlash uchun, soliq solish tizimining progressivligini oshirish uchun.

Yuqorida ko'rsatilgan uchta dalilning hammasi ham bir xilda asoslanmagan. G'arb mamlakatlari ekspertlari xulosasiga ko'ra, Yevropa Ittifoki mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari ko'paytirish ham, alohida tovarlarni soliqdan ozod qilish foyda bermaydi. Bunday xulosaga kelinishiga quyidagi qiziqarli

**kuzatuv xulosalari sabab bo`lgan:** oziq-ovqat mahsulotlarini qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilini-shi kam ta'minlangan aholi qatlamliga yordam berishning samarali vosita hisoblanmagan. Ko`pgina ekspertlar qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilish aholining turli qatlamlari daromadlari o`rtasidagi farqni qisqarishiga xizmat ko`rsatmas ekan degan xulosaga kelishmokda. Qilingan tahlil natijaslari shuni ko`rsatmokdaki, kam ta'minlangan aholi o`zining daromadlarining ko`p qismini oziq ovqatga sarflasada, mutlaq birliklardagi boylar ko`p mablag` sarflanishi aniqlangan. Qo`shilgan qiymat solig`idan oziq-ovqat mahsulot-larini ozod qilishdan ko`proq aholining ta'minlangan qismi yutadi, aholining qashshoq qismi hayoti bu bilan yengillashmas ekan. Bunday xulosaga kelinishiga sabab, Shvetsiyada (Yevropaning boy mamlakatlardan biri) va Irlandiya (tarixiy boy mamalikat hisoblanuvchi)da o`tkazilgan tadqiqotlar sabab bo`lgan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko`rsatganki, kundalik ehtiyoj tovar-larining soliq stavkalaridagi har qanday o`zgarish (nolli stavkaga, pasayish stavkasiga, bazaviy stavkaga o`tishda) soliq to`lovchilarning iste'moli tarki-bida juda kam sezilarli o`zgarish bo`lgan. Tadqiqotchilar ushbu holni daromadlari har xil bo`lgan aholi kundalik extiyoj mollari tarkibida yaqinlashish bo`lganligini ko`rsatadi deb baholashgan.

Barcha tovar va ish xizmatlarni bajaruvchilar qo`shilgan qiymat solig`-ini to`laydilar yoki ozod bo`ladilar, ba`zi bir guruhdagi xo`jalik su`bektlariga esa qo`shilgan qiymat solig`i to`lash o`miga alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinadi. Qo`shilgan qiymat solig`i to`lash o`miga alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilingan xo`jalik su`bektlariga yalpi daromaddan soliq to`lovchi savdo korxonalari, yagona soliq tizimiga o`tgan kichik korxonalar, yagona yer solig`i to`lashga o`tgan qishloq xo`jaligi korxonalari kiradi.

Qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilinishi, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi xo`jalik subyektlarining soliq to`lashi bo`yicha majburi-yatlaridan to`liq ozod qilinishini bildirmaydi. Qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilinishida faqat ishlab chiqarishda hosil bo`lgan qo`shilgan qiymatgi-na soliqqa tortilmaydi. Lekin ushbu qo`shilgan qiymatni hosil qilishga ketgan ishlab chiqarish harajatlari oldindan qo`shilgan qiymat solig`iga tortilgandir. Shunday qilib, xo`jalik su`bektlarini qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilini-shi yoki alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi haqida gapirilganda ular tomonidan qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblamasligi va uni budjetga to`la-masligi e'tibor beramiz, biroq ishlab chiqarish uchun olingan ishlab chiqarish

xom ashyolar uchun, yonilg'i-moylash materiallari, elektroenergiya va bosh-qa materiallarga, shuningdek ishlab chiqarish uchun olingen ishlab chiqarish vositalari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi xo'jalik su'bektulari moliyaviy faoliyati uchun o'ziga xos ikki xususiyatga egadir. Chunki ular xo'jalik su'bektalarining moliyaviy faoliyatiga turlicha ta'sir qiladi.

Birinchi xususiyati shundaki, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilin-gan, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilingan xo'jalik subyektlari o'z tovar va xizmatlarini sotganda ushbu tovar va xizmatlar tannarxida ishlab chiqarish materiallarini sotib olishda to'layotgan qo'shilgan qiymat solig'i o'tiradi va bahosiga avtomat ravishda qo'yilgan bo'ladi, hamda boshqa ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish tannarxining elementi sifatida o'zida aks ettiradi. Qo'-shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi haqida gap ketganda o'ziga xos so'z o'yini bo'ladi. Chunki yuqorida ko'rib o'tdikki soliqdan ozod qilinishi bilan budjetga soliqdan ozod bo'ladi, lekin ishlab chiqarish uchun olingen va to-var-xizmatlarning tannarxiga boradigan xom-ashyolarni sotib olishda ularga hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydilar. Shu tufayli ishlab chiqaruvchi xom ashyo materillarini sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat so-lig'ini o'ziga zachot qilishga talab qila olmaydilar va ular qo'shilgan qiymat solig'ini o'z tovar-xizmatlarini sotib oluvchidan olishga huquqi bo'lmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinishi, alohida soliqqa tortish tartibi joriy qilinishi xo'jalik subyektlari moliyaviy faoliyatiga ta'sirining ikkinchi xususiyati shundaki, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovar va xizmatlarni sotib olayotgan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi ro'y-xatida to'rgan xo'jalik su'bekti o'zi tomonidan ishlab chiqarayotgan mahsu-lotlar uchun soliq kreditidan foydalana olmaydilar. Shu tufayli ishlab chiqaruvchiga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashda tovarlarni sotishda hisoblan-gan soliq va mahsulotlarni sotib olishda to'lagan soliq orasidagi farqni to'-lamay, balki sotish oborotidan hisoblangan soliqni to'liq to'lashga majbur-lanadi. Buning natijasida qo'shilgan qiymat solig'iga tortish zanjirida soliq-dan ozod qilingan bo'linma tushib qolishi tufayli qo'shilgan qiymat soliqqa bir necha marotaba tortiladi va soliq to'lash og'irligi keyingi bo'linma zim-asiga tushadi. Chunki u soliqdan ozod qilingan mahsulotlarni o'z ishlab chi-qarishi uchun ishlatadi. Qanchalik qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar va ishlab chiqaruvchilar ko'paysa, qo'shilgan qiymat soliqqa ikki yoki

**undan ortiq marta tortilishi ehtimoli ko'payo boradi.**

*1998 yilgi investitsiya dasturiga kiritilgan, ular uchun texnologik uskunalarini olib kirish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan ustuvor obyektlar ro'yxati:*

1. Qizilqum fosforit kombinati.
2. Qo'ng'irot soda zavodi.
3. "Qizilqumnodirmetalloltin" davlat konserni.
4. "Navoiyazot" ICHB.
5. «Farg`onaazot» ICHB.
6. «Fargonakimyotola» ICHB.
7. Farg`ona furanli buyumlar zavodi.
8. Tolimarjon GRES.

*Ular uchun texnologik uskunalar va turli assortamentdagi quvurlarni olib kirish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan neft-gaz tarmog'i obyektlari ro'yxati:*

1. Andijon viloyatidagi Xo'jaobod yer osti gaz ombori.
2. Vazirlar Mahamasining 1998 yil 17 martdag'i "1998-2000 yillarda qishloq aholisini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturi to'g'risi-da" 117-sون qaroriga muvofiq gaz quvurlari, gaz taqsimlash stansiyalari shohobchalarining qurilishi.
3. Ko'kdumaloq, Mingbuloq, Sho'tan, Alan, O'rda, Janubiy Tandircha, Shimoliy O'rtabuloq, Gajak, Gumbuloq, Odamtosh, Jarquduq, Janubiy Kemachi, G'arbiy, Dengizqul, Shakarbuloq, Marjon, Orqa Ko'ng'irot, Mo'ynoq, Surgil, Berdaq konlarini jihozlash, shu jumladan quduqlami izlash-razvedka qilish va foydalanish maqsadida burgilash.
4. Muborak gazni qayta ishlash zavodi va "Sho'rtangaz" DICHB texnologik qurilmalarini rekonstruksiya qilish hamda texnik jihatdan qayta jihozlash.
5. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ harid qiladigan aviakerosinni tashish uchun maxsus temir yo'l sistemalarining 100 birligi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.**

**Qo'shilgan qiymat va qo'shilgan qiymat solig'ininng iqtisodiy mohiyati nimada?**

QQSni qanday shaxslar to'laydi va soliq obyekti nima?

Soliqqa tortiladigan oborot qanday aniqlanadi?

QQS stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?

Qanday yuridik shaxslar QQSdan ozod etiladi?

sotilayotgan mahsulot yoki xizmatlar bahosi ustiga ustama shaklida qo'yiladi va ularning pirovard to'lovchisi bo'ladi iste'molchi hisoblanadi.

Tadqiqot obyektidan kelib chiqib, asosiy egri soliqlardan biri bo'lgan aksiz solig'ining kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi xususida to'xtalamiz. Dastlab egri soliqlar ayrim tovar turlari (tuz, tamaki, aroq mahsulotlari, gu-gurt, shakar va boshqa keng iste'mol mollari)ga aynan aksiz solig'i ko'rini-shida namoyon bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan aksiz osti tovarlari ro'yxati ken-gayib borgan. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, soliqqa tortishning aksizli shakli keng xalq ommasi iste'molidagi ommaviy tovarlarni soliqqa tortish jarayoni-dagina samara berishi mumkin bo'lgan.

Qadimda aksizlarni boshqa nomlar bilan boj, to'lov, yig'im yoki sodda qilib soliq deb atashganlar. Aksizlarning o'sha davrda amal qilgan soliqqa tortish mexanizmi to'g'risida tahminiy ma'lumotlar mavjudligi uning ilk paydo bo'lgan davrini aniqlashga imkon bermaydi. Masalan, xalq tribunlari Tiberiy va Gay Grakxov (er. av. 162-133 va 153-121 yy.) davrlarida Rim g'aznasiga qo'llarni ozod etishdan, shu bilan birga o'z shaxsiy iste'moli uchun zarur bo'lmasagan tovarlarni dengiz orqali Rimga olib kelinishdan yig'-imlar tushib tigan. I tem i drugim, po sushstvu, oblagalis predmetiroskoshi.\*

Qadimgi Misrda XII-XIIIchi sulolalar davrida er. Av. IIkinchi ming yillik) pivoga soliq solingan. Albatta, bu to'lovlardan hozirgi talqindagi aksizlar bo'imasligi mumkin, lekin ularni aksizlarning dastlabki namunalari sifatida e'tiborga olish lozimdir. Tarixiy manbalarga ko'ra, Angliyada Kromvel davri-da respublikaning yigirma yil amal qilishi davomida aksizlarning ikki yuzga yaqin turi joriy etilgan. Bunda har xil turdag'i obyektlar soliqqa tortilgan, masalan, pohol kukni yoki yog' uchun quti idishlar shular jumlasidandir. XXI asrda Gollandiyada egri soliq turlari shunchalik ko'pediki, tarixchi de - Vitta so'zlariga qaraganda, mehmonxonada tortiq qilingan baliq bo'lagiga 34 xil aksiz to'g'ri kelgan. Demak, aksizlar, bojlarni hisobga olmaganda soliqqa tortishning eng qadimgi shaklidir. "Aksiz" fransucha accise, lotincha accidere so'zlaridan olingan bo'ladi, tarjima qilinganda «kesib olish» ma'nosini anglatadi.

## **2. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va respublikaga import qilinadigan tovarlar uchun aksiz solig'i**

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidagi aksiz solig'iga quyidagi-cha izoh berilgan: «aksiz solig'i sof daromadning narxda va qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada hisobga olinadigan, egri soliq sifatida budjetga o'tkaziladigan (undiriladigan) bir qismidan iboratdir. Bizning fikri-mizcha, aksiz solig'i sof daromadning emas, balki yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida budjetga yo'naltirish shaklidir.

Egri soliq sifatida aksiz solig'inining qo'shilgan qiymat solig'idan farq-lanuvchi xususiyatlari jihatlarini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir, ya'ni:

- aksiz solig'ida cheklangan turdag'i aksiz sti mahsulotlarini sotish oboroti soliqqa tortiladigan obyekti bo'ladi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'idiagi soliqqa tortish obyekti bo'lgan ish va xizmatlar aksiz solig'iga tortilmaydi;
- agar qo'shilgan qiymat solig'i tovar ishlab chiqarish va ayirboshilash-ning barcha bosqichlarida vujudga kelsa va undirilsa, aksizlar esa faqat ishlab chiqarish sohasidagina amal qiladi. Ushbu qoidadan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinayotgan aksiz osti mahsulotlari va tovarlari istisnodir.

Madomiki, ushbu holatda aksiz solig'ini to'lovchilar bo'ladi, aksiz osti mahsulotlarini sotib oluvchi va qayta sotuvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Aksiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan egri soliqdir. Uning ijtimoiy – iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi.

Aksiz solig'inining iqtisodiy mohiyati budjet tushumini ta'minlash orqali xalq xo'jaligi manfaatlarini qondirishga, ko'proq mablag'larni jaib ettirishi orqali namoyon bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya'ni asosiy iste'molchilarining to'lov qobiliyatlarini oshishida o'z ifodasini topadi. Bu esa aksiz solig'i obyektlari (aksiz osti tovarlari)ni qisqartirilishida, soliq stavka-lari pasayishida, aholi to'lov qobiliyatini o'sishida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, subyektlar aksiz solig'i iste'molchilarini sifatida yuzaga kelishi tabiiydir. Ammo aksiz solig'i yengiliklari tovarlarni xarid qilish uchun olinadigan kredit resurslarini qisqartirilishiga, bu esa o'z vaqtida harajatlar-ning

pasayishiga olib keladi. Harajatlarning pasayishi esa daromad (foyda)ni oshirish omillaridan biridir.

Aksiz solig'ini mohiyatini ochishda u bajaradigan vazifalarni bilish mu-himdir. Shu jihatdan uning quyidagi vazifalarini alohida ta'kidlab o'tmoq-chimiz:

*birinchidan*, mamlakat budgetining muhim daromad manbalaridan biri sanaladi. Soliq tizimi rivojlanish bosqichini boshdan kechirayotgan barcha davlatlar singari, mamlakatimizda ham aksiz orqali daromadlarni tez va oson yig'ish imkoniyatlari yuzaga keladi. Fransuz iqtisodchisi F.Demezon ta'biri bilan aytganda «aksizning o'zi barcha boshqa soliq tushumlari va undan ham ko'proqni berishga qodirdir».

*ikkinchidan*, aksiz osti tovarlari iste'molini cheklash (asosan ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayan bozor doirasida talab va taklifni tartibga solish. Iqtisodiy o'sish doirasini boshqarishda aksiz osti tovarlar ro'yxatini belgilash orqali davlat yalpi talab va taklifni egiluvchanligi ta'minlaydi;

*uchinchidan*, davlatning milliy bozorni himoya qilish vazifasi aksiz solig'i orqali ta'minlanadiki, bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalilanadi;

*to'rtinchidan*, aksiz solig'i monopol mavqedagi tovar ishlab chiqaruv-chi yoki aniq mahsulot turini progressiv soliqqa tortish vazifasini o'taydi;

*beshinchidan*, aksiz solig'i aholini boy badavlat qatlamlari daromad-larini qayta soliqqa tortish usuli bo'ladi hisoblanadi. Chunki aksiz solig'i asosan nufuzli (qiymati yuqori) tovarlarga qo'llaniladiki, bunday tovarlarni asosiy iste'molchilar boy-badavlat shaxslar hisoblanadi.

Shunday qilib, aksiz solig'i ijtimoiy muhitni ham yaxshilash imkoniyatlarini moliyaviy natijalarning o'sishi orqali ta'minlab berishi mumkindir. Shu bois aksiz solig'ining takomillashtirilishi ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaxshilanaishi bilan chambarchas bog'liqidir.

*Aksiz markalari bilan markalangan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i to'lashning o'ziga xos xususiyatlari:*

Aksiz markalari bilan markalangan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i umumo'matilgan tartib bo'yicha hisoblanadi. Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i to'lovi hisobiga kiritilmaydi.

*Berilgan xom ashyodan ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari.* Buxgalteriya hisobi haqidagi qonunchilikka muvofiq berilgan xom ashyo mahsulotni

ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan balansdan tashqarida hisobga olinadi. Berilgan xom ashayodan ishlab chiqariladigan mahsulotga aksiz solig'ini hisoblab chiqishda, aksiz to`lanadigan tovarlar realizatsiyasi bo'yicha aylanish (oborot) ushbu tovarlarni ishlab chiqish bo'yicha bajarilgan ishlar qiymati va berilgan xom ashaylo qiyamatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

### **3. Soliqni to`lovchilar tarkibi, soliqqa tortish obyekti, soliq stavkalari, to`lash muddatları, soliq bo'yicha imtiazlar va hisoblash tartibi**

Aksiz solig'i to`lovchilari deb mulk shaklidan qat'iy nazar aksiz to`lanadi-gan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq solish maq-sadlarida yuridik shaxslar deganda o`zining mulkchiligidagi, xo`jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mulkka ega bo`lgan, shuningdek o`zining maj-buriyatları bo'yicha ushbu mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-kitob schotiga ega bo`lgan alohida bo`linmalar tushuniladi.

Aksizlanadigan tovarlar uchun soliq solish obyekti bo`ladi:

alkogolli mahsulotlar bo'yicha - unga nisbatan qat'iy (spetsifik) soliq stavkalari belgilangan sotilgan alkogolli mahsulotlar hajmining naturadagi ifodasi (yuklab jo`natilgan tovar tarkibida 100% suvsiz spirtning hajm birligiga yoki mahsulot hajmi birligiga absolut so`mmada);

boshqa aksizlanadigan mahsulotlar bo'yicha - berilgan xom ashayodan ishlab chiqarilganini o`z ichiga olgan holda, kelishilgan (erkin) narxlarda (o`z ichiga aksiz solig'i so`mmasini olgan), qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda yuklab jo`natilgan tovarning qiymati yoki uning fizik hajmi hisoblanadi.

Tekinga beriladigan aksizlanadigan tovar ham soliq solish obyekti hisoblanadi. Bunda: alkogolli mahsulotlar bo'yicha - unga nisbatan qat'iy (spetsifik) soliq stavkalari belgilangan sotilgan alkogolli mahsulotlar hajmi-ning naturadagi ifodasi (yuklab jo`natilgan tovar tarkibida 100% suvsiz spirtning hajm birligiga absolut so`mmada); boshqa aksizlanadigan mahsulotlar bo'yicha - soliq to`lovchida tovarni topshirish paytda shakllangan, lekin ushbu aksizlanadigan tovarni ishlab chiqarishda haqiqatda amalga oshirilgan harajatlardan kam bo`lmagan hisob-kitob (ulgurji) narxlari darajasidan kelib chiqqan holda hisoblangan qiymat soliq solish obyekti bo`ladi hisoblanadi.

### *Aksiz solig'i bo'yicha imtiyozlar*

Aksiz solig'i quyidagilarga solinmaydi:

a) aksiz to'lanadigan tovarlarni eksport uchun yetkazish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan alohida tovar-larning ro'yxati bundan mustasno;

b) yog'-moy va "O'zbekiston" yog'ini ishlab chiqarishda ishlataladigan paxta yog'ini yetkazish;

v) O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan, xalq ta'limi va sog'lijni saqlash tizimlari ehtiyojlari uchun ixtisoslashtirilgan mebel.

Imtiyoz berish maqsadlarida ixtisoslashtirilgan mebel deganda quyi-dagilar tushuniladi:

davlat va nodavlat ta'limi va tibbiyot muassasalarini ta'minlash uchun realizatsiya qilinadigan mebel;

ta'lim va sog'lijni saqlash tizimini ta'minlash uchun ta'minotsotish bilan shug'ullanuvchi karamog'idagi tashkilotlarga sotiladigan mebel.

Ushbu imtiyoz ta'lim va sog'lijni saqlash tizimini ta'minlash uchun ixtisoslashtirilgan mebelni sotib olish bo'yicha tuzilgan shartnomalar mavjud bo'lgan taqdirda beriladi.

Mazkur mebel boshqa iste'molchilarga realizatsiya qilinganda unga umumo'matilgan tartibda aksiz solig'i solinadi;

g) alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun "O'zmevasabzavo-tuzumsanoatholding" holding kompaniyasi, "O'zkimyosanoat" assotsiatsiyasi va qishloq va suv xo'jaligi vazirligi korxonalariga spirit realizatsiya qilinganda;

d) "O'zvinosanoatholding" holding kompaniyasi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi korxonalariga vino ishlab chiqarish uchun vinomateriallarni realizatsiya qilish.

Soliq to'lovchi tomonidan, realizatsiyaning haqiqiy hajmidan kelib chiqqan holda hisoblangan aksiz solig'inining so'mmasi, budgetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

joriy oyning 13 sanasidan kechikmasdan - joriy oyning birinchi dekadasi uchun;

joriy oyning 23 sanasidan kechikmasdan - joriy oyning ikkinchi dekadasi uchun;

keyingi oyning 3 sanasidan kechikmasdan - hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Realizatsiya kuni deb tovar-kuzatuv hujjatlarida ko'rsatilgan tovar ortilgan kun hisoblanadi.

Dekadali to'lovlar bo'yicha aksiz solig'inining kelib tushgan

so'mmasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarning shaxsiy schotlarining soliqni "hisoblash" va "to'lash" ustunlarida bir va uning o'zida aks ettiriladi.

Soliq to'lovchi o'zi ro'yxatdan o'tgan joydagi tegishli soliq xizmati organiga aksiz solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni har oyda, hisobot oyidan keyin keluvchi oyning 20 sanasigacha, soliq solinmaydigan aylanishlar (obo-rotlar) so'mmasini yoyilmasi ilova qilingan holda mazkur Yo'rqnomaning 3-ilovasiga\* (alkogolli mahsulotlar bo'yicha) va 4-ilovasiga\* (boshqa aksiz-lanadigan mahsulotlar bo'yicha) muvofiq shaklda taqdim qilinadi.

Aksiz solig'i to'lash muddatlari va mos ravishda hisob-kitoblarni taqdim qilish muddatlari dam olish (ishlamaydigan kun) yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, u holda ular dam olish yoki bayram kunidan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi. Hisobot davri mobaynida dekadali to'lovlar bo'yicha to'langan aksiz solig'i so'mmalari tegishli hisobot davri uchun hisoblangan soliq so'mmasida hisobga o'tkaziladi. Aksiz solig'ining ortiqcha to'langan so'mmalari kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi yoki to'lovchiga soliq orga-ni tomonidan uning yozma ravishdagi arizasini olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kunlik muddat ichida (budgetta to'lovlar bo'yicha qarzlar bo'lmasligi sharti bilan) qaytarib beriladi.

#### **4. Aksiz solig'ini hisobga olish va buxgalteriyada rasmiy lashtirish**

Aksiz solig'i to'lanadigan tovar O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i to'langan xom ashyodan ishlab chiqarilgan holatlarda, xom ashyo (mahsulot) bo'yicha to'langan aksiz solig'i so'mmasi ishlab chiqarish harajatlariga kiritilmaydi va tayyor mahsulotta aksiz solig'i so'mmasini hisoblashda hisobga olinadi.

Hisobga o'tkazilishi lozim bo'lgan aksiz solig'i so'mmasi ustidan nazo-ratni amalga oshirish uchun, xom ashyo (mahsulotni) yetkazib beruvchilar tovar-kuzatuv hujjalariда budgetga to'lanishi lozim bo'lgan ortilgan xom ashyo (mahsulot) bo'yicha aksiz solig'i so'mmasini alohida qatorda ko'rsa-tishlari shart. Agar, sotib olinayotgan aksiz solig'i solinadigan xom ashyo (mahsulot) bo'yicha aksiz solig'i so'mmasi tovar-kuzatuv hujjalariда alohida ajratib ko'rsatilmagan bo'ladi, u hisob-kitob yo'li bilan hisoblab chiqari-lmaydi va tayyor mahsulot bo'yicha hisobga kiritilmaydi.

Hisobga o'tkazilishi lozim bo'lgan aksiz solig'i so'mmasi alohida

mufassal (analitik) schotda hisobga olinadi va tegishli ulushlarda "Budget bilan hisob-kitoblar" schotining debetiga xom ashyoni ishlab chiqarishga sarflanishi sari, hisobdan chiqarilib boriladi. Quyidagilar bo'yicha hisoblan-gan aksiz solig'i so'mmasi hisobga kiritilmaydi: "O'zmevasabzavotuzum-sanoatholding" holding kompaniyasi korxonalarini tomonidan ishlab chiqilgan spirt bo'yicha o'z iste'moli uchun; benzin va dizel yonilg'isi ishlab chiqarish uchun neft va gaz kondensati bo'yicha.

Aksiz solig'i bo'yicha budget bilan hisob-kitoblarning hisobi budgetga to'lovlar bo'yicha qarzlarning hisobi schotida olib boriladi. Budgetga o'tkazi-lishi kerak bo'lgan aksiz solig'ining hisoblangan so'mmasi olish bo'yicha hisob schotining debetida va budgetga to'lovlar bo'yicha qarzlarning hisobi schotining kreditida aks ettiriladi. Budgetga o'tkazilgan aksiz solig'i so'm-masi pul vositalarini hisobi schoti bilan korresponden-siyasida budgetga to'lovlar bo'yicha qarzlar schotining debetida aks ettiriladi.

Aksiz markalarini sotib olishda boshqa joriy aktivlar schotining debetida va pul vositalarining hisobi schotining kreditida buxgalteriya yozuvi yozib qo'yiladi. Mahsulotni markirovkalash uchun aksiz markalari ishlatilgan sari quyidagi buxgalteriya yozuvi yozib boriladi: davr harajatlari hisobi schotining debeti va boshqa joriy aktivlar schotining krediti.

Soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjat-lariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Aksiz solig'ining to'g'ri hisoblash va budgetga to'lash ustidan nazorat davlat soliq organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni va O'zbekisgon Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

10 mingdan aroq sotilganda budgetga to'lanadigan aksiz solig'i so'mmasi 104 mln. so'mni (4 satr X 100000 litr) tashkil etadi.

10 ming dal aroq sotilganda "O'zmevasabzavotuzumsanoat-holding" XK maxsus hisob raqamiga jo'natiladigan aksiz solig'i so'mmasi 2,4 mln. so'mni (5 satr X 100000 litr) tashkil etadi.

*Izoh: Tarkibida etil sperti hajmi 30 foiz va undan yuqori bo'lgan alkogollli mahsulotlarning barcha turlari bo'yicha, hamda konyak (brendi) bo'yicha hisob-kitoblar shu misolda ko'rsatilgandek hisoblanadi.*

**O`z-o`zini nazorat qilish uchun savollar.**  
Aksiz tushunchasi va aksiz solig`i nimani ifoda etadi?  
Aksiz solig`i to`lovchilar qanday guruhanadi?  
Aksiz osti tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?  
Aksiz solig`i obyekti nimalardan iborat?  
Aksiz solig`ini hisobga olish tartibi qanday?  
Aksiz solig`i hisobini taqdim etish va soliqni to`lash muddatlari  
qanday?

## **9 - Mavzu: Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i Reja.**

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy etish sabablari. Mol-mulk solig'ining shakllanish jarayoni va tarixiy bosqichlari.

Mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati. Soliqqa tortish maqsadida mol-mulk tushunchasi. Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini to'lovchilari sifatida.

Yuridik shaxslardan mol-mulk solig'ini undirishda mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash tartibi.

Korxonalarda mol-mulkni qayta baholanishi va uning soliq obyektiga ta'siri. Mol-mulk solig'i stavkasi.

### **1. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ini joriy etish sabablari. Mol-mulk solig'ining shakllanish jarayoni va tarixiy bosqichlari**

Korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliq, asosan, joylardagi mahalliy budgetlar daromad qismini shakllantiradi. Undirilgan ana shu soliq so'mmasi teng ulushlarda mahalliy budgetlarga o'tkaziladi. Hozir mutaxassis-lar mol-mulk solig'i va shu kabi resurs to'lovlarini anchagina oshirish va foyda (daromad)ga soliq yukini kamaytirish maqsadga muvofiq deb ta'kidlashmokda.

Mol-mulk solig'i soliqlar tizimida qanday maqsadlarda joriy etiladi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Mamlakatimizda mazkur soliqni joriy etishdan quyidagi maqsadlarda ko'zda tutilgan edi:

Birinchidan, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanimayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishni uyg'otish;

Ikkinchidan, xo'jalik yurituvchi subyektlar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirish.

Mol-mulk solig'i moliyaviy nuqtai nazardan rag'batlantiruvchilik va nazarat qilish mahalliy budgetlarni to'ldirish nuqtai nazridan esa fiskal vazifalarini bajaradi. Mol-mulk solig'i moliyaviy nuqtai nazardan rag'batlan-tiruvchilik va nazarat qilish, mahalliy budgetlarni to'ldirish nuqtai nazridan esa, fiskal vazifalarini bajaradi. Mol-mulk solig'i

yuqorida bayon qilingan-laridan tash-qari, mavjud ishlab chiqarishni ekstensiv kengaytirishni jilovlash vazifalarini hal qilishga ham samarali ta'sir qiladi. Turli sabablarga ko'ra, daromadlarning bir qismi har doim daromad solig'iga tortilishdan «qochib qoladi». Ammo moddiy boylikka aylangach, mol-mulk solig'iga tortilmasdan iloji yo'q. Sarmoyalarni soliqqa tortish ulardan faol foydalanishni rag'bat-lantiradi, ortiqcha zahiralardan holi bo'lishga rag'bat bo'ladi xizmat qiladi va o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorining tashkil topishini jadallashtiradi. Bundan soliqning rag'batlantiruvchilik vazifasi kelib chiqib, u ishlab chiqarishda mol-mulkdan samarali foydalanish, asosiy fondlarning foydalanimaydigan hajmini va ulardan samarali imkonini berdi.

Hozirgi paytda mulk soliqlar undan keladigan daromad yetakchi salmoqqa ega bo'lmasa-da, bu soliqlar soliq tizimida o'ziga xos o'rinn tutadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i davlat budjetiga daromadni ta'minlash bilan birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi. Mulk soliqlarining asl maqsadi davlat budjeti manfaatlariga va korxonalar manfaatlariga xizmat qilshdan iborat.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexnizmi bu-yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solish bilan bog'liq bo'lgan, soliqni tashkil qilishda bevo-sita ishtirok etuvchi elementlar majmui hisoblanadi. Bu majmua: soliq subye-kti, soliq obyekti, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliqqa tortiladigan baza, soliq imtiyozlari, soliqni to'lash muddatlari va boshqa elementlardan iborat. Hozirgi paytda yuridik shaxslarning mol-mulklarini soliqqa tortish mexanizmida mavjud bo'lgan muammolar avvalo soliqqa tortish obyektini aniqlash tartibi va soliq stavkasi bilan bog'liqidir. Bundan tashqari, 2001 yil 1 yanvar holati bo'yicha asosiy vositalarni qayta baholashning amalga oshirish bu muammolarni yanada murakkablashtiradi. Shuningdek, huquqiy me'yoriy hujjalarda bayon qilingan qoidalar amaldagi holatlarga unchalik mos kel-mayapti. Shu boisdan birinchi muammo soliqqa tortiladigan obyekt tarikbini aniqlash bilan bog'liq bo'ladi u soliq kodeksida ham 381-tonli «Yuridik shaxslarning mol-mulkinden olinadigan soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaga asosan, soliqqa tortiladigan obyekt deyil-ganda korxonalar balansida bo'lgan asosiy vositalar shu jumladan, lizing shartnomasiga ko'ra sotib olingan vositalar va nomoddiy aktivlarning eskiri-shi chegirib aylanmagan o'rtacha yillik qiymati nazarda tutiladi.

Soliqqa tortiladigan obyekt korxona mol-mulkining qiymatdagi ifodasi bo`ladi, shu korxonaning balansida bo`lgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, lizing shartnomasi bo`yicha olingan mol-mulkarning majmuini tashkil etuvchi balans qiymatidan iboratdir.

Agar ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi qoidalarga e'tibor beradigan bo`ladi, ularda soliqqa tortishdagi kamchiliklarni kuzatish mumkin. Fikrimiz-cha, yuridik shaxslar mol-mulki soliqqa tortiladigan obyekt sifatida, asosiy vositalarning o`rtacha yillik balansi qiymatini hisoblash jarayonida asosiy vositalarning boshlangich qiymatidan eskirish so`mmasi chegirilganidan keyin qolgan qoldiq qiymati bo`yicha hisoblanishi lozim. Chunki korxonalar asosiy vositalari ekspluatatsiya jarayonida o`zining boshlang`ich sifatini yo`qotib, ham jismoni, ham ma'naviy tomondan eskiradi. Shu tufayli, ular-ning amaldagi haqiqiy qiymati eskirish darajasiga muvofiq uning miqdoriga nisbatan kamayadi. Rossiyalik iqtisodchi olimlar ko`pgina korxonalarda asosiy fondlarning eskirish darajasi 70-90 foizni tashkil etmoqda deb, ta'kidlamoqdalar.

Darhaqiqat, amaliyotda korxona mol-mulkini boshlang`ich qiymat bo`yicha soliqqa tortish, avvalo, soliqqa tortishning adolatlilik tamoyiliga ziddir. Bu usulda soliqqa tortish, bir tomondan, fond siyosiy yuqori bo`lgan korxonalar uchun mulk solig`i bo`yicha soliq og`irligini oshirsa, ikkinchi tomondan, asosiy vositalarga ega bo`lmagan korxonalar uchun ijobjiy bo`ladi qolmokda. Natijada, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish korxonalari o`rtasida mulk solig`i bo`yicha soliqqa tortishning noteng hollari yuzaga kelmokda. Xususan soliqqa tortish maqsadida asosiy vositalarni o`rtacha yillik balans qiymatini boshlang`ich qiymati bo`yicha soliqqa tortish hozirgi paytda bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelmasligi hamda xo`jalik yurituv-chi subyektlar balansida mavjud asosiy vositalardan samarali foydalanishni amalga oshira olmayotganini alohida ta'kidlash mumkin.

Soliqni hisoblashda eskirish so`mmasini soliqqa tortiladigan mol-mulk obyeti qiymatidan chegirish lozim. Chunki, asosiy fondlarni yangilash va qayta rekonstruksiya qilishga safarbar qilinadigan mablag`lar soliqqa torti-ladigan doiradan tashqarida bo`lishi lozim. Aks holda, korxonalarda asosiy fondlarning texnologik yangilanish sikli buzilishi va oqibatida asosiy fond-larning to`liq yemirilishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi paytda xalq xo`jaligi tarmoqlaridagi asosiy fondlarni yangilash kerak. Chunki xo`jalik yurituvchi subyektlarning xo`jalik faoliyatida yangi ilg`or texnologiyalardan foydalanish jahon andozalariga mos mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu

munosabat bilan korxonalarda eskirish miqdorini soliqqa tortish doirasidan chiqarib, asosiy fondlarni yangilash yoki texnologik yangilanish siklini to`g`-ri amalga oshirishni tashkil etish zarur. Fikrimizcha, soliqni asosiy vositalar dastlabki qiymatiga ko`ra hisoblash korxonalarini moderzinatsiyalash va eskirgan uskunalarini almashtirish uchun rag`bat bo`la olmaydi. Boshqacha aytganda, mol-mulk solig`ini asosiy vositalarning boshlang`ich qiymatidan undirish tartibini saqlab, bozor munosabatlarini shakllantirib bo`lmaydi.

Albatta, amalda soliqqa tortish maqsadida asosiy vositalarning o`rtacha yillik balans qiymati aniqlash uchun qoldiq qiymati bo`yicha soliqni hisob-lash ma'lum darajada davlat budgetiga tushishi lozim bo`lgan soliq miq-dorining kamayishiga olib keladi. Bunday holat budget daromadlarini shakl-lantirishda budget yo`qotishlariga olib kelishi mumkin. Fikrimizcha, ushbu budget kamomadi masalasini yechish uchun respublikamiz soliq siyosatining konseptual yo`nalishlariga tayanishi kerak. Ayniqsa, bozor munosabatlarida iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, soliqqa tortish maqsadida, korxona mulkchilik huquqi asosida bo`lgan uzoq muddatli aktivlar bilan birga ular-ning balansida mavjud bo`lgan qoldiqlar yoki mulk deb inkor etib bo`lmaydigan buxgalteriya hisobi balans aktivida aks ettirilgan ma'lum aylanma aktivlar qoldiqlarini mol-mulk solig`i bo`yicha soliqqa tortiladigan baza tarkibiga qo`shimcha element qilib kiritish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur metodologik xulosa mamlakatimiz xo`jalik yurituvchi subyekt-lari mol-mulklaridan samarali foydalanish uchun ahamiyatlari bo`lishi baro-barida budget daromadlarini shakllantirish uchun amaliy asoslarni yaratish va belgilashda ham muhimdir. Shunday qilib, soliqqa tortiladigan obyektning o`zgarishi natijasida mol-mulk solig`ini maqbullashtirish soliq to`lovlarini rejalashtirishning asosiy prinsipi bo`ladi, u soliqqa tortiladigan baza quyi-dagilar hisobiga oshib ketishiga yo`l qo`ymasligi kerak:

Korxonalar aylanma mablag`larini vaqtincha to`xtatib qo`yadigan ortiqcha moddiy zahiralarini qisqartirish. Tayyor mahsulotlarni oldisotdi jarayonlarini jadallashtirish. Ishlab chiqarish texnologik sikllari vaqtini qisqartirish va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini kamaytirish.

Ishlab chiqarish zahiralarining maqbul miqdorini belgilash.

Korxonada mavjud tovar zahiralarini soliqqa tortishning afzalligi to`g`-risida fikr yuritar ekanmiz, tovar zahiralari mol-mulk solig`i obyekti tarkibiga kiritilganda qaysi bahoda hisobga olinishi kerak, degan

savol tug'iladi. Tovarlarни soliqqa tortiladigan bazada hisobga olishda ular qiymatidan qo'-shilgan qiymat solig'ini chegirish zarur. Boshqacha aytganda, korxonalarning soliqqa tortiladigan bazasidan tovarlar bo'yicha QQS bo'yicha chegirmalarni to'g'ri va asoslangan bo'lishi uchun birlamchi hisob hujjalari va schet-fakturalarda aks ettirilgan qo'shilgan qiymat solig'i so'mmalaridan foyda-lanish mumkin.

## **2. Mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati. Soliqqa tortish maqsadida mol-mulk tusbunchasi. Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini to'lovchilari sifatida**

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir. Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulk bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha mol-mulki bilan javob beradigan, shu jumladan mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega alohida bo'linmalar tushuniladi. Soliq solishning alohida tartibi o'matilgan ayrim toifadagi to'lovchilarga yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i tatbiq etilmaydi. Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi o'matilgan yuridik shaxslar faoliyatning asosiy turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va qonun hujjalariaga muvofiq mol-mulk solig'ini to'lashlari zarur.

## **3. Yuridik shaxslardan mol-mulk solig'ini undirishda mol-mulkning yillik o'rtacha qoldiq qiymatini aniqlash tartibi**

Yuridik shaxslar uchun soliq solish obyekti bo'ladi asosiy vositalar (qonun hujjalariaga muvofiq mulk qilib olingan yerning qiymati bundan mustasno) va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, shuning-dek belgilangan muddat-larda tugallanmagan qurilish obyektining qiymati hisoblanadi. Soliq solish obyekti bo'ladi, shuningdek, me'yordagi muddat-larida o'matilmagan uskuna-larning qiymati hisoblanadi.

Agar u quyidagi shartlardan biriga javob bersa, amortizatsiyalanadigan asosiy vositalarning ijarasini lizing hisoblanadi:

a) ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatining sakson foizidan oshsa;

b) ijara asosiy vositalarni qat'iy narxda yoki ijara tugashi bo'yicha belgilanadigan narxda sotib olish huquqiga ega bo'ladi;

v) ijara olinadigan asosiy vositalarning qoldiq qiymati ijaraning tugashida ularning ijara boshlanishidagi qiymatining yigirma foizidan kamni tashkil etsa;

g) to'lovlarining joriy so'mmasi butun ijara davri uchun ijara olinadigan vositalar qiymatining to'qson foizidan oshsa.

Yuridik shaxslar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot yilining 1 yanvaridagi va hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvaridagi mol-mulk qoldiq qiymatining yarmini qo'shishdan olingan so'mmani hamda hiso-bot davri qolgan barcha oylari har bir dastlabki kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati so'mmasini 12 ga bo'lishdan olingan son sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

hisobot davriga soliqni hisoblab chiqarish uchun mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati hisobot davri oyining birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini, hisobot davridan keyingi birinchi oyning birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini va hisobot davri qolgan barcha oylari birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymatini qo'shishdan olingan so'mmani 12 ga bo'lishdan olingan so'mma sifatida aniqlanadi.

Agar mol-mulk oyning birinchi yarmida amalga kiritilgan bo'ladi, mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini hisoblab chiqarishda kiritish oyi to'liq oy deb qabul qilinadi, agar mol-mulk oyning ikkinchi yarmida amalga kiritilgan bo'ladi, o'rtacha yillik qoldiq qiymat amalga kiritish oyidan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab hisoblanadi.

Soliq solinadigan bazani aniqlash uchun, balans aktivida aks ettiriladi-gan eskirishni chegirgan holda, buxgalteriya hisobining quyidagi hisob varaqlari bo'yicha so'mmalar qabul qilinadi:

asosiy vositalarni hisobga olish hisob varaqlari;

uzoq muddatga ijara olinadigan asosiy vositalarni hisobga olish hisob varaqlari;

nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisob varaqlari;

tugallanmagan qurilishi (belgilangan muddatlarda qurilishi tugallanmagan obyekt qismida) hisobga olish hisob varaqlari;

o'matishga mo'ljallangan uskunani (me'yor muddatlarida o'matilmagan uskuna qismida) hisobga olish hisob varaqlari.

#### **4. Korxonalarda mol-mulkni qayta baholanishi va uning soliq obyektiga ta'siri. Mol-mulk solig'i stavkasi**

Soliq stavkalari quyidagicha:

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga 3 foiz stavkasi bo'yicha soliq

solinadi.

Me'yordagi muddatlarda o'matilmagan uskuna uchun mol-mulk solig'i ikki baravar ko'paytirilgan stavka bo'yicha to'lanadi. Eksport mahsuloti ishlab chiqaradigan va uni mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali sotadigan, vazirliklar, idoralar, korporatsiya-lar, konsernlar, uyushmalar va kompaniyalarning tarkibiy bo'lmalari hisoblangan korxonalar uchun quyidagi miqdorlarda sotishning umumiy hajmida o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning eksportdagisi ulushiga bog'liq holda mol-mulk solig'ining tabaqaqashtirilgan stavkalari belgilanadi:

*Izoh: Me'yoriy muddatlarda o'matilmagan uskunalar (foydalanilmagan uskunalar) uchun mol-mulk solig'i ikki baravar stavka bo'yicha to'lanadi.*

Ko'rsatilgan imtiyoz savdo-vositachi korxonalarga, shuningdek erkin almashtiriladigan valutaga xom ashyo tovarlari - paxta tolasi, ip gazlama, lint, neft, neft mahsulotlari, gaz kondensati, tabiiy gaz, elektr energiyasi, qimmatbahoh, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etilmaydi.

*Soliq bo'yicha imtiyozlar.*

Quyidagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solinmaydi:

a) notijorat tashkilotlarning mol-mulkiga, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalilaniladigan mol-mulkdan tashqari;

soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlar deganda quyidagilar tushuniladi:

faqat davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalanadigan, tasdiqlangan smetalar doirasida harajatlarni qoplashga budgetdan dotatsiyalar oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

hayriya birlashmalar, uyushmalar va jamg'armalar, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar;

1) ijtimoiy-hayriya yoki boshqa maqsadlar uchun barpo etilgan, tadbirkorlik faoliyati uchun daromad olishni ko'zlamasligi ta'sis hujjalarda qayd etilganlari;

2) moliyaviy va boshqa mablag'larni mazkur tashkilotning xodimlari, muassasalari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari uchun taqsimlamaydigan va investitsiyalamaydiganlari (mehnat uchun qonun hujjalarda belgilangan tartibda taqdirlashlardan tashqari);

b) xalq ta'llimi va madaniyat muassasalari ehtiyojlari uchun foydalilaniladigan mol-mulkka;

v) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy

ahamiyatga molik shahar xo'jaligining mol-mulkiga;

g) qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish, ularning seleksiyasi va ularni saqlash, baliq yetishtirish, ovlash va uni qayta ishslash sohasidagi faoliyatning asosiy turiga;

d) Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan, turizm faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga, tashkil etilgan vaqtidan e'tiboran dastlabki foyda olguniga qadar, lekin ular ro'yxatdan o'tgan vaqtadan e'tiboran uch yildan ortiq bo'lmasligi muddatga.

Ana shu yuridik shaxslar belgilangan imtiyozli davrdan keyin bir yil o'tguniga qadar tugatilgan taqdirda soliq so'mmasi ularning butun faoliyati davri uchun to'liq miqdorda undirib olinadi;

ye) nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniy" jamg'armasi va "O'zbekiston Chernobilchilari" uyushmasining mulkida bo'lган, ishlovchilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga, savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadiganlari bundan mustasno;

j) yangi tashkil etilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga, ro'yxatdan o'tgan paytidan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalar, ularning filiallari va tarkibiy bo'limma-larinining ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlari negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek korxonalar huzurida tashkil etilgan yuridik shaxs-larga nisbatan, basharti ular ana shu korxonalardan ijara olingan asbob-uskunalarda ishlayotgan bo'ladilar, qo'llanilmaydi;

z) xorijiy kredit hisobiga harid qilingan asbob-uskunalarga, ushbu kreditni so'ndirish muddatiga, lekin u besh yildan ortiq bo'lmasligi kerak.

Bunda mazkur imtiyoz quyidagilarga tatbiq etilmaydi:

yuqorida ko'rsatilgan imtiyoz amalga kiritilishiga qadar harid qilingan asbob-uskunalarga ham, basharti imtiyozni joriy etish paytida kreditni so'ndirish muddati tugamagan bo'ladi. Mazkur imtiyozning muddati tugama-gan taqdirda, imtiyoz u joriy etilgan paytdan boshlab kreditni so'ndirishning qolgan muddatiga tatbiq etiladi, lekin u besh yildan oshmasligi kerak;

kredit bitimi (shartnomasi)da ko'zda tutilgan muddatga muvofiq kredit bo'yicha asosiy qarznigina so'ndirish davriga, lekin u besh yildan oshmasligi kerak;

buxgalteriya hisobi to`g`risidagi qonun hujjatlariga muvofiq to`lov-chining balansida qayd etilgan yetkazib berish, montaj qilish va ishga tushirish-sozlash harajatlarini o`z ichiga oladigan asbob-uskunalarning butun qiymatiga;

i) eksport mahsuloti ishlab chiqaradigan va uni mustaqil ravishda yoki vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, konsermlar, uyushmalar va kompaniya-larning tarkibiy bo`lmalari bo`lgan ixtisoslashgan tashqi savdo birlashma-lari va firmalari orqali sotadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga, bunda o`zi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportining ulushi umumiy sotish hajmida 50 foiz va undan ko`p miqdorni tashkil etishi kerak.

Mazkur imtiyoz savdo-vositachilik korxonalariga, shuningdek erkin almashtiriladigan valutaga xom ashyo tovarlari - paxta tolasi, ip gazlama, lant, neft, neft mahsulotlari, gaz kondensati, tabiiy gaz, elektr energiyasi, qimmatbaho, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etilmaydi;

k) bo`shatib olinadigan mablag`lar ular tomonidan moddiy-texnik ba-zani mustahkamlashga, asbob-uskunalar, anjomlar, didaktik material, bolalar o`ynichoqlari va adabiyotlariga sarflanishi sharti bilan ro`yxatga olingan paytdan boshlab uch yil muddatga nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimiyat organlari (o`z hududida mol-mulk joylashgan soliq to`lovchilarga nisbatan) tomonidan qo'shimcha imtiyozlar berilishi mumkin.

Mol-mulk soligi hisoblab chiqarilayotganida soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

a) soliq to`lovchining balansida bo`lgan uy-joy-kommunal va ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining;

b) tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadida va yong`inga qarshi havfsizlik uchun foydalaniладigan obyektlarning;

Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish maqsadlari uchun foydalani- layotganlar toifasiga kiritish tabiatni muhofaza qilish organlarining muayyan obyektlardan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanilishi to`g`risi-dagi ma'lumotnomasiga muvofiq amalga oshiriladi;

Sanitariya-tozalash maqsadida foydalaniладigan obyektlar qatoriga tozalagich inshootlari kiradi;

Yong`indan saqlash obyektlariga o't o'chirish depolari, o't

o'chirish uchun maxsus qurilgan suv havzalari, o't o'chirish jihozlari o'rnatilgan taxtalar kiradi.

v) qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularning seleksiyasi, baliq yetishtirish, ovlash va uni qayta ishslash uchun foydalaniladigan obyektlarning;

g) mahsulot o'tkazgichlar, aloqa yo'llari (shu jumladan avtomobil yo'l-lari), aloqa va energiya uzatish liniyalarining, shuningdek ularni foyda-lanishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlarning.

Mahsulot o'tkazgichlarga quyidagilar kiradi: neft, neft mahsulotlari, kondensat kuvurlari va quvur transportining boshqa turlari, nasos, kompressor hamda taqsimlash stansiyalari bilan birga; uy-joy-kommunal obyektlari bo'lma-gan mintaqaviy gaz, bug' quvurlari, issiqlik trassalari, suv quvurlari, kanaliza-tsya kollektorlari; buxgalteriya hisobotida alohida obyektlar sifatida hisobga olinadigan alohida joylashgan sexlar, konlar va karyerlarning ayrim uchastkal-ari orasidagi mahsulotlarni harakatlantirish uchun ishlataladigan yer osti, yer usti va havoda joylashtirilgan har xil ko'rinishdagi quvurlar va transportyorlar.

Aloqa liniyalariga havo aloqa liniyalari, ularga ilib qo'yilgan simlar va aloqa kabellari, ustunli radiofikatsiya aloqa liniyalari, ularni belgilaydigan signal va o'Ichov ustunlari (qoziqlari), radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyasi, yer usti va yer ostidagi ularga xizmat qilinmaydigan kuchaytirish (regeneratsiya qilish) punktlari, taqsimlovchi shkaflar, qutilar, yerga ulangan sim konturlari va boshqa aloqa inshootlari kiradi. Energiya uzatish liniyalariga havo va kabelli elektr uzatish liniyalari kiradi.

Soliq solish maqsadida ularni foydalanishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlarga ustunlar, tabiiy va sun'iy to'siqlardan o'tishlar va boshqa muhofaza inshootlari kiradi.

d) aloqa yo'Idoshlarining;

ye) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra to'xtatib qo'yilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

j) shahar yo'lovchilar transportining (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan umumiyl foydalanishdagi avtomobil transportining (taksi, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari);

z) yo'l xo'jaligi korxonalarining yo'llarni ta'mirlash va saqlash ishlarida band bo'lgan transport vositalarining;

i) davlat dasturlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qurolli

kuchlari uchun kadrlar tayyorlashda foydalilaniladigan transport vositalarining.

k) lizingga olingen mol-mulkning, lizing shartnomasining amal qilish muddatiga.

Soliq to`lovchilarga O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

*Soliq to`lash tartibi.*

Yuridik shaxslar budgetga joriy to`lovlari so`mmasini hisobot yili mol-mulkining o`rtacha yillik qoldiq qiymatidan va soliq stavkasidan kelib chiqib mustaqil ravishda belgilaydilar.

Budgetga joriy to`lovlarni to`lash har oyning 20-kunidan kechiktirmay, yillik soliq so`mmasining 1/12 qismi miqdorida to`lanadi. Budgetga joriy to`lovlarni hisoblab chiqarish va to`lash uchun soliq to`lovchilar mol-mulkning tegishli yilga o`rtacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqadilar va joriy yilning 10 (uninch) yanvarigacha davlat soliq xizmati organlariga yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig`ini hisoblash to`g`risidagi Yo`riqnomaning 6-ilovasiga binoan shaklda ma'lumotnoma taqdim etadilar. Birinchi chorak, yarim yillik, 9 oy va yil tugashi bilan to`lovchi hisobot davri uchun mol-mulkning haqiqatda o`rtacha qoldiq qiymatidan kelib chiqib yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan mol-mulk solig`i hisob-kitobini mustaqil ravishda amalga oshiradi va uni davlat soliq xizmati organlariga moliyaviy hisobtlarni taqdim etish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Taqdim qilingan hisob-kitobdan kelib chiqib hisoblangan mol-mulk solig`ining so`mmasi choraklik va yillik moliyaviy hisobtlarni topshirish uchun belgilangan muddatdan keyin besh kun ichida o`tkaziladi.

Mol-mulkning qoldiq qiymati va imtiyoz taqdim etish muddatini ko`rsatgan holda korxona mol-mulki o`rtacha qoldiq qiymatining hisob-kitobi va soliq undirilmaydigan mol-mulk ro`yxati mol-mulk solig`ining hisob-kitobiga majburiy ilovalar hisoblanadi. Mahsulot eksportini amalga oshiradigan eksportchi korxonalar mol-mulk soligi hisob-kitobini taqdim etayotganlarida mazkur Yo`riqnomaning 5-ilovasiga binoan eksport qilinadi-gan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga doir ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Eksportchi korxonalar eksport ulushi 15 dan 25 foizgacha bo`lganda hisob-kitob shaklida 2-satrning 3-ustunida soliq stavkasini

kasr chizigi orqali ko`rsatadilar (2%;0,6%). Eksportchi korxonalar eksport ulushi 25 dan 50 foizgacha bo`lganda hisob-kitob shaklida 2-satrning 3-ustunida soliq stavkasini kasr chizigi orqali ko`rsatadilar (2%/1%). Agar eksport ulushi 50 foizdan ortiq bo`ladi, 2-ustunning 3-ustuniga chizib qo`yiladi.

Ortiqcha to`langan soliq so`mmalari, agar soliqlar va yig`imlar bo`yicha qarz mavjud bo`lmasa, to`lovchining yozma arizasiga ko`ra bo`lg`usi to`lovlar hisobiga qayd etiladi yoki 30 kun ichida qaytariladi.

Budjet bilan hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi budjetga to`lovlar bo`yicha qarzni hisobga olish hisob varag`i bo`yicha yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq so`mmasi quyidagicha aks ettiriladi:

davr harajatlarini hisobga olish hisob varag`i debeti;

budjetga to`lovlar bo`yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag`i krediti.

Budjetga o`tkazilgan soliq so`mmalari quyidagicha aks ettiriladi:

budjetga to`lovlar bo`yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag`i debeti;

pul mablag`larini hisobga olish hisob varag`i krediti.

*Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlari va me`yoriy muddatlarda o`rnatilmagan uskuna uchun mol-mulk solig`ini to`lash tartibi:*

1. Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyekti uchun mol-mulk solig`ini to`lovchilar bo`ladi qurilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar-buyurtmachilar hisoblanadi.

Soliq solish obyekti bo`ladi belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining qiymati (smetalar, smeta-moliya hisob-kitoblari va kapital qurilish titullari ro`yxatida ko`zda tutilgan bino va inshootlarni qurish, uskunalar, asboblar, asbob-uskunalarni va boshqa predmetlarni sotib olish harajatlar (qurilish pudrat yoki xo`jalik usuli bilan qurilishidan qat`iy nazar), ya`ni buyurtmachi tomonidan f-3 shaklida (bajarilgan ishlar va harajatlar hajmi to`g`risida ma'lumotnomasi) rasmiylashtirilgan statistika hisobiga obyekt bo`yicha kiritilgan va tugallanmagan qurilish hisob varag`ida hisoblanadigan hamma ishlar va harajatlar (belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlari qismida) hajmi hisoblanadi.

Qurilishning belgilangan muddati deb qurilishni tashkil qilish loyihasi (KTKL) tarkibida 1.04.03-85-son KMK "Korxonalar, binolar va inshootlarni qurish muddati me`yorlari"ga muvofiq loyihalash tashkiloti tomonidan aniqlanadigan obyekt qurilishining me`yoriy muddati

hisoblanadi.

Loyihalash tashkilotlari loyiha-smeta hujjatlarida tayyorlash muddat-larini ajratgan holda qurilish muddati me'yорини ko'rsatishlari shart. Loyiha-smeta hujjatlarida qurilish muddati me'yori ko'rsatilmagan taqdirda, buyurt-machi loyihalash tashkilotidan muayyan obyekt bo'yicha qurilish muddati-ning me'yori to'g'risida xulosa olishga majbur.

2. Me'yordagi muddatda o'matilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'ladi kapital mablag'lar hisobiga qayta jizozlanadigan obyektlarda montaj qilish talab qilinadigan va o'matishga belgilangan texno-logik, energetik va ishlab chiqarish uskunalar bo'lган (ustaxonalar, tajriba qurilmalari va laboratoriylar uchun uskunalarни qo'shib) yuridik shaxslar hisoblanadi.

Me'yordagi muddatda o'matilmagan uskunalar uchun soliq solish obye-kti bo'ladi o'matishga belgilangan uskunalar qiymati hisoblanadi, ular qatori-ga montaj qilishni talab qiladigan, faqat qismlarini yig'ish va poydevorga yoki ustunlarga, polga, qavatlararo to'siqlarga va boshqa bino va inshootlarni ko'tarib turuvchi konstruksiyalarga o'matiladigan uskunalar hamda uskuna-larni hisobga olish hisob varag'ida hisoblanadigan shunday uskunalarning ehtiyoj qismlar to'plami (me'yordagi muddatda o'matilmagan uskunalar qismida) hisoblanadi. Ushbu uskunalar tarkibiga o'matiladigan uskunalar qatorida montaj qilish uchun belgilangan nazorat-o'lchov apparaturasi yoki boshqa asboblar ham kiradi.

Korxonalar, binolar va inshootlar qurilishida tasdiqlangan qurilish muddati va tayyorlab qo'yilgan zahiralar me'yoriga muvofiq har bir obyekt bo'yicha texnologik yoki boshqa uskunalarни yetkazib berish va montaj qilish jadvali belgilangan bo'lishi lozim.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan va import qilingan uskunalarini yetkazib berish va montaj qilish jadvalida quyidagi muddatlarda topshirish hisobga olinadi:

- yirik texnologiya va energetika uskunaları - ularni nomma-nom ro'yxatlari bo'yicha montaj qilish va yetkazib berish jadvallarining rejadagi muddati o'tib ketgandan keyin;

- texnologiya uskunaları, texnologiya liniyalari, qurilmalar va boshqa umumzavod uskunaları - uskunalarни montajga topshirishining rejadagi muddati o'tgandan keyin, lekin olti oydan ortiq bo'limgan muddatda;

- komplekt import uskunaları - ularni montajga topshirishning

rejadagi muddati o'tib ketgandan keyin, lekin bir yildan ortiq bo'Imagan muddatga, agar texnik shart-sharoitlariga ko'ra uskunani qismlar bo'yicha montaj qilish mumkin bo'lmasa, ularni montajga topshirish muddati uskunalar butun komplektining kelib tushishi paytidan hisoblanadi;

- qismlarga ajratilgan import uskunalarini, shuningdek kabel mahsulotlari, simlar va troslar - ularni montajga topshirishning rejadagi muddati o'tgandan keyin, lekin olti oydan ortiq bo'Imagan muddatda.

Uskunalarni montaj qilish va o'rnatish uchun me'yorlar va jadvallar bo'Imaganida soliq quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar bo'yicha mamlakatimizda ishlab chiqarilgan va import qilingan uskunalarning o'rnatilmaganligi uchun - sotib olinganiga bir yillik muddat to'iganidan keyingi oydan boshlab;

- noishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar bo'yicha - sotib olinganiga olti oy tugagandan keyin;

- montajni talab qilmaydigan xo'jalik inventarlari va uskunalar bo'yicha - sotib olingan kundan boshlab.

Uskunalarni yetkazib berish va montaj qilishning yuqorida ko'rsatilgan muddatlarini buzganligi uchun korxona va tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, mol-mulk solig'ini ikki baravar ko'paytirilgan stavka bo'yicha to'laydilar.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.**

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'ini to'lovchilarga kimlar kiradi?

Mol-mulkning o'rtacha yillik (choraklik, 6 oylik, 9 oylik) qoldiq qiymati qanday tartibda hisoblanadi?

Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i stavkasini kim belgilaydi va bu soliqdan qanday imtiyozlar mavjud?

Mol-mulk solig'ini hisobini taqdum etish tartibi va soliqni to'lash muddatlari qanday?

## **10 - Mavzu: Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i**

### **Reja.**

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lovchilari, obyekti va soliq stavkalari.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan imtiyozlar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari.

#### **1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati**

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq - bu bevosita soliq bo'ladi, u o'zining ushbu sifati bilan moddiy boyliklarni olish va jamg'arish jarayonida undiriladi. Bu real soliqdir, («real» atamasi (inglizcha real - mulk) ayni ushbu soliq birinchi galda fuqaro egalik qilinadigan mol - mulk solinishi bilan bog'liq). Bu muntazam soliq hisoblanadi, ya'ni u yarim yilda bir marta muntazam ravishda undiriladi. Nihoyat bu hududiy soliq bo'ladi, u O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan va unda ro'yxatga olingan ko'chmas mulk va transport vositalari (2017 yil 1 yanvardan trans-port vositalari dvigatel quvvatidan olinadigan soliq bekor qilingan) uchun to'lanadi. Mol-mulk solig'i mutanosib (proporsional) va shedulyardir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni huquqiy tartib-ga solishning asosiy manbalariga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (27-29 boblar). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabrdagi 478-sonli «Jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'l-gan bino va inshootlarni baholash va qayta baholash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-masining 1994 yil 9 dekabrdagi 591-sonli «Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan), O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan «Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida» yo'rqnoma ishlab chiqildi. Ilgari ushbu soliqning undirib olinishi 1993 yil 28 dekabrdagi qabul qilingan «Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan

soliqlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinar edi. Respublika fuqarosi, boshqa davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'limgan shaxs, O'zbekiston rezidenti yoki norezidenti bo'lishidan qat'iy nazar soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'ladi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 90-moddasiga muvofiq soliqqa tortiladigan obyektga: 1) uy-joylar, 2) kvartiralar, 3) bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari a'zolarining chorbog' va bog' uylari 4) garajlar va boshqa imoratlar, bino va inshootlar kiradi hamda yuqoridagilar bo'yicha jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir. Bundan tashqari, 2002 yil 1 yanvargacha jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan avtomobillar, motorli qayiqlar, vertolyotlar, samolyotlar va boshqa transport vositalari dvigatel-larining quvvati soliq solish obyekti bo'ladi hisoblangan. Lekin, 2002 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrdagi «Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognози va 2002 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining parametrlari to'g'risida»gi 490-son qaroriga muvofiq dizel yoqilig'isi va suyultirilgan gaz iste'moliga solig'i joriy etildi.

Umuman olganda, «soliq solish obyekti» va «soliq solish predmeti» tushunchalarini farqlash zarur. Bu farq ayni jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqqa nisbatan yanada yaqqol namoyon bo'ladi, u soliqning subyektini aniqlaydi va u bilan ma'lum huquqiy aloqada jumladan mulk huquqiy munosabatlarda bo'ladi. Shunga e'tiborni qaratamizki, 1998 yil 13 yanvardagi 392-sonli Yo'riqnomma (2-bandi)da O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidan (89-modda) farqli ularoq, shunday belgilanadi, soliq «o'z ixtiyorida ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi». Mazkur yo'riqnomaning 5.3-bandi shuni belgilaydiki, soliq bo'yicha imtiyozlar faqat tovar mulk imtiyoz oluvchining o'z mulki bo'lgan\_hollardagina beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabr-dagi 478-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan bino va inshootlami baholash va qayta baholash to'g'risida» nizomning 4-bandida shunday deyiladi:

*«Foydalanish uchun qabul qilingan va mahalliy texnik ro'yxatdan o'tkazish idorasida ro'yxatga olingan, jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan uy-joylar, kvartiralar, bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari a'zolarining chorbog' va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar soliq solish uchun baholash obyekti hisoblanadi».*

**Soliq solish obyekti** – bu subyektning soliq to'lash majburiyatini

shart qilib qo'yuvchi yuridik dalillardir (mazkur holatda mulkchilik huquqida mol-mulkka egalik qilish bunday yuridik dalil hisoblanadi).

Soliq solish predmeti (atama mazmuniga ko'ra soliq solish obyektiga yaqin) – bu tegishli soliqning undirilishini asoslab beruvchi daliliy xususiy-atdag'i belgilardir. Masalan, uy, kvartera kabi mol-mulk uchun mulkchilik huquqi obyekti bo'ladi, uy yoki kvarteraning o'zi esa soliq solish predmeti hisoblanadi va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabr-dagi 478-sonli qaroriga muvofiq jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan uy-joylar, kvartilalar (shu jumladan xususiylashtirilgan kvartilalar), garajlar, boshqa imoratlarni baholash va qayta baholash uchun yagona funksional ko'rsatkich-imorat, bino umumiyl maydonning kvadratmetri belgi-lanadi. Bu esa soliq solish birligidir. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi-ning 93-moddasi soliq bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lgan shaxslar doirasini tartibga soladi. Uning tahlili shuni ko'rsatmokdaki, qonun chiqaruvchi har qanday mol-mulk solig'idan ozod etiladigan jismoniy shaxslarning qator toifalarini ajratadi, jismoniy shaxslarning boshqa guruhlariga esa, faqat imo-ratlar, binolar va inshootlar uchun soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar berdi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasi-ning «Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqish va budgetga to'lash tartibi to'g'risida» yo'riqnomaga muvofiq jismo-niy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mol-mulk solig'idan imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan kishilar soliq xizmati organlariga kerakli hujjatlarni taqdim etadilar. Imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha mol-mulk solig'i har yili 1 yanvardagi holati yuzasidan communal xizmat ko'rsatish imoratlari beradigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida, ma'lumotlar bo'lmagan takdirda esa mazkur obye-ktlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini belgilab qo'ygan so'mma atrofida soliqqa tortiladi.

Imoratlar, binolar va inshootlar bir qancha mulkdorlarga tegishli umu-miy hissali mulk egalari bo'lganda soliq har bir mulkdorning imoratlari, binolar va inshootlardagi hissasiga qarab hisoblanadi. Yangi quriqigan yoki sotib olingen mulklar bo'yicha soliq kelgusi yil boshidan boshlab hisob-lanadi. 2001 yil 31 dekabrgacha amalda bo'lgan transport vositalariga solina-digan mol-mulk solig'i davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi tegishli idoralarning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan. Bunday

idoralarga DAN xizmati idorasi va «O'zbekiston havo yo'llari» kompaniyasi kiradi.

Yangi sotib olingen transport vositalari bo'yicha mol-mulk solig'i sotib olingen oydan keyingi oydan hisoblangan. Davlat avtomobil nazorati tomoni-dan hisobdan chiqarilgan avtomobillar va mototsikllar bo'yicha soliq hisob-lanmagan. Meros bo'yicha mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochil-gan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi kalendar yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1 yanvaridan bu mol-mulkka mulk huquqini yo'qtgan oyning boshigacha to'laydi, ya'ni mulkdor esa mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan e'tiboran to'laydi.

Kalendar yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda mol-mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e'tibo-ran qayta hisoblab chiqiladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash usuli – *kadastrli usul* hisoblanadi. Soliqni bunday usul bilan to'lashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mol-mulkka uning tashqi belgilari, ro'ljallanayotgan daromad asosida soliq solinishi bois, soliqni to'lash vaqt daromadni olish vaqt bilan hech qanaqa bog'liq emas va shu munosabat bilan mol-mulk solig'ini to'lash uchun qatiy muddat belgilanadi. Jumladan, mol-mulk solig'i teng ulushlarda ikki muddatda – 15 iyun va 15 dekabrdan kechiktirmay to'lanadi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi-ning 95-moddasi).

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish predmeti joylashgan joydagи soliq organi tomonidan hisoblab chiqiladi, bunda soliq organi tomonidan yozib beriladigan to'lov xabarnomasi to'lovchilarga har yili joriy yilning 1 mayidan kechiktirilmay topshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiining 95-moddasi 8-qismi). Shunday qilib, soliq to'lovchi-ning roli go'yoki passivdir.

Soliqlar bo'yicha to'lovlari faqatgina soliq solish predmeti joylashgan joydagи mahalliy budjetga o'tkaziladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq uning har yili 1 yanvar holatiga ko'ra ro'yxatga olish (inventarizatsiya) qiymatiga nisbatan foiz hisobida hisoblab chiqariladi. Agar imoratlar, binolar va inshootlarning ro'yxatga olish qiymati haqidagi ma'lumotlar bo'lmasa, u holda soliq ushbu mulkning davlat majburiy sug'urtasi bo'yicha so'mmalarni hisoblash uchun belgilangan qiymatidan, shuningdek, har yilning 1 yanvar holatiga ko'ra baholanishidan kelib chiqqan holda hisob-lab chiqiladi.

2002 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-

ning 2001 yil 31 dekabrdagi «Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognози va 2002 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining parametrlari to'g'risida»gi 490-son qaroriga muvofiq joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilig`isi va suyultirilgan gaz iste'moliga solig`ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining yo'rqnomasida belgilab berilgan. Yo'rqnomaga muvofiq ushbu soliq turi bo'yicha soliq so'mmasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel yoqilig`isi va suyultirilgan gaz uchun mablag` to'lanishi bilan bir vaqtda undiriladi va soliq so'mmasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

Soliq so'mmasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs-haridorga berilgan chekda alohida satr bilan ko'rsatiladi.

Hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq so'mmasi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tushum deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq soliq obyekti bo'l-maydi. Budgetga soliq to'lovchilar sotilgan benzin, dizel yoqilig`isi va suyul-tirilgan gaz hisobi hamda hisoblangan soliq so'mmalari hisobini alohida yuritadilar. Budget bilan hisob-kitoblar hisobi «Budget bilan hisob-kitoblar» hisob varag'i bo'yicha – «Jismoniy shaxslardan olinadigan transport vosita-lari uchun benzin, dizel yoqilig`isi va suyultirilgan gaz iste'moliga soliq» ilova hisobvarag'ida yuritiladi, soliqni o'tkazish «hisob-kitob varag'i» hisob varag'i bo'yicha aks ettiriladi.

Soliq mahalliy budgetga O'zbekiston Respublikasi budgetlari daromad va harajatlarining tegishli tasnifiga ko'ra bo'lim va paragrafga to'lanadi.

Soliq bank muassasalari orqali har o'n kunda, benzin, dizel yoqilig`isi va suyultirilgan gaz jismoniy shaxslarga sotilgan oy o'n kunligi tugaganidan so'ng uchinchi kundan kechiktirmay to'lanadi. Joriy o'n kunlik to'lovlar hisobiga olingan soliq bo'yicha hisob-kitob avtomobilga yonilg'i qo'yish shohobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

## **2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig`ini to'lovchilari, obyekti va soliq stavkalari**

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig`ini to'lovchilari bo'ladi soliq

solinadigan mol-mulkga ega bo`lgan fuqarolar hisoblanadi.

Demak, bu yerda mol - mulk soliq obyekti hisoblanadi Ammo jismoniy shaxslarning hamma mulki emas, faqat quyidagi mulklari mol-mulk solig'i obyekti hisoblanadi:

- a) uy-joylari,
- b) kvartiralari,
- v) chorborg' va bog' uylari,
- g) garajlar va boshqa imoratlar;
- d) binolar va inshoatlar qiymati (inventar qiymati).

Qisqacha qilib aytsak, imoratlар va inshoatlar qiymati mol-mulk solig'i obyekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol - mulk solig'i stavkasini har yili kelgusi mo-liya yili uchun O`zbekiston Respublikasi davlat budgeti parametrlarida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qaror bilan tasdiqlanadi. Masalan: 2003 yil uchun Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 dekabrdagi 455-sonli qarori bilan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining quyidagi stavkasi belgilangan:

Jismoniy shaxslar mulki qiymati qayta hisoblanmagan bo`ladi, Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida shartli ravishda 1800 m. so`m; boshqa shaharlar va qishloq joylarida 800 m. so`m qilib olinadi.

Masalan: fuqaroning uy joylari Toshkent shahrida joylashgan, 1998 yil 1 yanvardan qayta hisoblangan qiymati 1200 ming so`m. Bu fuqaro 2003 yilda 6 ming so`m mulk solig'i to`lashi kerak. Bordiyu, fuqaro mulkinining qiymati qayta baholanmagan bo`ladi, Toshkent shahrida 1800 ming so`m qilib olinadi va budgetga 126 ming so`m mol-mulk solig'i to`laydi.

### **3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan imtiyozlar**

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkiga (imoratlar, binolar va inshoat-lar) soliq solinmaydi:

«O`zbekistan Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonlariga sazavor bo`lgan, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlarning;

1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari va partizanlari ularga tenglashtirilgan shaxslar, ichki ishlari va davlat havfsizligi organlari tarkibida xizmat qilgan shaxslarning, harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda shtatdagi lavozimlarni egallagan shaxslar. Leningrad shahri qamalida bo`lganlarning va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, xizmatini Afg'oniston Respublikasida

va jangavor harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlar-ning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlarning;

Qahramon onalar, shuningdek o'n nafar va undan ortiq farzandi bor ayollarning;

Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar olayotgan fuqarolarning (shu jumladan u yerga vaqtinchalik xizmatga yuborilganlarning);

Pensionerlarning, shuningdek 1 va 2 guruh nogironlarining;

Muddatli xizmat harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarining xizmatni o'tash davrida;

harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoki frontda bo'lish tufayli ottirilgan kasallik oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ottonalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalarining (erlarining).

O'zbekistan Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilari jumlasidan bo'lgan nogironlarning ichki ishlar organlarining xizmat vazifasini ado etayotganda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida nogiron bo'ladi qolgan boshliqlar va oddiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan shaxslarning mulklari soliqdan ozod etiladi. Ushbu moddada nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanloviga binoan mol - mulkning faqat bir obyektiga taalluqli bo'ladi. Masalan, ikkita uy bo'ladi, bittasiga beriladi.

Yil mabaynida soliq to'lovchilarda mol - mulk solig'i bo'yicha imtiyoz olish huquqi paydo bo'lgan, taqdirda ularga soliq to'lashdan imtiyoz huquqi paydo bo'lgan oydan boshlab beriladi. Yil ichida mol - mulk solig'i bo'yicha imtiyoz yo'qotilgan holatda mulklarni soliqqa tortishdan imtiyoz huquqi yo'qotilgan oydan keyingi oydan boshlab soliqqa tortiladi. Imtiyozlar faqat mol - mulk imtiyoziga ega bo'lgan shaxsning mulki bo'lgandagina berilishi mumkin.

#### **4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash muddatları**

Jismoniy shaxslarning mol - mulkiga solinadigan soliq soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi. Buning uchun kommunal xizmat ko'rsatish idoralarining inventarizatsiya qiymati asos qilib olinadi. Bu yerda imoratlar, binolar va inshoatlar bo'yicha har yil 1 - yanvar holatidagi

qiymat olinadi. Kommunal idoralar inventarizatsiya qilmagan bo'ladi - mazkur obyektlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'ygan so'mma atrofida soliqqa tortiladi (soliq hisoblanadi).

Mol - mulk solig'i bo'yicha imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan shaxs-lar zarur hujatlarni soliq idoralariga taqdim etadilar. Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshoatlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdorning mulkdagi ulushiga munosib rav-ishda to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshoatlar bo'yicha soliq ular bar-po etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq merosxo'rillardan meros ochil-gan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vay-ron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'i undirish ular yo'q qilgan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Mol-mulkka mulk huquqi kalen-dar yil davomida bir mulkdan boshqasiga o'tganda soliqni bиринчи mulkdor o'sha yilning 1-yanvaridan bu mol-mulkka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi yangi mulkdor esa - mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan e'tiboran to'laydi. Kalendar yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda soliq ana shu huquq vujudga kelgan oydan boshlab qayta hisoblab chiqiladi. Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga soliq idoralari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Soliq teng ulushlarda ikki muddatda 15 iyun va 15 dekabrdan kechiktirmay to'lanadi. Soliq oshiqcha to'langan bo'ladi, kelgusi davr qarz-lariga yetkaziladi yoki yozma arizasiga binoan boshqa soliq va yig'imlardan qarzi bo'lmasa 30 kun ichida qaytariladi.

### O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchilar kimlar?

Mulkarning qiymati qanday tartibda hisoblab chiqiladi va uning stavkalari qanday?

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkasini kim belgilaydi va bu soliqdan qanday imtiyozlar mavjud?

Mol-mulk solig'ini hisobini taqdim etish tartibi va soliqni to'lash muddatlari qanday?

## **11 - Mavzu: Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i Reja:**

Yer maydonlarining soliqqa tortilishining asosiy sabablari. Yer solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning tarixiy shakllanishi.

Yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilar va soliq obyekti. Yer solig'i stavkalari va uning hududiy tabaqalashtirish asoslari.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari va uning guruhlanishi. Yer solig'ini hisoblash va budgetga to'lash tartibi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari uchun yagona yer solig'ini joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari va zaruriyat. Yagona yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi. Hisoblangan soliq so'mmasini buxgalteriya schotlarida aks etirish tartib.

Yer solig'ini hisoblash va budgetga to'lash bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolari.

### **Mavzu bo'yicha qo'yilayotgan muammolar:**

yuridik shaxslar tomonidan yer soligi uzoq vaqt to'lanmasligi va soliq solinadigan maydonlarning kamaytirilib ko'rsatilishi muammosi;

soliq organlarida yangi yerlardan foydalanishlarni va mavjudlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradigan, tuman va shaharlar hududini muntazam tekshirishlarni yuritish imkoniyatining yo'qligi muammosi;

ayrim qishloq tumanlarida soliqqa tortish maqsadlariga asos bo'ladijan yer kadastrining mavjud emasligi muammosi;

yagona yer soligini faqatgina yer maydonidan kelib chiqib hisoblamasdan, balki qishloq xo'jalik yerlarining me'yoriy qiymatidan foydalanish muammosi;

yagona yer solig'i stavkalarini belgilashda me'yoriy qiymatdan foydalanish uslubiyatini yaratish.

### **Tayanch so'z va iboralarli**

yer maydonlari, sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yer maydonlari, yuridik shaxslarning yer solig'i, soliq obyekti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar

## **1. Yer solig'ini soliq tizimiga joriy etishning asosiy sahabatlari**

### **Yer solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning tarixiy shaxslari**

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va ~~juftaroq~~ shaxslar o'rtaida vujudga keluvchi obyektiv majburiy ~~to kerazga~~ asoslangan moliyaviy muno-sabatlar orqali xarakterlanadi. Bo'lgan munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo'ldi, ~~zalq~~ daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'-larini davlat ~~o'sishiga~~ safarbar qilishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqgan holda soliq ~~tashakkuslari~~ quyi-dagicha ta'rif berish mumkin: «Soliqlar davlat va jamo, ~~so'zni~~ mab-lag`lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun ~~torozida~~ belgilab qo'yilgan holda va o'matilgan muddatda jismotiy ~~va~~ ~~zalq~~ shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib ~~o'sishga~~ to'lovlardir.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalariga katta chiqadi. Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini ~~o'sishga~~ harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan funksiya ~~o'sishga~~ yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'lgan ertaga yo'q bo'ladi ketadigan holatlar soliq funksiyasi bo'lgan. Demak, funksiya katego-riyasi doimiy, qat'iy takrorlanib ~~o'sishga~~ voqelikni ifodalaydi. Shunday uslubiy yondashishdan ~~katta~~ soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funksiyalari masalasida katta baholashni ~~o'sishga~~ lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodiy ~~o'sishga~~ fiskal, boshqaruvchi, rag`batlantiruvchi, nazorai funksiyasi ~~o'sishga~~ ta'rif berishadi.

Soliqlarning birinchisi funksiyasi yordamida davlat ~~daroma-di~~ tashkil etilsa, ikkinchisini ham amalga oshira boraq. Ancha ishlab chiqarishga unig usishini rag`batlantirishi yoki ~~o'sishga~~ sekinlashtirishi, sarmoya jamg'arish jarayonini kuchaytirishi yoki kiskartirishi kabi tadbirlarni amalgaga oshirishi mumkin. Soliq ~~o'sishga~~ soliqlar ni undirishning uchta usuli mavjud: ~~kedavrlik~~ ~~duruvchi~~ manbaidan; daromad egasi daromadni olganidan so'ng (~~delkashga~~ bo'yicha).

**Birinchi usul**, bevosita real soliqlarni hisoblash ~~o'sishga~~ foydalaniladigan obyektlar (yer, imoratlar va shu kabilar) ning davosi va o'rtacha daromad-liligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan ~~kedavrlik~~ yoki reyestrdan foyda-lanilishini takozo etadi. Oliy telgilangan lo'zi

tasniflanadigan obyektning tavsifnomasi kadastrning kurilishiga asos bo`ladi. Masalan, yer kadastrini

to`zishda turli tumanlardagi ayni bir xildagi yer uchastkalari sifati, joylash-gan joyi, foydalanilishi va boshqa belgilariga ko`ra guruhlanadi. har bir guruh uchun maydon birligining qator yillar uchun o`rtacha daromadliligi belgi-lanadi. Boshqa hamma yer uchastkalari maydon birligidan soliq stavkasi belgilangan u yoki boshqa toifaga tenglashtiriladi.

Soliq to`lashning kadastrli usulining o`ziga xos xususiyati sifatida shuni ajratib ko`rsatish kerakki, soliqning to`lanishi payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog`liq bo`lmaydi, chunki bunday usulda mol-mulk uning taxmin qilinadigan daromadliligining tashqi belgilari asosida baholanadi.

Obyektning ana shunday belgilarga asoslanadigan o`rtacha daromad-liligi uning haqiqiy daromadliligidan jiddiy farqlanishi mumkin, shuning uchun bunday usul ko`p jihatdan tarixiylik tusiga ega bo`lishi mumkinki, undan soliq apparati uncha rivojlanmagan holatda qo`llaniladi.

*Ikkinchchi usulda* soliqni soliq subyektiga daromadni to`laydigan yuridik shaxs hisoblaydi va ushlab qoladi. Ishchining ish haqidan, xizmatchining maoshidan daromad solig`i shu tariqa undiriladi. Soliq korxonada xodimning daromadni olishigacha ushlab qolinadi, bu soliqni to`lashdan bo`yin tov lashni istisno qiladi, chunki buxgalteriya soliq solinadigan daromadni va soliq so`mmasini aniq hisob-kitob qilib chiqadi.

Soliqning daromad manbaida to`lanishi shuni anglatadiki, soliq uni deklaratasiyalar bo`yicha to`lashdagi singari soliq idorasi tomonidan hisob-lanib ushlab qolinmaydi, balki uni subyektlar jismoniy shaxs foydasiga to`lovni amalga oshiradigan to`lov manbalari (korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, boshqa ish beruvchilar) hisoblaydilar va ushlab qoladilar.

Uchinchi usul soliq to`lovchilarning soliq idoralari deklaratasiyalarni, ya`ni ularning oladigan daromadlari va o`zlariga tegishli bo`lgan soliq imti-yozlari haqidagi rasmiy bayonotni berishini nazarda tutadi. Soliq idoralari soliq deklaratasiysi va amaldagi soliqqa tortish stavkalari asosida to`lanishi lozim bo`lgan soliq miqdorini nazorat qiladilar. Soliq deklaratasiysi asosida, odatda, tadbirkorlik faoliyatidan, dehqon (fermer) xo`jaligini yuritishdan olinadigan daromadlar, shuningdek intellektual faoliyat bilan shug`ullanadi-gan

shaxslar (fan, adabiyot, sanat asarlarining mualliflari, kashfiyotlar, ixtiro-lar mualliflari, sanoat namunalarini yaratuvchilari va hokazo) daromadlari soliqqa tortiladi.

O'zbekiston Respublikasida yer solig'i kadastrli usulda undiriladi. Bunda yerlarning unumdonligi (boniteti) hisobga olingen holdagi jadval shaklidagi yer solig'ini stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-kamasi tomonidan har yili yangidan tasdiqlanadi. Kadastrli usulda shaharlar va shahar qo'rg'onlarida yer solig'i stavkalarini ishlab chiqishga ular hududi-ni shahar ayrim tumanlari yerlari hamda infratuzilmasini iqtisodiy baholash qiymati bo'yicha kompleks tarzda baholash asos qilib olingen.

Ma'lumki, shahar hududining qimmati markazdan chekka joylarga qarab nafaqat hududning infratuzilma bilan ta'minlashdagi tafovutlar, balki boshqa omillar ta'siri tufayli ham kamayib boradi. Shu sababli yer solig'i stavkalarini tabaqalashtirish uchun shahar va qo'rg'onlar hududi zonalarga bo'linadi, bunda yerlarni kompleks baholashning qiymati umumtomonidan qabul qilingan, zonaning shahar hosil qiluvchilik rolini, transport bilan ta'minlangani, muhitning jozibadorligi, ekologik holati, yer tebranishlarining bo'lish-bo'imasligi, shahar ayrim tumanlarining funksional vazifalarini hisobga oladigan, yer uchastkalarining iste'mol qiymatiga ta'sir ko'rsatadigan koeffitsiyentlarni qo'llagan holda belgilanadi. Yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish va yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga stavkalar miqdori, ijtimoiy omillarni e'tiborga olgan holda, yuridik shaxslar uchun mo'ljallanganidan taxminan o'n baravar kam qilib belgilangan.

Qishloq xo'jaligida yerdan ishlab chiqarishning asosiy vositasi sifatida foydalilanadi, shuning uchun qishloq xo'jalik ahamiyatidagi yerlar uchun soliq stavkalari yer sifatidan, ya'ni tuproq hosildorligi va yer unumdonligidan kelib chiqib belgilangan. Yer soligi stavkalari, jaxon amaliyotida qabul qilin-ganidek yer qiymatidan kelib chiqib belgilangan. Respublikada yerning bozor qiymati shakllanmagani sababli, 1 hektar sug' oriladigan yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o'rtacha qiymatidan kelib chiqib uni shartli baholash amalga oshirildi. Juhon amaliyotida yer solig'i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o'rtacha yer qiymatining saltam 5 foizini tashkil etadi. Respublika sharoiti uchun qishloq xo'jaligida shakllan-gan iqtisodiy holatni hisobga olib va uni rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida soliq stavkalari 3 foiz miqdorida qabul qilingan.

Soliq miqdorlarini yerlar sifati, tabiiy iqlim zonalari bo'yicha tabaqa-lashtirish maqsadida sug'oriladigan yerlar uchun soliq stavkalari ma'muriy tumanlar bo'yicha, ularni tuproq ball-bonitetlari bo'yicha 10 darajaga bo'lgan holda belgilangan. Tuproq boniteti dehqonchilikning hozirgi darajasida qiyoslama tabiiy hosildorlikning shartli ko'rsatkichi hisoblanadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, sug'orishning qancha muddat davom etayotgani, ekin ekilishi, agro-iqlimi resurslar bilan ta'minlangani, mexanik tarkibi, tuproqning hosil bo'lish genezisi, tuproq qoplaming suv o'tkaza olishi, sho'rланганлик darajasi, eroziyaga uchraganligi, toshloqligi, zichligi hamda tuproqning boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanadi.

Lalmi yerlar va yaylovlar zonalar yoki vertikal mintaqalarga bo'lingan, bu yerda yog'inlar bilan turlicha ta'minlanganlik shakllanadiki, ularning unumдорлиги shu holatlar bilan bog'liqdir. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalarining joylashgan joyi bo'yicha soliq miqdorlarini tabaqa lashtirish maqsadida ma'muriy va sanoat markazlari atrofidagi stavkalarga 1.1 dan 1.3 ga qadar oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilangan.

*Yer solig'i va yagona yer solig'ini 2003 yil uchun kadastr shaklidagi yangi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2003 yildagi asosiy makroiq-tisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budgetining prognози to'g'risida»gi 455-sonli Qarorida bayon qilingan.*

*O'zbekistonda yer solig'ini tarixiy rivojlanish bosqichlari.*

U yoki bu shakllarda soliqlar to'g'risida tushunchaning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi birinchi ming yillikka borib taqaladi, o'sha vaqtida O'rta Osiyo hududida dastlabki siyosiy birlashmalar paydo bo'lgan edi. Baktriya (Janubiy O'zbekiston), Sug'd (Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari), Xorazmning dehqonchlik vohalarida sinfiy jamiyat shakllandi, Orol bo'yи va Xorazmda eramizdan avval VIII asrdayoq quidorlik davlat tuzilmalari paydo bo'ldi. Ushbu tuzilmalarning paydo bo'lishi jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o'zgartiradi.

*Davlatni boshqarish uchun resurslar talab etilardi. Pul va natura soliqlari, majburiyatlar ular uchun manba edi. Jon solig'i va yer uchun olinadigan o'lpon soliqlarning daslabki asosiy turlari bo'ldi.*

O'rta Osiyo Eron davlati tarkibiga kirgan Ahmoniyalar hukmronligi davrida (eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtasi) ushbu hududda

yashovchi xalqlar qariyib ikki asr davomida yillik xiroj to'lash va harbiy otradlar yetkazib berishda ifodalangan soliq to'laganlar.

Ahmoniyalar sulolasi o'miga makedoniyalik Iskandar keldi. O'rta Osiyo uning sultanati tarkibiga kirdi va endi soliqlarni grek namunasi bo'yicha to'lay boshladilar. Iskandar O'rta Osiyo asosan Ahmoniyalar tuzgan davlat apparati tuzilmasini saqlab qoldi. Har bir viloyatda mahalliy zodagonlardan tayinlangan noib satrap hokimlik qilgan. 651 yildan boshlab hozirgi O'rta Osiyo hududida hukmronligi o'matildi.

Soliqqa tortish tizimi bir muncha murakkablashdi va soliqlarning turli xillari paydo bo'ldi. Aholini o'z diniga jalb etish maqsadida arablar islom diniga yangi kirgan kishilarga turli imtiyozlar bera boshladilar va ularni asosiy soliqlardan xiroj va juzyadan (yer solig'i va jon solig'i) ozod qildilar. Bu narsa mahalliy dehqonlarning islom diniga o'tish jarayonini tezlashtirdi.

Mahalliy aholiga nisbatan hayrixohlik siyosatini yuritgan xalifa Umar 11 (717-720 yillar) Xuroson noibi Al-Jarrohdan islom diniga kirgan kishi-larni «xiroj» va «juzya»dan ozod qilishni talab etdi. Al-Jarrah rasman bunga bo'ysundi, lekin yangi musulmonlarga qo'shimcha xatna qildirish shartini qo'ydi. Noib Ashras ibn Abdulloh as Sulamiy (727-729 i) qisqa muddat ichida ikki qarama-qarshi yo'l tutdi. Uning dastlabki qadamlari Xuroson va Movarounnahrning dehqon aholisida yaxshi taasurot qoldirdi. U yangi musulmonlardan «juzya» va «xiroj» olinmaydi deb e'lon qildi. U arablarning kuchi – islomda, uni qabul qilgan kishilar istilochilarga qarshilik ko'rsatishni to'xtatadi deb hisoblagan edi. Aholini islom diniga kiritishni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun u sug'diylargoa ikki voiz – as Sayd Solih ibn Tarif va Robiy ibn Umronni yubordi. Samarqandda as Sayd shahar va atrof qishloqlar aholisiga va'z bilan murojaat etib, musulmon bo'lganlarni «juzya»dan ozod qilishni va'da berdi. Va'dalar kor qilib, ko'pgina so'g'diylar musulmon bo'lishga shoshildilar.

Xirojdan ozod etish xazinaga tushumlarni keskin qisqartib yubordi. Shunda u «Kuch - islomda» shiori o'miga «Arab hokimiyatining kuchi – xirojda» degan shiorini olg'a surdi. U o'z vaqtida Al Jarrah taklif qilgan choraga qaytdi – «juzya»dan xatna qildirgan yangi musulmonlarnigina ozod etdi. Sug'd va Buxoroda norozilik kuchayib, u qo'zg'olonga aylandi. Yetti ming sug'diy Samarqand yaqiniga to'planib, itoat etmasliklarini ma'lum qilishdi. Ularga yuqorida nomlari keltirilgan ikki voiz ham qoshildi, sug'diy-lar yordam so'rab turklarga murojaat qilishdi, hamma yerda xalq g'alayonlari boshlandi.

Ashrasning muvaffaqiyatsiz soliq siyosati tufayli arablarga qarshi qudratli harakat avj olib, Mavarounnahr arablar ixtiyoridan chiqdi, lekin u faqat IX asrga kelibgina mustaqil bo'ldi. Markaziy hokimiyatni mustahkam-lagan va qudratli qo'shin tashkil etgan Buxoro hokimi Somniylar sulolasidan bo'l mish Ismoil ibn Ahmad (892-907 yy.) o'z vorislariiga ichki boshqaruvi ishlari bilan shug'ullanish imkonini berdi. Qishloq xo'jaligi, kon ishi va hunarmandchilikni rivojlantirish, karvon savdosini kengaytirish, muvaffaqiyatli soliq siyosati – bularning bari mamlakatni musulmon olamida birinchi o'rinnlardan biriga chiqardi.

Shu davrdan boshlab yer yirik zamindorlar mulki bo'lib, dehqonchilik esa yirik zaminorlik institutiga aylana boshladi. Mavarounnaxrda IX-X asrlarda yerlarni soliqqa tortish ular kimga tegishli ekaniga bog'liq edi.

Yer uch toifaga bo'lingan edi. Birinchi toifa – yer sultonga tegishli (mulki sultoniy), bunday yer ustidan nazorat keyinchalik «Mulki devoniy» deb nomlangan, devon (mahkamalar) amaldorlari tomonidan amalga oshiril-gan. Ushbu toifadagi yer fondlari haddan tashqari katta edi, bunga, asosan, qishloq jamoasi sharoitida yashagan dehqonlar asosiy ommasining yerlari kirgan. Ikkinci toifa – shaxsan hukmron sulolasining ayrim a'zolari, qadimiy dehqon zodagonlar, shunchaki boy dehqonlarga, saidlar (Muhammad payg'ambар xonadoni avlodlari), olyi ruhoniylar, turk gvardiyasining ayrim rahbarlari, savdogarlarga tegishli bo'lgan xususiy mulk yerlari edi.

Uchinchi toifa – musulmon diniy muassasalariga, ya'nii masjid, Madra-sa, xonakoh, maqbaralarga vaqtincha yoki umrbod foydalanish uchun beril-gan vaqf yerlar. «Xiroj» uchala toifa yerdan ham olingen. Ular «mulki xiroj» deb atalgan, lekin bunda olyi musulmon ruhoniylarga, avvalo saidlarga tegishli yerlar soliqqa tortishdan tulki yoki qisman ozod etilgan.

Yer egalari o'z uchastkalarida katta xo'jalik yuritishmagan, asoratga so-lingan dehqonlar mehnatidan foydalanib, yerga ishlov berishmagan. Yirik yer egalari o'z yerlarini mayda uchastkalarga bo'lib, unga muhtoj bo'lganlar-ning hammasiga ulushli ijara asosida topshirishgan. Ijarachining ulushi hosil-ning uchdan biridan to un ikkidan biriga qadarni tashkil etgan, bu narsa yer-dan urug'lik va inventar olishiga bog'liq bo'lgan. Agar, masalan, dehqon to'rtadan bir ulush olsa, xiroj ham hosilning faqat to'rtadan bir qismidan undiri-lagn. Hosilning to'rtadan uch qismini olgan yer egasi qolgan xirojni ham to'lashi kerak edi. Davlat har qanday sharoitda ham o'ziga tegishli soliqni

to'liq olgan. Arab xalifaligining ho'kmronligi tugashi bilan dehqonlar ahvoli o'z-gardi. Dehqonlarga endi muhr osib qo'yilmaydigan bo'ldi. Natura majbu-riyatları bir qadar yengillashtirildi. Abul Abbas Abdulloh (830-844 yy.) amaldorlardan dehqonlar manfaatini himoya qilishni talab etib, buni «olloh bizni ularning qo'li bilan boqadi, ularning og'izlari bilan va ularni xafa qilishni man etadi» deb asoslangan edi. Lekin feodallarning o'zaro urush va isyonlari hukmdorlarni «xiroj» va natura majburiyatlarini ko'paytirishga maj-bur etardi. Somoniylar hokimiyati xalq oldida obro'sini asta-sekin yo'qota bordi. X asr boshida Movarounnahrni qoraxoniyalar egalladi. Ya'ni tojik sulo-lasi o'rmini turkiy sulola oldi. Markazlashtirilgan davlat o'rningi mamlakatni boshqarishning ulus tizimi keldi. Barcha yer xon mulki deb hisoblandi, dehqonchilik yirik yer egaligi instituti sifatida tarix sahnasidan tushdi.

To XIX asrgacha soliqqa tortishning hokimiyat tepasiga kelgan hukm-dorlarning u yoki bu sulolasi davrlariga bo'lish mumkin, lekin soliqqa tortishning negizi o'sha yerligicha qolgan. XI asrdan mo'g'ullar bosqiniga qadar «shartli yer egaligi» - «ikto» keng tarqaldi. Yerlar muayyan muddatga «iqtodor» foydasiga muayyan daromadni to'liq yoki qisman olish huquqi bilan sovg'a qilingan. «Ikto» sohiblari dehqonlardan maxsus qaror bilan be-Ilgilangan soliqlarnigina olishi mumkin edi. Ularning miqdori «ikto» sovg'a qilinguniga qadar bo'lgan miqdordan oshmasligi kerak bo'lgan. «Ikto» ga nafaqat yerdan, balki soliqqa tortishning boshqa obektlaridan (tegirmon, hammom, bozordagi do'kon) olinadigan soliqlar va daromadlar ham berilishi mumkin edi.

Somoniylar davrida markaziy boshqaruv tizimida mustavfiy devoni – davlat daromad va harajatlari uchun javobgar oliy moliya amaldori mah-kamasi muhim o'rinn tutgan. Mustavfiy mansabi o'z ahamiyatini qaroxoniyalar davrida ham saqlagan. 1221 yilda O'rta Osiyo hududida mo'g'ullar hkoimiy-ati o'rnatilgan. Yangi hukmdorlar oldida istilo etilgan yerlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'llarini belgilash vazifasi paydo bo'ldi. Mo'g'ul zodagonlarda mazkur masala bo'yicha yagona fikrga ega emas edi. O'troq hayot muxoliflari barcha yerlarni yaylovga aylantirishni, shaharlarni vayron qilishni taklif etishdi, boshqalar esa talon tarojni to'xtatish, hunarmandchilik savdo va qishloq xo'jaligiga homiylik qilish, soliq va majburiyatlar hajmini belgilab qo'yish ishni tavsiya etadilar. Ana shu fikr egalari g'olib chiqishdi. O'rta Osiyo hududida ular tomonidan qurultoyda taklif etilgan tadbirlar hayotgan tatbiq etila boshlandi. Ikki xil soliq belgilandi - «kalon» (yer solig'i) va «kopchur» (ko'chmanchilardan olinadigan soliq). Birinchi

soliqni hosil-ning 10 foizi, ikkinchisini podadagi tuyoqlar sonining 1 foizi miqdoridagi to'lov sifatida undirish ko'zda tutildi. O'rta Osiyoning bosib olingen viloyat-larini boshqarishga mo'g'ullar musulmon savdogarlarni jalb eta boshladilar. Movarounnahrda soliqlarni yig'ish savdo xonadoni boshlig'i, o'z davrining eng boy kishilaridan biri bo'lgan Mahmud Yalang'ochga topshirilgan. U xon xazinasiga o'lpon va boshqa tushumlarni oldindan to'lash majburiyatini oldi, buning uchun unga alohida o'lpon yig'ish va natura majburiyatlarini talab etish huquqi berildi. Bunda muayyan foiz Mahmudning o'ziga tegardi.

Dehqon va hunarmandlarning ahvoli yil sayin yomonlashib bordi; yer solig' idan tashqari, dehqonlar turli majburiyatlar va xizmatlarni bajarishardi; hunarmandlar, ayniqsa, qurolozchlarni ham natura majburiyatini o'tash tartibi-da ishlashga majbur etishardi. Mehnatlari uchun ularga ozgina miqdorda oziq-ovqat beriladi xolos. Feodal va savdogarlarga xonzoda va xon xotinlari yorliq hamda payzalar (oltin, kumush yoki bronzadan yasalgan maxsus plastina) tarqatgan, bu narsalar dehqon va hunarmandlardan turli xizmat ham-da majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqini bergen. Payza ko'rsatilgan mahalliy aholi masalan, sayoxat qiluvchini ovqatlantirishi va unga xona, otiga yem berishi va boshqa qulayliklar yaratishi shart edi.

Munkexon zo'rovonlik va suiste'mol qilish tizimi mo'g'ullarga qarshi harakatni kuchaytirganini tushunar, shu sababli u bo'ysundirilgan xalqlar uchun soliqlarni yumshatishni taklif qildi. Soliq har yili undirilishi shart. Boy kishi yiliga 10 dinor, kambag'al esa 1 dinor to'laydi. Chorva soliq har yuz tuyoqdan bir bosh mol miqdorida olinadi. Podada tuyoqlar soni yuz boshdan kam bo'lsa, soliq olinmaydi. Musulmon, xristian va butparastlar ruhoniyları, shuningdek, keksaygan va ishslashga noqobil kishilar soliq to'lamaydilar.

Mahmud Yalanoch Torobiy qo'zg'olonidan so'ng o'z lavozimidan ozod etildi va Movarounnahrdan chiqarib yuborildi. Soliq oluvchi va noib etib uning o'g'li Mas'udbek tayinlanib, u bu lavozimda 51 yil xizmat qildi. U mug'ullarga o'lpon va soliqlarni o'z vaqtida to'lab turdi. Natijada mo'g'ullar Movarounnahmi boshqarish ishiga aralashmaganlar.

So'ngra Temuriylar jamiyati davri boshlandi. O'rta Osiyonni Barlos qabilasidan chiqqan Temur (1336-1405 yy.) mo'g'ullar hukmronligidan ozod etdi. Yarim asr davomida u Kashmirdan o'rta dengizgacha, Orol dengizidan Fors kultigiga qadar cho'zilgan ulkan sultanatni barpo etdi. Yurish va istilolar uchun Temurga moliya resurslari kerak edi, egallab olingen («musodara qilingan») boyliklar, o'z daromadlari, infratuzilma

va soliqlar ularning man-bai bo'ldi. Temur davrida asosiy soliqlar yer solig'i («xiroj», «mol» deyil-gan), jon solig'i («juzya»), minilaigan hayvonlar yetkazib berish («uloq»), «begor» majburiyatlari va ba'zi boshqa favqulodda soliqlar («avari-zot») edi. Amir Temur o'zining moliya va soliq qonunlarini ishlab chiqishda zamondoshlarining tajribasidan foydalandi. U o'zi istilo etgan mamlakat-larning soliq tizimlari bilan ham tanishdi.

Temur soliq siyosatining asosiy qoidasi «Tuzuklar» - uning o'z farzand-lariga qoldirgan siyosiy vasiyatida keltirilgan: «Soliqlarni yig'ishda xalqni soliqlar bilan ezib qo'yishdan yoki viloyatlarni xonavaron qilishdan ehtiyyot bo'lish zarur, zero xalqning xonavaron bo'lishi davlat xazinasining qashshoq-lashishiga olib keladi, xazinaning nochorligi oqibatida esa harbiy kuchlar parokanda bo'lib, bu esa o'z navbatida hokimiyatni zaiflashtiradi». Qonunni ishlab chiqishda, deb hisoblardi Temur, avvalo xalqning manfaatlarini hisob-ga olish, uning to'lovga qobiligidan kelib chiqish zarur, asos qilib har bir individual xo'jalikda boy-badavlatlikning erishilgan darajasi olinishi kerak. Soliqlarni hisoblab chiqish qoidalari mavjud edi. Soliqlar yerning unumdarli-gi va tegishli ravishda belgilangan baholarga muvofiq hisoblangan. Masalan, agar dehqon doimiy ariqlar, suv quvurlari yoki oqimlar bilan sug'oriladigan yerlarga ega bo'lsa, faqat ana shu suvlar uzlucksiz oqib tursagina, mazkur yerdan olinadigan daromad uch qismga taqsimlangan, bunda uchdan ikki qismi yer egasiga qolgan, uchdan bir qismini soliq yig'uvchi olgan. Yerlar faqat yomg'ir suvi bilan sug'orilsa, ular ikki qismga taqsim-langan, ulardan hosilning uchdan bir qismi yoki choragi olingan. Ko'ramizki, stavkalar yer sifatiga – sug'oriladigan yoki lalmikor ekanligiga qarab tabaqa lashtirilgan.

Yangi yerlar o'zlashtirilishini rag'batlantirish uchun soliq intiyozlari ham qo'laniqgan. «Bo'z yerga ishlov bergan va uni sug'organ, unga ko'chat-lar ekkan yoki qarovsiz yerlarni ekin uchun yaroqli qilgan dehqon birinchi yili soliqlardan ozod qilingan; ikkinchi yili u o'zi qancha xohlasa, shuncha soliq to'lagan, uchinchi yili esa soliqlar to'g'risidagi umumiyl qonunga bo'ysungan». Natura bilan to'lanaqidan haqni pulga almashtirishlari mumkin edi: «Agar fuqaro pul bilan to'lashni xohlasa, yig'imning bir qismi joriy – narxlar bo'yicha baholangan».

Biroq rasmiy soliqlar bilan bir qatorda ayrim joylarda o'zboshimchalik bilan belgilangan soliq va yig'imlar ham mavjud edi: «Molu jixob» - yer solig'ining bir turi;

«tagor» - oziq-ovqlarni rekvizatsiya qilishda qo'llaniladigan natura solig'i; «ixrojot» - saroylarga qarash uchun maxsus yig'im; «boj» - savdogar-lardan chegarani kesib o'tishda undiriladigan bojxona solig'i; «sari shumar» - jon solig'i; «xona shumor» - har bir uydan olinadigan yig'im;

«kunalga» - elchi amaldorlar, choparlarni bepul qabul qilish va mehmon qilish yig'imi; - «shilon puli» - noiblarni ziyofat qilish yig'imi; «peshkash» - yuqori mansabdagi amaldorlarga sovg'a berish uchun yig'im.

Temur o'z hayotining oxirida butun dunyo uchun yagona soliq tizimi bo'lishi mumkin emas degan xulosaga keldi. Albatta, islam diniga katta e'tiqod qo'ygani uchun u shariat tavsiyalari tarafdori edi.

Arab va Kavkaz orti mamlakatlari, Hindiston va Mavarounnahrda soliq tizimi Temur tomonidan belgilangan qonunlar bo'yicha shakllandi. Biroq soliqqa tortishning tarixan shakllangan tizimlariga ega bo'lgan mamlakat-larda Temur avvalroq hukm surgan soliqlarni qoldirdi.

Temur soliq apparatini tashkil etishga ham e'tibor berdi. Okruglar, viloyatlar va mamlakatlarning bir qismi ularning ilgarigi sohiblari, Temur-ning taniqli amirlari, o'g'il va nevaralariga suyurg'ol qilib, ya'ni aholisidan davlat soliqlari va o'lponlarini undirish huquqi bilan umrbod egalik qilish va boshqarishga berildi. Ushbu soliq va o'lponlar butunlay yoki qisman suyur-g'ol egasining foydasign hisoblangan. Boshqa viloyatlar «tul» yoki «Tarkon» instituti vositasida boshqarilgan. Kishilar alohida xizmatlari uchun hokim etib tayinlangan va ularga soliqlarni yig'ish va harajatlar hisobini yuritish huquqi berilgan. „Suyurg'ol“dan farq qilib, «Tarkon» yerlarni to'liq mulk qilib berishni ko'zda tutmagan. Uch yilda bir marta taftish o'tkazilgan: „biror-bir viloyat daromadlarini yig'ish topshirilgan har bir sipohiy ulardan uch yil davomida foydalanadi, shundan so'ng taftish o'tkaziladi va, agar viloyat yashnab turgan bo'lsa hamda aholi da'vo bilan chiqmasa, hamma narsa o'z-garishsiz qolgan, aks holda esa daromadlar hokimidan uch yilga olib qo'yilgan.

Tarkon viloyatlarga mudir ham tayinlangan, uning vazifasiga aholini hokimlarning zo'rovonligi va talon-tarojidan himoya qilish ham kirgan. Ana shu kishi viloyatga keltiriladigan har bir narsani aniq hisobga olib ham bor-gan. Temurning ko'rsatmasiga ko'ra, soliqni undirish usullari insoniy ruhda bo'lishi kerak edi. «G'allani yig'ib olishdan avval o'lpon yig'ish ma'n qilin-gan, u belgilangan uch muddatda to'langan. Agar fuqarolar ishtivoq bilan to'lasalar, soliq yig'uvchiga hojat bo'lmagan: agar extiyoj tug'ilsa, davlat o'lponini

yig`ish uchun so`z va obro`sidan foydalanib harakat qilishi kerak, lekin hech qachon tayoq, arqon, qamchi, yoki zanjirdan foydalanmasin: umuman olganda u qarzdor shaxsga qarshi qaratilgan shafqatsiz choralar ni qo`llash huquqiga ega emas. O`lponlarni yig`ayotganda qo`rqitish va dag`-dag`lardan muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkin, lekin urush va qamchi-dan foydalanmaslik kerak. Obro`-nufuzi qamchi va darradan zaif bo`lgan hokim o`z o`rniga nomunosib».

Kelib tushayotgan soliq va yig`imlarni ro`yxatga olish bilan bosh vazir qarorgohida maxsus kotib - «umar kotib» shug`ullangan. Hisoblab chiqish ba`zan bir necha kun davomida tinimsiz davom etgan. Mablag`lar Samar-qanddagi Ko`ksaroyda jamlangan va sug`orish inshoatlarini qurish, savdo sotikni rivojlantirish, shaharlarni obodonlashtirish, ilm-fan, texnika va ma-daniyatni rivojlantirishga sarflangan. Temur vafotidan so`ng uning saltanati quladi. Davlatning ayrim qismi o`rtasida iqtisodiy aloqalarning, yagona ichki bozorning yo`qligi, hududning katta qismida natural xo`jalik hukmron ekanligi, Tarxonlarning siyosiy hokimiyat va mustaqillikka intilish tanazzulni tezlashtirdi. Feodal o`zaro nizolar davri boshlanib, u deyarli yuz yil davom etdi. Temur davrida bo`lganidek Temuriylar davrida ham suyurg`ollarni ulashish amaliyoti keng tarqaldi. Markaziy hokimiyat vakillari – Shohruh, Ulug`bek, Abu Sayd, Sulton Husayn yoki uluslarni boshqargan shahzodalar yerlarga meros tarzida egalik qilish uchun ulashganlar. Abdurazzoq Samar-qandiyining xabar qilishicha, 1413 yil Xorazmn Temuriylar davlati tarkibiga qaytargani uchun Shohruh Xorazmn Shohmalikka suyurg`ol qilib bergen. Farg`onani u Ahmadga, Tur, Mashad, Obivard, Nesa va boshqa tumanlardan tashkil topgan ulkan Xuroson viloyatini o`z o`g`li Boysunqorga Qobul, G`azna va Qandahorni jiyani Pirmuhammadning o`g`li Mirzo Qayd Bahodir-ga suyurg`ol qilib berib, keyinchalik undan bu yerni o`z o`g`li Suyurg`at mish uchun tortib olgan.

Ulug`bek aholi asosiy qismining ahvolini yengillashtirishga intilib yer solig`ini iloji boricha kamaytirdi. Bu shubhasiz dehqonlar farovonligini o`stirishga imkon yaratdi. Biroq, Ulug`bek tushumlar bunday qisqartishiing o`mini «tamg`a»- hunarmand va savdogarlardan olinadigan yig`imni ko`-paytirish hisobiga to`ldirishga majbur bo`ldi. XIX asr 50-yillarida Rossiya O`rta Osiyonidagi istilo eta boshladi. 60-70 yillarda O`rta Osiyo hududida Turkis-ton general-gubernatorligi tashkil etildi, Buxoro amirligi Rossiya gubernatori, Xiva xoni esa vassali deb e'tirof etildi. O`rta Osiyo kapitalistik rivojlanish yo`liga o`tdi, jahon

tovar muaomalasiga tortila boshladi. Uning hududida tashkil etilgan davlat tuzilmalarining moliyaviy siyosatida kapitalizm gacha bo'lgan va kapitalistik munosabatlар aralashib ketdi.

Rossiyaga qo'shib olingungacha O'rta Osiyoning davlat xazinasi xon-ning shaxsiy xazinasidan ajratilmagan edi. Rossiyada davlat moliyasi ijtimoiy institut bo'lgani sababli, budget va uning ijrosi to'g'risidagi hisobot davlat nazorati organlari tomonidan tekshirilgan, natijalarni hamma bilishi uchun har yili e'lon qilib borilgan. 1868 yilda Turkistonda podsho hukumati moliya qo'mitasini tashkil etdi, u davlat daromadlari va harajatlari to'g'risidagi nizomni ishlab chiqdi, 1869 yil Turkiston davlat palatasi ta'sis etildi, u davlat daromad va harajatlari ro'yxatini hamda ular ijrosi xususidagi yillik hisobot-larni tuzgan. Turkiston general-gubernatorligining daromad va harajatlari Rossiya imperiyasi ro'yxatiga kiritilgan, joylardagi soliq inspektorlari va xazina organlari Turkiston davlat palatasiga bo'ysundirilgan.

Turkiston general-gubernatorligining daromadlari 1869 yilda 1884200 so'mni tashkil etib, bunda jami daromadning 60,5 foizi soliqlarga to'g'ri kelgan (59,3% bevosita va 8,2% bilvositalar soliqlar). Turkiston o'lkasining iqtisodiyotda avvalgidek qishloq xo'jaligi ustun turgani sababli daromad smetasinina asosini unga doir soliqlar tashkil etgan. O'rta Osiyoda shakllan-gan qishloq xo'jaligini soliqqa tortish tizimi asta-sekin o'zgargan. Avvalgi podsho hukumati dehqonlardan olinadigan soliqni kamaytirdi, lekin yerga soliq solishning xiroj va tanob tizimini saqlab qoldi. Soliqlarni faqat pul bilan to'lash tartibi belgilandi, davlat foydasiga bajariladigan bir qator natura maj-buriyatlar (masalan, naryad bo'yicha tuyu yetkazib berish) va mayda qo'-shimcha yig'imlar (suv osti, tarozi yig'imlari, tuz va pista ko'mirdan bozor yig'imi, shuningdek hunarmandchilik ustaxonalaridan yig'im) bekor qilindi, soliqlarni undirish saylab qo'yiladigan qishloq boshqarmalariga topshirildi.

1886 yili Turkiston ulkasini boshqarish to'g'risidagi yangi Nizom joriy etildi, unda yer munosabatlari sohasidagi tadbirlar ham kuzda tutilgan barcha yerlar (vaqf yerlaridan tashqari) xazinaga tegishli deb e'lon qilindi va bun-gacha unga ishlov bergan jamoa-kuralar foydalanishiga berildi; barcha yerlar soliqqa tortildi. Ayni vaqtda tanobona va xiroj o'miga "oklad tizimi" (qat'iy belgilanagan okladlar bilan soliq soliqqa tortish tizimi) keldi, u pul munosa-batlari ancha o'sgan va narxlar beqaror bo'lgan vaziyatda arzon hamda sama-raлиroh bo'lgan. Soliq okladi olti yilga belgilangan. Uni hisoblab chiqish u-chun

yalpi daromad belgilangan. Soliq miqdori uning 10 foizini tashkil etgan.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida davlatning yer masala-larini hal etishga munosabati katta ahamiyatga ega bo`lgan. Yaqin vaqtga qadar, sovet hokimiyati davrida, yer munosabatlari faqat huquqiy usullar vositasida tartibga solib kelingan. Agar yer qonunchiligidagi resurslardan oqilona foydalanilganlik uchun iqtisodiy rag`batlantirish ham kuzda tutilgan bo`lsa, bu narsa, odatda, hayotga tatbiq etilmagan.

*Yer solig`ini soliq tizimida va budjet daromadlari tarkibida tutgan o`rnvi.* O`zbekiston bozor munosabatlari o`ta boshlagach 1990 yilda “Yer to`g`risida”gi qonun qabul qilindi, unga binlan yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo`lishi belgilandi. O`zbekiston Respublikasi mus-taillikni qulga kiritgach 1993 yil 6 mayda O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “Yer solig`i to`g`risida”gi maxsus qonun qabul qilindi, unda soliq solishning obektlari va subektlari, imtiyozlar, soliq to`lash tartibi va hokazolar ancha batatsil belgilab berildi. Qonun 1994 yil 1 yanvardan amalga kiritildi. Qonunda yerlardan noqishloq xo`jalik maqsadlarida foydalananigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`ining undirish tartiblari belgilab berildi. Shu bilan birga qishloq xo`jaligini ustivor rivojlantirish zarurligini e`tiborga olib qishloq xo`jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug`ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar uchun qonuni joriy qilish 1995 yil 1 yanvargacha kechiktirildi. Shunday qilib yer solig`ining joriy etilishi bilan mamlakatda yer munosabatlari tartibga solishning chinakam iqtisodiy vositalari paydo bo`ldi.

1997 yil 24 aprelda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qabul qilinishi va 1998 yil 1 yanvar-dan kuchga kiritilishi bilan yer solig`ining huquqiy asoslari yaratildi.

Soliq tizimi mohiyati jihatdan bir xil bo`lgan va markazlashgan pul fondiga tushadigan soliq turlarining yig`indisidir. Hozirgi bozor munosabat-lariga o`tish sharoitida davlat qishloq xo`jaligi korxonalarini soliqqa tortar ekan, bundan fiskal manfaatdorlikni emas, balki soliqlar orqali qishloq xo`jaligini boshqarish, ishlab chiqarishni rivojlantirishni, shuningdek ularni ijtimoiy himoya qilishni kuzlaydi. Buni qishloq xo`jaligini soliqqa tortishning o`ziga xos hususiyatlaridan ham ko`rishimiz mumkin. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998 yil 10 oktabrdagi “qishloq xo`jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig`ini joriy etish to`g`-

risida”gi Farmoniga muvofiq 1999 yil 1 yanvardan boshlab qishloq xo’jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig’i joriy qilindi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998 yil 10 oktabrdagi «Qishloq xo’jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig’ini joriy etish to’g’risida»gi Farmoniga muvofiq 1999 yil 1 yanvardan boshlab qishloq xo’jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig’i joriy qilindi.

Davlat budjeti davlat moliyasi tizimida markaziy o’rinni egallaydi. Budjet tizimi murakkab mexanizm bo’ladi, muayyan mamlakatning o’ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi, shuningdek davlat qurilishini aks ettiradi. Mazkur tizim muayyan davlatni tavsiflaydigan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa xususiyatlarning butun majmui asosida shakllanadi.

Davlat budjeti pul resurslarining markazlashtirilgan fondi bo’ladi, mamlakat hukumati, davlat apparati, qurolli kuchlarni tutib turish, shuning-dek, ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarish uchun uni tasartuf etadi. Hozir-gi shart-sharoitda budjet davlatning iqtisodiyotni tartibga solish, xo’jalik kon'yunkturasiga ta’sir ko’rsatishni amalga oshirishning qudratli vositasi hamdir. Hozirgi davlat budjeti uning butun xilma-xil funksiyalarini aks ettiradigan murakkab, ko’p kurinishli hujjat hisoblanadi. Avvalo budjetda davlat harajatlari va daromadlari tarkibi o’z aksini topadi. O’z tarkibiga ko’ra budjetning harajat moddalari quyidagilarga bo’linadi: davlatni boshqarish harajatlari; harbiy harajatlar; ijtimoiy-iqtisodiy harajatlar; davlatning xo’jalik qurilishi harajatlari; tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish harajatlari.

Davlat budjeti daromadlari birinchi navbatda markaziy va mahalliy hokimiyat organlari undiradigan soliqlardan, davlat zayomlari, shuningdek budgetdan tashqari yoki maqsadli fondlardan olinuvchi tushumlardan iborat bo’ladi. Bunday fondlarni barpo etish aniq maqsadlar uchun, avvalo ijtimoiy-iqtisodiy tusdagि maqsadlarga yirik moliya resurslarini safarbar etish zarurati bilan shartlangan.

Milliy daromadni qayta taqsimlash, mamlakatda yangidan yaratilgan qiymatning kattagina qismini davlat ixtiyoriga olish davlat barcha daromad-larining umumiy muddiy asosi hisoblanadi. Soliqlar, davlat zayomlari, shu-ningdek budgetdan tashqari fondlardan tushumlar ana shu qayta taqsimlash mexanizmining eng muhim tarkibiy qismlaridir. O’zbekiston Respublikasi-ning davlat budjeti asosan soliqlar yordamida to’planadigan hamda davlat tomonidan uning funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish uchun ishlati-ladigan pul mablag’larining

markazlashtirilgan fondlaridir, u qonun kuchiga ega, Respublika Oliy Majlisini tomonidan tasdiqlanadi.

Davlatning iqtisodiy siyosatini hayotga tatbiq etishning asosiy vositalaridan biri bo'lgan budjet tizimi O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti faoliyat ko'rsatilishining tashkiliy shakli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi ikki bo'g'indan iborat:

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti;

Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri, viloyat, tuman va shaharlar mahalliy budjetlari.

O'zbekiston Respublikasi budjeti bir butundir, ya'ni budjet tizimi barcha bo'g'lnlari - davlatning yagona davlat budjetiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, Respublika shahar va tumanlari budjetlarining uzviy birligini bildiradi. Budjet birligini O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimining yaxlitligi belgilab beradi.

Soliq tizimi respublika budjet tizimining tarkibiy qismi bo'ladi, davlat-ga undiriladigan soliq va yig'implarning, shuningdek ularni undirish shartlari va usullarining majmuidir. U davlat harajatlarining katta qismini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga da'vat etalgan va takror ishlab chiqarish jara-yoniga va ijtimoiy munosabatlardan sohasiga ta'sir ko'rsatishning iqtisodiy usul-larini amalga oshirish uchun foydalaniлади. Hozirda budjet daromadlarining asosiy qismi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar hisobiga tashkil qilinadi.

Budjet undiriladigan jami soliqlar va to'lovlar hajmida jismoniy shaxslardan olinadigan boshqa soliqlarga nisbatan ancha yuqori yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini salmog'i ancha past. Lekin yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining budjet daromadlari tarkibidagi salmog'i uncha yuqori bo'lmasada, bu soliqqa soliq tizimida yuridik shaxslarning yerdan oqilona foydalanishlariga samarali ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida o'rinn berilgan. Yer uchastkasiga egalik qilish huquqi bor yuridik shaxs yer solig'ini to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Soliq qonunlariga asosan yer solig'ini hisoblash va budjetga o'tkazib berish majburiyati yuridik shaxsga yuklatiladi.

## **2. Yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari va soliq obyekti. Yer solig'i stavkalari va uning hududiy tabaqalashtirish asoslar**

Yer solig'ini to'lovchilar bo'ladi o'zining mulkida, egaligida va foyda-lanishida yer uchast-kalari bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliqqa tor-tish maqsadlarida yuridik shaxslar deganda mulkchiligidagi, xo'jalik yuritishda yoki operativ tarzdag'i boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z maj-bu-riyatlari bo'yи-cha ana shu mol-mulk bilan javob beruvchi, shuningdek mus-taqil balansga va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan hajmi turdag'i korxonalar va tashkilotlar shu jumladan ularning alohida bo'linmalari tushuniladi.

Yagona soliq to'lashga o'tgan kichik korxonalar, savdo tashkilotlari yer solig'i to'lamaydilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktabrdagi "Qishloq xo'jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq qishloq xo'jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilari 1 yanvar 1999 yildan boshlab budgetga to'lanadigan barcha soliq va to'lovlar o'mniga yagona yer solig'ini to'laydilar.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmish qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishlari uchun boj to'lovi, litsenziya yig'imi, bulardan tashqari jamg'-armalarga ajratmalar, shuningdek, alkogolli mahsulotlarga aksiz solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolinadi.

*Ushbu tartib quyidagilarga tegishli bo'lmaydi:*

- O'rmonchilik, baliqchilik, ovchilik xo'jaliklariga;
- Ilmiy tadqiqot tashkilotlari va ilmiy muassasalarining tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklariga;
- Mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan yordamchi qishloq xo'jaliklariga;
- Dehqon xo'jaliklariga, ular uchun O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni bilan nazarda tutilgan soliq solish shartlari saqlanib qolinadi.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'ladi quyidagilar hisoblanadi:

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari), fermer xo'jaliklari, agro-firmalar, shuningdek boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruv-chilar, bu yuridik shaxslar qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan birga boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar, yagona yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadilar. Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchi kichik

korxonalar o'z ixtiyoriga ko'ra budjetga kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliqni yoki qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan yagona yer solig'ini to'laydilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilari mulkchilik shaklidan qa'tiy nazar, iqtisodiyotning tarmoq va sohalari bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

sanoat korxonalari  
qurilish tashkilotlari  
qishloq xo'jalik korxonalari  
ta'minot sotish, vositachilik tashkilotlari  
transport  
banklar  
sug' urta tashkilotlari  
savdo korxonalari  
umumi ovqatlanish korxonalari  
maishiy va kommunal xizmat korxonalari  
madaniy-ma'rify, tomosha-ko'ngil ochar muassasalar  
meditsina muassasalari  
birjalar  
aksionerlik jamiyatlari va sherikchiliklari  
mas'uliyati cheklangan jamiyatlar  
jamoat tashkilotlari  
xorijiy firmalar, yuridik shaxs va jismoniy shaxslar ishtirokidagi qo'shma korxonalar.

kichik korxonalar

kooperativlar

xo'jalik yuritishning boshqa shaklidagi korxonalar.

*Yerni ijara olgan yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, mahalliy hokimiyat idoralarining qarori bilan ijara olingan yerlar uchun yer solig'i o'rniiga budjetga ijara haqi to'laydilar.*

Yuridik shaxslarga ajratib berilgan yerlar uchun yer solig'i yerdan foydalanish va foydalanilmaganidan qa'tiy nazar soliq to'laydilar.

Soliq kodeksini 97 - moddasiga asosan yuridik shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

1) qonun hujjalariada belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

2) qishloq yoki o'rmon xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) korxonalar, binolar va inshootlar qurish uchun yoki qishloq xo'ja-ligiga taalluqli bo'lmanan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun berilgan yer uchastkalari;

4) korxonalar, binolar yoki inshootlarga bo'lgan mulk huquqi o'tishi bilan birga egalik qilish va foydalanish huquqli ham o'tgan yer uchastkalari.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijara berilgan yer maydoni yagona yer solig'iga tortish obyekti hisoblanadi.

*Qishloq xo'jaligi yerlarining maydoni va ularning sifati va joylashgan joyi bo'yicha yer balansi, tuproq haritalari, tekshiruv materiallari boshqa yer kodastr hujjatlari bo'yicha qabul qilinadi.*

Ixtisoslashgan loyihalash yoki ilmiy tadqiqotchilik institutlari tomoni-dan tuproq haritalariga tuzatish kiritish va yerlar sifatini (ball-bonitetlarini) o'zgartirishga doir ishlar olib borilganida bunday ma'lumotlar tegishli ravish-da Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimlik-lari tomonidan yer solig'ini hisoblash uchun ushbu ma'lumotlarni qo'llanish muddatini ko'rsatgan holda tasdiqlanishi lozim.

Yer solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-kamasi tomonidan belgilanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha qishloq xo'jalik yerlariga yagona yer solig'inинг muvaqqat bazaviy stavkalari, ma'muriy tumanlar va shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'inинг bazaviy stavkalari, shuningdek, yagona yer solig'i muvaqqat bazaviy stavkalarning tuzatish koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yerlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari quyidagicha guruhlangan:

1) Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan korxona, tashkilot va muassasalardan olinadigan yer solig'i stavkalari.

2) Lalmikor ekinzorlar, bo'z yerlar va ko'p yillik ko'chatzorlar uchun olinadigan yer solig'i stavkalari.

3) Sug'oriladigan pichanzorlar va yaylovlardan olinadigan yer solig'i stavkalari.

4) O'rmon va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda foydalanilmaydigan boshqa yerlardan olinadigan yer solig'i stavkalari.

5) Shahar va posyolkalardagi yer uchastkalardan olinadigan yer solig'i stavkalari.

6) Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun korxona, tashkilot va muassasalardan olinadigan yer solig'i stavkalari.

Toshkent shahri yer solig'ini undirishi maqsadida 14 ta zonaga bo'lingan bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkalari alohida-alohida qilib belgilangan. Yer solig'i va yagona yer solig'ini 2003-yil uchun yangi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2003 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budgetining prognози to'g'risida»gi 455-sonli Qarorida bayon qilingan. Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomoni-dan umumiyl belgilangan tartibda to'lovchilarga yetkaziladi. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari bo'yicha bazaviy stavkalari qabul qilinadi.

*Lalmi yerlar hamda pichanzorlar va yaylovlari bo'yicha bazaviy stavka-lar sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha tasdiqlan-gan stavkalar qabul qilinadi.*

Ijtimoiy imoratlar, suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo'llar band qilgan yerlar, shuningdek, qishloq xo'jaligida foydalanimaydigan boshqa yerlar bo'yicha bazaviy stavkalari sifatida tegishli tuman va shaharlarning sug'oriladigan yerlari bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi 455-sonli Qaroriga asosan 2003 yil uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkalariga tuzatish koeffitsiyentlari quyidagicha belgilangan:

Qishloq xo'jalik yerlarining sifati yer uchastkasi mulkdori, yer egasi yoki yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Shaharlar va shahar posyolkalarining ma'muriy chegaralarida joylash-gan qishloq xo'jalik ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jalik yerlariga belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida undiri-ladi. Berilgan yerdardan ikki yil davomida foydalanimagan jismoniy shaxs-lardan yer solig'i uch baravar miqdorda undiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qaroriga muvofiq yer uchastkalarini ijara haqi to'laydilar. Ijara haqi taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjalari belgilangan yer solig'ining bir stavkasidan kam va

uch stavkasidan ko`p bo`lmasligi, yerlardan qishloq xo`jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa - bir stavkasi miqdorida bo`lishi lozim.

Yerni ijara olganlar hisobi, ijara to`lovi hisobini taqdim qilish, ijra to`lovini hisoblash va to`lash yer solig`i bo`yicha belgilangan tartib bilan amalga oshiriladi.

### **3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig`i bo`yicha soliq imtiyoz-lari va uning guruhanishi. Yer solig`ini hisoblash va budjetga to`lash tartibi**

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishda davlat soliq imtiyozlaridan ham unumli foydalanadi. Soliq imtiyozlari soliq mexanizmining tarkibiy qismlaridan biri bo`ladi, soliq tizimida muhim o`rin tutadi. Soliq imtiyozlari vositasida soliqlarning rag`batlantirish va tartibga solish funksiyalari bajarila-di. Soliq imtiyozlari soliq obyekting soliq to`lashdan ozod qilingan qismi-dir. Davlat iqtisodiyotni biron-bir tarmog`ini rivojlantirishga rag`batlantirish uchun imtiyozlar tizimidan keng foydalanadi. Tarmoqni yoki biron faoliyat turini rivojlantirishda dastlab keng miqyosda imtiyozlar beriladi, keyinchalik rivojlanish izga tushgandan so`ng soliq imtiyozlarini qaytarib olish boshlana-di. Davlat iqtisodiyotni biron-bir tarmog`ini rivojlantirishga rag`batlantirish uchun imtiyozlar tizimidan keng foydalanadi. Tarmoqni yoki biron faoliyat turini rivojlantirishda dastlab keng miqyosda imtiyozlar beriladi, keyinchalik rivojlanish izga tushgandan so`ng soliq imtiyozlarini qaytarib olish boshlanadi.

Respublikamiz soliq tizimida ham soliq imtiyozlaridan keng foyda-lanadi. Hozirgi paytda soliq bo`yicha imtiyozlardan asosan chet el investi-tsiyasini jalb etishda, kichik va o`rtacha tadbirkorlikni rivojlantirishda, korxona va tashkilotlarni investitsion faoliyatini rag`batlantirishda va boshqa maqsad-larda keng foydalanilmoqda. Soliq imtiyozlar juda keng qamrovli bo`ladi, ularni 4 ta yo`nalishga ajratish mumkin:

**1-yo`nalish:** soliqqa tortish obyekti bilan bog`liq imtiyozlar;

**2-yo`nalish:** soliqni to`lashdan to`liq ozod etish bilan bog`liq imtiyozlar;

**3-yo`nalish:** soliqni to`lashdan vaqtinchalik ozod qilish bilan bog`liq imtiyozlar;

**4-yo`nalish:** yangi korxonalarни qayd etish bilan bog`liq va shunga o`xshash imtiyozlar.

Yer solig'idan *imtiyozlar* ikki xil bo'ldi:

Yer uchastkalari soliqdan ozod etiladi.

Yuridik shaxslar soliqdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 101-moddasig asosan soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:

1) shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarining umumi foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sohil bo'yları, ariq tarmoqlari, qabristonlar va boshqalar);

2) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligining, jamoa garajlarining umumi foydalanishdagi yerlari;

3) tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga molik yerlar (davlat qo'riqxonalari, milliy va dendrologiya bog'lari, botanika bog'lari, zakazniklar, ov qilishga mo'ljallanganlari bundan mustasno, tabiat yodgorliklari), ixota daraxtzorlari egallagan yerlar;

4) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (tarixiy-madaniy qo'riqxonalari, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar);

5) suv fondi yerlari (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar, dengiz-lar, muzliklar, botqoqliklar, gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek suv havzalari sohilidagi suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar);

6) elektr uzatish liniyalari, podstansiyalar, umum davlat aloqa liniyalari va ularning inshootlari egallagan yerlar;

7) umumi foydalanishdagi avtomobil yo'llari, temir yo'llarning umumi tarmog'i, umumi foydalanishdagi shahar elektr transporti (shu jumladan metropoliten) va ularning inshootlari egallagan yerlar;

8) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suzish havzalari, sportning texnik turlari obyektlari va boshqa jismoniy tarbiyasog'lom-lashtirish komplekslari, onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriyl-kurort muassasalarini va dam olish uylari, o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

9) magistral suv quvurlari, neft va gaz quvurlari, magistral kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, suv olish va tozalash inshootlari, shuningdek suv ta'minoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa obyektlar egallagan yerlar;

10) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, shu jumladan ularni yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroport-larining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalarini

joylashgan yerlar;

11) ishlab chiqarish obyektlari qurilishi uchun ajratilgan (yoki obyektlari egallagan) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qurilish ishlari to'xtatib qo'yilgan yerlar;

12) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

13) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniладigan yerlari;

14) yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar - loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga;

15) zahiradagi yerlar;

16) rekreatsion ahamiyatga molik yerlar (aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalarga berilgan yerlar: o'rmon bog'lari, bog'lar, hiyobonlar, plajlar va boshqalar);

17) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (kasalliklarning oldini olish va odamlarni davolash ishini tashkil etish uchun qulay tabiiy omillarga ega bo'lgan yerlar);

18) yakka tartibda uy-joy qurish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjatlarda belgilangan normalar doirasida berilgan yerlar - yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga.

Yerlardan o'z o'rniда foydalanimagan taqdirda ushbu moddada belgilangan imtiyozlar qo'llanilmaydi.

Soliq kodeksining XII-bo'lim. Yer solig'i. 49 -moddasiga asosan quyidagi yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:

1) tijorat bilan shug'ullanmaydigan yuridik shaxslar (budgetdan moliya-viy ta'minlanadigan boshqaruv organlari va ilmii-tadqiqot muassa-salari bundan mustasno), yer uchastkalardan tadbirkorlik faoliyati yo'lida foyda-lanayotganlardan tashqari;

2) madaniyat, ta'lim, sog'lioni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari, bo'ysunuvidan qat'iy nazar, o'z zimmalariga yuklangan vazifa-larni amalga oshirish uchun ularga ajratilgan yer uchastkalari uchun;

dehqon (fermer) xo'jaliklari - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan

paytdan e'tiboran ikki yil muddatga;

4) nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamjarmasi va "O'zbekiston chernobilchilar" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiyligi sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va meinat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shujullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish iuquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiyligi soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

3) yangi tashkil etilgan deiqon xo'jaliklari - davlat ro'yxatidan o'tkazil-gan oydan e'tiboran ikki yilga;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'jisida qabul qilingan qaror iaqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun iujjalarda belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi iamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

1) bojdorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiyligi foydalanishdagi (kirish yo'llari, sujorish ariqlari, kollektorlar va umumiyligi foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;

2) muiosaza etiladigan tabiiy iududlarning yerlari, bundan xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar mustasno. Muiosaza etiladigan tabiiy iududlarning yerlari jumlasiga davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bojlarining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurt-ma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalarini bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkalari kiradi;

3) sojlomlashtirish aiamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritila-yotgan yerlar bundan mustasno) - tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

4) rekreatsiya aiamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - aiolining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar iamda

tashkilotlarga berilgan yerlar;

5) tarixiy-madaniy aiamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritila-yotgan yerlar bundan mustasno) - tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo`riqxonalar, xotira bojlari, sajanalar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar;

6) suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv iavzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek suv xo'jaligi eitiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda berilgan suv iavzalari iamda boshqa suv obyektlari soiillari bo'ylab ajratilgan mintaqasi yerlari kiradi;

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

8) umum davlat aloqa liniyalari (iavo va kabelli aloqa liniyalari, tirkagli liniyalari va radiofiksatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signallli va iarakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanali-zatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'satilmaydigan kuchay-tirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari iamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

9) madaniyat, xalq ta'limi va sojliqni saqlash obyektlari egallagan yerlar;

10) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

11) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tar-masi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi iamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'llar stansiyalari iamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan iiota daraxtzorlari egallagan yerlar;

12) shaiar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari iamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

13) sport va jismoniy tarbiya-sojlomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish iamda sojlomlashtirish joylari, dam olish uylari iamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

14) aioli punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va

tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dukerlari, suv bosimi iosil qiladigan minoralar iamda shunga o'xhash inshootlar egallagan yerlar;

15) magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stan-siyalari, yonjinga qarshi va avariyaga qarshi stansiyalar, truboprovodlarni kato-dli iimoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, trubop-rovod-larni tozalash qurilmalari iamda shunga o'xhash inshootlar egallagan yerlar;

16) magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, arafashtiruvchi, drenaj) stansiyalar, issiq suv ta'minotining issiqliknki iisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulatsiya nasoslari iamda shunga o'xhash inshootlar egallagan yerlar;

17) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'l-kalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radio-navigat-siya va elektr-yoritish uskunlari egallagan yerlar;

18) O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;

19) konservatsiyaga qo'yilishi to'jisida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maikamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar, ularning konservatsiyasi davrida;

20) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari iamda postlari egallagan yerlar;

21) yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalani-lmaydigan fuqaro muiofazasi iamda safarbarlik aiamiyatiga molik aloiida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

22) iiota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Iiota o'rmon daraxt-zorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlarining va ovlanadigan qimmatbaio baliqlarning uvildiriq sochadigan joylarini muiofaza qiladigan boshqa suv obyektlarining soiillaridagi, temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqasidagi taqilangan mintaqalar; eroziyaga qarshi o'rmonlar; cho'l va yarim cho'l mintaqalaridagi o'rmonlar; shaiar daraxtzorlari va o'rmonzor bojlari; aioli punktlari iamda sanoat markazlari atrofidagi yashil mintaqalar daraxtzorlari; suv ta'minoti manbalari sanitariya muiofazasi mintaqalarining o'rmonlari; kurotlarning sanitariya muiofazasi tegrasidagi o'rmonlar; aloiida qimmatga ega bo'lgan o'rmon massivlari; ilmiy yoki tarixiy aiamiyatga molik o'rmonlar;

23) qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtidan e'tiboran besh yil mobaynida;

24) melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sujoriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

25) yangi barpo etilayotgan bojlar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini iisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi, baiorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrinining 1 yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

26) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi aiamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi soiasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari iamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy iamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlari, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun iamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalani-ladigan ekinlar iamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi. Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga ushbu moddada belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarrachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer soliji yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Shaiarlar va shaiarchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi aiamiyatiga molik yerlar uchun yer soliji qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida to'lanadi.

4) chet el iinvestitsiyalari ishtirokidagi, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'llanuvchi yuridik shaxslar - ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida;

5) nogironlar ijtimoiy birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi, O'zbekis-ton Chernobilchilar Uyushmasi tasarrufida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar, savdo, vositachilik ta'minot-sotish va tayyorlov

faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar bundan mustasno;

6) "Sog'lom avlod uchun" xalqaro hayriya jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Qizil Yarim Oy jamiyatasi, "Nuroniy" jamg'armasi korxonalarini, bo'shatib olinayotgan mablag'lardan o'zlarining ustavda belgilangan vazifa-larini bajarish uchun foydalanish sharti bilan;

7) Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar - tashkil etilgan paytdan e'tiboran birinchi foyda olguniga qadar, biroq bu muddat ular ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yildan oshmasligi lozim.

Soliq kodeksi yuridik shaxslar belgilangan imtiyozli davrdan keyin bir yil o'tguniga qadar tugatilgan taqdirda, soliq so'mmasi ularning butun faoliyat davri uchun to'liq miqdorda undiriladi.

*Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va budgetga to'lash tartiblari*

Yer solig'ini hisoblash tartibi ish tajribasi to'planishiga qarab munta-zam takomillashtirib borildi. Bunga soliq to'lovchilarining qonundagi u yoki bu qoidalarni tushuntirib berishni iltimos qilgan xatlari ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Soliq kodeksida yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi amalda eski tartibdagidek o'zgarmay qoldi, biroq ba'zi o'zgarishlar ham yuz berdi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxslar yer soligini mustaqil ravishda hisoblab chiqadilar va davlat soliq inspeksiyalariga har yilning 1 fevraliga qadar taqdim etadilar. Shunday qilib, soliq to'g'ri hisoblanishi uchun mas'uliyat yuridik shaxslar zimmasiga tushadi. Hatto, agar soliqni hisoblash uchun yer maydoni rasmiy hujjatlar bo'yicha qabul qilingan, tekshiruvda esa ular band etgan yer uchastkasi maydoni hisob-kitobda ko'r-satilgani - ian ortiqcha bo'ladi chiqsa, yuridik shaxslardan soliqni to'g'ri hisoblash uchun mas'uliyat soqit qilinmaydi.

Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar uchun yer solig'i quyidagicha hisoblanadi. Yunusobod turmanida joylashgan «Yulduz» ochiq turdag'i hissadorlik jamiyatasi Toshkent shahrining 11-zonasida joylashgan. Korxonaning yer maydoni 5 hektar. 2003 yil uchun korxonaning to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i quyidagi tartibda hisoblanadi:

Yuridik shaxslarning olinadigan yer solig'ini 2003-yil uchun yangi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2003 yildagi asosiy

makroiq-tisodiy ko'satkichlari va Davlat budgetining prognozi to'g'risida»gi 455 sonli Qarorida bayon qilingan. Ushbu Qarorga asosan 2003 yilda yuridik shaxslar-ning qishloq xo'jaligida foydalanmaydigan yer maydonlari uchun Toshkent shahrining 11-zonasida joylashgan 1 ga yer maydonining quyidagi stavka-larda soliqqa tortiladi:

Agar yer sotilsa, olib qo'yilsa (karnaysa) soliqni undirish yer olib qo'yilgan oydan boshlab to'xtatiladi. (kamaytiriladi). Masalan korxonadan yer uchastkasining bir qismi tegishli davlat hokimiyati idoralari tomonidan 25 avgustdan olib qo'yildi, unda korxona soliqni 1 avgustidan to'lamaydi.

Yer solig'idan imtiyoz belgilanganda ular shu huquq paydo bo'lgan oyidan boshlab soliq to'lamaydilar. Yer solig'idan imtiyoz to'xtatilgan hol-larda, shu imtiyoz to'xtatilgan oydan so'nggi oydan boshlab yer solig'i to'la-nadi. Yer maydoni bir qancha yuridik shaxslarning mulkida bo'lgan qurilishi-ga tegishli bo'ladi, har bir mulkdor umumiyl maydonidagi hissasiga qarab yer solig'i to'laydi. Ko'p qavvatl turar joylarning bir qismini egallagan yuridik shaxslar turar joyning umumiyl maydonidan egallagan qismi uchun soliq to'laydi yoki shu yuridik shaxs foydalanayotgan ishlab chiqarish imoratining foydalanishi hissasiga qarab soliq to'laydi. Soliqqa tortish maqsadida o'rmon, baliqchilik va ovchilik korxonalari hamda mashina - traktor parklari qishloq xo'jalik korxonalariga tenglashtiriladi.

Soliqdan olgan imtiyozlarni ma'lum maqsadlarga foydalanuvchi yuridik shaxslar ham yer solig'inining hisobini soliq idoralariga belgilangan muddatda va shaklda topshiradilar. Yer uchastkasi yil ichida ajratilib berilsa, yer uchastkasi ajratilgan so'nggi oydan boshlab yer solig'i to'laydi. Masalan, korxonaga yer tegishli idoralarning qarori asosida 15 avgustdan berildi ya'ni soliqni korxona 1 sentabrdan boshlab to'laydi.

*Yuridik shaxslar tomonidan yer solig'ini to'lash va uni hisobga olish tartibi.* Yuridik shaxslar (qishloq xo'jalik korxonalaridan tashqari) yer solig'ini har chorakda ikkinchi oyning 15 sanasiga qadar to'lab boradilar. (15 fevral, 15 may, 15 avgust, 15 noyabr). Agar yuridik shaxs yer uchastkasini hisobot choragi uchun soliq to'lash muddatidan so'ng olsalar, unga yer solig'ini to'lash muddati bo'ladi kelgusi chorakning soliq to'lash muddati hisoblanadi. Yagona yer solig'i to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda yerkarning maydoni, bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsiyentlari asosida hisoblab chiqiladi.

Qishloq xo'jalik ahamiyatiga ega yerdagagi yer maydonlari yer

tuzish xizmati o'tkazadigan yer hisobi ma'lumotlari, yerlarni ro'yxatdan o'tkazish va qishloq xo'jaligi yerlarini va ekinlari maxsus asboblar yordamida o'chash materiallari, shuningdek, ixtisoslashgan loyihalash va qidiruv tashkilotlari o'tkazish boshqa tekshiruv materiallari asosida tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Qishloq xo'jaligi yerlariga yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari sifatida quyidagilar qabul qilingan:

- sug'oriladigan yerlar bo'yicha - 1 klassli yerlar  
(ball-bonitet-10 gacha);
- lalmi yerlar bo'yicha - tekis zona yerlari;
- pichanzorlar va yaylovlar bo'yicha - "Cho'l" mintaqasidagi yerlar.

Yerlar joylashishining tafovutlari va sifati, (ball-boniteti)ga qarab bazaviy stavkalar tegishli tuzatish koeffitsiyentlariga o'zgartiriladi.

Yerlarning har bir turi bo'yicha yagona yer solig'i so'mmasi quyidagi formulaga ko'ra belgilanadi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha qishloq xo'jalik yerlariga yagona yer solig'ining muvaqqat bazaviy stavkalari, ma'muriy tumanlar va shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari, shuningdek, yagona yer solig'i muvaqqat bazaviy stavkalarning tuzatish koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи tomonidan tasdiqlanadi.

#### **4. Qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun Yagona yer solig'ini joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari va zaruriyati. Yagona yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi. Hisoblangan soliq so'mmasini buxgalteriya schotlarida aks ettirish tartibi**

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktabr-dagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrdagi 539-sun qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining budjetga to'lovlarini ixchamlashtirildi va yagona yer solig'i to'lash ular uchun joriy etildi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini uchun yagona yer solig'i joriy etilishi bilan ular quyidagi soliq va yig'imlarni to'lashdan ozod etiladi:

Daromad (foyda) solig'i:

qo'shilgan qiymat solig'i:

**alkogolsiz ichimliklar va meva sharbatlarga aksiz solig'i:**

**ekologiya solig'i:**

**suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq:**

**yer solig'i:**

**yer ostidan foydalanganlik uchun soliq:**

**mol-mulk solig'i:**

**ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish solig'i:**

**boshqa mahalliy soliqlar va yig'implar**

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'l mish qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun boj to'lov, davlat boji, litsenziya yig'implari, budgetdan tashqari fondlarga ajratmalar, shuningdek, alkogollni mahsulotlarga aksiz solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolinadi.

Yagona yer solig'ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruv-chilarining mehnatning pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, ularning soliq tizimini soddalashtirishdir. Ushbu tadbirning ishga solinishi xo'jaliklarni yordamchi kasbkorlar va ishlab chiqishlarni rivojlantirishga undashi kerak, chunki bunday faoliyat natijasida olingan daromadlar soliqqa tortilmaydi.

Yagona yer solig'i to'lash tartibi quyidagilarga tegishli bo'lmaydi:

1. O'rmonchilik, ovchilik xo'jaliklariga:

2. Ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ilmiy muassasalarining tajriba, eksperimenti va o'quv tajriba xo'jaliklariga:

3. Mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan yordamchi qishloq xo'jaliklariga:

4. Dehqon xo'jaliklariga:

Yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'ladi qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari), fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, shuningdek boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Bu yuridik shaxslar qishloq xo'jalik mahsulotni ishlab chiqarish bilan birga boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar, yagona yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadi. Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar o'z ixtiyoriga ko'ra budgetga kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliqni yoki qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun belgilangan yagona yer solig'ini to'laydilar. Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalananishga yoki ijara berilgan yer maydoni yagona yer solig'iga tortish obyekti hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi yerlari maydonlari, ularning sifati va

joylashgan joyi bo'yicha yer balansi, yer haritalari, tekshiruv materiallari va boshqa yer-kadestr hujjatlari bo'yicha qabul qilinadi.

Boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi to'lovchilar qatoriga shakli va ixtisoslashuviga ko'ra ko'p sonli yuridik shaxs huquqiga ega xo'jaliklar; Aksiyadorlik xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari va shirkatlari uyushmalari, parandachilik xo'jaliklari, turli tizimdag'i bo'rdoqichilik xo'jaliklari, ipakchilik va asalarichilik xo'jaliklari, shuningdek, yuridik shaxs bo'lgan yordamchi qishloq xo'jaliklari kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha qishloq xo'jalik yerlariga yagona yer solig'ining muvaqqat bazaviy stavkalar, ma'muriy tumanlar va shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkalar, shuningdek, yagona yer solig'i muvaqqat bazaviy stavkalarining tuzatish koeffitsentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan xo'jaliklar uchun soliqqa tortishning amaldagi tartibi saqlanib qoladi, ya'ni ular oldingidek barcha belgilangan soliqlarni, shu jumladan yer solig'ini to'lashadi. Ular uchun yer solig'ining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002 yil 30 dekabrdagi 455-sonli qaroridagi soliq stavkalarini tasdiqlangan. Yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishslashdan tashqari boshqa faoliyat turi bilan shug'ullansalar, shu faoliyat turlari bo'yicha alohida hisobot yuritadilar va ular uchun qonunlarda belgilangan hamma soliqlarni to'laydilar.

#### *Yagona yer solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlar.*

Bu soliqdan imtiyozlar ham ikki turli bo'ladi:

- A) soliq solinmaydigan yer uchastkalari;
- B) soliq to'lashdan ozod etilgan yuridik shaxslar;

Soliq solinmaydigan yer uchastkalariga:

1. Qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Bular aholi punktlari hududidagi maydonlar, ko'chalar, o'tish yo'llari, yo'llar, sug'-orish tarmog'i va shu kabi obyektlar, shuningdek, xo'jalikdagi qabristonlar;

2. Ixota daraxtlari ekilgan maydonlar;

3. Sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suv havzalari, sportning texnik turlari obyektlari va boshqa jismoniy tarbiya-sog'lom-lashtirish majmualari hamda xalq ta'limi, madaniyat va sog'liqni saqlash

obyektlari band qilgan yerlar;

4. Yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holati yaxshilanishi jarayonidagi sug'oriladagan yerlar, loyihada nazarda tutilgan muddatda, lekin ishlar boshlangandan e'tiboran besh yilga;

5. Yangi o'tkazilgan bog'lar va tokzorlar band qilgan maydonlar, ular meva bera boshlaydigan muddatgacha, ularning maydonlari ana shu bog'lar va tokzorlar o'tkazilgan oydan boshlab soliq solinadigan bazadan chiqariladi.

6. Yangidan tut daraxtlari o'tkazilgan maydonlar, ularning maydonlari tutlar o'tkazilgan oydan boshlab uch yillik muddatga soliq solinadigan bazadan chiqariladi.

7. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq soliq solinmaydigan boshqa yerlar.

Soliq to'lashdan ozod etiladigan yuridik shaxslarga quyidagilar kiradi:

1. Yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan, fermer xo'jaliklari, davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab ikki yil muddatga;

2. Daromad (foyda) solig'i va yer solig'ini to'lashdan ozod qilingan boshqa qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari.

#### *Yagona yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi*

Yagona yer solig'i uning to'lovchilari tomonidan mustaqil ravishda yerlarning maydoni, bazaviy stavkalarini va tuzatish koefitsiyentlari asosida hisoblab chiqiladi. Qishloq xo'jalik ahamiyatga ega yerlardagi yer maydon-lari yer tuzish xizmati o'tkazadigan yer hisobi ma'lumotlari, yernarni ro'yxat-dan o'tkazish va qishloq xo'jalik ekinlari hamda yernarni maxsus asboblar yordamida o'lichash materiallari asosida tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Yerlarning har biri (sug'oriladigan yerlar, lalmi yerlar, pichanzorlar, yaylovlari va boshqalar) uchun tegishli bazaviy stavkalar va tuzatish koef-fitsiyentlari qo'llaniladi, ular O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda to'lovchilarga yetkaziladi. Soliqni hisoblash 2003 yilda ham saqlangan, soliq stavkasi 1,2 foizga oshirilgan.

Sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari bo'yicha bazaviy stavkalar sifatida tegishli tuman va shahar bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi. Lalmi yerlar, pichanzorlar va yaylovlari bo'yicha bazaviy stavkalar sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi. Ijtimoiy imoratlar, suv havzalari,

kanallar, kollektor-lar va yo'llar band qilgan yerlar, shuningdek, qishloq xo'jaligida foydalan-maydigan boshqa yerlar bo'yicha bazaviy stavkalar sifatida tegishli tuman va shaharlarning sug'oriladigan yerlari bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi. Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilariga yil davomida ajratil-gan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to'lanadi.

Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan), haqi to'lab qaytarib olin-gan, sotilgan tarzda soliqning undirilishi yer uchastkasi tortib olingan (kamaytirilgan), haqi to'lab qaytib olingan, sotilgan oydan boshlab to'xtati-ladi (kamaytiriladi). Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilanganda ular bunday huquq vujudga kelgan oydan boshlab to'lamaydilar. Imtiyozlarga ega bo'lish huquqi to'xtatilganda, bunday huquq to'xtatilgandan keyingi oydan boshlab yer solig'i to'lashga boshlaydilar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini yagona yer solig'i so'mmasini Vazirlar Mahkamasi belgilangan stavkalarda hisoblab chiqadilar va o'zлari joylashgan soliq inspeksiyalariga (aksariyat) soliq hisobini joriy yilning 1 fevraliga qadar taqdim etadilar.

Yagona yer solig'i bir yilda uch marta to'lanadigan bo'ldi.

- 1 iyulgacha yillik soliq so'mmasining 20 foizi miqdorida;
- 1 sentabrgacha yillik soliq so'mmasining 30 foizi miqdorida;
- 1 dekabrigacha qolgan soliq so'mmasi to'lanadi.

Yagona yer solig'inig hisoblangan so'mmasi korxonaning davr harajatlariga kiritiladi.

Hisoblangan soliq 68 schotning «Yer solig'i hisob varog'i» kreditida va 26 schotning «Davr harajati» debetida ko'rsatiladi. Soliq byutjetga o'tkazil-ganda 68 schot debetlanadi va 51 «hisob-kitob varog'i» kreditlanadi.

*Misol:* "Navbahor" jamoa xo'jaligi ixtiyorida jami 350 hektar yer bo'ladi, bularning 250 hektari sug'oriladigan yerlar va 100 hektari sug'oril-maydigan lalmi (tog'li va tog' oldi yerlar) hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlarning 105 hektari 4 klass (boniteti 31-40 ballgacha bo'lgan yerlar), 85 hektari 5 klass (boniteti 41-50 balgacha bo'lgan yerlar) va 60 hektari 6 klass yerlar hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 30.12.2002 yildagi 455-soni Qaroriga asosan Toshkent viloyati Qibray tumanida 1 hektar 1 klass yer uchun yagona soliq stavkasi – 1475,5 so'm, tuzatish koefitsiyenti 4 klass yer uchun - 3,29; 5 klass yer uchun -4,67; 6 klass yer uchun 6,54. Sug'orilmaydigan lalmi (tog'li va tog' oldi) yerlar uchun -1,67.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarning xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'limgan yagona yer solig'ining hisoblab chiqilgan miqdori yer uchastkasi joylashgan tuman budgetiga o'tkaziladi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini yerlarining shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qismi uchun yagona yer solig'i soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tgan tuman budgetiga o'tkaziladi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yil davomida ajratilgan yer uchastkalari uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oyining keyingi oyidan boshlab to'lanadi. Yer uchast-kasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan), haq to'lab qaytarib olingan, sotilgan taq-dirda soliqning undirilishi yer uchastkasi tortib olingan (kamaytirilgan), haqi to'lab qaytarib olingan, sotilgan oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilanadi. Ular soliq to'lashni bunday huquq vujudga kelgan oy-dan boshlab to'laydilar. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lish huquqi to'xtatilganda ular bunday huquq to'xtatilganidan keyingi oydan boshlab yer solig'i to'lashga boshlaydilar. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini yagona yer solig'i so'mmasini keltirilgan tegishli jadvaldagagi shaklga binoan hisoblab chiqadilar va davlat soliq inspeksiyalariga hisob-kitobni joriy yil-ning 1 fevraliga qadar taqdim etadilar.

Yagona yer solig'ining hisoblangan so'mmasi davr harajatlariga kiritiladi. Yer solig'ini hisoblash haqiqiy egallangan yer maydoniga qarab amalga oshiriladi. Umumiy maydondagi yer uchastkalari ma'lumotlari shahar va tuman ijroiya hokimiyatlari tomonidan doimiy egalik yoki foydalanish huquqi borligi davlat hujjati bilan tasdiqlanishi kerak. Yerdan foydalanishga davlat hujjatlari berilgunga qadar vakolatli hokimiyat idoralarining qarorlari, yer balanisi ma'lumoti, qurilishning bosh rejasи yoki boshqa hujjatlar (tek-shiruv dalolatnomasi, yer inventarizatsiyasi, yermi rejasini olish va boshq.) yer tuzilishi xizmati yoki arxitektura idoralari xizmati bilan kelishilgan bo'ladi xizmat qiladi. Yil mobayinida yerdan foydalanishda o'zgarishlar so-dir bo'ladi (ko'payishi, kamayishi) yuridik shaxslar soliq inspeksiyasiga bir oydan kechiktirmasdan o'zgargan soliq hisobini taqdim etishlari shart. Bosh-qa soliq va yig'implardan qarzi bo'limgan holda yuridik shaxslar soliqni ko'p to'lab yuborgan bo'ladi, bu so'mma soliq to'lovchilarga ularning ariza-lariga binoan o'ttiz kun ichida qaytariladi yoki kelgusi to'lov larga o'tkaziladi.

Soliq yer maydoni qaysi tumanda joylashgan bo`ladi shu tuman Mahalliy budgetiga o`tkaziladi. Yer solig`i va yagona yer solig`ini to`lovchi-lar soliq idoralari mansabdar shaxslari noto`g`ri harakati bo`yicha yuqori soliq idoralariga yoki sudga shikoyat qilishlari mumkin. Yer solig`ini va yagona yer solig`ini to`lovchilar soliqning to`g`ri hisoblanishi va o`z vaqtida to`lanishi uchun O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvo-fiq javobgar bo`ladilar. Davlat soliq xizmati organlari O`zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O`zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to`g`risida"gi qonuni va O`zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq nazoratni amalga oshiradilar.

### **5. Yer solig`ini asosiy muammolari**

Keyingi paytlarda soliq imtiyoz-lari to`g`risida gazeta va jurnallarda bir qator maqolalar chop etilib, ularda iqtisodchi olimlar tomonidan soliq imtiyozlariga turlicha ta`rif berilmoqda: «Soliq imtiyozlari - bu vaqtincha soliq majburiyatlari miqdorini kamaytirish uchun umumiy qoidalardan chekinish», «Soliq imtiyozlari - amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to`liq yoki qisman ozod qilish» yoki «Soliq imtiyozlari - korxonalarga nisbatan beriladigan vaqtinchalik yengilliklar» - kabi qator fikr-mulohazalar bildiril-moqda. Soliq imtiyozlari azaldan soliqqa tortish jarayonida keng qo`llanib kelingan. Ulug` sarkarda, sohibqiron Amir Temur davrida ham soliq imtiyozlariga katta ahamiyat berilgan. Hozirgi kunda hamma soliq to`lovchilar soliq imtiyozlari masalasiga befarq qaramasliklari barchamizga ma'lum. Hamma soliq to`lovchi ham soliq bo`yicha imtiyozga ega bo`lishni xohlaydi, chunki bu ularning manfaatlariga mos tushadi. Lekin, berilgan imtiyozdan tegishli davr ichida to`liq, samarali foydalanadimi? Soliq tizimimizda imtiyozlarga katta ahamiyat berilmoqda. Jahon amaliyoti tajribasidan foydalangan holda, ishlab chiqilgan imtiyozlar tizimi hozirda iqtisodning barcha tarmoqlarini rivojlantirishga, muhim ijtimoiy muammolarni hal etishga va umumiy holda korxonalar faoliyatini rivojlantirishni har tomonlama rag`batlantirishga qaratilmoqda.

Lekin, shu o`rinda «Berilgan imtiyozlar tegishli samara beryaptimi, ular korxonalarda ishlab chiqarish rentabelligini oshishiga ta`sir ko`rsatmoq-dami?» degan tabiiy savol tug`iladi. Afsuski, amaliyotdagi materiallar bilan tanishish natijasida yuqoridaq savollarga ijobjiy javob bera olmaymiz yoki ha, qisman samara bermoqda deb javob

**berish uchun ham bizda asos yo`q.**

Nima uchun bunday holat yuzaga kelmoqda? Imtiyoz va samaradorlik dialektikasini ta'minlay olmasligimizga nima sabab bo`lmoqda?

Bizning fikrimizcha, bunga asosiy sabab qilib quyidagilarni ko`rsati-shimiz mumkin:

Soliq to`lovchilarning soliq va imtiyoz o`rtasidagi dialektikaning asl mohiyatini to`g`ri idrok etmaslik;

Berilayotgan imtiyozlarning mohiyatini to`la tushunib yetmaslik, ulardan samarali foydalanmaslik.

Soliq va imtiyoz dialektikasining asl mohiyati «iqtisod va hisobot» jurnalining 1996 yil 7 - sonida chop etilgan iqtisod fanlari doktori, professor Tohir Malikovning «Soliq va imtiyoz dialektikasi» nomli maqolasida to`la va aniq ochib berilgan. Bu maqoladan ayrim diqqatga sazovor fikrlarni keltir-moqchiman: «dunyoda nimadan qochib qutilishning iloji yo`q» deb savol berilganda, «o`limdan» deb javob berishimiz tabiiy, albatta. Savolning javobi xuddi shunday ekanligi hech kimda shubha tug`dirmasligi to`rgan gap. Shu-nisi diqqatga sazovorki, xuddi shunday savol bozor munosabatlari sog`lom rivojlangan mamlakat fuqarolariga berilganda, negadir o`zgacharoq javob beradilar. Bizning oramizda esa «kerak bo`ladi soliqdan qo`chishning ming bitta yo`lini o`rgataman» - deguvchilar ham ko`plab topiladi. Bundan bir necha asr burun g`arb mutafakkiridan «Inson ne uchun dunyoga keladi», degan savolga ul zot «O`lim va soliq to`lash uchun» deb javob bergan ekan. Rivojlangan davlatlarda soliq va imtiyoz dialektikasi negizini ana shu falsafiy fikr tashkil etadi. Soliq to`lovchilar soliq va imtiyoz dialektikasining asl mohiyatini to`g`ri tushunmoqliglari uchun, dastlab faqatgina o`limdan emas, balki soliq to`lamaslikdan ham qochib qutilishning iloji yo`q ekanligini qalban his etmoqliglari darkor. Soliq to`lovchilarda bunday hissiyot paydo bo`lmas ekan, ular soliq va imtiyoz o`rtasidagi dialektikaning asl mohiyatini idrok etishga hamon ojizligicha qolaveradilar. Darhaqiqat, bundan 6 yil ilgari professor T.Malikov ko`rsatib o`tgan muammolar hozirga kelib ham o`z yechimini to`liq topganicha yo`q. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, imtiyozning samarasini tahlil qilishdan avval, imtiyoz mohiyati va maqsadlarini soliq to`lovchilarga yetkazish, undan samarali foydalanish yo`llarini ko`rsatib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni unutmaslik kerakki, bir soliq turi bo`yicha tegishli imtiyozlar berilishi ushbu soliq og`irligining boshqa korxonalar

zimmasiga qo'shimcha yuk bo'ladi tushishi, haqiqatdan yiroq emas. Darhaqiqat, hozirda soliq og'ir-ligi ko'proq metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va boshqa sanoat tarmoq-lariga tushmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash tarmoqlari esa soliqqa tortilish nuqtai nazaridan yaxshi ahvolda. Yuqoridagilardan kelib chiqib soliq imtiyozlari samaradorligini oshirish va imtiyozlari tizimini tartibga solish borasida o'z fikr va takliflarimni bildirmoqchiman:

**Birinchidan:** soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish uchun soliq to'lovchilar orasida imtiyozlarni asl mohiyatini tushuntirish bo'yicha tadbirlar o'tkazilishi kerak.

**Ikkinchidan:** imtiyozdan foydalanuvchilar ustidan nazoratni kuchay-tirish kerak. Bu borada, imtiyozdan foydalanuvchilar haqida barcha ma'lumotlarni to'la o'rghanish, ularni umumlashtirish va tegishli xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Uchinchidan:** yer solig'i bo'yicha imtiyozlar tizimini takomillashtirishda quyidagi taklif muhim ahamiyat kasb etishi mumkin: ayrim soliq to'lovchilar uchun soliq imtiyozlarini kamaytirib berish ham soliq tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu asosan berilgan imtiyozdan samarali foydalana olmagan korxonalar uchun tegishli.

Rivojlangan bozor munosabatlariiga asoslangan davlatlar iqtisodiyotida turli xo'jalik shakllari faoliyatining qiyosiy tahlili ishchilar soni va mahsulot sotish hajmi katta bo'limgan kichik biznes korxonalarining alohida ahami-yatga va yuqori samaradorlikka ega ekanliklarini tasdiqlamoqda. Ko'pchilik tadqiqotchilar makroiqtisodiy ko'larda ishlab chiqarish texnik darajasini yangilashni jadallashtirish jarayonida kichik biznes roliga, uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi va bozor asoslarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor bermoqdalar.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda ham davlat tomonidan himoya qilinadi. Davlat o'zining iqtisodiy siyosati doirasida qishloq xo'jalik korxonalarini subsidiyalar berish, soliq stavkalarini kamaytirish, tabiiy iqlim sharoitlari og'ir kelgan yillarda soliqlardan ozod qilish kabi yo'llar bilan muhofaza qilib keladi. Amerikaning fermer xo'jaligi jahonda eng samarali xo'jalik sanaladi. 1920 yilda 6,5 million fermada 31 million amerikalik yashagan edi. 1987 yilga kelib fermerlar soni qisqarib 5million bo'ladi qolgan, ular 2 million fermada yashamoqda edi. Fermerlar va fermalar soni kamayishiga qaramay, Amerika fermalarida ishlab chiqarishni umumiy hajmi oshdi va qishloq

xo`jalik mahsulotlari yetishtirish muttasil ortib bormoqda, ayni bir vaqtida fermerlarga hukumat yordami keyingi barcha yillar davomida eng yuqori cho`qqiga yetdi. 1998 yilda Federal hukumat fermerlarga 30 milliard mablag` ajratdi.

Amerika qishloq xo`jaligining istiqbolini belgilovchi barcha omillar orasida uning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi eng asosiy o`rinni egallaydi. Birok agrar sohadagi eksport mutlaqo fermerlar ixtiyorida bo`lma-gan talaygina omillarga bog`liq. Xususan AQShning monetar va fiskal siyo-sati, shuningdek chet mamlakatlarning proteksionizm yo`nalishidagi chora-tadbirlari qishloq xo`jalik mahsulotlarini yetishtirish va sotishga bevosita ta`sir etadi. Bundan tashqari hukumat qishloq xo`jaligini soliqqa tortishga oid qonun hujjatlarini o`zgartirish, soliq stavkasini kamaytirish yoki inflatsiyaga qaratilgan chora-tadbirlar ko`rish bilan qishloq xo`jalik sektorini ijtimoiy himoya qilib turadi.

Bundan tashqari davlat qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar uchun qo`shilgan qiymat solig`i stavkasini 5,5 % qilib belgilagan. Eng past stavka belgilashdan tashqari qishloq xo`jalik korxonalari qo`shilgan qiymat solig`i to`lashdan ozod qilingan. Fransiyada yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig`ining stavkalari barcha korxonalar uchun 34 % bo`lgani holda, qishloq xo`jalik korxonalari uchun 10 % qilib belgilangan.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ko`rinib turibdiki, ularning qishloq xo`jalik korxonalarini soliqqa tortishdan davlatning maqsadi budjetni to`l-dirish emas, balki qishloq xo`jalik korxonalarini mahsulot ishlab chiqarishga rag`batlantirish, ularni ijtimoiy himoya qilishdan iborat.

Hozirgi sharoitda barcha hamdo`stlik davlatlari (shu jumladan, O`zbekiston Respublikasi) iqtisodiy hayotida rivojlangan davlatlar xo`jalik taraqqiyotining asosiy yo`nalishlarini belgilagan umumiyligi iqtisodiy jarayonlar kuzatilmogda. Liberal iqtisodiy siyosat, mulkning davlat tasarrufidan chiqari-lishi va xususiylashtirish, mehnat jamoalarining korxonani boshqarishdagi ishtiroti kabi xalqaro miqyosda yaxshi tanish bo`lgan jarayonlar bizning kundalik hayotimizda kechmoqda. Turli davlatlar hukumatlari uchun qator muammolarni hal etish ulardagi iqtisodiy sharoit va xo`jalik tarkibidagi xususiyatlarga ko`ra mutlaqo farqlansada, aslida bu holat umumiyligi iqtisodiy jarayonning ma`lum sharoitlarda namoyon bo`lishidir. Bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida davlatning soliq siyosati xalq xo`jaligi barqarorligi va taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu siyosat bozor

munosabat-larining barcha qatnashchilarini qamrab oladi. O'z navbatida, soliq tizimi shakllangan ijtimoiy takror ishlab chiqarishning xo'jalik mexanizmi va jamiyat o'z oldiga qo'ygan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlardan kelib chiqadi.

Bizning fikrimzcha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun joriy qilingan yagona yer solig'idan davlat o'zining iqtisodiy siyosati doirasida qishloq joylarda joylashgan boshqa tarmoq korxonalarini rivojlan-tirish, shuningdek yangi korxonalarni ishga tushirish, qishloqqa sanoatni rivojlantirish maqsadlarida foydalanishi lozim. Davlat budgetini kattagina qismi kam daromadli oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishga sarflanadi. Kam ta'minlangan oilalarni ko'pgina qismi qishloq aholisiga to'g'ri keladi. Shu-ningdek mavjud ish bilan ta'minlanmagan ishga yaroqli aholining ham aksari qismi qishloq joylarda yashaydi. Yuqoridagilarni hisobga olib qishloq aholi-sini ish bilan ta'minlash, qishloq joylarda sanoat korxonalarini ko'rishni rag'batlantirish maqsadida davlat qishloqlarda qurilayotgan yangidan ochilayot-gan korxonalar uchun ularni faoliyat turidan qat'iy nazar yagona yer solig'ini joriy qilishi ma'lum muddatga joriy qilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda yagona yer solig'ini yangi ochilayotgan korxonalarning faoliyat turiga qarab tabaqalashtirish lozim.

Ma'lumki qurilish tashkilotlari, transport korxonalari katta yer maydon-lariga ega bizning fikrimizcha ushbu korxonalar uchun yer solig'ining stavkalarini kamaytirib belgilash zarur. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini yer solig'ini bdjetga o'z vaqtida, qonunda belgilangan muddatlarda to'lanishishini ta'minlash maqsadida, yer solig'ini to'lash tartibini buzganlik uchun belgilangan jazo choralarini kuchaytirish zarur. Soliqlar orqali iqtiso-diyotni boshqarishda yer solig'idan unumli foydalanish maqsadida yerdan qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanmaydigan yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkalarini ularning faoliyat turiga qarab tabaqalashtirish va soliq stavkalarini ko'paytirish lozim. Yer solig'i to'g'ri soliq hisoblanib, korxo-naning xo'jalik faoliyati natijasiga bog'liq bo'lmaydi va korxona foya yoki zarar ko'rishidan qat'iy -nazar to'lashga majbur. Bizning fikrimzcha korxona yil zarar bilan yakunlaganda yer solig'ini to'lasti muddatini korxonaning iqtisodiy holati yaxshilangunga qadar kechiktirish lozim.

*Qishloq xo'jalik korxonalarini soliqlar orgali boshqarishda yagona yer solig'idan foydalanishni takomillashtirish yo'llari. Soliqqa tortish tartibini o'zgartirish bo'yicha har qanday chora kabi yagona yer*

solig`ining ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor. Lekin fikrimizcha, ijobiy omillari ko`proq. Yagona yer solig`ining joriy etilishi soliqni hisoblashni juda osonlashtiradi. Ilgari qishloq xo`jalik korxonalari 10 turga yaqin soliqlar va yig`imlarni to`lagan bo`ladilar, endilikda bir yilda bir marta soliqning bir turini hisob-laydilar. Agar soliqni to`lash muddati hisobga olinadigan bo`ladi, ayrim kor-xonalar har bir soliq turlari bo`yicha to`lov topshiriqnomalarini taqdim etish-lariga to`g`ri keladi. Tekshirishlarning ko`rsatishicha, buxgalterlarning mala-kasi pastligi sababli ko`p xo`jaliklar soliqni noto`g`ri hisoblaganlar va shu sa-babli ularga ancha miqdorda jarima solingan. Bu qoida malakali buxgalterlari bo`limgan mayda qishloq xo`jalik korxonalari uchun ayniqsa muhimdir. Yer solig`ini hisoblash esa chuqur bilimni talab qilmaydi, demak xatoga kamdan-kam yo`l qo`yiladi. Bundan tashqari, yer solig`i yil boshida bir marta hisob-lab chiqiladi va yil oxirigacha o`zgarmay qolaveradi, bu esa xo`jaliklarga o`zlarining ishlab chiqarish-moliya faoliyatini aniq rejashtirish imkonini beradi. Yagona yer solig`ining joriy etilishi yerdan yanada oqilona foyda-lanishi taminlashi lozim. Chunki har gektar yer hisobidan, undan qanday foydalani layotganidan qat`iy nazar, soliq to`lanadi. Joriy etilgan yangilik esa xo`jaliklarni yordamchi tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirishga undaydi, chunki bunday faoliyatdan olingan daromad soliqqa tortilmaydi.

Har qanday soddalashtirish kabi yagona yer solig`ining joriy etilishi tenglashtirishga olib keladi - bu esa uning salbiy tomoni. Tahsil shuni ko`rsat-moqdaki, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini tadbirkorlik bilan rivojlantirayot-gan xo`jaliklar yutib chiqadi, faqat dehqonchilik bilan shug`ullanuvchi xo`ja-liklar esa yutkazadi. Stavkalarni belgilash chog`ida budjetga mablag` tushumining mavjud miqdorini saqlab qolish asosiy omil qilib olindi. Hisob-kitoblar shuni ko`rsatadiki, bu tamoyilni ta'minlash uchun umuman respub-likha bo`yicha 1998 yilda amal qilgan yer solig`i stavkasini 1,9 baravar ko`-paytirish lozim ekan. Biroq bunda jami soliqlar miqdoriga ko`ra uning urmiga yagona yer solig`i to`lanadiganiga ko`ra 20-30 foiz kamroqdir. Bu esa qish-loq xo`jalik korxonalari uchun soliq yukini ancha yengillashtirish omillaridan hisoblanadi. Shu bois O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan bazaviy stavkalar va ularga tuzatish koeffitsiyentlari tasdiqlangan bo`ladi, bu koeffitsiyentlar yerkarning turlari, sifati va qayerda joylashganini hisobga oladi. Yagona yer solig`i to`lovchilar uchun ma`muriy va sanoat markazlariga yaqinroq joylashgani, shuningdek, yer shaharlarning ma`muriy chegaralarida joylashgani

tufayli koeffitsiyentni oshirish qo'llanilmaydi. Bu koeffitsiyentlar bazaviy stavkalarda hisobga olingan. Yuqorida aytildanidek, yagona yer solig'ining joriy etilishi, shubhasiz, soliqqa tortishni soddalash-tirishga olib keladi. Lekin u qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish-moliya faoliyatiga qanday ta'sir ko'sratadi? Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq yagona yer solig'ini joriy etish bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus respublika komissiyasi tuzilgan.

Bu komissiyaga yangi stavkalarning qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish-moliya faoliyatiga ta'sirini o'rganish, shuningdek, zarur takliflarni o'z vaqtida tayyorlash topshirilgan. Yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari va tuzatish koeffitsiyentlari qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining natijasiga qanday ta'sir etayotganini tahlil etish, ayrim yagona yer solig'i to'lovchilarga imtiyoz berish samaradorligini o'rganish bilan soliq organlarining mutaxassis-lari, xususan tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqqa tortish bo'limgani mutaxassislarini shug'ullanishi kerak. Shu munosabat bilan ularni yetarli miqdor-da malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash zarur. Chunki qishloq tumanlarida asosiy soliq to'lovchilar - yagona yer solig'ini to'laydigan qishloq xo'jalik korxonalaridir.

Yagona yer solig'i joriy etilishi bilan yer maydoni va sifatini aniq hisobga olish zarurati ancha kuchayadi. Respublika hukumati Yer resurslari davlat qo'mitasiga tuproq haritalariga o'zgartirishlar kiritish va yer bonitirov-kasi ishlarni 1999 yil davomida nihoyasiga yetkazishni topshirdi. Mamlaka-timizda bu ish boshlab yuborilgan. Ayrim viloyatlar bo'yicha ish natijalari olindi. So'nggi yillarda melioratsiya ishlari kamaygani sababli yer sifati pasaymoqda, bu esa yer solig'i miqdorining kamayishiga olib boradi: ayrim viloyatlarda yer solig'i 25 foizgacha kamayadi. Bu holat bir tomonidan, qish-loq xo'jalik korxonalarining zimmasidagi soliq yukini yengillashtirsa, ikkin-chi tomonidan, budgetga soliq tushumini kamaytiradi. Shu munosabat bilan tuproq bonitirovkasi ko'rsatkichlarini o'zgartirish chog'ida uning natijalari viloyat hokimligida ko'rib chiqilishi lozim, viloyat hokimi esa bonitetning yangi ballarini qo'llanish muddatlari to'g'risida qaror qabul qilishi zarur.

Qishloq xo'jalik tovarlarini yetishtiruvchilar uchun yagona yer solig'i joriy etilishidan avval yer solig'i, shuningdek, daromad (foyda) solig'i to'lash borasida berilgan imtiyozlar ham saqlanib qoladi. Bunda soliqqa tortiladigan bazadan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq yer solig'i undi-rilmaydigan yer uchastkalari maydoni chiqarib

tashlanadi. Bundan tashqari, yangi tashkil etilgan qishloq xo`jalik tovarlarini yetishtiruvchilar davlat ro`yxatidan o`tgan paytdan boshlab ikki yil davomida yagona yer solig`ini to`lashdan ozod qilinadi. Shu vaqtga qadar qishloq xo`jalik korxonalari soliq-larning ayrim turlarini har oyda yoki yilning har choragida to`lar edilar. Soliqlarni o`z vaqtida to`lamagani uchun ular qo`shimcha penya to`lashga majbur bo`lar edilar. Endilikda yagona yer solig`i bir yilda faqat ikki marta, ya`ni soliq yillik miqdorining 30 foizgacha qismi 1 iyulgacha, qolgan qismi esa 1 dekabrgacha to`lanadi. To`lov miqdorining kamaytirilishi va to`lovlarining 70 foizga yakini yilning oxiriga ko`chirilishi soliq to`lovchilar uchun katta yengillikdir.

### O`z-o`zini nazorat qilish uchun savollar.

Yer solig`ining iqtisodiy mohiyatini izohlab bering?

Yer solig`ini qanday yuridik shaxslar to`laydilar?

Yer solig`i obyektiga qanday yer maydonlari kiradi?

Yer solig`i stavkalari kim tomonidan belgilanadi va yer solig`idan yuridik shaxslar qanday imtiyozlarga ega?

Yer solig`ini yuridik shaxslar qanday muddatlarda to`laydilar?

## **12 - Mavzu: Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i**

### **Reja:**

1. Yer solig'i to'lovchilari va jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obyekti.
2. Yer solig'i stavkalari va yer solig'idan jismoniy shaxslar uchun imtiyozlar.
3. Jismoniy shaxslar yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi.

### **Mavzu bo'yicha qo'yilayotgan muammolar:**

jismoniy shaxslar yer solig'ini hisoblashda ularga tegishli maydonlarning aniq hisobini yuritish monitoringini tashkil qilish muammosi;

jismoniy shaxslarning yer uchastkalarini yashirin holatda sotish muammosi;

jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquq qiymatini joriy etish muammosi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

jismoniy shaxslarning yer solig'i, soliq obyekti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni to'lash muddatlari

### **1. Yer solig'i to'lovchilari va jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obyekti**

O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'l-gan jismoniy shaxslar yer solig'i to'lovchilari hisoblanadi. Yer solig'i to'lov-chilarini soliq idoralari har yili yil boshiga hisobini olib boradi.

Solik kodeksining 288 – moddasiga asosan, Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obyekti yer uchastkalaridir. Quyidagi yer uchastkalarini soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

1. Dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldirilgan umrbod egalik qilishga berilgan uchastkalar;
2. Yakka tartibda uy - joy qurilish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalar;
3. Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchilagini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibda garajlar egalagan yer uchaskalari;
4. Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5. Meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinish natijasida uy – joy vav imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

6. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijara ga berilgan yer uchastkalar;

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalar soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Berilgan yerdan ikki yil mabaynida foydalanmagan jismoniy shaxs-lardan yer solig'i uch baravar miqdorda undiriladi. 2003 yildan boshlab agar yer uchastkalariga mulk, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar bo'lnasa, soliq butun maydon uchun kuyida ko'r-satilgan oshuvchi koeffitsiyentlarini qo'llagan holda to'lanadi.

## **2. Yer solig'i stavkalari va yer solig'idan jismoniy shaxslar uchun imtiyozlar**

Yer solig'i stavkalari har yili yangi yil uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi 2003 yildan boshlab yer solig'i stavkasi 1.2 koeffitsiyent bilan indeksatsiya qilingan.

Qishloq xo'jaligi yerlарining sifati yer uchastkasi mulkdori, yer egasi yoki yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, yer solig'i yerning sifatida yomonlashuviga qadar belgilan-gan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Shahar va shahar qo'rg'onlarining ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi aharniyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jalik yerlariga belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida undiriladi.

Jismoniy shaxslar yer solig'i bo'yicha imtiyozga egaligi yoki ega emas-ligidan qat'iy nazar, maydoni davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratil-ganidan ko'p bo'lgan yer uchastkalar uchun yer solig'ining 1.5 oshuvchi koeffitsiyenti bilan to'laydilar.

Yer uchastkasining joylashishiga qarab qishloq joylari uchun yer solig'i stavkasiga quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

- Toshkent shahri atrofida 20 km radiusda - 1.3;

- Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari 15 km radiusda - 1.2;

- Tumanlar markazidan 10 km radiusda - 1.15;
- Boshqa shaharlar 5 km radiusda - 1.10.

Agar yerlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat hokimiyati organlarining qaroriga muvofiq ijara olingen bo'ladi, jismoniy shaxslar yer solig'i o'rniga ijara haqi to'laydilar

Ijara haqi taraflarning kelushuvi asosida belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjalarda belgilangan yer solig'ining bir stavkasidan kam va uch stav-kasidan ko'p bo'lmasligi, yerdan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foyda-langanda esa - bir stavka miqdorida bo'lishi lozim. Dehqon xo'jaliklardan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida yer solig'i stavkalariiga yer sifatiga bog'liq holda quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

- tuproq boniteti 40 balgacha bo'ladi -0.75;
- tuprok boniteti 41 baldan 70 balgacha bo'ladi - 1.0;
- tuproq boniteti 70 baldan ortiq bo'ladi - 1.25;
- jismoniy shaxslarga tadbirkorlik maqsadida foydalaniyatgan yerlar uchun soliq stavkasi yuridik shaxslarga belgilangan stavkada qo'llaniladi.

Yer solig'idan imtiyozlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan yer uchastkalari;
2. Yer solig'i to'lashdan to'liq ozod etilgan jismoniy shaxslar.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagilar kiradi:

1. Yakka tartibda uy - joy qurish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjalarda belgilangan me'yorlar doirasida berilgan yerlar, yer berilgan paytdan boshlab ikki yil muddatga;

2. Yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatni yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar-loyihada nazarda tutilgan muddatga lekin ishlar, boshlangandan e'tiboran besh yilgacha;

3. Yangi tut ko'chati o'tkazilgan yer uchastkalari qator oralaridan qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun foydalinishdan qat'iy nazar uch yil muddatga. Shu munosabat bilan bahorda o'tkazilgan tut ko'chatlari egallagan yerlar soliq to'lashdan uch yilga ozod etiladi, bunga ko'chat o'tkazilgan yil ham kiradi. Kuzda o'tkazilgan ko'chatlar o'tkazilgan yildan keyingi yildan boshlab uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi. Soliq kodeksining 101-moddasida soliqdan ozod etilgan boshqa yerlar bor. Ammo, ular jismoniy shaxsga tegishli ekanligi aytilmagan. Agar yerlar o'z o'mida foydalanimasa imtiyoz yo'qoladi. Yer kodeksining 55-moddasiga ko'ra qishloq xo'jalik ko-operativ a'zolariga, muassasalar va tashkilotlar xodimlariga, shu tashkilotlar yerlaridan dehqon xo'jaligi

yuritish uchun sug'oriladigan yerlardan 0,35 ga. gacha, lalmikor yerlardan 0,5 gacha, yaylovlardan 1 ga. gacha me'yorlarda yer ajratib beriladi. Bu faqat qishloq joylarida yashovchi dehqon xo'jalik-lariga beriladi. Yer kodeksining 27-moddasiga binoan shahar va qo'rg'onlarda yashovchilarga yakka tartibda uy-joy qurish uchun 0,06 ga yer ajratilib beriladi.

Yer solig'idan to'liq ozod etiladigan jismoniy shaxslarga quyidagilar kiradi:

1. Yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilqiboqarlar, mexanizatorlari, vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilar;

2. "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahra-moni unvonlariga sazovor bo'lganlar, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar. 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilar;

3. Xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovor harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tgan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;

4. Haqiqiy muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmat-chilarning oilalari - xizmat muddatiga;

5. I va II guruh nogironlari;

6. Yolg'iz pensionerlar; ularga bir o'zi yoki voyaga yetmagan bolalari yoki nogiron bola bilan birga alohida uy, kvartira yoki yotoqxonada yashaydigan pensionerlar kiradi.

7. Boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar; Bularga ota - onadan biri yoki ikkalasi vafot etgan va oilada 16 yoshga yetmagan besh nafar va undan ko'p bolalari bo'lgan oilalar kiradi.

8. Konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari, Chernobil AESdagagi falokat oqibatlarini tugatishda ishtirot etgan shaxslar;

9. Ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha - yer uchastkalari berilgan vaqtidan e'tiboran besh yilgacha;

10. Ilgari shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar.

Ushbu imtiyozlar yakka tartibda uy joy qurish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan me'yorlar doirasi-da yer uchastkalari berilgan jismoniy shaxslarga nisbatan tadbiq etiladi. Me'yordan ortiqcha yer maydonlariga ega bo'lganlar shu qismidan yer solig'ini 1,5 oshuv-chi koefitsiyent bilan to'laydilar. Imtiyoz huquqi yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan shaxslar yashaydigan va birgalikda

xo'jalik yuritadigan butun oilaga tadbiq etiladi.

### **3. Jismoniy shaxslar yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi**

Jismoniy shaxslarning yer solig'i soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi. Jismoniy shaxslarning yer solig'ining hisoblash uchun soliq idora-lari shahar, tuman yer fondi ma'lumotlari hokimliklarning qororlari asosida hamda uyma uy yurib o'tkazilgan tekshirishlar asosida yer uchastkalari maydonini aniqlab chiqadilar.

Jismoniy shaxslarning yer solig'i har yilning boshida soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi va to'lov xabarnomasi yoziladi. Yer solig'ini to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi har yili soliq idoralari tomonidan 1 maydan kechiktirmay jismoniy shaxslarga yetkaziladi. Ular jismoniy shaxs-larga shaxsan topshirilishi lozim. Jismoniy shaxslar yer solig'ini joriy yilning 15 iyun va 15 dekabriga qadar teng bo'ladi to'lab qo'yishlari shart. Aks holda soliqdan boqimanda paydo bo'ladi va soliqdan tashqari peniya (aybona) to'lashga to'g'ri keladi. Soliq o'tgan yillarda undirilmagan bo'ladi soliq idoralari avvalgi uch yil uchun soliq hisoblab undirib olishga haqli. O'tgan yillar uchun undirilmagan soliq so'mmasiga aybona hisoblanmaydi.

#### **O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.**

1. Qanday jismoniy shaxslar yer solig'ining to'lovchilari bo'ladi hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslarning yer solig'i obyektiga nimalar kiradi?
3. Yer solig'i stavkasini belgilash tartibi qanday?
4. Yer solig'idan jismoniy shaxslar qanday imtiyozlar olish huquqiga ega?
5. Jismoniy shaxslar yer solig'ini kim hisoblaydi va yer solig'ini to'lash muddatlari qanday?

### **13 - Mavzu: Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq**

#### **Reja:**

1. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning to`lovchilari va soliq obyekti.
2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi.
3. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning stavkalari va soliqdan beriladigan imtiyozlar.
4. Chet etlik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning xususiyatlari.
5. Jismoniy shaxslarning daromadga solig`ini hisoblash tartibi, hisobotlar, hisob-kitoblar va deklaratasiyalar taqdim etish.
6. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslarning qat`iy belgilangan solig`ini hisoblash va to`lash tartibi.

#### **Mavzu bo`yicha qo`yilayotgan muammolar:**

- jismoniy shaxslarning daromad manbalarini aniq chegaralash muammosi;
- jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratasiyalash jarayonining monitoringini yaratish;
- jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliqning stavkalarini yagona holatga keltirish;
- norezidentlar daromadlarini soliqqa tortish uslubiyatini takomillashtirish;
- soliqqa tortilmaydigan minimum chegarasini belgilash muammosi;
- ish haqidagi hisoblangan soliq so`mmalarining buxgalteriyada hisobini yuritish muammosi;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslardan soliq-lar va fondlarga to`lovilarni to`lash mexanizmini soddalashtirish muammosi.

#### **Tayanch so`z va iboralar**

rezident va norezident, jismoniy shaxslarning daromad solig`i, deklarat-siya, soliq obyekti, soliq to`lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo`yicha imtiyozlar

#### **1. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning to`lovchilari va soliq obyekti**

Jismoniy shaxslar daromadiga soliq to`lovchilari bo`ladi, moliya

yilida soliqqa tortiladigan daromadga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs hisoblanadi. Jismoniy shaxsning soliqqa tortiladigan daromadi jami yillik daromadga soliqqa tortilmaydigan daromadlarni kiritmasdan (58 m), daromadiga soliqdan ozod etiladiganlarni chiqarib tashlab aniqlanadi. Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslar daromadi rezidentlar va nerezidentlar daromadiga bo'linadi. Boshlanayotgay yoki tugayotgan moliya yilida 12 oygacha bo'lgan istalgan davrda O'zbekiston hududida 183 kun va undan ortiq yashovchi jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi rezidenti deb ataladi Shu ko'rsatilgan muddatdan kam yashagan jismoniy shaxslarga nerezident deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasida va undan tashqaridagi manbaalardan olgan daromadlari bo'yicha daromadga soliqqa tortiladi. O'zbekiston Respublikasi nerezidenti faqat O'zbekiston hududidan olgan daromadidan soliq to'laydi. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida rezident shaxslar tomonidan to'langan soliq so'm-masi O'zbekiston Respublikasida soliq to'lash paytida O'zbekiston Respublikasining qonunlari va xalqaro qonunlarga binoan hisobga olinadi.

Hisobga olinayotgan soliq so'mmasi O'zbekiston Respublikasida hara-katda bo'lgan soliq stavkasida hisoblangan jismonii shaxslarning daromadi-ga solig'i so'mmasidan oshib ketmasligi kerak. Soliq obyekti bo'ladi, Soliq Kodeksiga muvofiq belgilanadigan jami yillik daromad hisoblanadi. Bu yer-da eng muhim narsa jismoniy shaxsning jami yillik daromadiga qanday daromadlar kirishi, qanday daromadlar kirmasligi va qanday imtiyozlar olish mumkinligi aniq belgilashdir.

## **2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi**

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibiga soliq to'lovchi olishi mumkin bo'lgan yoki tekinga olgan pul yoxud buyum shaklida olgan pul mablag'lari kiradi. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi 3 guruhga bo'linadi.

1. Mehnat haqi tariqasida olingan daromadlari (eng asosiy daromadlar).

2. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari.

3. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari. Yuqoridagi daromadlarning har birini tarkibini aniq bilib olish zarur bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning mehnat haqqi tariqasida olgan daromadlari tarkibiga mehnat shartnomasi bo'yicha faoliyatdan va fuqarolik - huquqiy shartnomalari bo'yicha olingen daromadlari kiradi.

Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

1) Xodimlarga sotiladigan tovarlar(ishlar, xizmatlar) qiymati bilan bunday tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) harid qilish narxi yoki ularning tannarxi o'rtaсидagi manfiy farq.

2) Ish beruvchi tomonidan o'z faoliyati bilan bog'liq bo'lмаган, xodimlarning chiqimlarini qoplash uchun qilingan harajatlar.

3) Xodim ish beruvchiga to'lashi kerak bo'lgan, ammo ish beruvchining hisobidan chiqarilgan qarz so'mmalari:

4) Ish beruvchi o'z xodimlarining hayoti yoki sog'ligini ixtiyoriy sug' urtalash badallarini to'lash uchun qilingan harajatlar.

5) Ish beruvchining jismoniy shaxsdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan to'lovlar yuzasidan to'lagan so'mmalari.

6) Ish beruvchining o'z xodimlarining bevosita yoki bilvosita daromadlarini tashkil etadigan boshqa harajatlari.

Xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan me'yorlari doirasida beriladigan xizmat safari to'lovlarining so'mmasi jami yillik daromadga kirmaydi. Ammo, me'yordan ortiq harajatlar jami yillik daromad tarkibiga kiradi. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foiz-lar, dividendlar bo'yicha olingen daromadlar va mol-mulkni ijara berish-dan keladigan daromadlar kiradi.

Dividend va foiz daromadlar asosan qimmatli qog'ozlardan (oddiy va imtiyozli aksiyalar, akkreditivlar va boshqalar) hamda shirkatlarda sherik-chilikdan olgan daromadlardir.

Mulklarni ijara berish tadbirkorlikka kirmaydi.

Ijara daromadlariga:

1. Kvartiralar, garajlarni ijara berish:

2. Yuk mashinalarni, yengil mashinalarni ijara berish.

3. Uy - anjomlarini va boshqa mulklarni ijara berishlari kiradi.

Jismoniy shaxslarning uchinchi guruh oladigan daromadlariga tadbir-korlik faoliyatidan keladigan daromadlar kiradi. Jismoniy shaxslarning tad-birkorlik faoliyatidan keladigan daromadga yana tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, qonun hujjatlarida ta'qilangan, yakka tartibda amalga oshirilayotgan boshqa faoliyatdan keladigan barcha tushumlar ushbu daro-madni topish bilan bog'liq harajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajrat-malar chegirib

tashlangan holda kiradi. Soliq obyektini aniqlash maqsadida chegirib tashlanishi lozim bo'lgan harajatlar, majburiy to'lovlar chiqimlar va ajratmalarni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan.

Daromadga qat'iy soliq solish 2003 yilda ham quyidagilarga davom ettiladi:

1. Yuridik shaxs bo'lmasdan turib tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga.

2. Tadbirkorlik faoliyatining alohida turlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga.

Qat'iy soliqning chegara stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Aniq faoliyatlarning turlari va joylashgan joyiga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlar kengashi, viloyat hokimliklari va Toshkent shahar hokimligi tomonidan belgilanadi.

Qat'iy soliq bo'yicha taqdim etilgan hisoblardan hisobga olinmagan fizik ko'satkichlar aniqlansa, soliq obyektini yashirish deb qaraladi.

Jismoniy shaxs bir necha faoliyat turi bilan shug'ullansa har bir faoliyatdan soliqni alohida - alohida to'laydi. Ishbilarmonlik faoliyati bo'yicha ijaraga olingan asbob - uskunalar va joylaridan foydalansilsa, shu jumla-dan, ishonchli qog'ozli transportda, o'zları joylashgan soliq idoralariga ijara-ga beruvchi haqida ma'lumotnomasi taqdim etishlari shart.

### **3. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning stavkalari va soliqdan beriladigan imtiyozlar**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va jismoniy shaxslarning daromadiga soliq bo'yicha qonunchilikka binoan soliq stavkalari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlariga solinadigan differinsial progressiv soliq stavkalari;

- jismoniy shaxslarning rezidentlarning divedend va foiz tarzida oladigan daromadiga soliq stavkalari;

- manbaida to'lanadigan norezident daromadiga soliq stavkalari;

- imtiyozli soliq stavkalari (13, 20 va 25 foiz).

Jismoniy shaxslarning ish haqi, mukofotlari va boshqa daromadlaridan soliq quyidagi miqdorda undiriladi:

Soliqqa tortish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan etiboran ortib boruvchi yakun tarzida hisoblanadi (yil boshidan e'tiboran tegi-shli davr uchun eng kam ish haqining oylik miqdorlari so'mmasi yig'indisi).

Jismoniy shaxslar-rezidentlarning dividendlar va foizlar daromadlariga 2003 yildan boshlab Soliq Kodeksiga binoan ozod qilinadiganlardan tash-qarisiga to'lov manbaida 15 foiz miqdorida soliq ushlab qolish tartibi belgilangan. Davlat qimmatli qog'ozlari va depozitlардан dividend va foiz bo'yicha soliq to'lash bekor qilingan

Norezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'Imagan holda O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromad-lariga ularni to'lash manbai chegirmasiz quyidagi miqdorlarda stavkalar bo'yicha soliq ushlanib qolinadi:

- dividendlar va foizlar - 15 foiz;
- tavakalchilikni sug'urtalash yoki qayta sug'urtalashga to'langan sug'urta mukofotlari - 10 foiz;
- O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtasida harakat qilishda xalqaro aloqa, telekomunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxta) uchun - 6 foiz;
- royalti, ijaradan olinadigan daromadlar xiznat ko'rsatish, shu jumla-dan boshqaruva maslaxat xizmatlari ko'rsatishdan keladigan daromadlar va boshqa daromadlar (daromad solig'i solinadigan daromad bunga kirmaydi) - 20 foiz

Ushbu to'lov manbaida soliqqa tortish tartibi to'lov O'zbekiston Respublikasi ichida yoki uning tashqarisida amalga oshirilganidan katiy nazar, tadbiq etiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zararli va og'ir sharoitda ishlarda band bo'lgan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun, shuningdek tabiiy - iklim sharoitlari yomon joylarda ishlash bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha to'lovlar bo'yicha imtiyozli daromad solig'i stavkalarini belgilagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 may 250-sون qaroriga kiritilgan 1,2 va 3 ro'yxatdagi xodimlarning o'ta zararli, o'ta og'ir sharoitlarda olgan daromadlaridan ushlangan soliq miqdori 25 foizdan oshmasligi ko'rsatilgan. Soliq so'mmasi jami daromadlarning 25 foiz stavkasidan oshgan qismi imtiyoz tariqasida chiqarib tashlanadi. Og'ir va o'ta og'ir sharoitlarda ishlovchi ayollarga imtiyozli 20 foizli soliq stakasi belgi-langan (O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 27 dekabr 562 - son qarori). Masalan, fuqaro M.Obidovaga 69 ming so'm yan-var oyi uchun (2003 yil) ish haqi hisoblandi Bu fuqaroga imtiyozli soliq so'mmasi 13800 so'm to'laydi, ya'n'i 69 ming so'mdan 20 foiz. U 1704 so'm imtiyozga ega bo'ladi Chunki imtiyozsiz unga 15504 so'm soliq to`lashi zarur edi. Belgilangan qonunchilik bo'yicha og'ir tabiiy sharoitlarda ishlov-chilarga ish haqiga qo'shimcha so'mmalar, koeffitsiyentlar (tuman, tog'lik, sahro va suvsiz tumanlar) uchun ko'sratilgan so'mmalardan soliq imtiyozli eng kam stavkada (13 foiz) hisoblanadi. Demak, bu yerda qo'shimcha daromadlarga eng kam yagona soliq stavkasi qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortayotganda dividend, foiz daromadlari jami daromad tarkibiga kiritilmaydi, chunki ular bo'yicha soliq alohida hisoblangan bo'ladi.

Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan imtiyozlarni uch guruhi bo'ladi o'rghanish mumkin:

1. Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari (soliq solinadigan daromadga kiritilmaydi).

2. Soliqdan to'liq ozod bo'ladigan jismoniy shaxslar.

3. Soliqdan har bir to'liq oy uchun to'rt karrali minimal ish haqi miqdorida ozod etilish.

Soliqqa tortilmaydigan jismoniy shaxslar daromadlari quyidagilardir:

a) davlat ijtimoiy sug'urtasi va davlat ijtimoiy ta'minoti bo'yicha nafa-qalar, ishsizlik bo'yicha nafaqalar va mehnat shartnomasi bekor qilinganda to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, homiladorlik va tug'ish nafaqasi, vaqincha mehnatga qobiliyatizlik nafaqalaridan (shu jumladan oilaning bermor a'zosini parvarishlash nafaqalaridan) tashqari, shuningdek hayriya va ekologiya jamg'armalari mablag'laridan fuqarolarga pul va natura shaklida beriladigan nafaqalar hamda boshqa yordam turlari;

b) olinadigan alimentlar;

v) oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus hamda hunar texnika o'quv yurtlari, ular bazasida tashkil etilgan biznes maktablari, shu jumladan, oliy va o'rta diniy o'quv yurtlari tomonidan o'z talabalari va o'quvchilariga beri-ladigan stipendiyalar, shuningdek hayriya va ekologiya jamg'armalari ta'sis etgan stipendiyalar;

g) hunar texnika bilim yurtlarining hamda ular bazasida tashkil etilgan biznes maktablarning o'quvchilari bajargan ish uchun ularga ushbu bilim yurtlari va biznes maktablari beradigan to'lovlar, Ushbu imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasining 3

yanvar 2003 yilgi xati bilan bekor qilingan;

d) davlat pensiyalari, shuningdek, ularga ustamalar;

ye) shaxslar qon topshirganligi uchun, donorlarning boshqa turlari uchun, ona suti topshirganligi uchun oladigan so`mmalar, shuningdek, tib-biyot muassasalarining xodimlari qon yig`ib topshirganliklari uchun oladigan so`mmalar;

j) mayib bo`lish yoki sog`likni boshqa tarzda shikastlanishi bilan bog`liq holda, boquvchisini vafot etganligi munosabati bilan ko`rilgan zararni qoplash yuzasidan olinadigan so`mmalar;

z) fuqarolarning xorijda ishlashi munosabati bilan davlat korxonalari, muassasalarini va tashkilotlarda chet el valutasida oladigan ish haqi so`mmalari va boshqa so`mmalar qonun hujjatlarida belgilangan so`mmalar doirasida;

i) jismoniy shaxslarning xususiy mulk huquqi asosida o`zlariga qarashli bo`lgan mol - mulkni sotish natijasida oladigan so`mmalari, tadbirdorlikda mulkini sotishdan tashqari;

k) fuqarolarning yordamchi xo`jaligidagi yetishtirgan qora mol, quyon, nutriya, baliq, parrandalarni tirik va so`yib mahsulotlarni xom va qayta ishla-gan holda, shuningdek asalarichilik mahsulotlarini, xo`jalikda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olgan daromadlari so`mmasi shaxsiy xo`jalik mavjudligi mahalliy hukumatlarining ma'lumotnomasi bilan tasdiqlanadi;

l) bir yil mabaynida yuridik shaxslardan olingan eng kam ish haqining olti baravarigacha bo`lgan so`mmadagi qimmatli sovg`alar qiymati, shuning-dek xalqaro hamda respublika tanlov va musobaqalarida olingan sovrin buyumlar qiymati;

m) meros qilib qoldirish va hadya qilish natijasida olingan so`mmalar va mol-mulk qiymati fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflarining meros-xo`rlari (huquqiy vorislari) oladigan mualliflik haqi bundan mustasno;

n) davlat zayomlarining obligatsiyalari va lotereyalar bo`yicha yutuqlar, shuningdek, O`zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog`ozlari bo`yicha foizlar;

o) fuqarolarning sug`urta bo`yicha oladigan so`mmalari;

p) bir yil mabaynida berilgan moddiy yordam:

- tabiiy ofatlar, boshqa favkulotda holatlar munosabati bilan berilganda - to`laligicha;

- vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zolari vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam

so`mmalari - eng kam ish haqining o`n baravarigacha;

- boshqa hollarda - 12 baravari miqdorida ozod etiladi;

r) depozit sertifikat bo`yicha daromadlar, banklardagi omonatlar va davlat xazina majburiyatlari bo`yicha foizlar va yutuqlar;

s) fuqarolarning ish haqi va boshqa daromadlarni davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish xususiyashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini sotib olish, «O`zuyjamg` armabank»ning shaxsi ko`rsatilgan uy-joy obligatsiya-larini harid qilishga va shu maqsadlar uchun olingan kreditlarni o`zishga yo`natirilgan so`mmalar, shuningdek, aksiya sotib olishga yo`naltirilgan dividendlar, mazkur mol-mulklar sotilganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asosda soliq solinadi;

t) patent egasi bo`lgan jismoniy shaxslarning (litsenziarning) sanoat mulki obyektlaridan o`z ishlab chiqarishida foydalanishidan, ularga listen-ziyalar sotishda, shuningdek litsenziat sanoat mulki obyektlaridan foydalana boshlagan sanadan e'tiboran ushu foydalanishdan olgan daromad so`mmasi:

- ixtiolar va seleksiya yutug`idan patent bo`yicha - 5 yilga;

- ixtirolardan dastlabki patent bo`yicha foydalanishdan - 3 yil davomida;

- seleksiya yutug`idan guvohnoma bo`yicha - 3 yil davomida;

- sanoat namunasidan patent bo`yicha - 3 yil davomida;

- sanoat namunasidan dastlabki patent bo`yicha - 2 yil davomida;

- foydali modeldan guvohnoma bo`yicha - 2 yil davomida ozod etiladi.

u) bolalar lagerlariga va boshqa sog`lomlashtirish lagerlarilariga, ota - onalarning bolalari bilan dam olishga maxsus mo`ljallangan sanatoriya - kurort muassasalariga borish uchun bolalar va o`smirlarga beriladigan yo`l-lanmalar qiymatini, shuningdek o`z xodimlarini ambulotoriya va statcionar tibbiy xizmatdan foydalanish qiymatidan to`liq yoki qisman kompensat-siyalar tartibida yuridik shaxslar tomonidan o`z xodimlariga yoki ular uchun to`langan so`mmalar. Yuqoridagilar jumlasiga nogironlarga sog`lomlashtirish va sanatoriya - kurort muassasalariga beriladigan yo`llanmalar qiymati davo-lanish va tibbiy xizmatdan foydalanish, nogironlikning oldini olish maqsadi-da tiklash va texnika sotib olish harajatlari ham kiradi;

f) amaldagi qonun hujjalarda nazarda tutilgan me'yorlar doirasidagi tovon to`lovlari. Mehnat shartnomasining bekor qilish paytida foydalani-magan ta'til uchun beriladigan tovon to`lovlari

soliqdan ozod etilmaydi;

x) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingen daromadlar, basharti bunday ishlar vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markaz-lari ko'magida amalga oshirayotgan bo'jadi;

Daromadga soliqdan to'liq ozod etiladigan jismoniy shaxslar ham mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarining boshliqlari va a'zo-lari hamda konsullik muassalarining mansabdar shaxslari, ularning o'zлari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa - O'zbekistondagi olingen manbalardan. Diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lмаган daromadlari ozod etilmaydi.

2. Diplomatik va konsullik vakolatxonalarining xodimlari va ularga o'zлari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekistonda doimiy yashamasa, O'zbekiston Respubli-kasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lмаган daromadlardan tashqari barcha daromadlari bo'yicha.

3. Xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalariga, konsullik muassasa-lariga xizmat ko'ssatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasi-da doimiy yashamasa - o'z xizmat yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha.

4. Xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassa-salari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekistonda doimiy yashamasa - o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlar bo'yicha.

5. Hukumatga qarashli bo'lмаган xalqaro tashkilotlarning mansabdar shaxslari - agar ular O'zbekiston fuqarosi bo'lmasa, shu tashkilotlarda oлган daromadlari bo'yicha.

6. Mудоfaa, ichki ishlар va favkulotda vaziyatlar vazirliliklarning, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlар organlari va bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga mansub shaxslar, o'quv yoki sinov yig'инlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar - xizmatni o'tash munosabati bilan oлган pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lov so'mmalari bo'yicha.

7. Gastrol konsert faoliyatini bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziysi bo'lgan shaxslar gastrol-konsert faoliyatida olingen daromadlari bo'yicha.

Daromadga soliqdan qisman, ya'niy har oyda to`rt karrali eng kam ish haqi miqdorida soliqdan ozod etish hollari ham mavjud. Ular quyidagilardir:

1. «O`zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahra-moni unvonlariga sazovor bo`lgan shaxslar, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari, yoxud 1941-1945 yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatni boshqa majburiyatlarini bajarish chog`ida yaralanish, kontuziya bo`lish yoki shikastlanish oqibatida yoxud frontda bo`lish bilan bog`liq kasallik tufayli nogiron bo`ladi qolgan harbiy xizmat-chilar jumlasidan bo`lgan boshqa nogironlar, shuningdek pensiya ta'minoti bo`yicha mazkur toifadagi xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar,

2. Xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtab-lar va muassasalarida o`tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlesi-dan bo`ladi, fuqarolar urushi va 1941-1945 yillardagi urush, sobiq SSSRni himoya qilish bo`yicha boshqa jangovor operatsiyalarning qatnashchilari, 1941-1945 yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentrat-sion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari.

3. Leningrad qamali paytida 1941 yil 8 sentabrdan 1942 yil 27 yanvar-gacha bo`lgan davrda Leningrad shahrida ishlagan fuqarolar.

4. Ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilar jumlesi-dan bo`ladi, xizmat vazifalarini bajarish chog`ida yaralanish kontuziya bo`lish va shikastlanish oqibatida nogiron bo`ladi qolganlar.

5. Bolalikdan nogiron bo`ladi qolganlar, shuningdek 1 va 2 guruh nogironlari.

6. Qahramon onalar, 10 va undan ortiq bolasi bo`lgan ayollar.

7. Sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa maj-buriyatlarini bajarish chog`ida yaralanish kontuziya bo`lish yoxud shikast-lanish oqibatida yoki frontda bo`lish bilan bog`liq bo`lgan kassalik tufayli halok bo`lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va rafiqalari.

8. Xizmatni Afg`onistonda va jangavor harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo`lgan kushinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o`tgan harbiy xizmatchilar hamda o`quv va sinov yig`inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar.

9. Chernobil AESdagagi falokat oqibatida jabr ko`rgan shaxslar.

10. Ikki va undan ortiq 16 yoshga to`limgan bolalari bor yolg`iz onalar.

11. Ikki va undan ortiq bolasi bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayollar va beva erkaklar.

12. Bolaligidan nogiron bo'lgan va doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab uni tarbiyalayotgan ota - onasidan biri.

13. Korxonalar, muassasalar tashkilotlar va o'quv yurtlari tomonidan qishloq xo'jalik ishlariga yuborilgan fuqarolar - ushbu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari bo'yicha to'rt karrali minimal ish haqi miqdorida har oyda imtiyozga egadirlar.

Jismoniy shaxslarning imtiyozlariga bo'lgan huquqi ular hisobot yili uchun tegishli hujjatlarni taqdim etganda vujudga keladi. To'rt karrali imti-yoz qishloq xo'jaligiga jalb qilingandan tashqari, jismoniy shaxslarning olgan dividend va foiz daromadlari va ijara daromadlariga ham tegishli bo'ladi.

Agar imtiyoz oluvchining asosiy ish joyi bo'ladi, imtiyoz shu yerda beriladi, asosiy ish joyi bo'lmasa soliq idorasini tomonidan deklaratsiya asosida yillik daromadga qarab beriladi. Imtiyozlar olish uchun jismoniy shaxslar tegishli hujjatlarga ega bo'lishi shart.

#### **4. Chet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning xususiyatlari**

Chet ellik jismoniy shaxslar rezidentlar O'zbekiston Respublikasi fuqa-rollari singari soliqqa tortiladi. Chet el jismoniy shaxslari O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortilayotganda O'zbekiston soliq qonunchiligi bo'yicha biroq, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususi-yatlarini e'tiborga olib soliqqa tortiladi. Chet ellik jismoniy shaxslar norezi-dentlar to'lov amalga oshgan joydan qat'iy nazar faqat O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olgan daromadlaridan soliqqa tortiladilar.

Soliqqa tortish maqsadida chet ellik jismoniy shaxslar - norezidentlar ikki guruhga bo'linadi: doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatayotgan va doimiy muassasa bilan aloqasi bo'limgan norizidentlar. Soliqqa tortish maq-sadida doimiy muassasa tushunchasiga O'zbekiston Respublikasida daromad topish uchun har qanday yuridik shaxslar orqali, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida vakolatlik funksiyasini bajaruvchi orqali faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy shaxslar tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida doimiy muas-sasa orqali faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy shaxs, norezident doimiy muas-sasa bilan bog'liq bo'lgan

O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan jismo-niy shaxs daromadiga soliq to'lovchi bo'ladi hisoblanadi va bunda ular O'zbekiston soliq qonunchiligi bo'yicha chegirmalar olish huquqiga ega bo'ladi Doimiy muassasa bilan bog'liq bulmagan jismoniy shaxs - norezident daromadi O'zbekiston Respublikasida olgan daromadidan hech qanday chegirmalarsiz yuqorida ko'rsatilgan stavkalarida soliqqa tortiladi.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va yig'imlar undirish tegishli chet el davlatida O'zbekiston Respublikasining jismonii shaxslariga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar ko'rilgan hollarda o'zaro kelishuv asosida to'xtalishi yoki cheklanishi mumkin. Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatini amalga oshiradigan soliq to'lovchilari hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha harajatlarini o'z zimmasiga olishni nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlarning kiritilishiga ruxsat berilmaydi

### **5. Jismoniy shaxslarning daromadga solig`ini hisoblash tartibi, hisobotlar, hisob-kitoblar va deklaratsiyalar taqdim etish**

Jismoniy shaxslar-ning asosiy ish joyida olgan mehnat haqi daromad-laridan soliqni to'liq to'g'ri hisoblash javobgarligi yuridik shaxslar buxgal-teriyasiga yuklatilgan. Jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan olingan mehnat haqi va boshqa to'lovlarini kalendar yilining boshidan boshlab har oyda soliqqa tortiladigan jami daromadday o'sib boruvchi yakun bilan hisoblanadi. Yuridik shaxslar tomonidan hamma xodimlar uchun hisoblangan ish haqi va boshqa daromadlardan qaydnomaga bo'yicha soliq ushlanadi. Ushlangan soliq so'mmasi ish haqi uchun chek bilan bankka murojat etganda to'lov top-shirig'i bilan to'lab boriladi. Agar oy ichida vaqtincha ishlovchilarga fuqaro huquqiy shartnomalari bo'yicha mehnat haqlari to'langan bo'ladi kelgusi oyning 5-sanasigacha ushlangan soliqlarni korxona davlat budgetiga o'tkazib borishlari shart. Mehnat haqi bo'yicha soliq hisoblashga misollar keltiramiz. Misol: 1. Fuqaro O.Yaxshiyevga 2003 yil yanvar-fevral oylarida jami bo'ladi 75000 so'm ish haqi hisoblandi (37500 q 37500). Shu davrda minimal ish haqining yakuniy so'mmasi 9070 so'mni (4535 q 4535) tashkil etgan. Shun-dan 5 karrali oyiga, ya'ni 13 foizli soliq stavkasiga to'g'ri keladigan 45350 so'mni tashkil etadi.

Uning soliq so'mmasi 5895 so'm 50 tiyin. Yanvar oyi uchun

**fugoroga 6209 so'm 25 tiyin soliq hisoblangan.**

1. Yanvar-fevral oylari uchun soliq so'mmasini hisoblaymiz: 12418 50 t (75000-45350) x 22 q 5895 50 tiyin q 6323 so'm).

2. Fevral oyi uchun hisoblangan soliq so'mmasni 6209 25 tiyinni tashkil etadi (12418,50-6209,25 t).

**Misol-2. Fuqaro T.Yakubov Soliq kodeksinining 59 muddasining 2 bandiga binoan 4 karrali minmal ish haqi miqdorida har oyga soliqdan ozod etiladi, chunki u 1941 - 1945 yillar mehnat faxriysi.**

Unga yanvar-may oylarida 2003 yil 115 ming so'm ish haqi hisoblan-gan bo'ladi, undan yanvar aprel oylari uchun 2527 so'm 20 t soliq hisob-langan. Yanvar-may oylari mobaynida u 90700 so'mlik imtiyoz olish huquqi-ga ega (18140x5).

1. Uning soliqqa tortiladigan jami daromadi 24300 so'mni tashkil etadi (115000-90700).

2. Yanvar-may oylari uchun soliq so'mmasni 3159 s 40 t (24300x13%).

3. May oyi uchun to'lanishi lozim bo'lgan soliq so'mmasni 631 s 80 tiyinni tashkil etadi (3159 s - 2527s 20t).

Agar fuqaroning yil ichida asosiy ish joyi (o'qish) o'zgarsa, u yangi ish joyning buxgalteriyasiga avvalgi ish joyidan yil boshiga ishdan ketgunga qadar davrga olingan daromadlar va ushlangan soliq so'mmasni to'g'risidagi ma'lumotnomma topshiradi. Fuqaroning yangi ish joyi (xizmat, o'qish)da soliq-ni hisoblash kalender yil boshidan avvalgi ish joyi va yangi ish joyi (xizmat o'qish)da olingan jami daromaddan amalga oshiriladi. Bu yerda tegishli imtiyozlar bo'ladi chiqariladi. Agar fuqaro ilgarigi ish joyidan ma'lumotnomma keltirmagan taqdirda soliq maksimal stavkasi (may 2003 yil uchun 32 foiz) bo'yicha ushlanib turiladi. Ma'lumotnomma taqdim etilishi bilan soliq qayta hisoblanib chiqiladi.

Agar xodimning mehnat majburiyatları bo'yicha avvalgi ish joyidan mukofot va boshqa daromadlar u ishdan bo'shatilgandan so'ng to'lansa, bu mukofot va boshqa daromadlar to'lanayotgan davrda umumiy qoida bo'yicha imtiyozlarsiz soliqqa tortiladi. Bu fuqarolarga to'langan daromadlarning umumiy so'mmasni va ulardan ushlangan soliq so'mmasni to'g'risidagi kor-xonalar, tashkilotlar va muassasalar bir oyda ichida o'zlarini joylashgan joyda-gi soliq idoralariga xabar berishlari zarur. Asosiy ish joyidan tashqarida olingan mehnat haqi va boshqa daromadlardan soliq hisoblash daromadlar to'langan manbada har oyda kalender yilining boshidan oshib boruvchi yakun bo'yicha imtiyozlarsiz

hisoblanadi.

Agar asosiy ish joyidan tashqarida mehnat haqidan daromad oluvchi fuqaro o'zining daromadidan maksimal stavkada soliq ushslash haqida shu yerda ariza bersa, daromad to'lovchi korxonalar soliq to'lovchining arizasiga binoan soliq hisoblashlari kerak. Jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan tashqarida olgan daromadlaridan soliq ushslash ularning olgan jami daromad-lari va ushlangan soliq so'mmasi to'g'risidagi deklaratsiyaga qarab soliq idoralari tomonidan soliq qayta hisoblab chiqiladi.

Asosiy bo'limgan ish joyidan (O'zbekistondagi, shuningdek, uning tashqaridagi manbalardan) daromad olgan rezident - jismoniy shaxs doimiy joyidagi soliq organiga hisobot yildan keyingi yilning 1 apreldidan kechiktir-may jami yillik daromad haqida deklaratsiya taqdim etadilar. Chet elliq jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasiga kelgan kundan e'tiboran bir oy mobaynida mo'ljaldagi daromadlar haqida deklaratsiya topshiradilar. Ular-ning faoliyati kalendor yili mobaynida to'xtagan va u O'zbekistondan chiqib ketadigan bo'ladi, amalda olingen daromadlar haqida jo'nab ketishdan kami-da bir oy oldin deklaratsiya taqdim etilishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs olgan daromadlar va qilingan harajatlar to'g'risidagi deklaratsiyani belgilangan tartibda quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

1. Shunday daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy o'tgandan keyin 5 kun ichida (dastlabki) deklaratsiya;
2. Hisobot yili tugashi bilan keyingi yilning 15 yanvarigacha (oxirgi), yakuniy deklaratsiya taqdim etadilar.

Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyati to'xtatilgan taqdirda, soliq organi soliq to'lovchidan kamroq bo'lgan davr uchun hisobotlar, soliq hisobi hamda daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etishni yozma xabar-noma topshirish yo'li bilan talab qilish mumkin bo'ladi, xabarnomada buning sababi va hisobotlari, soliq hisobi hamda jami yillik daromad va qilingan chegirmalar to'g'risidagi deklaratsiya qachon va qaysi davr uchun topshiri-lishi ko'rsatilgan bo'ladi. Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatini to'xta-tish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda soliq to'lovchi besh kun muddatda bu haqda soliq organiga yozma ravishda xabardor qiladi.

Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish haqida qaror qabul qilingandan so'ng soliq to'lovchi o'n besh kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq bo'yicha hisoblar hamda daromadlar haqidagi

deklaratsiyani taqdim etishi shart. Yuqoridagi hujjatlar qonunlarda belgilangan shaklda va tartibda taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga soliqni to`lov manbaida ushlab qolishni quyidagi yuridik shaxslar amalga oshirishi shart:

1. Ishlaydigan jismoniy shaxslarga mehnat shartnomalari va fuqarolik - huquqiy shartnomalar bo`yicha to`lovlarni amalga oshiruvchi, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar.

2. Nodavlat pensiyalarini to`lovchilar;

3. Jismoniy shaxslarga dividendlar va foizlar to`lovchilar, banklar, aksiyadorlik va hissadorlik jamiyatlar.

4. Norizidentlarga, doimiy muassasa bilan bog`liq bo`Imaganlarga to`lovlarni amalga oshiruvchilar.

Jismoniy shaxslarning daromadiga soliqni ushlab qolish va budjetga o`z vaqtida o`tkazish uchun daromad to`lovchi yuridik shaxs javobgardir. Soliq so`mmasi ushlab qolingga daromad to`lovchi yuridik shaxs ushlab qolin-magan soliq so`mmasini hamda u bilan bog`liq jarima va penyalarni budjetga to`lashi shart.

Manbaida ushlab qolingga soliqlar quyidagi muddatlarda budjetga to`lanadi:

1. Daromad to`lovchi yuridik shaxslar tomonidan ushlab qolingga soliq so`mmasi shu maqsadda pul mablag`lari olish uchun bankka hujjatlar taqdim etish bilan bir vaqtda budjetga o`tkaziladi.

2. To`lovni natura holida yoki mahsulotni realizatsiya qilishdan, ishlar bajarish yoxud xizmat ko`rsatishdan tushgan tushumdan to`lovchi yuridik shaxslar tomonidan, ushlab qolingga soliq so`mmasi to`lov amalga oshiril-gan, oy tugagandan keyin besh kun ichida budjetga o`tkaziladi.

Yuridik shaxslar jismoniy shaxsning talabiga ko`ra unga uning daroma-di so`mmasi va turi, ushlab qolingga soliq so`mmasi ko`rsatilgan ma'lumot-noma yozib beradilar. Asosiy bo`Imagan ish joyidan olingan daromadlar to`-g`risida jismoniy shaxslarning ro`yxat raqami, familiyasi, ismi va otasining ismi, doimiy yashash manzili, hisobot yilda topgan daromadning umumiyligi so`mmasi ko`rsatilgan ma'lumotnomasi moliya yili tugagandan so`ng 30 kun ichida soliq idorasiga taqdim etish shart. Rezident jismoniy shaxslar jami yil-lik daromad haqidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo`yicha qayta hisoblab chiqarilgan daromad solig`ini hisobot yildan keyingi yilning 1 iyunidan kechi-ktirmay daromad solig`i yil mobaynida qayta hisoblanganda esa, deklarat-siya soliq idorasiga taqdim etilgan kundan e'tiboran bir oy

ichida to`lanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslar daromad solig`ini quyidagi tartibda to`laydilar:

To`lovchi yilning har choragida o`tgan yilgi daromadlar bo`yicha hisoblab chiqarilgan yillik soliq so`mmasidan 25 foizni, soliqni birinchi marta to`laydigan to`lovchi esa-joriy yilda olish mo`ljallangan daromad bo`yicha soliq organi unga hisoblab bergen so`mmaning 25 foizini to`laydi. Yil mabaynida to`lovchining daromadi anchagini ko`paygan yoki kamaygan takdirda soliq to`lovchi soliq to`lashning boshlanmagan muddatlari bo`yicha daromad solig`i so`mmalarini qayta hisoblab chiqarish mumkin.

Yil tugashi bilan yillik soliq so`mmasi haqiqiy olingen daromad bo`yicha hisoblab chiqariladi. Ana shu so`mma bilan yil mabaynida to`langan so`mma o`rtasidagi farq keyingi yilning 15 martidan kechiktirmay, tugagan daromad manbai bo`yicha esa, 15 kunlik muddat to`lovchidan undirib olinishi yoki unga qaytarib berilishi kerak. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqning yil mabaynida to`lab borgan joriy so`mmalari tegishli hisobot yili uchun soliq to`lovchiga hisoblab chiqarilgan soliq hisobiga o`tkaziladi.

Qat`iy stavka bilan soliq to`lovchi tadbirkorlar uchun soliq stavkalarini O`zbekiston Respublikagi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi va faoliyat boshlanmasdan oldin soliq so`mmasini to`lab qo`yan bo`lishlari shart. Aks holda ularga faoliyat yuritish uchun ruxsatnomasi berilmaydi.

#### **6. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslarning qat`iy belgilangan solig`ini hisoblash va to`lash tartibi**

*Belgilangan soliqni joriy etilishi soliq to`lovchilar va soliq obyekti.* Belgilangan soliq yuridik shaxs bo`lmasdan tadbirkorlik bilan shug`ullanuv-chi jismoniy shaxslar uchun belgilangan daromad miqdoriga (soliq to`lov-chining olishi mumkin bo`lgan yalpi daromadiga) qarab jismoniy ko`rsatki-chlar birligiga qarab hisoblanadi.

Bu soliq umum davlat soliqlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan kiritiladigan mahalliy soliqlar va yig`imlar o`rniga to`lanadi. Jismoniy shaxs tadbirkor mol-mulki va yeri bo`ladi ularning soliq-larini to`layveradi. Ammo belgilangan soliq to`lovchilar uchun quyidagilarni to`lash tartibi saqlanib qolinadi:

- jismoniy shaxslarning tadbirkorlik maqsadida tovarlarni chetdan olib kirgandagi yagona bojxona to'lovi,
- davlat boji,
- savdo huquqi yig'imi, shu jumladan alohida tovarlar sotish huquqi uchun litsenziya yig'imi.
- davlat maqsadli fondlariga ajratmalar,
- litsenziya yig'imi
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi.

Belgilangan soliq to'lovchilariga soliqqa tortishning boshqa tizimini tanlashga huquq berilmagan.

Belgilangan soliq to'lovchilari quyidagi sferalarda tadbirkorlik faoliyat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar hisoblanadi:

- sartaroshlik xizmatlari, shu jumladan manikur, pedikyur, kosmetik xizmatlar bilan,
- turg'un savdo shahobchalarida chakana savdo bilan shug'ullanish va donabay mahsulotlar (somsa, kabob va.b) bo'yicha umumiyligi ovqatlanish, - uyin avtomatlari shu jumladan, yutug'li o'yinlar,
- maishiy xizmatlar,
- o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan milliy shirinliklar va non bo'lka mahsulotlarini tayyorlash va sotish,
- avtomobil transportida yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatlari,
- boshqa faoliyat turlari (ijaradan tashqari)

Belgilangan soliq obyekti bo'ladi daromad olish bilan bog'liq bo'lgan aniq faoliyat turini ko'rsatuvchi jismoniy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Bularga: qo'yilgan buyumlar soni, o'tkazish o'rinni soni, umumiyligi foydalandigan maydon ijara qilinganini qo'shib kiradi.

Chakana savdodan turg'un shahobchalar orqali bo'ladi soliqqa tortish obyekti bo'ladi egallagan maydon hisoblanadi.

*Belgilangan qat'iy soliqni stavkasi, uni hisoblash va to'lash tartibi.*  
 Belgilangan soliqning bazaviy stavkasi, jismoniy ko'rsatkichlar, hamda o'zgar-tiriladigan koeffitsiyentlarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-masi tomonidan belgilanadi. (Vazirlar Mahkamasining 455-sontarafining 9-10 son ilovalari). Belgilangan soliqning aniq stavkasi miqdorini Qoraqalpo-g'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan belgilanadi. Bunda savdo tashkilotining joylashgan joyi e'ti-borga olinadi. Belgilangan soliq miqdori jismoniy ko'rsatkichlar (jihozlangan o'rinni, egallangan maydon miqdori) va

*bazaviy stavkalarga qarab aniqlanadi.*

*Belgilangan soliq so'mmasi quyidagi shakl bilan hisoblanadi:*

*Belgilangan soliq so'mmasi q J<sub>k</sub>xS.*

Toshkent shahrida bir oy uchun soliq hisobini (shartli ravishda tuza-miz). Jismoniy shaxs tadbirkor oziq-ovqat sotish bilan shug'ullanadi, turg'un savdo shahobchalari orqali. Egallagan maydon 20 kv. metr. Toshkent shaxri hokimi tomonidan aniq belgilangan soliq stavkasi 10 kv. metrga yetti minimal ish haqi miqdorida: 10 kv. metrdan ortiq qismiga 0,7 minimal ish haqi miqdorida.

1. Egallagan maydon 20 kv. metr
2. Minimal ish haqi 18900 so'm
3. 10 kv. metr uchun belgilangan soliq so'mmasi (18900 x 7 min. ish haqi) 132300 so'm
4. har bir qo'shimcha kv. metr uchun (18900 x 10 x 0,7) 132300 so'm
5. Umumiy maydon uchun hisoblangan soliq so'mmasi 264600 so'm

Belgilangan soliq so'mmasi jismoniy shaxslar tomonidan hisobot oyidan avval, har oyda soliq idorasining yozib bergen to'lov xabarnomasi asosida to'lab boriladi.

Bu soliq so'mmasi mahalliy budjetga tushadi.

Tadbirkorlik faoliyatini yangi boshlayotgan jismoniy shaxslar faoliyat boshlanishidan oldin belgilangan soliq hisobini tuzadilar va soliq idoralari-ning xabarnomalari asosida to'laydilar. Yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga Soliq Kodeksida belgilangan jami daromad va undan chegirmalar tartibi joriy etilmaydi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni xohlagan jismoniy shaxslar, yuqorida ko'rsatilgan faoliyatlar bo'yicha soliq idoralarida hisobga o'tishi, ro'yxatdan o'tishi zarur. Buning uchun ular soliq idorasiga ariza bilan mu-rojaat etadilar. Soliq idorasasi uni shu kuni ro'yxatdan o'tkazishi shart. Hozirgi kunlarda arizadan tashqari, tovalarki kelib chiqish joyini ko'rsatuvchi hujjat-lar (bojxona yuk deklaratsiyasi va import soliqlarini to'laganligi to'g'risida hujjatlar, ulgurji savdo tashkilotlaridan tovarlar sotib olganliga to'g'risida hujjatlar) taqdim etiladi. Shular asosida tadbirkorlar daromadlar va tovar operatsiyalari hisobini yuritish reyestrlarini tuzadilar, ya'ni kitob va kassa daftarlari bo'lishi shart.

*Yakka tartibdag'i tadbirkorlar tomonidan chakana savdoni*

*ro`yxatdan o`tkazish va bozorlar orqali amalga oshirish tartibi. Yuridik shaxs bo`lmas-dan yakka tadbirkorlik tomonidan chakana savdoni amalga oshirish. Yakka tartibda faoliyat ko`rsatuvchi tadbirkorlar chakana savdoni amalga oshirish huquqiga ruxsat guvohnomasini olgan taqirda shug`ullanishi mumkin. Ruxsat guvoxnomasi olishi uchun tadbirkorlar turg`un savdo shahobchasi joylashgan joydagi tuman (shahar) hokimligiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari zarur.*

1. Tadbirkor chakana sotishni mo`ljallayotgan tovarlar guruhlari ko`rsatilgan ariza,

2. Jismoniy shaxsning yakka tadbirkor sifagida davlat ro`yxatidan o`tkazilganligi to`g`risida guvohnoma nusxasi,

3. Tadbirkorda chakana savdo faoliyatini amalga oshirish uchun moddiy texnika bazaning mavjudligining taqiqlovchi hujjatlar nusxalari,

4. Nazorat kassa mashinasi oldindan ro`yxatdan o`tkazilganlik to`g`risida soliq idorasining ma'lumotnomasi,

5. Chakana savdoni amalga oshirish huquqi uchun mahalliy yig`im to`langanligini tasdiqlovchi bank hujjatining nusxasi,

Ruxsat guvohnomasida tadbirkor tomonidan chakana savdoni amalga oshirish tartibi, savdo qoidalari, yakka tadbirkorlikni soliqqa tortish tartibi to`g`risidagi qonun hujjatlari, keltirilayotgan tovarlarni bojxonada rasmiy-lashtirish tartibi, shuningdek qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralar bilan tanishligi yozma ravishda tasdiqlangandan keyin beriladi. Ruxsat guvohnomasida ushbu guvohnoma bilan chakana savdo qilishga ruxsat berilgan tovarlar turkumlari majburiy tartibda ko`rsatilishi kerak. Guvohnoma arizada ko`rsatilgan muddatga lekin bir yildan ortiq bo`lmagan davrga beriladi. Savdo qoidalari buzilsa soliq idorasining taqdimnomasiga binoan guvohnoma olib qo`yiladi. Savdo aylanmasi bir hafta ichida mavjud bo`lmasa, naqd pulni inkassatsiya qoidalari buzilsa, DSI taqdimnomasiga binoan guvohnoma olib qo`yiladi. Chakana savdoni turg`un savdo tormoqlari orqali sotishda tovarlarni savdo shahobchalaridan tashqarida, shu jumladan do`konchalar orqali sotishga yo`l qo`yilmaydi.

Chakana savdoni amalga oshiruvchi tadbirkor:

1. Tovarlarni sotib olganligini tasdiqlovchi hujjatlarga,

2. Sotilayotgan tovarlarni muvofiqlik sertifikatiga ega bo`lishi shart.

3. Tovarlar vitinalarga qo`yilgan bo`lishi, kelib chiqqan mamlakati, ishlab chiqaruvchisi va narxi narxnomalarda ko`rsatilgan bo`lishi shart.

*Yakka tadbirkorlar tomonidan chakana savdoni ro'yxatdan o'tkazish va buyum bozorlarida amalga oshirish tartibi. Yuridik shaxs bo'imasdan yakka tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar buyum bozordlarida chakano savdoni faqat quyidagi holatlarda amalga oshirish huquqiga egadirlar.*

*O'zлari keltirgan import tovarlar,*

*O'zлari tayerlagan tovarlar,*

*Boshqa todibirkorlardan sotib olingen tovarlar.*

*Buyum bozorida chakana savdoni amalga oshirmoqchi bo'lган tadbir-kor ruxsat guvohnomasi olish uchun buyum bozori joylashgan tuman (shahar) hokimligiga quyidagilarni taqdim etadi:*

1. Chakana savdoda sotishni mo'ljallayotgan tovarlar guruhi ko'rsatil-gan ariza.

2. Tadbirkorning jismoniy shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi.

3. Buyum bozori ma'muriyatidan tadbirkorga savdo joyi berilganligi to'g'risidagi ma'lumotnorma.

4. Chakana savdo huquqiga mahalliy yig'im to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjati nusxasi.

Ruxsat guvohnomasi tadbirkor tomonidan chakana savdoni amalga oshirish tartibi, savdo qoidalari, tadbirkorlikni soliqqa tortish tartibi to'g'risi-dagi qonun hujjatlari, keltirilgan tovarlarni bojxonada rasmiylashtirish tartibi, qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralar bilan tanishligi yozma ravishda tasdiqlangandan so'ng beriladi. Guvohnomada sotishga ruxsat berilgan tovarlar guruhlari majburiy tartibda ko'rsatiladi.

Ruxsat guvohnomasi arizada ko'rsatilgan muddatga, lekin uch oydan ortiq bo'lмаган davrga beriladi. Buyum bozorlarida tovarlarni chakana so-tish tadbirkorlar tomonidan nazorat kassa mashinalar qo'llamasdan daromad-lar hisobini majburiy ravishda yuritgan holda amalga oshirilishi mumkin. Buyum bozorlarida chakana savdoni amalga oshiruvchi tadbirkorlarni soliqqa tortish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.**

1. Kimlar jismoniy shaxslar daromadiga solig'ini to'lovchilar bo'ladi?

2. Soliq obyekti va jami daromadga nimalar kiradi?

3. Jismoniy shaxslar daromadlariga qanday soliq stavkalari

**mavjud?**

4. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan qanday imitiyozlar bor?
5. Kimlar daromadga soliqdan to`liq ozod etiladi va kimlarga 4 karrali minimal ish haqida imtiyoz beriladi?
6. Chet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning qanday xususiyatlari bor?
7. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq kimlar tomonidan va nimalar asosida hisoblanadi?
8. Jismoniy shaxslarning daromadiga soliqni to`lov manbaida kimlar ushlab qoladilar?
9. Jismoniy shaxslar daromadiga soliqni to`lash muddatlari qanday?
10. Qat'iy stavkada soliq to`lovchi jismoniy shaxslarga kimlar kiradi?
11. Qat'iy stavkadagi soliq qanday hisoblanadi?
12. Turg'un savdo shahobchalarida savdo qiluvchilarni ro`yxatga olish tartibi qanday?
13. Buyum bozorlarida savdo qiluvchi tadbirkorlarni ro`yxatga olishda qanday hujjatlar talab etiladi.

## **14 - Mavzu: Obodenlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i (4 soat)**

### **Reja:**

Obodenlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inining iqtisodiy mohiyati. Korxonalar ixtiyoridagi ijtimoiy soha obyektlarini bosqichma-bosqich davlat tasarrufiga o'tkazish.

Soliq to'lovchilar, obyekti va soliq bo'yicha berilgan imtiyozlar.  
Soliqni hisoblash usullari va budgetga to'lash tartibi.

### **Mavzu bo'yicha qo'yilayotgan muammolar:**

- Obodenlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i obyektni belgilashda soliqqa tortiladigan bazaga kiritiladigan mulklarni qayta baholash uslubiyatini ishlab chiqish;
- soliq bo'yicha belgilangan soliq stavkasini mulkchilik shakllariga nisbatan tabaqalashtirish;
- Obodenlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inining to'lash muddatlarini qayta ko'rib chiqish va ularni maqbullahshtirish.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Obodenlashtirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlar, obodenlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, soliq obyekti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar.

### **1. Obodenlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inining iqtisodiy mohiyati. Korxonalar ixtiyoridagi ijtimoiy soha obyektlarini bosqichma-bosqich davlat tasarrufiga o'tkazish.**

Bu soliqni to'lovchilar bo'ladi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, shu jumladan, chet el investitsiyasi bilan tuzilgan-lar hisoblanadi. Soliq to'lovchilar tarkibiga tadbirkorlik bilan shug'ullan-maydigan notijorat tashkilotlari, yagona soliq to'lovchilar, yagona yer solig'i to'lovchilar, savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari hamda hukumat qarori bilan hamma soliqlardan ozod bo'lganlar kirmaydi.

Obodenlashtirish va ijtimoiy nfratuzilmani rivojlantirish solig'i obyekti bo'ladi hamma soliqlarni to'lab bo'lgandan so'ng korxonada qolgan sof foyda hisoblanadi. U foyda korxananing moliyaviy yakuni

hisobotiga soliqqa tortilgunga qadar foydadan (170 satr) chegirib tashlab aniqlanadi. Shu sof foydadan 2003 yildan boshlab sakkiz foiz miqdorida soliq hisoblanib kelin-moqda. Agar korxona moliyaviy hisobotning 170 satrida zarar ko'rgan bo'la-di, korxona bu soliqdan ozod bo'ladi. Har chorak ichidagi oylarda korxonalar joriy to'lov to'laydilar. Bu to'lov so'mmasini aniqlash uchun avvalgi chorakdag'i haqiqiy hisoblangan so'mmadan kelib chiqib to'lanadi. Joriy to'lovlari har oyning 25 sanasidan kechiktirmay choraklik soliq so'mmasining uchdan bir qismi miqdorida to'lab boriladi.

Soliq hisobi soliq idoralariga choraklik va yillik moliyaviy hisobotlar topshirilgan kundan kechiktirmay topshiriladi. Soliq hisobi haqiqiy ahvoldan kelib chiqib tuzilib natija aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 26 sentabrda "Idoralarga qarashli ijtimoiy soha obyektlarini joylardagi davlat hokimiyati organlari balansiga bosqichma-bosqich o'tkazish to'g'risida" 453-sont va 2001 yil 31 dekabrdagi "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar progno-zni va 2002 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining parametrlari to'g'risida" 490-sont qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan va infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish hamda budgetga to'lash mexanizmini belgilaydi. Yo'riqnomaga soliq solishning alohida tartibi belgilan-gan yuridik shaxslarning ayrim toifalariga tatbiq etilmaydi. Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullansalar, ular ushbu faoliyat bo'yicha alohida hisob yuritishlari va budgetga infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni to'lashlari lozim.

Faoliyatning asosiy turi bo'yicha yalpi daromad solig'ini to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga, gramm-plastinkalar, audio va videokassetalar, lazerli disklarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, yozish, ko'paytirish va sotish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarga; yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilariga; qat'iy soliq to'lash belgilangan tadbirkorlik faoliyatining turlarinigina amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga.

## **2. Soliq to'lovchilari, obyekti va soliq bo'yicha berilgan imtiyozlar**

Yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi

hududida joy-lashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxslar infratuzilmani rivojlantirish solig`ini to`lovchi hisoblanadilar. Barcha soliqlar, yig`imlar va majburiy to`lovlar to`langanidan keyin korxonalar tasarrufida qoladigan foyda (daromad) - sof foyda (daromad) (2-son "Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot" shaklining 170-satri - 180-satri) infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish chog`ida soliq solish obyekti hisoblanadi. Budgetga to`lanadigan soliq so`mmasi yuqorida ko`satilgan hisobot shaklining 190-satrida aks ettiriladi. Obodanlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`ining eng yuqori stavkasi soliq solish obyektining 8 foizi miqdorida belgilangan.

O`z mablag`lari hisobiga ijtimoiy infratuzilma obyektlarini (sog`liqni saqlash, bolalarning maktabgacha ta'lif-tarbiya muassasalarini va umumiy ta'lif muktablarini) tutib turmaydigan barcha korxonalar uchun soliq stavkasi Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyyati organlari tomonidan belgilanadi.

Obodanlashtirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini budget mablag`-lari hisobiga moliyalashga bosqichma-bosqich o`tishni amalga oshirayotgan korxonalar uchun, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 26 sentabrdagi "Idoralarga qarashli ijtimoiy soha obyektlarini joylardagi davlat hokimiyyati organlari balansiga bosqichma-bosqich o`tkazish to`g`risi-da" 453-sun qarorining 1-3-soni ilovalariga ko`ra, infratuzilmani rivojlantirish solig`i quyidagi tartibda to`lanadi:

budget mablag`lari hisobiga moliyalashning hissasi harajatlarning umumiy miqdoridafoizlarda 100 foizni tashkil etgan taqdirda, ya`ni davlat hokimiyyati organlari balansiga topshirilayotgan obyektlar butunlay budget mablag`lari hisobiga moliyalanadigan bo`ladi, infratuzilmani rivojlantirish solig`i stavkasi bunday korxonalar uchun mazkur mintaqaga uchun belgilangan stavka miqdorida belgilanadi;

davlat mablag`lari hisobiga moliyalashning hissasi harajatlarning umumiy miqdoridafoizlarda 100 foizdan kamni tashkil etgan taqdirda, ya`ni harajatlarning bir qismi korxonalarning o`z mablag`lari hisobiga moliyalansa, to`lovchilar uchun topshiriladigan ijtimoiy obyektlarni ulushbay moliyalash miqdoriga bog`liq holda tabaqlashtirilgan stavkalar belgilanadi.

Tabaqlashtirilgan stavkalarni belgilash uchun quyidagilarni belgilab olish lozim:

a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 26 sentabrdagi "Idoralarga qarashli ijtimoiy soha obyektlarini joylardagi davlat hokimiyati organlari balansiga bosqichma-bosqich o'tkazish to'g'risida" 453-son qarorining 1-3-son ilovalariga binoan, budjetdan moliyalashning hissasi-dan kelib chiqib, topshirilayotgan ijtimoiy infratuzilma obyektlarini o'z mablag'lari hisobiga tutib turish harajatlari so'mmasini;

b) o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish harajatlari amalga oshiruvchi korxonalar uchun soliq solish bazasini, u quyidagi formulaga ko'ra belgilanadi:

*Sf - q Xis - q - S*, bu yerda:

Sf - barcha soliqlar to'langandan keyin korxonalar tasarrufida qoladi-gan foyda (sof foyda);

Xis - o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy sohani tutib turish harajatlari;

S - daromad (foyda) solig'ining hisob-kitob qilingan so'mmasi, u daromad (foyda) solig'ining belgilangan stavkasidan va o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish harajatlari so'mmasidan kelib chiqib hisoblanadi ( $Xis \times$  daromad (foyda) solig'i stavkasi : 100);

v) mazkur bandning "b" kichik bandiga muvofiq hisob-kitob qilingan soliq solish bazasidan kelib chiqib mazkur mintaqaga uchun belgilangan stavka bo'yicha infratuzilmani rivojlantirish solig'i so'mmasini.

Agar harajatlar so'mmasi (mazkur bandning "a" kichik bandi) infratuzilmani rivojlantirish solig'i so'mmasidan (mazkur bandning "v" kichik bandi) oshib ketsa, korxona infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lamaydi. Agar harajatlar so'mmasi (mazkur bandning "a" kichik bandi) infratuzilmani rivojlantirish solig'i so'mmasidan (mazkur bandning "v" kichik bandi) kam bo'ladi, korxona infratuzilmani rivojlantirish solig'ini eng yuqori stavka bo'yicha hisoblangan infratuzilmani rivojlantirish solig'ining so'mmasi bilan ijtimoiy soha obyektlarini tutib turish harajatlari o'rtafiga farq sifatida belgilaydi.

### **3. Soliqni hisoblash usullari va budjetga to'lash tartibi**

Chorak davomida barcha to'lovchilar infratuzilmani rivojlantirish solig'ining budjetga joriy to'lovlarni amalga oshiradilar. Joriy to'lovlarni hisoblash va to'lash uchun soliq to'lovchilar avvalgi chorak uchun hisob-kitob bo'yicha haqiqatda hisoblab yozilgan infratuzilmani

**rivojlantirish solig'i so'mmasidan kelib chiqadilar.**

Joriy to'lovlar har bir oyning 25-kunidan kechiktirmay, soliq choraklik so'mmasining uchdan bir qismi hajmida amalga oshiriladi. Infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha hisob-kitoblar davlat soliq xizmati organlariga haqiqatda shakllangan soliq solish bazasidan kelib chiqib, mazkur Yo'riq-noma ilovasiga ko'ra shaklda o'sib boruvchi yakun bilan, choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni topshirish muddatlarida taqdim etiladi.

Hisob-kitob bo'yicha hisoblangan infratuzilmani rivojlantirish solig'i so'mmasini to'lovchilar budgetga choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan kundan boshlab 5 kun davomida to'laydilar.

Budget bilan hisob-kitoblar buxgalteriya hisobi budgetga to'lovlar bo'yicha (turlar bo'yicha) qarzлarni hisobga olish hisob varag'i bo'yicha yuritiladi. Belgilangan tartibda hisoblangan soliq budgetga to'lovlar bo'yicha qarzлarni hisobga olish hisob varag'i krediti va soliqlar hamda yig'imlarni to'lash uchun foydani ishlatishni hisobga olish hisob varag'i debeti bo'yicha aks ettiriladi. O'tkazilgan soliq so'mmalari budgetga to'lovlar bo'yicha qarzлarni hisobga olish hisob varag'i debeti va pul mablag'larini hisobga olish hisob varag'i krediti bo'yicha aks ettiriladi.

Infratuzilmani rivojlantirish solig'i mahalliy budgetga to'lanadi. Yo'riq-nomani buzganlik uchun infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Yo'riqnomaga riosa etilishi ustidan nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalariغا muvofiq davlat soliq xizmati organlari zimmasiga yukланади.

**O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.**

1. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy etilishidan maqsad nima?

2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i to'lovchilari kimlar?

3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini stavkalari qanday belgilanadi va soliqqa tortiladigan obyekt qanday aniqlanadi?

4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblash va to'lash tartibi qanday?

5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining to'g'ri hisoblanishi ustidan kimlar nazorat qiladilar?

## **15 - Mavzu: Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (4 soat) Reja:**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati va uni joriy etish sabablari.

Soliq obyekti, soliq stavkalari, uni tabaqalashtirish mezonlari. Soliqni hisoblash tartibi.

Hisoblangan soliqni budjetga to'lash tartibi va buxgalteriya hisob varaqalarida aks ettirish.

### **Mavzu bo'yicha qo'yilayotgan muammolar:**

- soliqqa tortish maqsadida suv resurslarining manbalaridan foydalishni asosiy mezonlar orqali tabaqalash muammosi;
- foydalanilgan suv hajmini belgilashda yuridik shaxslar faoliyatidan kelib chiqqan holda aniqlash uslubiyatini joriy etish;
- boshqa tuman va shaharlarda suv ta'minoti manbalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisobini yuritish muammosi;
- soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tmagan va yer uchast-kalariga ega bo'lgan ko'plab kichik korxonalarining foydalanayotgan suv resurslarini soliqqa tortish muammosi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

suv resurslari, yer qa'ri va yer usti suvlari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, soliq obyekti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar

### **1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati va uni joriy etish sabablari**

Suv mamlakatning asosiy boyligi hisoblanib, undan samarali foydalish haqida prezidentimiz o'z nutqlarida bir necha bor takrorlaganlar. Suv-dan foydalanishni imkoniyat darajasida tejash maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i kiritilgan. Suv resurslaridan foydalanish solig'i to'lovchilari bo'ladi, o'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish-ning alohida tartibi o'matilgan to'lovchilarning ayrim toifalariga tatbiq etilmaydi. Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi o'matilgan to'lovchilar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ulansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda

foydalilaniladigan suv hajmidan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari kerak. Yer qa'ri va yer usti manbalaridan ishlab chiqarish va texnikaviy maqsadlarda foydalanishga olingan suv resurslari hajmi, yani yuridik shaxslar tomonidan foydalilanigan suv resurlarining jami hajmi, iste'mol xarakteri va maqsadlaridan qat'iy nazar soliqqa tortiladi.

Yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, ariqlar va boshqa yer usti manbalari kiradi. Yer qa'ri manbalariga: artezian quduqlari va skvajinalari, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari kiradi.

## **2. Soliq obyekti, soliq stavkalari, uni tabaqalashtirish mezonlari. Soliqni hisoblash tartibi**

O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo'jalik-lari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirdorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilardir. Suvdan foydalanish joyida yuridik shaxslar, davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'iy nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydilar.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar o'z faoliyatida ishlataladigan suv uchungina soliq to'lovchilar hisob-lanadi. Yer usti va yer osti manbalaridan foydalilanadigan suv resurlarining hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi. Yer usti manbalariga kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa xavzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar. Yer osti manbalariga kiradi: artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontal zovur tarmog'i.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va soliq to'lov-chilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi. Suvdan qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlarini sug'orish uchun foydalananidigan yordamchi xo'jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlari-ning o'quvtajriba xo'jaliklari soliqni qishloq xo'jalik korxonalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

a) notijorat tashkilotlari, ana shu faoliyatda ishlatalgan suv hajmidan kelib chiqib, suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuv-chilardan tashqari.

Soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlari deganda quyidagilar tushuniladi:

faqat davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalanadigan, harajatlarni koplash uchun belgilangan smetalar doirasida dotatsiya oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

hayriya birlashmalari, uyushmalari va jamg'armalari, xalqaro tashkilot-lar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar:

1) ijtimoiy-hayriya yoki tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishni ko'zlamaydigan, ta'sis hujjatlarida ta'kidlangan boshqa maqsadlar uchun barpo etilganlari;

2) moliyaviy va boshqa mablag'larni mazkur tashkilot xodimlari, muassislari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari uchun taqsimlamaydigan va investitsiyalamaydiganlari (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnatga haq to'lashlar bundan mustasno);

b) yer osti mineral suvlardan davolash maqsadlarida foydalanadigan sog'liqni saqlash muassasalari, ular mineral suvlardan savdo tarmog'ida sotish uchun foydalanadigan hollar bundan mustasno;

v) farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanadigan va suvdan dorivor vositalar tayyorlashda foydalanadiganlar;

g) atrof muhitga zararli ta'siri oldini olish maqsadida chiqarib tashlanadigan yer osti suvlari uchun (ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlataladigan suv hajmlaridan tashqari). Masalan, sizot suvlarning sathini pasaytirish maqsadida chiqarib tashlanadigan zovur suvlari;

d) uning uchun budgetga soliq to'lagan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

ye) foydali qazilmalar qazib olish bilan yo'l-yo'lakay va shaxtadan suvni chiqarib tashlash uchun olingan yer osti suvlari uchun, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalilanadigan suv hajmlaridan tashqari;

j) agregatlar ishlashi uchun suvdan foydalanganlik uchun gidroeletrostansiyalar;

z) birlamchi foydalanganlik uchun haq to'langan suvdan ikkilamchi foydalanuvchilar (masalan, sug'orish uchun kollektor-zovur tarmog'idagi suvdan foydalanish);

i) faoliyatning asosiy turi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsuloti

yetish-tiruvchilar sho'rlangan yerlarni sug'orishga suvdan foydalanganlik uchun. Mazkur imtiyoz yordamchi qishloq xo'jaligiga ega yuridik shaxslarga ham tatbiq etiladi;

k) umumiy ishllovchilarining kamida ellik foizi nogironlar bo'lgan, nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniy" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" uyushmasi mulkida bo'lganlari, savdosoti, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslardan tashqari;

l) bo'shatib olinadigan mablag'lar ular tomonidan moddiy-texnik bazani mustahkamlashga, uskunalar, anjomlar, didaktik materiallar, bolalar o'yinchoqlari va kitoblarini harid qilishga sarflanishi sharti bilan nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari ro'yxatga olingan paytdan boshlab uch yil muddatga.

9. Soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

### **3. Hisoblangan soliqni budjetga to'lash tartibi va buxgalteriya hisob varaqalarida aks ettirish**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar tomonidan, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va tashkil etmaydigan)dan tashqari, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha amalda olingan soliqqa tortiladigan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi. Dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tash-kil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan umuman xo'jalik bo'yicha o'tgan yilda I ga sug'oriladigan yerga sarflangan suv hajmi-dan kelib chiqib hisoblanadi.

Soliq bo'yicha hisob-kitoblar: yuridik shaxslar (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tomonidan yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan amalga oshiriladi va davlat soliq xizmati organlariga chorak va yillik moliyaviy hisobotlarni top-shirish muddati uchun belgilangan muddatlarda Yo'rqnoma ilova qilingan shaklda taqdim etiladi; jismoniy shaxslar (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tomonidan mustaqil amalga oshiriladi va davlat soliq xizmati organlariga shu soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda (hisobot choragidan keyingi oyning 15 kunigacha) mazkur Yo'rqnoma ilova qilingan shaklda taqdim etiladi.

Dehqon xo'jaliklariga (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik

shaxs tashkil etmaydigan) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash to`g`risida to`lov xabarmomalari davlat soliq xizmati organlari tomonidan joriy yilning 1 mayidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Suvni markazlashtirilgan vodoprovod tarmog`idan oladigan yuridik shaxslar "Oqavasuv" tizimi korxonalari bilan solishtirish jarayonida olingen suv hajmini aniqlashtirish chog`ida suv hajmidagi farqni solishtirish amalga oshirilgan davr uchun hisob-kitoblarda aks ettiradilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to`lanadi:

yuridik shaxslar (dehqon xo`jaliklaridan tashqari) tomonidan - har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunigacha;

tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslar tomoni-dan (dehqon xo`jaliklaridan tashqari) - har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunigacha.

Chorak uchun suv resurslaridan foydalanganlik solig`ining umumiyligi so`mmasi eng kam ish haqining ellik baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar soliqni chorakda bir marotaba, choraklik moliyaviy hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda to`laydilar.

Soliq to`lovchilar (qishloq xo`jalik korxonalaridan tashqari) joriy yilning 15 yanvariga qadar suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliqni belgilangan limitdan kelib chiqib yoki suv yetkazib berish shartnomasiga ko`ra har oyda yoki har chorakda to`lashlari to`g`risida bildiruvnoma yuboradilar.

Yagona yer solig`ini to`lashga o`tmagan qishloq xo`jalik korxonalarini va dehqon xo`jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni yilda bir marta - hisobot yilining 15 dekabriga qadar to`laydilar. Yagona yer solig`ini to`lashga o`tmagan qishloq xo`jalik korxonalarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydalangan suv hajmini olingen suvning umumiyligi hajmidan chiqarib tashlaydilar, bunda 1 hektar sug`oriladigan yerni sug`orishga suv sarfining umuman xo`jalik bo`yicha o`rtacha miqdoridan kelib chiqiladi (boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning sug`oriladigan yerlari ham kiradi).

Soliq to`lovchi tomonidan ortiqcha soliq so`mmalari to`langan takdirda, soliqlar, yig`imlarning boshqa turlari bo`yicha qarz mavjud bo`lmasa, ushbu so`mmalar soliq to`lovchiga uning yozma arizasi bo`yicha o`ttiz kun ichida qaytariladi yoki bo`lg`usi to`lovlar hisobiga

e'tiborga olinadi. Suv yer qa'ri va yuzadagi manbalardan kelib tushadigan vodoprovod tarmog'idiagi suvdan foydalanilganda soliq manbalar bo'yicha belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblanadi. Shahar va tumanlarning davlat soliq xizmati organlari suv yetkazib beruvchi korxonalardan vodoprovod tarmog'iga yuzadagi va yer qa'ri manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlari nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni olishlari va mazkur ma'lumotlarni soliq to'lovchilarga yetkazishlari kerak. Baliq xo'jaliklari suvni ma'lum suv manbasidan (kanal, daryo) oladi-gan va suvni ana shu suv manbaiga tashlaydigan hollarda, qishloq va suv xo'jaligi organlari tomonidan beriladigan ma'lumotnomma asosida olingan suv hajmidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish paytida ana shu manbara tashlanadigan suvning hajmi chiqarib tashlanadi. Baliq xo'jaliklari tomonidan olingan suv kollektor-zovur tarmog'iga tashlan-gan taqdirda soliq butun olingan suv hajmi uchun to'lanadi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan binolar bir qismi, ayrim xonalar boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijara ga topshirilganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni "Suvoqava" tizimi korxona-lari yoki suv xo'jaligi organlari yoxud boshqa korxonalar bilan suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan ijara ga beruvchilar to'laydilar.

Bino (xona)ni ijara ga olgan va o'zлari suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mustaqil ravishda to'laydilar. Amaldagi korxonalar va tashkilotlar hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaradigan yuridik shaxslar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniadigan suv uchun soliq to'lamay-dilar. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarish chog'ida foydalaniadi-gan suv hajmi uchun soliqni ular uchun ushbu ishlarni bajaradigan korxona va tashkilotlar to'laydilar. Yangi qurilish maydonchasiда qurilish ishlarni bajarish chog'ida qurilish paytida foydalaniadigan suv hajmi uchun soliqni qurilish tashkiloti to'laydi. Mulkchilik va bo'ysunish shaklidan qat'iy nazar issiq suv va bug' uzatuvchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni ular tomonidan yuzadagi va yer qa'ri manbalaridan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlatalgan suv resurslari hajmi uchun to'laydilar.

*Soliqni hisobga olish tartibi.* Yuridik shaxslarning budjet bilan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarining bux-galteriya hisobi budjetga to'lovlar bo'yicha (turlar bo'yicha)

qarzlarni hisob-ga olish hisob varag'ida yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq so`mmasi quyidagicha aks ettiriladi:

Davr harajatlarini hisobga olish hisob varag'i debeti;

Budjetga to`lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag'i krediti.

Budjetga o'tkazilgan soliq so`mmalari quyidagicha aks ettiriladi:

Budjetga to`lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisob varag'i debeti;

Pul mablag`larini hisobga olish hisob varag'i krediti.

Soliq to`lovchilar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabдор shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egalar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to`lovchilar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo`ladilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to`g'ri hisoblab chiqilishi va to`lanishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

### O`z-o`zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nimada?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to`lovchilarini kimlar hisoblanadi?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning budget daromadlaridagi hissasi qanday?
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari qanday va soliqqa tortiladigan obyekt nima?
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig`ini hisoblash va to`lash tartibi qanday?

## **16 - Mavzu: Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va bonuslardan**

**Reja:**

1. «Yer qa'ri» tushunchasi, soliq to`lovchilar va soliqqa tortish obyekti.
2. Yer qa'ri boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari, soliqdan imtiozlar.
3. Yer qa'rilardan foydalanganlik uchun soliqni hisobini tuzish va to`lash tartibi.

### **Mavzu bo'yicha qo'yilayotgan muammolar:**

- yer qa'rilardan foydalanganlik uchun soliqning stavkalarini foydali qazilmalarни qazib olish va qayta ishlash, ularning qancha chuqurlikda joylashganligi va tozaligi, qazib olishning rentabelligiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa xususiyatlarini hisobga olib belgilash;
- yer qa'rilardan foydalanganlik uchun soliqning obyektini belgilashda ularni ishlatish sohasiga qarab guruhlarga ajratish muammosi;
- yer qaridan foydalananayotgan korxonalar zimmasiga to`lanayotgan soliqlar so'mmasini proporsional holatda taqsimlash muammosi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

yer qa'ri qazilma resurslar, texnogen holsilalar, yer qa'rilardan foyda-langanlik uchun soliq, soliq obyekti, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiozlar

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

Asosiy adabiyotlar: 4,5,8,10,11,15,21

Qo'shimcha adabiyotlar: 14,16,28,30,31,33

### **1. «Yer qa'ri» tushunchasi, soliq to`lovchilar va soliqqa tortish obeykti**

Soliqqa tortish maqsadida «yer qa'ri» tushunchasiga yer qa'rining tup-roq qismidan pasta joylashgan qismi tushuniladi. Yer qa'ri bo'limgan joylar-da suv yuzasidan past qismi va geologik izlanuv yoki egallash imkoniyatiga ega bo'lgan suv havzalari yoki oqimlarining tagi (tubi) hisoblanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalar qazib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar (105 m). Bu soliqni yagona soliq to'lovchi kichik biznes korxonalari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hamda savdo va umumiy ovqatlanish va gramplastin-kalar, kassetalar va disketalar sotuvchi korxonalar va qat'iy stavkada soliq to'lovchi yuridik shaxslar ham to'lamaydilar.

Agar tarkibida rangli, nodir, qora metallar va boshqa mineral xom ashyni qazib oluvchi korxona uni qayta ishlashga ikkinchi korxonaga bersa, soliq to'lovchi bo'ladi tayyor mahsulotni sotuvchi korxona hisoblanadi. Masalan, mis qazib oluchi korxona rudani Olmalik kon-metallurgiya kom-binatiga berdi. Kombinat tayyor mahsulot qilib sotadi. Bu yerda kombinat soliq to'lovchi hisoblanadi. Agar qazib olingen rudani Respublikadan tashqariga ortsa soliq to'lovchi bo'ladi ruda qazib olgan korxona hisoblanadi.

Yer qa'rilaridan foydalanganlik uchun soliq obyektiqa quyidagilar kiradi:

- foydali qazilmalar (shu jumladan qo'shilib chiqadigan foydali qazi-lmalar va qimmatli komponentlar) qazib olish hajmi;
- texnogen hosilalarning (mineral xom ashyo qazib olish va ulami qayta ishlash chiqindilarning) hajmi;
- to'plangan rangli toshlar, poleontologiya qoldiqlari va boshqa geolo-gik kolleksiya materiallarini hisobga olingen qiymatidir. Bular ichida asosiy foydali qazilmalar bo'ladi energiya beruvchilar (gaz, neft, ko'mir va b.) rangli va noyob metallar, nodir metallar (oltin, kumush), temir, tog'-kimyo mahsulotlari va boshqalar kiradi.

## **2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari, soliqdan imtiyozlar**

Soliq obyektlarining turlari va soliq stavkalarini har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yangi yil budgetini tasdiqlayotganda belgilab, Oliy Majlis muhokamasidan o'tkazadi.

2003 yil uchun belgilangan soliq stavkalari:

- foydali qazilmalar hajmiga nisbatan foizlarda belgilangan. Albatta bu yerda hajm qiymati chiqariladi. 2003 yildan boshlab foydali qazilmalar tarkibi-ga xom ashyo ishlab chiqarish uchun qo'llanadigan bazalt kiritildi;
- texnogen hosilalaridan foydalanganlik huquqi uchun esa asosiy qazilma boylik stavkasiga nisbatan 30 foiz qilib belgilangan;

- rangli toshlar, paleontologiya qoldiqlari yig'ish uchun esa ularning hisoblangan qiymatidan 5 foiz qilib belgilangan.

Yer qa'rilaridan foydalanganlik uchun soliq to`lashdan quyidagilar ozod etiladi:

- yer qa'rini geologik jihatdan o`rganuvchi shaxslar;

- geologiya, mineralogiya va boshqa alohida qo`riqlanadigan tabiiy hududlarda ilmiy ishlar olib boruvchi shaxslar;

- keng tarqalgan foydali qazilmalar qazib olishni o`zlariga berilgan yer uchastkalari doirasida xo`jalik va maishiy ehtiyojlar uchun belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yer egalari va yerdan foydalananuvchilar;

- yuridik shaxslar balansida bo`lgan va ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatida foydalanimayotgan fuqarolik va safarbarlik ahamiyatiga molik ob`ktlarga yer qa'rilaridan foydalanganlik uchun soliq solinmaydi.

### **3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisobini tuzish va to`lash tartibi.**

Soliq to`lovchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq hisobini o'sib boruv-chi yakun bilan mustaqil hisoblaydilar va o`zлari joylashgan hududdagi soliq idoralariga moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgilangan muddatda topshiradilar. Soliq hisobi foydali qazilmalar qazib olganlik va texnogen hosilalardan foydalanganlik uchun yilning har choragi va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar. Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug`ul-lanuvchi jismoniy shaxslar yiliga bir marotaba, keyingi yilning 20 yanvaridan kechiktirmay soliq hisobini taqdim etadilar va to`laydilar.

Soliqni to`lash muddatlari:

- foydali qazilmalar qazib olish va texnogen hosilalardan foydalanganlik uchun har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 20 kunigacha to`laydilar;

- qolgan holatlarda yilning har choragida choraklik va yillik hisobotlar topshirish muddatida to`lanadi.

Choraklik va yillik muddatlar tugashi bilan soliq hisobi tuziladi.

2003 yilda ham yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to`lash mexanizmi, hamda soliq stavkasi 2002 yil darajasida saqlanib qolindi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitob-larni taqdim etish va to`lash tartibi. Yer

qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan xolda hisoblab chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi xududida konlari aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olishni amalga oshirayotgan va (yoki) foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilardir.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ;

qo'shimcha foyda solig'i ;

bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

Yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan foydali qazilmalarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar;

Foydali qazilmalardan foydali komponekntlarni ajratib olgan xolda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

Kavlab olingen (ajratib olingen) tayyor mahsulotning xajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realiza-tsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek maxsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z istemoli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljal-langan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi. Soliq solish obyekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodlar uchun soliq solish obyekti quyidagilardir:

sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kavlab olingen uglevodorodlar, shu jumladan qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingen, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagagi bosimni saqlab turish va gaz kondensatini tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldar qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish obyekti bo`lmaydi.

Ajratib olingen qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosillardan ajratib olingen qimmatbaho metallar toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish obyektidir. Soliq to`lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingen xamda o`zining ho`jalik va ro`zg`or ehtiyojlari uchun foydalilanligan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish obyekti bo`lmaydi. Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro`yxati qonun xujjatlari bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo`yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida, xisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik karxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to`lovchilar tomonidan – har oyda, xisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

jismoniy shaxslar tomonidan – yilda bir marta, keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to`lash hisob –kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Soliq to`lovchining hisobot davridagi daromadining bir qismi qo`shimcha foya solig`ini solish obyektidir.

Bonuslar.

Bonus yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to`lovdir.

Yer qa'ridan foydalanuvchi quyidagi turdai bonuslarni to`laydi:

Imzoli bonus;

Tijoratbop topilma bonusi.

Davlat boshqaruvi organlari bonuslar to`lamaydi.

**Imzoli bonus** - yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosi-da foydali qazilmalarni aniqlash, qidirish va kavlab olish bo`yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat`iy belgilangan to`lovdir.

Imzoli bonus litsenziya olingen kundan e'tiboran soliq to`lovchi tomonidan o`ttiz kundan kechiktirmay budgetga to`lanadi va bu haqda

soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda habar qilinadi.

**Tijoratbop topilma bonusi** - tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zahiralarni ko'paytiri-shga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdir. Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kavlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilma bonusi to'lanmaydi. Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zahiralari hajmi soliq solish obyektidir. Foydali qazilmalar zahiralarining qazib olinadigan xajmining qiymati soliq solinadigan bazadir. Foydali qazilmalar zahiralari-ning qazib olinadigan xajmining qiymati vakolatli davlat organi belgilagan axborot manbalarining ma'lumotlariga ko'ra xalqaro birjada belgilangan birja bahosi bo'yicha hisoblab chiqiladi. Jahon bozorida narh mavjud bo'lma-gan taqdirda, qazib olinadigan foydali qazilmalarning qiymati vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Tijoratbop topilma bonusi soliq solinadigan bazadan va bonusning belgilangan stavkasidan kelib chiqqan xolda aniqlanadi. Tijoratbop topilma bonusining xisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zahiralarini tasdiqlagan kundan e'tiboran yigirma besh kundan kechiktirmay soliq to'lov-chi tomonidan taqdim etiladi. Tijoratbop topilma bonusini to'lash vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zaxiralarining kondan qazib olinadigan xajmini tasdiqlagan kundan e'tiboran to'qson kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

### O'z-o'zini nazorat qilish savollar.

1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nimada?
2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning budjet daromadlaridagi hissasi qanday?
3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilari kimlar?
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari va soliqqa tortiladigan obyekt qanday aniqlanadi?
5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi qanday?

## **17 - Mavzu: Boshqa soliqlar va soliqsiz to`lovlar**

### **Reja:**

1. Mahalliy soliqlar va yig`imlar tarkibi va ularni hisoblash hamda budgetga to`lash tartibi.

2. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg`isi va suyultirilgan gaz iste'moliga olinadigan soliq.

3. Savdo huquqi olish yig`imi, alohida tovarlarga litsenziya yig`imi.

4. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchilarni ro`yxatdan o'tkazish yig`imi.

### **Mavzu bo'yicha qo'yilayotgan muammolar:**

- import tovarlarga nisbatan belgilangan yagona boj stavkasini bosqi-chma-bosqich kamaytirish va bojdan ozod etiladigan zaruriy tovarlar ro`yxatini kiritish;

- fondlarga to`lanadigan to`lovlar yuzasidan yuridik shaxslarni faoliyat maqomidan kelib chiqib guruhlash va nazoratini tashkil qilish muammosi;

- Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg`-isi va suyultirilgan gazni iste'mol qilish solig`ining soliq yuki yuqoriligi uchun soliq solishning oldingi uslubiyatini qo'llash muammosi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

mahalliy soliqlar va yig`imlar, iste'mol soliqlari, litsenziya yig`imlar, ro`yxatga olish yig`imlar, soliq obyekti, soliq to`lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

Asosiy adabiyotlar: 3,6,8,10,11,12,20,21

Qo'shimcha adabiyotlar: 23,25,26,28,30,31

### **1. Mahalliy soliqlar va yig`imlar tarkibi va ularni hisoblash hamda budgetga to`lash tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi har yili makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va Davlat budgeti parametrlari to`g`risidagi qarorida mahalliy soliqlar va yig`imlar tarkibini ham belgilab beradi. Ushbu stavkalar butun respublikada yagona belgilangan. Mahalliy soliqlar va yig`imlar to`g`risidagi yo'riqnomaga quyidagilarga ta'sir etmaydi:

- yagona soliq to`lovchilariga;
- savdo va ummumiy ovqatlanish korxonalariga; ular yalpi daromadidan soliq to`laydilar;
- yagona yer solig`i to`lovchilariga, alohida tovarlarga letsenziya yig`imidan tashqari;

- tadbirkorlikning alohida turlari bilan shug`ullanuvchi va qat`iy soliq to`lovchi yuridik va jismoniy shaxslarga tadbiq qilinmaydi.

Yalpi daromadidan soliq to`lovchilar savdo binolari, maydonlari va asbob uskunalarini ijara bersalar undan olgan daromaddan hamma mahalliy soliqlar va yig`imlarni to`layveradilar.

Mahalliy soliqlar va yig`imlarga quyidagilar kirdi:

- 2) Mol - mulk solig`i;
- 3) Yer solig`i;
- 4) Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i;
- 5) Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun soddalashtirilgan soliq;
- 6) Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan soliq;
- 7) Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqiligi va suyultirilgan gazni iste'mol qilish solig`i;
- 8) o`z ichiga alohida tovarlarga litsenziya yig`imini qo'shgan savdo huquqi olish yig`imi;
- 9) Tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro`yxatdan o'tkazish yig`imi olinadi.

Mol-mulk solig`i va yer solig`i O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan kiritiladi va butun respublika hududida undiriladi. Ularning soliq stav-kalari O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Bu soliqlarni hisoblash va to`lash tartibi alohida yo`riqnomalar bilan bosh-qariladi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va trans-port yoqiligi ilariga iste'mol solig`i alohida yo`riqnomasi bilan belgilanadi.

Mol-mulk va yer solig`idan tashqari soliqlarni kiritish Qoraqalpog`iston Respublikasi va viloyatlar hamda Toshkent shahri mahalliy hokimiyat organ-lari tomonidan olib boriladi. Soliqlarni to`lash javobgarligi soliq to`lovchi-larga yuklatilgan. Mahalliy soliqlar va yig`imlar to`langanligiga asos bo`ladi, banklar tomonidan berilgan hujjatlar hisoblanadi.

## **2. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg`isi va suyultirilgan gaz iste'moliga olinadigan soliq**

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg`isi va suyultirilgan gaz iste'moliga olinadigan soliq (bundan keyingi o'rnlarda - soliq) to'lov-chilari bo'ladi jismoniy shaxslarga benzin, dizel yonilg`isi va suyultirilgan gaz sotadigan, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi subyektlar hisoblanadi. Bunda ularning joylashgan joyidan qat'i nazar avtomobilga yonilg'i qo'yish shohobchalariga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soliq to'lovchi bo'ladi hisoblanadi.

### *Soliq obyekti.*

Jismoniy shaxslarga sotilgan o'zi ishlab chiqargan hamda chetdan harid qilingan benzin, dizel yonilg`isi va suyultirilgan gazning natural hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi. Benzin, dizel yonilg`isi va suyultirilgan gazni sotish deganda ularni jismoniy shaxslarga amalda berish tushuniladi.

### *Soliq stavkasi va hisoblash tartibi.*

Soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi, uning miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi. Soliq so'mmasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs - haridorga beriladigan chekda alohi-da satr bilan ko'rsatiladi. Soliq so'mmasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel yonilg`isi va suyultirilgan gaz uchun mablag' to'lanishi bilan bir vaqtda undiriladi.

## **3. Savdo huquqi olish yig`imi, alohida tovarlarga litsenziya yig`imi**

§-1. Savdo-sotiq huquqi uchun yig`im, shu jumladan tovarlarning ayrim turlarini sotish huquqi uchun litsenzion yig`imlar.

Savdo-sotiq huquqi uchun yig`im va tovarlarning ayrim turlarini, shu jumladan alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish huquqi uchun litsenzion yig`im to'lovchilari bo'ladi O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda savdo-sotiqni amalga oshiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar (alkogolli mahsulotlar sotishdan tashqari) va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yig`im savdo-sotiqni amalga oshirish huquqi uchun to'lanadi. Savdo-sotiq huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi. Tovarlarning ayrim turlari, shu jumladan alkogolli va tamaki mahsulotini sotish

huquqi uchun litsenzion yig'im alohida to'lanadi. Savdo-sotiq huquqiga ruxsat guvohno-masi ariza beruvchining (yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning) arizasida ko'rsatilgan, ammo qonun hujjatlarida belgilangan muddatdan ko'p bulmagan, muddatga beriladi. Savdo-sotiq huquqiga ruxsat guvohnomasi joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladi.

Ulgurji savdo bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslar tomonidan yig'im har oyda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joylar bo'yicha to'lanadi. Chakana savdo bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar tomoni-dan, yig'im har oyda, har bir savdo shohobchasi uchun savdo faoliyatini amalga oshirish joyi. Savdo huquqini olish yig'imi va alohida tovarlarga, shu jumladan, alkogol va tamaki mahsulotlariiga litsenziya yig'imi to'lovchilari bo'ladi O'zbekiston hududida chakana savdo shahobchalari orqali savdo qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi. Chakana savdo shahob-chalari magazinlar, umumiyligi ovqatlanish korxonalar, savdo palatkalar va lotoklar, kiosklar, prilavkalar, aptekalar va boshqa obyektlar davlat hoki-miyati organlari tomonidan maxsus ajratilgan joyida savdo qilsalar kiradi.

Savdo huquqi olish yig'imi savdo qilish uchun berilgan sertifikat (guvohnoma uchun to'lanadi). U har oyda uch yarim minimal ish haqi miq-dorida (yanvar 2003 yil uchun 19040 so'm) to'lab boriladi. Alohida tovarlar-ga, shu jumladan alkogol va tamaki mahsulotlarga litsenziya yig'imi alohida to'lanadi. Sertifikat savdo huquqi uchun 1 oydan 12 oygacha beriladi. U mahalliy hokimiyat organlari tomonidan beriladi.

#### **4. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi**

§-2. Yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ul-lanadigan jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'imi. To'lov-chilar bo'ladi yangi barpo etilayotgan yuridik shaxslar yoki yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish xohishini bildirgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Davlat mol-mulki negizida barpo etiladigan aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek dehqon xo'jaliklari mazkur yig'imi to'lashdan ozod etiladilar. Yangi barpo etilayotgan yuridik shaxs uchun yig'imi ularning muassasalari (yuridik va jismoniy shaxslar) to'lashi mumkin. Yig'im yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahalliy budgetga bank muassasalari orqali to'lanadi. Yig'im ro'yxatdan o'tkazishga ariza

berilgunga qadar to'lanadi. Yo'riqnomaga rioya etilishi ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar. Ro'yxatdan o'tkazish yig'imi to'lovchilari bo'ladi, yuridik shaxslar maqomi-ni olmasdan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Davlat mulkchiligi asosida tuzilgan aksioner jamiyatlari hamda dehqon xo'jaliklari bu yig'imdan ozod bo'ladilar.

Yangi tashkil etilayotgan yuridik shaxslar uchun yig'imni ularni ta'sis-chilari to'lab yuborishi mumkin. Yig'im yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahalliy budgetga bank muassasalari orqali to'lanadi. U har yilda bir marta besh minimal ish haqi miqdorida to'lanadi.

Boshqa daromadlar mahalliy soliq yig'implarida tashqari davlat budgeti-ga boshqa daromadlar ham tushadi. Bularga konfiskatsiya qilingan (sud qarori bilan) muklarni sotishdan tushum, temir yo'l, havo yo'li va aloqa idoralarida egasiz, so'rab olinmagan buyumlar yuklarni so'rov muddati tuga-gandan so'ng sotib yuborishdan tushumlar kiradi. Ularni hisoblash va budget-ga o'tkazish alohida tartib qoidalarga asosan amalga oshiriladi.

#### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.**

1. Mahalliy soliqlar va yig'implarni kimlar to'laydilar va soliq obyekti nima hisoblanadi?
2. Mahalliy soliqlar va yig'implardan qanday imtiyozlar bor?
3. Mahalliy soliqlar va yig'implarning budget daromadlaridagi ulushi qanday?
4. Mahalliy soliqlar va yig'implarni to'lash muddatlari qanday?

## **«Soliq huquqi» fani uchun test savollari**

### **1. Soliq tamoyili deganda nima tushuniladi.**

A. Soliqlarning vazifalari.

B. Soliq tizimi.

V. Soliqlarni joriy etish, undirish va takomillashtirishning umumiy yo'nalishlari usullari barqaror qonuniyatları.

G. Soliq qonunchiligi.

D. Soliq imtiyozlarini belgilash.

### **2. Soliqlarni yetarlilik tamoyili nimani ifodalaydi.**

A. Soliqlarning budgetga o'z vaqtida tushishi.

B. Budgetning daromadlari va soliq turlarinig miqdori birligini.

V. Davlatning o'z vazifasini minimal darajada bajarishni moliyasi imkoniyatini mavjud bo'lishligini.

G. Soliqlarni moddiy asosga qarab undirilishini.

D. To'g'ri javob yo'q.

### **3. Soliqqa tortishning umumiy tamoyillari nimalardan iborat.**

A. Adolatlik, yetarlilik, to'lovga qobillik.

B. Investitsiyani rag'batlantirish, qiyoslash, aniqlilik, to'lovga qobillik.

V. Samaradorlik, aniqlik, o'zaro tenglik, adolatlilik.

G. O'zaro tenglik, samaradorlik, yetarlilik, soliq stavkalarini qiyoslash.

D. To'lovga qobillik, aniqlilik, adolatlilik, o'zaro tenglik.

**4. Daromad olishning turli soliq to'lovchilarga nisbatan soliq tortishning teng shartlarin ko'zda tutish soliqqa tortishning qaysi tamoyili hisoblanadi.**

A. Yetarlilik tamoyili.

B. To'lovga qobillik.

V. Gorizontal adolat tamoyili.

G. Vertikal adolat tamoyili.

D. Aniqlilik tamoyili.

**5. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida soliqqa tortishning nechta tamoyili ko'rsatilgan.**

A. 3ta tamoyil. 10-modda;

B. 4ta tamoyil 4-moddada;

V. 7ta tamoyil 5-moddada;

G. 5ta tamoyil 4-moddada;

D. 6ta tamoyil 3-moddada;

**7. Soliq obyekti bilan soliq manbai bir xil ma'noga egami.**

A. Ha.

B. Yo'q.

V. Soliq obyektti va manbai bir xil holatda ham mavjud bo'ladi.

G. Soliq manbai va soliq obyeti bir xil mohiyatga ega bo'lmaydi.

D. B va G javoblar to'g'ri;

**8. Quydagilarning qaysi biri soliq obyekti hisoblanadi**

A. Daromad, pul tushumi, oborot, yer uchastkasi, meros.

B. Tomarqa daromadi, tavarning fizik hajmi, realizatsiya, daromad.

V. Intelektual mulk, mol-mulk, realizatsiya, yordam puli.

G. Pensiya, stipendiya, ish haqi, pul tushumi.

D. Daromad, foyda, oborot, realizatsiya, tavarning fizik hajmi  
transportning ot kuchi, ishlab chiqarilgan tavar eksporti.

YE. B va D javoblar to'g'ri.

**9. Soliqlarni undirish qaysi organlar vakolatiga kiradi.**

A. Soliq xizmati organlari, bojxona xizmati organlari.

B. Bank muassasalari, mahalliy hokimiyatlar.

V. Moliya vazirligi, soliq qo'mitasi, bojxona qo'mitasi.

G. Sud va prokratura organlari.

YE. Barchasi to'g'ri.

**10. Soliq obyekti hajmidan qat'iy nazar bir xil tartibda  
ullaniladigan soliq stavkalari bu:**

A. Qat'iy soliq stavkalari.

B. Tartibga soluvchi soliq stavkalari.

V. Progressiv soliq stavkalari.

G. O'zgarmas soliq stavkalari.

D. Tabaqalashtirilgan soliq stavkalari.

YE. To'g'ri javob yo'q.

**11. Korxona 1 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarib uning 216  
ming so'mligini eksport qildi. U xolda korxona qanday stavkada  
daromad (foyda) solig'i to'laydi.**

A. 18 foizda.

B. 9 foizda.

V. Umuman soliq to'lamaydi.

G. 12,6 foizda.

D. 13,7 foizda.

YE. To'g'ri javob yo'q.

**12. Soliq stavkasi nimani ifodalaydi.**

A. Soliq bazasi (obyekti)ning bir qismini budgetga olishni.

- B. Soliq manbaiga o'matilgan meyorini.
  - V. Soliq imtiyozlari bo'yicha chegirmalarni.
  - G. Bir xil tartibda soliq undirishni.
  - D. Budjet daromadlari hajmi va soliq undirishni;
- YE. To'g'ri javob yo'q.

**13. Soliq stavkalarini asosan kim belgilaydi.**

- A. Davlat soliq qo'mitasi.
- B. Moliya vazirligi.
- V. Oliy Majlis.
- G. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
- D. Vazirlar Mahkamasi.

**14. Progressiv soliq stavkasiga soliq obe'kti oshsa, soliq stavkasi kamayadi degan qoida to'g'rimi.**

- A. Ha.
- B. Yo'q.
- V. Ayrim hollarda to'g'ri.

**15. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlariga qanday daromad turlari kiradi?**

- A) Mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan daromad.
- B) Dividend bo'yicha olinadigan daromad.
- S) Mehnatga haq to'lash shaklida olingan daromad.
- D) Natura shaklida olingan ish haqi to'lovlari.

YE) Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daro-madiga tovarlar realizatsiyasidan, qonun hujjatlarida ta'qilanganmagan, yakka tartibda amalga oshirilayotgan boshqa faoliyatdan keladigan barcha tushum-lar ushubu daromadni topish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlari, chiqimlar va ajratmalar chegirib tashlangan holda kiradi.

**16. Xo'jalik yurituvchi subyektlarni qisqa muddatli tekshirishga ruxsat beruvchi vakolatlari organni ko'rsating.**

- A) Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish hududiy Kengashi.
  - B) O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi.
  - S) O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi.
  - D) O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik sudi.
- YE) O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi.

**17. Yuridik manzilgohi o'zgarganda korxona necha kun ichida soliq idoralarini habardor qilishi kerak?**

- A) 3 kun ichida.

- B) 1 oy ichida.
- S) 1 yil ichida.
- D) 10 kun ichida.
- YE) O'sha kuni.

**18. Soliqqa tortishda yalpi daromaddan moliyaviy jarima va penya so'mmalari chegirib tashlanadimi?**

- A) Chegirib tashlanadi.
- B) Chegirib tashlanmaydi.
- S) Faqat moliyaviy jarima so'mmasi chegirib tashalandi.
- D) Faqat penya so'mmasi chegirib tashlanadi.
- YE) Moliyaviy jarima va penya so'mmalaring ma'lum bir qismi.

**19. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning alohida tartibi qaysi davlat idorasi tomonidan belgilanishi mumkin?**

- A) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.
- B) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
- S) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
- D) O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi.
- YE) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

**20. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish obyektini ko'rsating.**

- A) Foyda.
- B) Daromad.
- S) Yalpi tushum.
- D) Yalpi daromad.
- YE) Xarajatlar.

**21. O'zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to'lov qachon joriy qilingan?**

- A) 1998 yil 1 yanvar.
- B) 1995 yil 1 yanvar.
- S) 1992 yil 1 yanvar.
- D) 2004 yil 1 yanvar.
- YE) 2003 yil 1 iyul.

**22. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri mahalliy soliq hisoblanadi?**

- A) Aksiz solig'i.
- B) Yer solig'i.
- S) Suv resurslaridan foydalanganlik soliq.
- D) Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) soliq.

YE) Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq.

23. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxs-lar qanday manbalaridan soliq to'laydilar?

A) O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlar manbalaridan.

B) O'zbekiston Respublikasida olgan manbalaridan.

S) O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi faoliyatlar manbalaridan.

D) Soliq to'lovchining xohishiga ko'ra to'lanadi.

YE) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan muvofiqlashtiriladi.

24. Xayriya maqsadlariga o'tkazilgan mablag'lar soliqqa tortiladimi?

A) Tortilmaydi.

B) Daromad solig'i bazasining 2% miqdoridan oshgan qismidan tortiladi.

S) Daromad solig'i bazasining 1% miqdoridan oshgan qismidan tortiladi.

D) Daromad solig'i bazasining 5% miqdoridan oshgan qismidan tortiladi.

YE) Daromad solig'i bazasining 3% miqdoridan oshgan qismidan tortiladi.

25. Qaysi javobda korxonaning maqsadli jamg'armalariga to'lov-lari berilgan?

A) Qo'shilgan qiymat solig'i.

B) Yagona ijtimoiy to'lov.

S) Davlat bojlari.

D) Yer solig'i.

YE) Suv uchun soliq.

26. Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysi biri yer solig'idan ozod etilmagan.

A) Uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar.

B) I va II guruh nogironlari.

S) Yaylov chorvachiligining cho'ponlari.

D) Pensionerlar.

YE) «O'zbekiston Qahramoni» unvoniga sazovor bo'lganlar.

27. 1-2 guruh nogironlari uchun daromad solig'i bo'yicha qanday imtiyoz ko'zda tutilgan?

A) Soliqqa tortiladigan daromad 30 foizga kamaytiriladi.

B) Soliqqa tortiladigan daromad 50 foizga kamaytiriladi.

S) Soliqqa tortiladigan daromad 30 foiz, agar 16 yoshgacha ikkita bolasi bor bo`lsa kamaytiriladi.

D) Soliqqa tortiladigan daromad 50 foiz, agar 18 yoshgacha bolalari bor bo`lsa kamaytiriladi.

YE) Har bir to`liq oy uchun eng kam ish haqining 4 baravari miqdorida kamaytiriladi.

**28. O`zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarning oladigan dividend va foiz daromadlari qanday stavkada soliqqa tortiladi?**

A) 12 %.

B) 13 %.

S) 14 %.

D) 15 %.

YE) 16 %.

**29. Ustav kapitalida xorijiy sarmoya ulushi 50% va undan ortiqni tashkil etgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalarini foyda solig`ini qanday stavkada to`laydilar?**

A) 18%.

B) 35%.

S) 10%.

D) 12%.

YE) 16%.

**30. Yer solig`i stavkalari 2004 yil uchun necha martaga indeksat-siya qilindi?**

A) 1 martaga.

B) 1,5 martaga.

S) 2 martaga.

D) 1,2 martaga.

YE) Indeksatsiya qilinmagan.

**31. Jismoniy shaxslar soliqlarni qanday shaklda to`laydilar?**

A) Naqd pul shaklda

B) Naqd pulsiz shaklda

S) Natura shaklda

D) Naqd pul va naqd pulsiz shaklda

YE) Ham natura ham naqd pulsiz shaklda

**32. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nima?**

A) Davlat budgetini moliyaviy resurs bilan ta'minlash.

B) Davlat budgetini moliyaviy resurs bilan ta'minlash va suv

resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni ragbatlantirish.

S) Suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish.

D) Mahalliy budjet daromadlarini moliyaviy resurs bilan ta'minlash.

YE) Respublika budgetini moliyaviy resurs bilan ta'minlash.

**33. Soliq stavkalarini qaysi vakolatli davlat organi belgilaydi?**

A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

B) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.

C) O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi.

D) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi.

YE) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

**34. Quyidagilarning qaysi biri soliq obyekti bo'la oladi?**

A) Korxona va tashkilotlarning smeta rejasи.

B) Korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijasi.

C) Kreditorlik qarzları.

D) Budjet subsidiyalari.

YE) Ishlab chiqarish zahiralari.

**35. Moliyaviy jazo choraları va hisoblangan penyalar so'mmalari jami daromaddan chegiriladimi?**

A) Chegiriladi.

B) Chegirilmaydi.

C) Qisman chegiriladi.

D) Faqat soliqni to'lash muddati bo'yicha hisoblangan penyalar.

YE) Faqat hisobot muddatlari kechiktirilgan xollardagi penyalar.

**36. Agar amalga oshirilgan harajat xarajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo'lsa:**

A) U faqat bir marta daromaddan chegiriladi.

B) Har bir toifasi bo'yicha alohida chegiriladi.

C) Chegirma qilinmaydi.

D) Harajatlar belgilangan me'yor darajasida chegiriladi.

YE) Korxona rahbarining alohida qarori asosida belgilab beriladi.

**37. Ko'shilgan qiymat solig'ining soliqka tortish obyekti nima?**

A) Tovar, ish, xizmatlar sotilishiga doir oborotlar.

B) Muomala harajatlari.

C) Ishlab chiqarish tannarxi.

D) Soliq to'langunga qadar moliyaviy natija.

YE) Sof foya.

**38. Yuridik shaxs o'z faoliyatida ro'yxatdan o'tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalanganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash tartibi.**

A) Ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga.

B) Suv yetkazib beruvchiga.

S) Davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'iy nazar suvdan foydalinish joyidagi soliq xizmati organiga.

D) Ro'yxatdan o'tgan davlat soliq xizmati organi bilan suvdan foydalinish joyidagi soliq xizmati organiga kelishuviga muvofiq.

YE) Soliq to'lovchi xohishiga ko'ra.

**39. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga qanday daromadlar kiradi?**

A) Foiz, dividend, mol-mulkni ijara berishdan kelgan daromadlar.

B) Mehnatga haq to'lash shaklida olingan daromad.

S) Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad.

D) Tekinga olingan pul mablag'lari.

YE) Omonatdan olingan foizlar.

**40. Pochta markalari, markali otkritkalar va konvertlar sotish qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladimi?**

A) Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi.

B) 20 foizli stavkada soliqqa tortiladi.

C) Nollik stavka bo'yicha tortiladi.

D) Kamaytirilgan stavkalar qo'llaniladi.

10 foizli stavkada qo'shilgan qiymat soligiga tortiladi.

**41. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2004 yil uchun necha martaga indeksatsiya qilindi?**

A) 1,5 martaga.

B) 1 martaga.

S) 1,2 martaga.

D) 2 martaga.

YE) Indeksatsiya qilinmagan.

**42. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi daromad solig'i stavkasining yuqori chegarasini ko'rsating.**

A) 16%.

B) 10%.

S) 35%.

D) 20%.

YE) 18%.

**43. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilarini aniqlang.**

- A) Yuridik shaxslar.
- B) Jismoniy shaxslar.
- C) Yuridik va jismoniy shaxslar.
- D) Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.
- YE) Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik shaxslar.

**44. Yalpi daromad solig'i to'lovchilarini aniqlang.**

- A) Yuridik shaxslar.
- B) Jismoniy shaxslar.
- C) Banklar va sug'urta kompaniyaları.
- D) Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari.
- YE) Savdo va umumiy ovqatlanish korxonaları.

**45. Qaysi javobda mol-mulk solig'inining soliqqa tortish obyekti berilgan?**

- A) Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar.
- B) Uzoq muddatli ijraga olingan vositalar.
- B) Nomoddiy aktivlar.
- C) Kapital qo'yilmalar.
- D) Pul mablag'lari.
- YE) Ustav va qo'shilgan kapital.

**46. Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i to'lovi hisobiga**

- A) Kiritiladi.
- B) Faqat alkogollli mahsulotlar uchun kiritiladi.
- S) Kiritilmaydi.
- D) Faqat tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi.
- YE) Faqat aksiz to'lanadigan tovarlarning importida.

**47. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadimi?**

- A) Mol-mulk solig'ini belgilangan tartibda to'laydilar.
- B) Mol-mulk solig'ini pasaytirilgan stavkalar asosida to'laydilar.
- S) Mol-mulk solig'ini to'lamaydilar.
- D) Faqat asosiy vositalari bo'yicha to'laydilar.
- YE) Faqat nomoddiy aktivlar bo'yicha to'laydilar.

## GLOSSARY

**Soliqlar** - bu tashqi ko'rinishi jihatidan hukumatning bajargan xizmat-lari uchun haqdir. Ammo mohiyati jihatidan soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtaсидаги majburiy xarakterga ega bo'lgan pul munosobatlarini bildiruvchi davlat pul fondini shakllantiruvchi pul fondidir.

**Soliqlarning belgilari:** majbuliylik, qat'iylik, doimiylik, to'lovchining shaxsan o'ziga qaytib kelmasligidir. Ammo mamlakat miqiyosida hamma to'langan soliqlar ijtimoiy xizmatlar tariqasida hamma soliq to'lovchilarga qaytib keladi.

**Davlat budgeti** - davlatning eng markazlashgan pul fondini tashkil etish va undan foydalanishni ifoda etuvchi pul munosobatlarini anglatadi. U iqtisodiy kategoriyalidir. Davlat budgeti daromadlar va harajatlar balansi shaklida tuziladi. Daromadlar asosan soliqlar va yig'implardan tashkil topadi. Harajat-lar esa ijtimoiy tarbiya sohalariga (maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, kadrlar tayyorlash, sotsial ta'minot), mehnatkashlarni ijtimoiy himoya qilish-ga, markazlashgan investitsiyalarga, davlat havfsizligini saqlashga, mamlakat ichida tartibni saqlashga, davlat boshqaruvini tashkil etish, mudofaa va boshqa maqsadlarga yo'naltiriladi.

**Budgetdan tashqari fondlar** - bu davlatning budgetidan tashqarida majbuliy tashkil etadigan fondlaridir. Bunday fondlarga: ijtimoiy sug'urta badallari hisobidan tashkil etiladigan pensiya fondi, bandlik fondi, kasaba uyushmalari fondi, davlat mulki qo'mitasi fondlari kiradi.

Davlat budgeti va budgetdan tashqari fondlar makroiqtisodiy fondlar bo'lib davlatning jamlangan (konsolidirovanniy) budgetini tashkil etadi.

**Iqtisodiy kategoriylar funksiyasi** - bu doimiy qaytarilib, uzlusiz harakatda bo'lgan xarakatlarinilikni ifodalaydi. Xarakatlarinilik muhim bo'lganidan kategoriyaning mohiyatini ochib beradi. Funksiyasiz kategoriya, kategoriyasiz funksiya bo'lmaydi. Xarakatlariniliklarni faqatgina anglash mumkin, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Shuning uchun funksiyalar to'g'risida bahs bo'lib turadi.

**Soliqlarning funksiyalari** - bular to'g'risida yagona fikr yo'q. Chunki funksiya abstrakt xarakatlarinilik bo'lganligi uchun har bir iqtisodchi o'zini dunyoqarashiga qarab funksiya to'g'risida fikr yuritadi. Funksiya to'g'risida bahslashuv davom etmoqda. Biz o'z huquqimizdan foydalanib soliqlarning quyidagi funksiyalarini mavjudligini tan olamiz:

xazina (fiskal), qayta taqsimlash, rag`batlantirish, nazorat va harajatlar to`g`risida axborot funksiyalaridir.

**Yalpi ichki mabsulot (YAIM)** - bu ma'lum bir davrda (yil) mamlakat ichida yaratilgan barcha tovarlar va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymatidir.

**Soliq tuzilish tizimi** - bu soliqlarning tashkil qilish uslublari, elementlari va tamoyillari yig`indisidan iboratdir.

**Soliqlarning tasbkil qilish uslublari** – bular o`z navbatida ikkiga bo`linadi: ixchamlashtirilgan va umumiyl tartibda tashkil qilishdir.

Ixchamlashtirilgan soliqlarni tashkil qilish O`zbekiston Respublikasi soliq siyosatida 1998 yildan boshlangan uslubdir. Bunday uslubda tashkil qilingan soliqlarga: kichik korxonalarning yagona solig'i, qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig'i va savdo hamda umumiyl ovqatlanish tashkilotlarining ixchamlashtirilgan soliqlari kiradi

Umumiyl tartibda soliqlarni (ixchamlashmagan) tashkil qilish. Bu usulga ixchamlashtirilmagan soliqlarni tashkil qilish kiradi.

**Soliq elementlari** – bu soliqlarning biron-bir tomonini ko`rsatuvchi qismidir. Soliq elementlariga soliq subyekti, obyekti, stavkasi, imtiyozlari, manbai, yuki (og`irligi) va boshqalar kiradi.

**Soliq subyekti** – bu soliq munosabatlarida qatnashuvchi tomonlardir. Bizning soliq qonunchiligidizda soliq subyekti soliq to`lovchi yuridik va jismoniy shaxslardir. Lekin soliq munosabatlarida albatta bir tomonda davlat (uning nomidan soliq xizmati xodimlari) qatnashadi va u soliqlarni yig`ib o`zining pul fondiga tushunishini nazorat qiladi.

**Soliq obyekti** – bu soliq to`lovchilarning ixtiyorida bo`lgan daromad-lar, mol-mulklar, tovarlar (ishlar, xizmatlar) oborotidir. Soliq kodeksida har bir soliqning o`z obyekti alohida ko`rsatib berilgan.

**Soliq stavkasi** – soliqni hisoblashda qo`llaniladigan me'yor (normadir). U soliq to`lovchining daromadi, mulki, oborotidagi davlatning hissasidir. Soliq stavkasi Respubliamiz soliq qonunchiligidagi proporsional, progressiv, nolli va qisman regressiv stavka turlariga bo`linadi.

**Soliq imtiyozlari** - bu soliqlardan qisman, to`liq, vaqtinchalik yengil-liklar berish va soliq bazasini kamaytirish yo`li bilan imtiyozlar berishni ifoda etadi.

**Soliq manbai**. Soliq nimadan to`lansa, o`sha narsa soliq manbai bo`la oladi. To`g`ri soliqlarda soliq manbai daromadlardir. Egri

soliqlarda esa manbai tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish oboroti tushumi bo`ladi.

**Proporsional soliq stavkasi** - bunda stavka o`zgarmasdan daromad, oborot, harajat oshgan taqdirda ham stavka proporsiyasi o`zgarmaydi.

**Progressiv soliq stavkasi** - bu stavkada daromad yoki boshqa obyekt qiymati oshib borishi bilan birga soliq stavkasi ham oshib boradi. Masalan bizning soliq qonunchiligidan jismoniy shaxslarning daromadiga soliq bo`yicha shunday stavka qo`llaniladi.

**Regressiv stavka** - bu soliq stavkasida daromad oshishi bilan yoki soliq obyekti o`zgarishi bilan soliq stavkasi kamayib boradi.

**Soliq deklaratsiyasi** - bu soliq to`lovchilarining soliq idoralariga o`zlarining jami olgan daromadi, qilgan harajatlarit va qonun bo`yicha soliq-dan imtiyozlarini ko`rsatuvchi yozma ravishda berilgan hujjat – bayonnomadir. Bu hujjat soliqni hisoblash uchun soliq to`lovchilar tomonidan davlat soliq xizmati idoralariga har yili 1 apreldan kechiktirmay topshiriladi.

**Davlatning soliq siyosati** - bu soliq sohasidagi davlatning aniq mo`ljal-langan huquqiy me'yorlar va amalga oshirib borayotgan chora-tadbirlari yig`indisidir. Soliq siyosatida ham davlat islohotlarni astasekin, bosqichma-bosqich olib bormoqda.

**Soliq strategiyasi** - bu davlatning uzoq yillarga mo`ljallangan soliq sohasidagi yo`nalishlar yig`indisidir. Bu strategiya odatda 5,10,15 yillarga mo`ljallab tuzilgan konsepsiylar yig`indisi shaklida tashkil topadi.

**Soliq taktikasi** - bu davlatning soliq strategiyasini ma'lum qisqa muddatlarda (chorak, yil) hayotga tadbiq qilish chora-tadbirlaridir.

**Yuridik shaxslar** - bu o`z mulkiga ega bo`lgan va o`z majburiyatlarini shu mulklar bilan bajaradigan, soliq idoralarida ro`yxatdan o`tgan, bankda hisob schetiga, mustaqil buxgalteriya balansiga ega bo`lgan korxonalar, tashki-lot, birlashma va ularning mustaqil shahobchalariga aytildi.

**Soliq to`lovchilarining indefifikatsion raqami (STIR)** - soliq to`lov-chining soliq idoralaridan ro`yxatdan o`tganligini ko`rsatuvchi dalildir.

**Rezidentlar** – O`zbekiston hududida tashkil etilgan va ro`yxatdan o`tgan yuridik shaxslar yoki bosh korxonasi O`zbekistonda joylashgan bo`lib, O`zbekistondan tashqarida ro`yxatdan o`tgan yuridik shaxslardir. Rezidentlar ham O`zbekiston hududida ham chet elda olgan

**daromadlaridan olgan daromadlaridan soliq to'laydilar.**

**Norezidentlar** – O'zbekiston hududida tashkil etilmagan yoki boshqa korxonasi O'zbekistonda joylashmagan yuridik shaxslardir. Norezidentlar faqat O'zbekiston hududida ham chet elda olgan darormadlaridan soliq to'laydilar.

**Soliq qonunchiligi buzilganda qo'llaniladigan jazolar (sanksiyalar)** – bu intizomsiz soliq to'lovchilarga nisbatan soliq qonunchiligi buzilganda beriladigan jazolardir. Ular uch xil bo'ladi: ma'muriy, moliyaviy va jinoiy.

**Soliq hisobi** – bu har chorakda bir marta o'sib boruvchi yakun bilan haqiqiy topilgan daromaddan kelib chiqib tuziladigan va buxgalteriya hiso-boti topshirgan kunda soliq idorasiga topshiriladigan, korxonaning haqiqiy budgetga to'lanishi lozim bo'lgan daromadga solinadigan soliq so'mmasini bildirgan hujjatdir. Yil tugashi bilan yillik soliq hisobi tuziladi va bu hujjat korxona bilan budget o'rtasidagi munosobatlarni oxiriga yetkazadi, ya'ni hisobot davri oxirida kim kimga qarzdorligi qolganligi aniqlanadi.

**Daromadilik darajasi** – savdo va umumiy ovqatlanish korxonasining sof daromadini tovaroborotga nisbati bilan aniqlanadi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

Karimov I.A. Ozod va oboz Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8 - T: O'zbekiston, 2000. – 528 b.

Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li T.11 - T.:O'zbekiston, 2003. – 320 b.

Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimizga va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12 - T.: O'zbekiston, 2004. – 400 b.

Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish. T: O'zbekiston, 2005.- 78 b.

Karimov I.A. Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. – T.: "O'zbekiston", 2005. – 82 b.

Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliv qadriyat. // Xalk so'zi, 2005 yil 10 dekabr.

Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz zarur. // Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.

Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir // Qishloq hayoti, 2007 yil 13 fevral.

Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston Mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'sh-ma majlisi). // "Xalq so'zi". 2007, 31 avgust

### **Normativ-huquqiy xujjalalar**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992 yilda 8 dekabr kabul kilingan. Konstitutsiyaga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zbekiston Respublikasi 28.12.1993 y. 989-XII-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi 24.04.2003 y. 470-II-son Qonuni

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi-ning 1997 yil 24 aprel qonuni bilan tasdiqlangan // O'R OMA, 1997, №4-5 ilovalar. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birgalikda

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 26 dekabr qonuni bilan tasdiqlangan. // O'R OMA ,

1998, 2-son, 36-modda. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birligida

Davlat boji to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 09.12.1992 y. Qonuni // O'R OKA, 1993, №1, 22-m.

Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini undirib olish to'g'ri- sidagi O'zbekiston Respublikasi 22.12.1995 y. Qonuni // O'R OKA, 1995, №12, 267-m.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 30.08.1996 y. Qonuni // O'R OMA, 1996, №9, 142-m.

Davlat soliq xizmati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 29.08.1997 y. Qonuni // O'R OMA, 1997, №9, 232-m.

Boj tarifi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 29.08.1997 y. Qonuni // O'R OMA, 1997, 9-son, 228-modda; O'R OMA, 1998 y. 9-son, 181-modda, 2001 y. 5-son, 89-modda, 2003 y. 1-son, 8-modda, 2004 y. 1-2-son, 18-modda, 5-son, 90-modda

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 24.12.1998 y. Qonuni // O'R OMA, 1999, №1, 8-m.

Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 14.04.1999 y. Qonuni // O'ROMA, 1999, №5, 106-m.

Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 25.05.2000 y. Qonuni // O'R OMA, 2000, №5-6, 140-m.

Budjet tizimi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 14.12.2000 y. Qonuni // O'R OMA, 2001, №1-2, 6-m.

Davlat budjetining g'aznachilik ijrosi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 26.08.2004 y. Qonuni // O'R OMA, 2004 №9, 164-m.

Soliq maslahati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 21.09.2006 y. Qonuni // O'zR QXT, 2006, № 37-38, 375-m.

Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi hamda ularning moliyaviy javobgarligi erkinlashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi 10.10.2006 y. Qonuni // O'zR QXT, 2006, № 41, 405-m.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul massasi o'sishini cheklash va moliya intizomiga rioya etish mas'uliyatini oshirish chora-

tadbirlari to`g`risida”gi 2002 yil 30 mart Farmoni // O`R QHT, 2002, № 5-6, 38-modda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Savdo va umumiyligini qo`shim-chaga chora-tadbirlar to`g`risida”gi 2002 yil 20 iyun Farmoni // O`R QHT, 2002, № 11-12, 85-modda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasida naqd xorijiy valuta muomalasini tartibga solish borasidagi qo`shim-chaga chora-tadbirlar to`g`risida”gi 2002 yil 27 iyun Farmoni // O`R QHT, 2002, № 11-12, 89-modda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratasiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 2002 yil 5 sentabr Farmoni // O`R QHT, 2002, № 17-18, 131-modda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ulgurji savdo korxonalarini soliqqa tortishni takomillashtirish to`g`risida”gi 2003 yil 4 fevral Farmoni // O`R QHT, 2003, № 3, 21-modda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Savdo va umumiyligini qo`shim-chaga chora-tadbirlar to`g`risida”gi 2003 yil 30 iyun Farmoni // O`R QHT, 2003, № 12, 91-modda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish to`g`risida”gi 2003 yil 23 dekabr Farmoni // O`R QHT, 2003, № 24, 237-modda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo`nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 2005 yil 14 iyun Farmoni // O`R QHT, 2005, № 23-24, 166-modda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2005 yil 14 iyun Farmoni // O`R QHT, 2005, № 23-24, 167-modda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniyligini talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to`g`risida” 2005 yil 15 iyun Qarori // O`R QHT, 2005, № 23-24, 168-modda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ulgurji va chakana savdoni liberallashtirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 2006 yil 23 fevral Qarori // O'R QHT, 2006, № 8, 49-modda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Avtomobil transportida yo'lovchilar tashish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining alohida turlarini amalga oshirishni tartibga solish to'g'risida" 2006 yil 9 mart Qarori // O'R QHT, 2006, № 10, 76-modda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 16 mart Qarori // O'R QHT, 2007, № 12, 107-modda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2007 yil 27 aprel Qarori // O'R QHT, 2007, № 17-18, 179-modda

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Valuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 22.06.2001 y. Qarori // O'R QHT, 2001, № 12, 78-modda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nazorat-kassa mashinalaridan foydalanishda javobgarlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2003 yil 23 may Qarori // O'R QHT, 2003, № 9-10, 78-modda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning xarajatlarini hisobga olish va moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 2003 yil 15 oktabr Qarori // O'R QHT, 2003, № 19, 183-modda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valutasini olib kirish va olib chiqishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2004 yil 25 fevral Qarori // O'R QHT, 2004, № 8, 96-modda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2004 yil 24 sentabr Qarori // O'R QHT, 2004, № 38-39, 425-modda.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan yalpi daromad solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida Nizom (O'zR MV 76-son, DSK 2003-62-son, 07.07.2003 y. Qarori bilan

tasdiqlangan, O'zR AV tomonidan 21.07.2003 y. 1260-son bilan ro'yxatga olingan)

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning daromadidan qatiy belgilangan xajmlarda olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida Nizom (yangi taxrilda) (O'zR MV 37-son, DSK 2003-33-son 26.02.2003 y. qarori bilan tasdiqlangan, O'zR AV tomonidan 03.04.2003 y. 1230-son bilan ro'yxatga olingan)

Budjetdan tashkari Pensiya jamg'armasiga Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar va ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomha (O'zR AV 16.03.2001 y. 1018-son bilan ro'yxatga olingan DSK, MB, MV va MAIMKV qaroriga ilova)

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonil-g'isi va suyultirilgan gaz iste'moliga soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomha (O'zR AV 03.01.2002 y. 1092-son bilan ro'yxatga olingan, O'zR MV 2-son, DSK 2002-1-son Qaroriga ilova)

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomha ( O'zR AV 15.02.2002 y. 1098-son bilan ro'yx. olin., O'zR MV 14.01.2002 y.6-son va O'zR DSK 2002-10-son Qarori bilan tasdiqlangan)

O'zR AV 05.03.2002y. №1101 ro'yxatga olingan, Tasdiqlangan 15.01.2002y. Moliya Vazirligi №17 va DBK №02/8-1 Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zR hududiga olib kiriladigan aloxida turdag'i tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomha.

Yuridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomha (O'zR AV 11.03.2002y. №1107 son bilan ro'yxatga olingan, DSK 22.01.2002y. № 2002-13 va Moliya Vazirligi 22.01.2002y. №25 sonlari bilan tasdiqlangan)

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomha (O'zR AV 15.02.2002 y. 1100-son bilan ro'yx. olin. O'zR MV va DSK Qarori bilan tasdiqlangan)

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomha (O'zR AV

tomonidan 05.03.2002 y. 1103-soni bilan ro'yx. olin., MVning 16-son, DSK-ning 2002-19-soni qaroriga ilova)

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan aksiz solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomalar (yangi taxriri) (O'zR AV 11.03.2002 y. 1106-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV 14.01.2002 y. 11-son va O'zR DSK 2002-14-son Qaroriga ilova)

O'zbekiston Respublikasi hududiga import kilinadigan ishlari, xizmatlarga nisbatan ko'shilgan kiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomalar (O'zR AV tomonidan 15.04.2002 y., 1123 soni bilan ro'yxatga olingan, O'zR MV 26-son, O'zR DSK 2002-24-son qarori)

Yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)ga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalar (yangi taxrirda). (Ro'yxatga olingan O'zR AV 13.03.2002y. №1109, Tasdiqlangan 14.01.2002y. DSK №2002-12, Moliya Vazirligi №15)

Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomalar (O'zR AV tomonidan 14.03.2002 yil 1110 soni bilan ro'yx. olin., O'zR MVning 10-son, O'zR DSKning 2000-16-son qaroriga ilova)

Yer solig'i hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomalar (O'zR AV tomonidan 27.03.2002 y. 1118 soni bilan ro'yxatga olingan, O'zR MVning 19-son, DSKning 2002-20-soni qarori ilova)

Ko'shni davlatlar hududidan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan uchinchi mamlakatlarda ishlab chiqarilgan va tijorat faoliyatini uchun reeks-port kilingan noozik-ovqat iste'mol tovarlarini import qilishga yig'imlarni undirish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zR AV 27.01.2003 y. 1210-son bilan ro'yxatga olingan, O'zR MV 29.12.2002 y. 142-son, O'zR TIAA SHA-01/12-249-son va O'zR DBK 01-02/8-51-son Qarori bilan tasdiqlangan)

Maxalliy soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomalar (O'zR MV 28-son, O'zR DSK 2003-23-son 05.02.2003 y. qarori bilan tasdiqlangan, O'zR AV tomonidan 16.02.2003 y. 1217-son bilan ro'yx. olin.)

Ishlab chiqariladigan va sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha ko'shilgan kiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomalar (yangi taxrirda) (O'zR MV 43-son, DSK 203-

37-son 07.03.2003 y. qarori bilan tasdiqlangan, O'zR AV tomonidan 29.04.2003 y. 1238-son bilan ro'yxatga olingen)

O'zR Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'larini shakkllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR VM 02.04.2003 y. 173-son Qaroriga I-ilova)

Boj-tarif bilan tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (O'zR VM 07.01.2004 y. 4-son Qarori)

Yagona bojxona bojini undirish va uni summasini Davlat budgetiga o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom (O'zR MV 2002 yil 31 maydag'i 63-son, Davlat bojxona ko'mitasi 02/8-14-sonli va Tashki iktisodiy alokalar vazirligining 2261-sonli Qarori bilan tasdiqlangan, AV tomonidan 2002 yil 10 iyundagi 1148-son bilan ro'yxatga olingen)

Yagona ijtimoiy to'lovni hamda davlat ijtimoiy sug'urtasiga majburiy badallar va ajratmalarni hisoblash, to'lash va taqsimlash to'g'risida NIZOM. Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy Muhofaza qilish vazirligi, Davlat soliq qo'mitasasi va Markaziy bank boshqaruvinga 2004 yil 25 fevraldag'i 35, 74, 2004-24, 245-v-son Qarori bilan tasdiqlangan.

Yagona soliq to'lovini hisoblab chiqish va to'lash to'g'risida Nizom. O'zR Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2005 yil 2 avgustdag'i 69, 2005-45-son qarori bilan tasdiqlangan.

### **Asosiy adabiyotlar**

Dmitriyenko T.M., Chaadayev S.G. Sudebnaya (pravovaya) buxgal-teriya. Uchebnik. - M.: Prospekt, 1998.- 288 s.

Li A.O'zbekiston Respublikasining moliya huquqi. Darslik. / Mas'ul muharrir: M.H.Rustamboyev. - T.: TDYUI, 2004. - 398 b.

Nalogovye sistemi zarubejnix stran: Uchebnik//Pod red. V.G.Knazeva, D.G. Chernika. - M.: Zakon i pravo, YUNITI, 1997.- 264 s.

Nalogovoye pravo: Uchebnik // Pod red. S.G.Pepelyayeva.- M.: Jurist', 2003.- 591 s.

Pravovie osnovi buxgalterskogo ucheta i auditorskoy deyatelnosti: Uchebnik / Otv.red. S.G.Chaadayev.-M.: Jurist', 1999.- 398 s.

Finansovoye pravo: Uchebnik // Otv. red. YE.YU.Gracheva, G.P.Tolstopyatko.-M.: Prospekt, 2003.-536s.

Xvan L.B. Soliq huquqi. Darslik. - T.: Konsauditinform, 2001.- 432 b.

Arutyunyan G.V. Pravovoye regulirovaniye tamojennix platejey: Uchebnoye posobiye.-M.: Yurisprudensiya, 2000.- 112 s.

Dernberg R.L. Mejdunarodnoye nalogoooblojeniye: Kratkiy kurs.- M.:Yuniti,1997.-375 s.

Kucherov I.I. Nalogovoye pravo zarubejnix stran: Kurs leksiy.-M.: AO "Sentr YurlInfoR", 2003.- 374 s.

Nalogi i nalogovoye pravo: Uchebnoye posobiye // Pod red. Brizgalina A.V. - M.: Analitika-Press, 1998. – 608 s.

Nalogi i nalogovoye pravo: Praktikum // Pod red. Brizgalina A.V. - M.: Analitika-Press, 1998. – 88 s.

Nalogoviy kontrol: nalogovie proverki i proizvodstvo po faktam nalogovix pravonarusheniy: Uchebnoye posobiye // Pod red.Y.U.F.Kvashi. - M.: Yurist', 2001.- 540 s.

Pushkareva V.M. Istorya finansovoy misli i politiki nalogov: Uchebnoye posobiye. - M.: INFRA-M, 1996. – 186 s.

Strelnikov V.V. Pravovoy rejim peni v nalogovom prave: uchebnoye posobiye. - M.: Statut, 2004. – 155 s.

Li A.A., Xvan L.B., Xoziyev E. Nalogovoye pravo. Uchebnaya programma. – T.: TGYU, 2005. – 16 s.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

Bakayeva O.YU. Tamojennie fiskalnie doxodi: pravovoye regulirovaniye.-M.: Statut, 2005. – 187 s.

Verxovenstvo zakona v sfere publichno-pravovix otnosheniy. Smej-nie yuridicheskiye professii.-Tashkent: izd-vo TashGYUI, 2005. – 339 s.

Vidi nalogovix pravonarusheniy: teoriya i praktika primeneniya // Pod red. Vinnitskiy D.V. Rossiyskoye nalogovoye pravo: problemi teorii i praktiki.-SPb.: Izdatelstvo "Yuridicheskiy sentr Press", 2003.- 397 c.

KashinV.A. Nalogovie soglasheniya Rossii. Mejdunarodnoye nalogovoye planirovaniye dlya predpriyatiya.-M.: Finansi. YUNITI, 1998.- 383 s.

Li.A.A. Pravovoye obespecheniye nalogovoy politiki i voprosi povisheniya yego effektivnosti na sovremennom etape. // Materiali mejduna-rodnogo kruglogo stola 18 aprelya 2005 goda. «Problemi sovershenstvo-vaniya nalogovogo zakonodatelstva v RU» T., 2005. - 5-10 s.

Li A.A, Pravovoye znacheniye elementov zakona o naloge i voprosi ix zakrepleniya v Nalegovom kodekse.// Materiali respublikanskoy konferensii. T., 2005.-53-59 s.

Li V. Problemi unitifikatsii sistemi Igot po nalogu na pribil (doxod). // J. Bozor, pul va kredit. – 2004. – № 4. – S. 26-32.

Nalegovoye konsultirovaniye v Uzbekistane: problemi stanovleniya i perspektivi razvitiya.-Tashkent, 2003. - 200 s.

Pravovie pozitsii Konstitutsionnogo Suda Rossiyskoy Federatsii: Uchebnoye posobiye.-M.: FBK-PRESS, 1998.- 592 s.

Pepelyayev S.G. Nalogi: reformi i praktika.-M.: Statut, 2005.–287 s.

Problemi sovershenstvovaniya nalogovogo zakonodatelstva v Respublike Uzbekistan.-Tashkent: izd-vo TashGYUI, 2005. – 208 s.

Solik siyesatini yanada takomillashtirish – prinsipial muxim ustuvor vazifa. 27-28 maya 2005g. / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya material-lari.- Tashkent, 2005. – 288 b.

Tolstopyatenco G.P. Yevropeyskoye nalogovoye pravo.-M.: NORMA, 2001.- 336 s.

Radjabov B.E. Soliqlarning mohiyati va ularning davlatdagi roli. // J. Davlat va huquq. – 2003. – № 2. – B. 23-26.

Radjabov B.E. Osobennosti sostava prestupleniya v nalogovom prave.T.; Davlat soliq ko'mitasi Soliq akademiyasi.- 2005.- B.130-133.

Radjabov B.E. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini huquqiy tartibga solish.// J. Axborotnoma № 2 . 2006.- B.45-46.

Xoziyev E. Moliyaviy sanksiyalar. // J. Qonun himoyasida. – 2001. – №9. – B. 28-34.

Xoziyev E. O'zbekiston Respublikasida soliq nazorati. // J. Davlat va huquq. – 2003. - № 2 (14). – B.27-29

XoziyevE, Xoziyev T. Soliq qonun hujjatlarini buzishning oldini olish. // J. Davlat va huquq. – 2004. – № 6. – B. 33-35.

Xoziyev E. Soliq haqida nimani bilasiz? // Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDYUI, 2006. – 130 b.

Informatsiya iz interneta: [www.uzlaw.net](http://www.uzlaw.net) <http://www.gov.uz>,  
<http://www.solia.org/>, <http://www.mf.uz/>, [www.pgplaw.ru](http://www.pgplaw.ru),  
[www.fbk.ru](http://www.fbk.ru), [www.nalog.ru](http://www.nalog.ru), [www.cnfp.ru](http://www.cnfp.ru), [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

Бичими: 84x60  $\frac{1}{16}$ . «Times New Roman» гарнитураси.  
Ракамли босма усулда босилди.  
Шартли босма табоги: 14,5. Адади 50. Буюртма № 18/21.

Гувохнома № 851684.  
«Tipograff» МЧЖ босмахонасида чоп этилган.  
Босмахона манзили: 100011, Ташкент ш., Беруний кўчаси, 83-Уй.



ISBN 978-9943-7989-1-5

A standard barcode for the ISBN 978-9943-7989-1-5.

9 789943 798915